

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**I.YO‘LDOSHEV, S. MUHAMEDOVA,  
Z. XOLMANOVA, R.MAJIDOVA, Sh.SULTONOVA**

**MUTAXASSISLIKKA KIRISH**

**(Tilshunoslikka kirish)**

Bakalavriat yo‘nalishi: 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti

5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

**Toshkent - 2020**

“Mutaxassislikka kirish” fanidan yozilgan ushbu darslikda til nazariyasiga oid materiallar berilgan. Unda “Mutaxassislikka kirish” fani, uning mundarijasi, maqsadi, vazifasi va ahamiyati”, “Tillarning shakllanishi va rivojlanishi”, “Til – eng muhim muloqot vositasi”, “Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan bog’liqligi”, “Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan bog’liqligi”, “Til tizimi va унинг taraqqiyot qonuniyatlari”, “Til va tafakkur munosabati”, Til va madaniyat munosabati”, “Yozuv kishilik madaniy taraqqiyoti mahsuli sifatida”, “Til – belgilar tizimi”, “Tilshunoslik va uning bo’limlari. Fonetika va fonologiya”, “Tilning lug’at sathi. Leksikologiya va leksikografiya”, “Grammatika va uning bo’limlari. Morfologiya va sintaksis”, “Dunyo tillarining genealogik tasnifi. Til oilalari”, “Morfologik tasnif. Agglyutinativ va flektiv tillar”, “Lingvistika turlari va lingvistik metodlar haqida boshlang’ich ma’lumotlar”, “Tilshunoslik va boshqa fanlar integratsiyasi” kabi mavzular tilshunoslikdagi so‘nggi yutuqlar va nazariy fikrlar asosda yoritib berilgan.

Darslik oliy ta’lim muassasalari filologiya fakulteti bakalavr yo‘nalishi talabalari, shuningdek, tilshunoslik ilmi bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

**Mas’ul muharrir:** filologiya fanlari doktori, professor

R.Rasulov

**Taqrizchilar:** filologiya fanlari doktori, professor

B. Mengliyev

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

A.Ubaydullayev

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil 24-avgustdagi 603 -sonli buyrug‘iga asosan darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.

## SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 14-yanvar kuni Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizning 2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika Hukumatining 2017-yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag‘ishlangan kengaytirilgan majlisda qilgan ma‘ruzasida: “Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon tsivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o‘rgatish vazifalari hali sifatli va to‘liq holda yechilgani yo‘q. Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta‘lim olish, ma‘naviy-ma‘rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur” –deb ta‘kidladilar.

Mazkur darslikni ushbu yo‘ldagi izlanishlardan biri sifatida baholash mumkin. Shunga ko‘ra darslik OTMning O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabalari uchun «Mutaxassislikka kirish» fani dasturi asosida yaratildi.

Darslikni yozishda mualliflar M.Irisqulovning “Tilshunoslikka kirish”, A.Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”, N.Mahmudovning “Til”, “Til va yozuv”, “Ma‘rifat manzillari”, T.Bushuy, Sh.Safarovlarning ”Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi”, H.Jamolxonovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, M.Mirtojiyevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” va “O‘zbek tili semasiologiyasi”, R.Rasulovning “Umumiy tilshunoslik (OTM uchun darslik)” nomli kitoblaridan unumli foydalanishdi. Shu bois mualliflar ularga o‘z minnatdorchiliklarini bildirishadi.

## 1-§. “Mutaxassislikka kirish” fanining o‘rganish obyekti, maqsad va vazifasi. Til murakkab mohiyat sifatida

“Mutaxassislikka kirish” fani tilshunoslikning asosiy masalalarini, tilning paydo bo‘lishi, til taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarni, til tavsifi va tillar tasnifidagi muhim jihatlarni o‘rganadi.

“Mutaxassislikka kirish” fanining asosiy maqsadi tilshunoslik fani, uning bo‘limlari, o‘rganish obyekti, boshqa fanlar bilan aloqasi haqida ma’lumot berish, talabalarni tilshunoslik fanining asosiy tushunchalari, kategoriyalari haqidagi bilimlar bilan tanishtirish, talabalarda olingan bilimlarni amalda qo‘llay olish malakasini shakllantirish kabilardan iborat.

Ushbu fanning vazifalari til va jamiyat, til tizimi va tuzilishi, uning sathlari, birliklari va ularning namoyon bo‘lish qonuniyatlari, tilshunoslik fanining boshqa tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan aloqasi, dunyo tillarining tasnifi kabi nazariy bilimlar berishdan iboratdir.

“Mutaxassislikka kirish” fani talabalarga dastlabki umumlingvistik bilimlarni beradi, ularni tilning jamiyat hayotidagi ahamiyati, tilshunoslikning ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan aloqasi, tilshunoslikning nazariy masalalari, tillarning tipolik va genealogik tasnifi kabilarni bilan tanishtiradi. Mazkur fan talabalarda muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etish, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirish, o‘z nuqtai nazarini ilmiy asoslab berish va bulardan amaliy masalalarni echishda foydalana olish kabi malaka va ko‘nikmalarni hosil qilishga xizmat qiladi.

Tilshunoslik fanining predmeti, o‘rganish manbai, o‘z ichki qonuniyatlariga ega bo‘lgan murakkab tizim – tildir. Tilshunoslik til haqidagi mustaqil va aniq fan bo‘lib, tilning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot jarayonlari va qonuniyatlarini ilmiy asosda o‘rganadi. “Mutaxassislikka kirish” fani til haqidagi fanlarning asosiy masalalarini o‘rganadi, shu bois, bunday bilimlarga ega bo‘lmasdan uning ayrim bo‘limlarini to‘liq tasavvur qilish mumkin emas. Tilni tilshunoslikdan tashqari

falsafa, mantiq kabi boshqa fanlar ham o'rganadi. Til va jamiyat taraqqiyoti bog'liqligi tufayli tilni sotsiologlar ham o'rganadilar. Tilshunoslar ham tarix, etnografiya, psixologiya, antropologiya, matematika, geografiya, fizika kabi fanlarga oid materiallar va xulosalardan foydalanadilar.

Dunyoda tilshunoslik borasidagi ilk qadamlar insonlar o'rtasidagi muloqotga bo'lgan zaruriyat sezilgan davrlardan e'tiboran qo'yilgan, desak xato bo'lmaydi. Tilshunoslik fani eng uzoq tarixga ega bo'lgan fanlar sirasiga kiradi. U eramizdan bir necha yuz yillar avval qadimgi Hindiston va qadimgi Yunoniston (Gretsiya)da taraqqiy eta boshlagan. Qadimgi Yunoniston olim va faylasuflari o'rtasida so'z va tushuncha munosabati masalalari bir qator bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Bularning natijasi o'laroq olib borilgan tahlillar, kuzatishlar pirovardida tilning so'z boyligi, so'zlarning paydo bo'lishi haqidagi dastlabki nazariy fikrlarga asos solindi.

XIX asrning birinchi yarmida tilshunoslik sohasida juda katta marralarga erishildi. Xususan, bu davrda tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod shakllandi va unga hamohang tarzda til haqidagi fan ham qiyosiy-tarixiy tilshunoslik fani deb yuritila boshlandi. Bu davrda Yevropa tillarining sanskrit (qadimgi hind) tili bilan uzviy bog'lanishi borligini sezgan holda bu tillarning o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik taraflari jiddiy o'rganila boshlandi. Ayniqsa, tillarni qiyosiy-tarixiy o'rganish borasida nemis olimlari Frans Bopp (1791-1867), Yakob Grimm (1785-1863), daniyalik olim Rasmus Rask (1787-1832), rus olimi Aleksandr Vostokov (1781-1864), chex olimi Dobrovskiy (1753-1829) kabilarning xizmatlari katta bo'ldi. Qiziqarli tarafi shuki, mazkur olimlar bir-birlariga bog'liq bo'lmagan holatda va bir davrning o'zida tillarni qiyosiy-tarixiy jihatdan o'rganish metodi, g'oyasi va tamoyillarini ishlab chiqish borasida bir nuqtada uchrashdilar.

1818-yilda F.Boppning «Sanskrit tilining yunon, lotin, fors va german tillariga qiyosan tuslanish sistemasi haqida» nomli asari chop etildi. Unda F.Bopp mazkur tillarning morfologik tuzilishini ko'rsatib bergan. Qolaversa, u hind-evropa tillarining ko'p jihatdan mushtaraklikka ega bo'lganligini, xususan, grammatik qurilishini bir

xilda ekanligini, bu tillarning bir o‘zak tildan kelib chiqqanligini asoslab bergan. Xuddi shu yili R.Raskning «Qadimgi shimoliy til yoki island tilining kelib chiqishiga oid tadqiqotlar» nomli ilmiy ishi e‘lon qilindi. R.Rask ham o‘z asarida tillarning yaqinligini va o‘xshashligini aniqlashda ularning grammatik qurilishi, tovushlarning bir-biriga mos kelishi kabi holatlar asos bo‘lishini ta’kidlaydi. 1819-yilda Ya.Grimmning «Nemis grammatikasi» nomli asarining birinchi jildi dunyo yuzini ko‘rdi. 1920-yilda A.Vostokov qalamiga mansub «Slavyan tili haqida mulohazalar» nomli ilmiy asar chop etildi. E‘lon qilingan bu ishlarda insoniyat tillarini yangi usul – tarixiy nuqtayi nazardan o‘rganish metodi boshlab berildi.

Tilshunoslik fanining predmetini aniqlash va uni ta’riflashga intilgan F. de Sossyurning qarashlari tilshunoslik tarixidagi muhim masalalarni hal qilishga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. F.de Sossyurning fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan **vazifasiga ko‘ra aloqa quroli, fikr ifodalash vositasidir**; ijtimoiy tabiati jihatidan til **madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisa**, ichki tuzilishiga ko‘ra sof **belgi – ishoralar tizimidir**.

Umuman, tilshunoslik fanining taraqqiyotiga IV asrda yashagan hind olimi Panini, grek tilshunoslari Demokrit, Epikur, Geraklit, Mahmud Koshg‘ariy, Zamaxshariy, Alisher Navoiy, yevropalik olimlar Vilgelm fon Gumboldt, Ferdinand de Sossyur, Grosse, Boduen de Kurtene, N.V.Krushevskiy kabi olimlar muhim hissa qo‘shganlar.

### **Tilning mohiyati. Tilning mohiyati haqidagi qarashlar**

Tilshunoslik tarixida tilning mohiyati haqida ikki qarama-qarshi fikr o‘rtasida kurash borgan. Bular:

1. Avgust Shleyxer (XIX asr) asos solgan tilning tabiiyligi haqidagi fikr. Bu g‘oyaga binoan til paydo bo‘ladi, rivojlanadi, kezi kelganda yo‘q bo‘ladi, o‘ladi. Bu fikrni olimlar quyidagicha dalillaydilar: lotin, sanskrit tillari o‘lik tillar hisoblanadi, bu tillar o‘ziga xos shakllanish, rivojlanish va tanazzul davrlarini boshdan kechirgan.

2. Materialistik tilshunoslik til tabiiy hodisadir, degan g'oyani rad etadi. Tilning paydo bo'lishi va taraqqiyoti insoniyat jamiyati bilan uzviy bog'langan. Jamiyatdan tashqarida yashagan inson bolasi gapirmaydi. Irsiyat qonuniga tilning aloqasi yo'q. Masalan, o'zbek oilasida rus millatiga mansub bola tarbiyalansa, o'zbek tilida gapiradi. Demak, til ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyotidagi mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til jamiyat bilan paydo bo'lganidek, jamiyat bilan birga o'ladi.

Til – insoniyatning eng muhim aloqa vositasi. Aloqa boshqa vositalar bilan ham o'rnatilishi mumkin: Morze alifbosi, imo–ishora va boshqalar. Masalan, Afrikada uzoq masofaga axborot yetkazish uchun qo'llanadigan nog'ora tovushlari, Kanar orollarida ishlatiladigan “xushtak tili” shular jumlasidandir. Boshqa aloqa vositalari tilga nisbatan yordamchi, ikkinchi darajalidir. Til va boshqa aloqa vositalarini birlashtiruvchi xususiyatlar quyidagilar:

- fikr va hissiyotni ifodalashi;
- ijtimoiyligi, chunki jamiyat tomonidan yaratilib, unga xizmat qilishi;
- moddiyligi (tovush to'lqinlari, grafik chizmalar...);
- obyektiv borliqni aks ettirishi.

Ular orasidagi farqlar quyidagilar:

- til fikr va hissiyotlarni ifoda qiluvchi vosita. Inson uni barcha faoliyatida qo'llaydi. Boshqa aloqa vositalarining ishlatilish ko'lami cheklangan, masalan, ko'cha harakati belgilari faqat haydovchilarga xizmat qiladi;

- til quruq axborotning o'zinigina bir shaxsdan ikkinchi shaxsga etkazmasdan, balki gapiruvchining bu axborotga munosabatini, uning xohish-istagi va bahosi, ruhiy holatini aks ettiradi.

- tildan boshqa hamma signal sistemalari sun'iydir, ular inson tomonidan yaratiladi va sharoitga ko'ra o'zgartirilishi mumkin. Sun'iy vositalarni yaratishda hamma odamlar emas, mazkur sohani yaxshi biluvchi kichik bir guruh ishtirok etadi. Til odamlarning istak – xohishiga bog'liq bo'lmaydi, uni jamiyat a'zolari

o'zgartirmaydi. Til asrlar davomida jamiyatga xizmat qiladi. Til va jamiyat doimo bir – birini taqozo etadi. Boshqa signal sistemalari tilga nisbatan ikkilamchi, unga qo'shimcha vosita sifatida namoyon bo'ladi, tilni to'ldiradi.

Til o'ziga xos semiologik sistema (ishoralar sistemasi) bo'lib, jamiyatda asosiy va eng muhim fikr almashish quroli, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta'minlovchi, avloddan–avlodga madaniy–tarixiy an'analarni yetkazuvchi vosita xizmatini o'taydi.

Til va tafakkur chambarchas bog'liq bo'lib, tilsiz fikrni ifodalash sira mumkin bo'lmaganidek, tafakkursiz til o'z ifodasini shakllantira olmaydi. Fikr va so'z munosabati juda murakkab bo'lib, fikr so'zlarda o'z ifodasini topmaguncha, ya'ni so'zlardan tarkib topgan ifoda qolipiga tushmaguncha yuzaga chiqmaydi. Fikrning mohiyatini tashkil etadigan har qanday idrok ham faqat so'zlar vositasi bilangina namoyon bo'ladi. Til va tafakkur faqat kishilargagina xos bo'lib, bosh miyaning moddiylik bilan bog'liqdir. Til va tafakkur bir narsa emas. Tafakkur tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni fikrning ma'lum bir shakliga solib, so'zlar, so'z birikmalari va jumlar orqali ifodalaydi.

Til grammatikaning o'rganish manbai, tafakkur mantiqning o'rganish manbaidir. Til barcha uchun birday xizmat qiladi. Bir tilda gaplashuvchi jamiyat a'zolarining fikrlashlari bir xil bo'lmaydi.

Xullas, tilshunoslik til haqidagi mustaqil fan bo'lib, uning obyekti til hisoblanadi, u tilshunoslikdan tashqari yana bir necha fanlar tomonidan o'rganilishni talab qiladigan murakkab sohadir. Tilning mohiyatini o'rganish va tilshunoslik fanining predmetini aniqlash o'z navbatida tilni o'rganadigan boshqa fanlarning yutuqlarini nazarda tutishni va tilshunoslikning asosiy masalalarini hal qilishda ularni inobatga olishni taqozo etadi. Tilshunoslik boshqa fanlar bilan qanchalik aloqada bo'lmasin, uning o'z tadqiqot obyekti va tadqiqot chegarasi mavjud va mustaqil fan sifatida fanlar sistemasida qat'iy o'rniga ega.



“Mutaxassislikka kirish” fanida til mohiyati, til tizimi, tilning ijtimoiy tabiati, til va jamiyat, til va nutq, til va tafakkur munosabatlari, tillar tasnifi masalalarini tahlil qilish davomida uning amaliy ahamiyati, tillar xilma-xilligi, til o‘zlashtirishda nazariy masallarni bilishning o‘rni borasida ham fikr-mulohazalar bayon etiladi.

*Zero: “Hech bir tilni uning butun lug‘at boyligini yoki gap qurilishini yod olish bilan o‘rganib bo‘lmaydi. Hattoki, biror kishi nazariy jihatdan shakllantirilgan hamma so‘zlarni o‘rgansa ham bu yetarli bo‘lmaydi. Ular o‘rganuvchilar nutq faoliyatining muqobil variantlari bilan tanishmasdan turib muloqotga kirisha olmaydi. Biz biror tilni o‘rganish imkoniyatini yaratadigan boshqa usullarni ko‘rib chiqishimiz lozim. Bu miya faoliyatining muayyan tilni o‘rganish mexanizmi bilan bog‘liq. Yana bir muhim ma‘lumot sifatida shuni qayd etish zarurki, bolalar tilni tez va oson o‘rganishadi. Bola nutqi rivoji yoki til o‘rganish qobiliyati uni o‘rab turgan muhit ta‘siriga bog‘liq.*

*Til o‘rganishning yana bir muhim usullaridan biri kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Fan-texnika rivoji natijasida til o‘rgatish uchun maxsus kompyuter dasurlari yaratildi. Ularda fe‘llar, zamonlar, modal fe‘llar tavsifi va zaruriy gap qoliplari keltirilgan”.<sup>1</sup>*

“Mutaxassislikka kirish” fani umumiy tilshunoslikning muammolarini tushunishga tayyorlaydi va shu bilan birga til haqidagi dastlabki ma‘lumotlarni beradi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. “Mutaxassislikka kirish” fanining maqsadi nimalardan iborat?
2. “Mutaxassislikka kirish” fanining vazifalariga nimalar kiradi?
3. Tilshunoslik fanining eng qadimiy ta‘limotlari va maktablari qayerda yuzaga kelgan?
4. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik qachon vujudga kelgan?
5. Tilshunoslik qachon alohida fan sifatida ajralib chiqdi?

---

<sup>1</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.19

6. Tilshunoslik fanining taraqqiyotiga qaysi olimlar katta hissa qo'shganlar?
7. Tilning mohiyati haqida qanday fikrlar mavjud?
8. Til va boshqa ishoralar sistemasining farqlari nimalardan iborat?
9. Tilshunoslik va ijtimoiy fanlarning aloqasi qanday?
10. Tilshunoslik va tabiiy fanlarning aloqasi haqida nimalarni bilasiz?

### **Asosiy tushunchalar izohi:**

1. "Mutaxassislikka kirish" fani umumiy tilshunoslikning muammolarini tushunishga tayyorlaydi va shu bilan birga til haqidagi dastlabki ma'lumotlarni beradi.
2. Tilshunoslik alohida, mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816) mustaqil fanlar qatoriga qo'shildi.
3. XIX asrning birinchi choragida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik vujudga keldi.
4. Tilning mohiyati uning ijtimoiy hodisa ekanligida ko'rinadi.
5. Tilshunoslik ijtimoiy fanlardan adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, mantiq, psixologiya, sosiologiya; tabiiy fanlardan matematika, kimyo, fizika kabilar bilan uzviy bog'liq fandır.

## **2-§. TILLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI**

**Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar.** Tilning qachon va qayerda paydo bo'lganligi hali aniqlangan emas. Uning paydo bo'lishi masalasi ko'p zamonlardan beri insoniyatni qiziqtirib keladi. Bugunga qadar fanda eng dastlabki til (yoki tillar) qanday tovush yoki so'zlar yig'indisidan iborat bo'lgan, degan savolga aniq javob topilmagan. Ba'zi olimlarning fikricha, eng dastlabki til (tillar) taxminan bundan yarim million yil ilgari paydo bo'lgan. Til taraqqiyotining yozuv paydo bo'lgandan avvalgi holati biz uchun qorong'idir. U davrda qanday tovushlar talaffuz qilingani, ularning bir-biri bilan qay tarzda bog'langani, u so'zlarning qanday ma'nolarni

ifodalagani kabi savollarga javob yo‘q. Albatta, tilning paydo bo‘lish jarayoni juda murakkab bo‘lib, bu masala bilan tilshunoslikdan tashqari antropologiya, psixologiya va etnografiya kabi fanlar ham shug‘ullanadi.

Tilshunoslik tarixidan ma‘lumki, grek faylasuflari ikki xil farazni o‘rtaga tashladilar. Demokrit va boshqalar narsa bilan narsa nomi orasida bog‘lanish yo‘q, til inson tomonidan yaratilgan, degan fikrni ilgari surishadi. Bular anomalistlar deyiladi. Platon boshliq olimlar narsa bilan uning nomi orasida bog‘lanish bor, degan fikrni ilgari surishgan. Bu oqim analogistlar deyiladi.

Hozirgi tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, dastlabki, ya‘ni ilk chog‘lardagi narsa nomi bilan ayni shu narsa orasida bog‘lanish bo‘lmagan. Bunday bo‘lsa, tillarning soni 7000 dan ortib ketmas edi.

Tilning paydo bo‘lishi haqida quyidagicha farazlar mavjud:

**1. *Tovushga taqlid farazi.*** Bunga ko‘ra, ibtidoiy odamlarning turli tovushlarga, hayvon va qushlar ovozigacha, tabiat hodisalariga taqlid qilishi jarayonida so‘z yasalgan (*kukushka, gavkat, miyov...*). Bu faraz noto‘g‘ri faraz, chunki u til va tafakkur birligiga ziddir. ***Til aloqa vositalarining hammasi ichida birinчисidir. Bu uning aloqa uchun xizmat qilishga ixtisoslashganligini bildiradi, ammo mushukning xirillagan ovozi-chi? Ko‘rib turganimizdek, bu kompleks hodisa va uni tushuntirib berish murakkab. Inson tilidagi so‘zlar qandaydir predmetni bildiradi, masalan, dunyodagi narsalar yoki hodisalar.***<sup>2</sup>

**2. *Undovlar farazi ikkinchi farazdir.*** Bu qadimiy faraz bo‘lib, uning asosida odamlar hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlarini o‘rganib, ular orqali o‘zlarining ichki kechinmalari, g‘am-alamlarini ifodalashgan (*oh, uh* kabi). Fransuz olimi Jan Jak Russo ham shu farazni quvvatlagan. Bu faraz ham tilning jamiyat bilan bog‘liqligini inkor etadi. His-tuyg‘ularni bildirish uchun jamiyatning mavjudligi shart emas. Lekin til faqat jamiyat bor joydagina mavjud.

---

<sup>2</sup>Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-P.17

3. *Mehnat chaqiriqlari faraziga* ko'ra, odamlar jamoa bo'lib mehnat qilayotganlarida mehnatni tashkil qilishda foydalanilgan tovushlar asosida til paydo bo'lgan, deb hisoblanadi. Hozirgi zamon olimlarining dalolat berishicha, tilning paydo bo'lishida mehnat chaqiriqlarining daxli yo'q. Bu faraz ham tilning paydo bo'lishini jamiyatning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'lay olmaydi.

4. *Ijtimoiy kelishuv farazining* asosiy kamchiligi, tilning paydo bo'lishini odamning paydo bo'lishi bilan bog'lamasligidir. Lekin bu faraz ham tilning paydo bo'lishini tushuntirishga o'z hissasini qo'shgan.

Sharq tilshunoshgida ham tilning paydo bo'lishiga oid mulohazalar bildirilgan. Jumladan, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari muqaddimasida o'sha davr dunyoqarashiga mos bo'lgan tilning paydo bo'lishiga doir qarashlar bayon qilingan. Alisher Navoiy tilning paydo bo'lishini Nuh alayhissalom avlodlariga bog'laydi: *"Mundin so'ngra uch nav tildurkim, asil va mo'tabardur va ul tillar iborati gavhari bila koyilining ( aytuvchi , so'zlovchi) ajoyib zevar va har qaysining furuyi (shox , daraxtning shoxi ) bag'oyat ko'ptur. Ammo turkiy va forsiy va hindiy asl tillarning manshaidurki (bir narsaning chiqib kelgan manbayi, kelib chiqish joyi, boshlanishi), Nuh payg'ambar... ning uch og'ligtakim , Yofas va Som va Homdur, etishu . Va bu mujmal tafsili budurki , Nuh... toyon Jashviridin (to'lqin , falokat) najot va aning mahlakasidin ( xavf - xatar joyi va vaqti, halokat, xavf - xatar) hayot topti, olam ma'murasida bashar jinsidin osor va inson navidin namudor qolmaydur erdi. Yofasniki, tavorix ahli Abu - t - turk bitirlar, Xito mulkiga yibordi va Somniki, Abu - 1 - furs bitirlar, Eron va Turon mamolikining vasatida ( o'rta , o'rtaliq ) voliy (hokim , hukumdor, podshoh qildi va Homniki, Abu -1 -hind depturiar, Hindiston bilodiq (shaharlar, mamlakatlar) uzatti . Va bu uch payg'ambarzoda avlod va atbol (tobelar , fuqarolar, qaramlar, izdoshlar ) mazkur bolg'an mamolikda yoyildilar va qalin bo'ldilar. Va Yofas o'g'loniki, Abu -t - turkdur, tank ahli ittifoqi (bir fikrga kelish, hammasi degan ma'noda depturlarki, nubuvvat (payg'ambarlik) toji bila sarafroz va risolat (payg'ambarlik, rasullik)*

***mansabi bila qarindoshlaridin mumtoz (saralangan, ajratilganj bo'ldi. Va uch tilki, turkiy va forsiy va hindiy bo'lg'ay. Bu uchovning avlod va atbol orasida shoe bo'ldi . ("Muhokamat ul – lug'atayn"dan) .<sup>3</sup>***

Tilning paydo bo'lishi ma'lum davrlarda mantiqsiz hukmlarga bog'lab tushuntirildi. Lekin bundan qat'iy nazar tilning paydo bo'lishiga doir qarashlarning progressiv ko'rinishlari yuzaga keldi. Mehnat jarayonida odamlar yanada bir–birlariga jipslashib, bir-birlari bilan aloqa qilish zaruriyati paydo bo'ldi. Til mehnat jarayonida yuzaga kelgan va taraqqiy etgan. Til va mehnat asta–sekin miyani rivojlantirib, tafakkurni yuzaga keltirgan. Mehnat, til va ong orasidagi munosabat hozirgacha davom etib kelmoqda. Ushbu faraz boshqa farazlarga nisbatan eng maqbuli hisoblanadi.

**Tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanish qonuniyatlari.** Ibtidoiy jamoada kishilar urug' bo'lib yashaganlar. Bir nechta urug'lar qabilani tashkil qilgan. Bu uyushmalarning o'z tili bo'lgan. Qabilalar ko'payib, tarqala boshlaydi. Uzoqroq hududdagi qarindosh qabilalar bir tilning turli shevalarida so'zlashuvchi qabilalar uyushmasiga birlashadi. Qabila ittifoqlarining umumiy tili bo'ladi, ayrim qabila tillari qabila tiliga nisbatan sheva holatini egallaydi. Qabilalar ittifoqi xalqni tashkil qiladi. Xalqning asosiy belgilaridan biri milliy tilning bo'lishidir. Shevalar, milliy tillar urug'chilik davridan boshlab ko'payib boradi. Shevalardagi farq ortib borib, yangi til paydo bo'ladi. Son o'zgarishi sifat o'zgarishiga olib keladi. Vaqt o'tgan sayin, masofa kengaya borib, yangi tillar paydo bo'ladi. Bu differentsatsiya va integratsiya (farqlanish va mujassamlashuv) hodisasidir. Shevalarning ko'payishi va yangi tillarning paydo bo'lishi tilshunoslikda farqlanish (differentsatsiya) deyiladi, ya'ni tillarning shevalarga ajralishi.

Til butun bir xalqqa xizmat qiladi, sheva esa xalqning bir guruhigagina taalluqli. Til ko'p funksiyalidir, hamma uchun umumiy aloqa vositasidir, ya'ni invariant vositadir. Millatning asosiy belgilari umumiy hudud, umumiy til, umumiy madaniyat

---

<sup>3</sup>Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn.-T., 2010.

birliklaridir. Shu belgilarni o'zida mujassamlashtirgan uyushma millat deyiladi. Bu uyushmaning tili milliy til deyiladi.

Milliy tilning xalq tilidan farqi unda adabiy yozuv shaklining mavjudligidir. Har bir millatning madaniy merosi ana shu tilda o'z aksini topadi. Tilning rivojlanish tarixi jamiyat tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Til taraqqiyotida qo'shni xalqlar o'rtasidagi turli munosabatlar, savdo–sotiq va madaniy aloqalar, urushlar o'z ta'sirini qoldiradi. Bu ba'zi tillarga ko'proq, ba'zilariga kamroq ta'sir etadi. Dunyoda sof tilning o'zi yo'q. Masalan, ingliz tili lug'at boyligining 30 foizi sof ingliz so'zlari bo'lib, qolganlari roman va sharq tillaridan o'zlashgan.

Tilda inqilob bo'lmaydi. Tildagi o'zgarishlar asta-sekin evolyutsion yo'l bilan amalga oshadi. Til taraqqiyotida turg'unlik bo'lmaydi. U doimo rivojlanishda bo'ladi. Har qanday til o'z tarixiy taraqqiyoti davomida lug'at tarkibini ichki va tashqi manbalar hisobiga boyitib, rivojlantirib boradi. Til taraqqiyotining bu umumiy qonuniyati o'zbek tili uchun ham taalluqlidir. O'zbek tili lug'at tarkibining boyishida ichki manbalar muhim manbalarlardan hisoblansa-da, dunyodagi hech bir til faqat o'z ichki manbalarlarigagina tayanib ish ko'rmaganidek, o'zbek tili uchun ham faqat o'z so'zlari, o'z qatlam boyligi va imkoniyatlarigagina kifoya qilmaydi. O'zbek tili lug'at sostavining boyishi va takomillashuvida tashqi manba (resurs) muhim rol o'ynaydi. Umuman, dunyoda hech bir til boshqa tillardan mutloq ajralgan holda rivojlana olmaydi. Shu sababli, har qanday tilning lug'at tarkibida shu til bilan o'zaro aloqada bo'lgan boshqa tillarning elementlari mavjud bo'ladi. Xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar negizida tillararo so'z almashtirish yoki o'zaro so'z o'zlashtirish hodisasi sodir bo'ladi. Chunki xalqlar o'rtasida sodir bo'lgan o'zaro munosabatlar natijasida o'zlashgan moddiy ashyolar va ma'naviy-ma'rifiy tushunchalar bilan birga, o'z navbatida, ularni ifodalovchi leksemalar ham o'zlashadi.

Dunyoning ko'pgina tilshunoslari tillarning o'zaro aloqasi xususida ko'nlab ilmiy izlanishlar olib borishgan. Olib borilgan tadqiqotlarning ko'pchiligida bu masalaga ijtimoiy-tarixiy hamda psixologik nuqtai nazardan yondoshilgan, ya'ni

muayyan bir til tarixini o'rganish orqali mazkur tilning o'z taraqqiyoti davomida tarixning u yoki bu davrida boshqa tillar ta'siriga tushishi va buning natijasida tillar o'rtasida o'zaro so'z almashish hodisasi kuzatilgan. Tabiiyki, tillar o'rtasida o'zaro so'z almashish aloqasining miqdoriy natijalari turli tillarda turlicha bo'ladi. Jahon tillari orasida hech qachon va hech qayerda boshqa tillar ta'siriga tushmagan yoki o'z lug'at boyliklaridan boshqa tillarga bermagan til topilmasa kerak. Shuningdek, hech bir tirik til boshqa bir til bilan o'zaro aloqaga kirishmaslik kafolatini bera olmaydi. Ayniqsa, o'zaro aloqada bo'lgan xalqlarning tillari bir-birlariga ta'sir etishi, bir-birini boyitishi uchun xizmat qilishi, bunday o'zaro ta'sirning leksikada samarali bo'lishi ma'lum fakt. Xalqlarning o'zaro aloqalari, tillarning bir-biriga ta'siri turli davrlarda, turli sharoitlarda o'ziga xos ko'rinishda bo'ladi. Bunday o'zaro ta'sir ayrim davrlarda kuchsiz darajada bo'lsa, boshqa bir davrda sezilarli va samarali tarzda bo'ladi. Shu bilan birga, bunday o'zaro ta'sir ba'zi vaqtlarda stixiyali tarzda bo'lsa, ayrim davrlarda uni ma'lum qonun-qoidalar asosida yo'lga solish, unga insonning faol aralashuvi talab etiladi. Darhaqiqat, turli tarixiy davrlarda o'zbek tili ko'plab boshqa tillar bilan o'zaro aloqada bo'ldi. Shu bois, o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibida qadimgi uyg'ur, so'g'd, xitoy, arab, mo'g'ul, fors-tojik kabi ko'plab tillarning elementlari mavjuddir. Bu tillar o'zbek tili lug'at tarkibiga turli davrlarda, turli darajada, turli yo'llar bilan ta'sir etgan. Shunga ko'ra, o'zbek tiliga o'tgan so'zlarning soni ham turli miqdordadir. Ayni shunday holatni o'zbek tilining barcha terminologik sistemalarida ham to'liq kuzatish mumkin. Quyida o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan va u bilan muomalada bo'lgan tillar mavzusini o'zbek kitobatchilik terminologiyasi misolida yoritib berishga harakat qildik.

Ta'kidlash lozimki, ba'zi turkiy tillarda bo'lganidek, o'zbek kitobatchilik terminologiyasi shakllanishining dastlabki bosqichlarida (XI-XII asrdan XX asr boshlariga qadar) o'zbek adabiy tilining lug'at boyligidan ayni sohaga oid terminlar yaratishda asosiy manba o'laroq etarli darajada foydalanilmagan. Bu yo'nalishda asosiy ustunlikka, birinchi navbatda, arab tili, keyin esa, fors-tojik tili ega bo'lgan.

Shu bois, o‘zbek kitobchilik terminologiyasining shakllanishida arab hamda fors-tojik tillarining o‘rni katta bo‘lgan.

**Arab tilining ta’siri.** O‘zbek tili leksikasida arabcha so‘zlarning mavjudligi o‘tmishda O‘rta Osiyo hududlarining arablar tomonidan egallanishi hamda uning tarixiy-ijtimoiy oqibatlari bilan bog‘liqdir. Sodir bo‘lgan siyosiy hamda ma’naviy o‘zgarishlar mahalliy xalqlar intellektual turmush tarzining barcha sohalariga arab tili va arab madaniyatining kirib kelishiga zamin yaratdi. Buning natijasida, arab tilining keng tarqalishi, bu tilda yozishga, o‘qishga, muomala qilishga va diniy aqidalarni bajarishga to‘g‘ri kelgani mahalliy xalqlarning ma’lum darajada arab tilini egallashiga olib keldi. Bu hol o‘z navbatida o‘zbek-arab ikki tilliligi hodisasini tug‘dirdi. Chunki mahalliy xalq tomonidan arab tili o‘rganilishining yana muhim sabablaridan biri, bizningcha, arablar bilan birga islom dini bilan kirib kelgan muqaddas Qur’oni Karimning arab tilida bo‘lganligidir. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, arab tili o‘zbek tiliga, ba’zi tillardagi (adigey tili, lak tili kabi Dog‘iston xalqlari tillari) singari, faqat islom dini tili sifatidagina emas, balki fan tili, rasmiy idoraviy uslub tili, badiiy adabiyot tili sifatida ham ta’sir etdi. Natijada, mahalliy xalq vakillari o‘z ona tili bilan bir qatorda arab tilida erkin yozadigan va gapira oladigan bo‘ldi. O‘rta osiyolik mashhur olimlar Xorazmiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg‘oniy kabilar o‘z ilmiy asarlarini arab tilida yozganlar.

Turkiy tillarga dastlab diniy, so‘ngra ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy terminologiyaga oid arabizmlar kirib keldi. Arabcha so‘zlar nafaqat turkiy tillarga, balki u bilan doimiy birga yashab kelgan fors-tojik tiliga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Ko‘pgina adabiyotlarda o‘zga tillardan so‘z o‘zlashtirishning asosiy manbai sifatida boshqa tillardan qilingan tarjimalar ko‘rsatiladi. Albatta, bu to‘g‘ri. Kitobchilik sohasida ham arabcha yoki forsha leksik birliklarning o‘zbek tiliga kirib kelishida u tillardan qilingan davlat ahamiyati darajasidagi tarjimalarning o‘rni katta bo‘lgan. Bunday tarjimachilik ishlaridan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad turkiy



xalqlarni Sharqda takomil topgan fan va adabiyot yutuqlari bilan keng tanishtirishdir. Shu maqsadda, asosiy tarjimalar arab va fors tillaridan amalga oshirilgan.

Arabcha soʻzlarning oʻzbek tiliga kirib kelishidagi yana boshqa bir manba bu arab kitobatchilik sanʼatining butun borligʻi bilan turkiy xalqlar, birinchi navbatda, oʻzbek xalqi madaniyatiga kuchli taʼsir etishi bilan bogʻliqdir. Biz bilamizki, arab kitobatchiligi islom dini yoyilishining dastlabki bosqichlarida muqaddas Qurʼoni Karimning koʻchirib tarqatilishiga boʻlgan ehtiyoj natijasida shakllandi va rivoj topdi. Bunday deyishimiz uchun maʼlum bir asoslar bor. Chunki, baʼzi manbalarda yozilishicha, islom dinining paydo boʻlishiga qadar arablar oʻzlarining muayyan bir yozuvlariga ega boʻlmagan. Toʻgʻri, III-IV asrlarga qadar ularda oromiy yozuvining arabcha varianti qoʻllanishda boʻlgan, lekin bu yozuv turi u qadar yoygʻin boʻlmaganligi sababli arab xalqi tarixi va hayotiga oid rivoyat hamda ertaklar, asosan, avloddan avlodga ogʻzaki rusumda etib kelgan. Islom dinining paydo boʻlishi va uning natijasida Arab halifaligining tuzilishi bilan arab xalqining madaniy, siyosiy, iqtisodiy hayotida keskin oʻzgarishlar sodir boʻldi. Uning natijasida arab kitobatchilik madaniyati shu qadar rivoj topdiki, kitobatchilikning asosan qoʻlda bajarilishiga qaramasdan, Oʻrta asr Yevropa madaniyatida ham tasavvur etib boʻlmaydigan darajadagi sifatda va miqdorda qoʻlyozma kitoblar tayyorlandi. Hatto tarixning suronli boʻronlaridan omon qolib, bugungi kunimizga qadar etib kelgan va arab kitobatchilik madaniyatining namunasi boʻlgan oʻsha qimmatbaho xazinaning bir qismi ham yuz minglab jildni tashkil etadi. Demak, arab kitobatchiligining takomili bu sohaga oid arabcha terminlarning tez surʼatlar bilan shakllanishiga turtki boʻldi. Tarixiy vaziyat arab kitobatchilik sanʼati bilan birga unga oid terminlarning oʻzbek tiliga koʻp miqdorda kirib kelishiga katta shart-sharoit yaratib berdi. Bu bilan biz islomiyatga qadar bugungi Oʻzbekiston zaminida kitobatchilik ishi boʻlmagan, deyish fikridan yiroqmiz. Albatta, islomiyatga qadar ham biz yashab turgan hududda fan, madaniyat gullab-yashnagan, lekin ular haqidagi yozma manbalar bizgacha toʻliq etib kelmagan. Baʼzi bir manbalar, xususan, «yunon, arman va suriyalik tarixchi

olimlarning, shuningdek, O'rta Osiyo-Eron eposi materiallari, ulug' mutafakkir Firdavsiyning o'lmas «Shohnoma»si, S.P.Tolstov hamda Y.G'ulomovning arxeologik kuzatishlari natijasida to'plangan materiallarga asoslanib, Xorazm va O'rta Osiyo jahon madaniyati taraqqiyotining qadimiy o'choqlaridan bo'lganligini, hozirgi o'zbeklar, tojiklar va turkmanlarning qadimiy avlodlari yuksak madaniyatga ega bo'lganliklarini bilib olamiz» .<sup>4</sup>

O'rta Osiyoda, xususan, qadimgi O'zbekiston hududida nafis kitob yaratish san'ati XI-XVI asrlarda o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan, desak yanglishmaymiz. Bu davrlarda qo'lyozma asarni ko'chirish, kitobxon didiga uyg'un shaklda bezash, uni juzlash, muqovalash, saqlash kabi jarayonlarni o'z ichiga oluvchi kitobchilik sohasi san'atning maxsus bir yo'nalishiga aylandi. Shuningdek, kitobchilik san'at darajasiga ko'tarilgan soha bo'lishi bilan birga o'zida juda og'ir va murakkab jarayonlarni mujassamlashtirgan edi. Bu ishlarni amalga oshirishda bir necha xil yuksak malakali kasb-hunar egalari ishtirok etib, ular turli xildagi mehnat qurollaridan foydalangan holda faoliyat ko'rsatganlar. Ana shu jarayon, mehnat qurollari, vujudga kelgan kasb-hunar nomlarini ifodalovchi so'zlarning aksariyat qismi bevosita arab tilidan o'zlashtirildi. Shunday holatlar bo'ldiki, ilgari o'zbek tilida faol qo'llanishda bo'lib kelgan ba'zi o'zbekcha (turkiy) so'zlar o'rnini ham arabcha o'zlashmalar egalladi. Masalan, shunday so'zlardan biri arabcha kitob so'zidir. Ma'lumki, qadimgi turkiy tilda «yozuv», «xat», «maktub», «kitob» kabi ma'nolarni ifodalashda asli turkiy bo'lgan *bitig* termini keng qo'llangan. Lekin XV-XVI asrlarga kelib, «muayyan mazmundagi, saralamadagi qo'lyozma matnlarni bir muqova ostida juzlab tikilgan asar» ma'nosini ifodalashda asli turkiy bitig termini o'rnini arabcha kitob termini to'liq egalladi. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, qadimda o'zbeklar yozuv qurollaridan hisoblangan siyohdonni *bitigu* so'zi orqali ifodalashgan. *Bitigu* so'zining etimologiyasi ham *bitig* singari asli turkiy «bitmoq» fe'liga borib taqalishi ma'lum. Keyinchalik *bitigu* termini o'rnini ham arabcha dovot so'zi to'liq egallaydi.

---

<sup>4</sup> **Ahmedov B.** Tarixdan saboqlar. – Toshkent, 1994. – B. 154.

Ma'lum vaqtga qadar bitigu va dovot terminlari parallel tarzda qo'llangan. Keyinchalik arab tili ta'sirida *dovot* turkiy **bitigu** so'zini leksikadan siqib chiqargan. Shuningdek, **bitigu** o'rnida arabcha yana bir termin – mihbara ham *dovot* terminiga sinonim tarzida muomalaga kirib kelgan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida kitobatchilikka oid terminlarni eng ko'p qo'llagan. Navoiyning bu xizmatlari o'zbek kitobatchilik terminologiyasining shakllanishida va taraqqiy etishida muhim omil bo'ldi. Alisher Navoiy asarlari leksikasini o'rganish borasida olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, «Alisher Navoiy asarlarida bu temaga (yozuv va unga bog'liq bo'lgan so'zlar) doir 136 ta so'z qaydlangan. Shulardan faqat bir so'z (turkcha – yozuvning turi) o'zbekcha va bir so'z (navisandalik) forscha-tojikcha va o'zbekcha, yana ikki so'z (mujallidlig', muloliq) o'zbekcha va arabcha morfemalar qo'shilishidan yasalgan. Qolgan barcha so'zlar forscha-tojikcha, arabcha hamda ularning so'z yasovchilari qo'shib kelgan holda uchraydi».<sup>5</sup> B.Bafoyev o'z tadqiqoti natijasi sifatida aytadiki, yozuvga doir terminlarning 81 tasini arabcha, 37 tasini fors-tojikcha terminlar tashkil etadi. Demak, kitobatchilikka oid terminlarning salmoqli qismi arab tilidan o'zlashgan. Albatta, Navoiy qo'llagan bu terminlarning barchasi ham bugungi kunga qadar yashay olmadi. Lekin ularning muayyan qismi bugungi o'zbek kitobatchilik terminologiyasida ma'nolari yo toraygan, yo kengaygan holatlarda qo'llanmoqda.

**Fors-tojik tilining ta'siri.** Ma'lumki, o'zbek xalqi juda qadimdan eroniy tilda so'zlashuvchi aholi bilan birga yashab kelgan, shu jihatdan, ularning madaniy-iqtisodiy turmush tarzida ko'plab mushtaraklik elementlarini uchratamiz. Biz yuqorida aytdikki, jamiyatdagi har qanday o'zgarish, birinchi navbatda, tilda o'z aksini topadi. Demak, o'zbek xalqi turmush tarzidagi bu yaqinlik o'zbek tiliga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Somoniylar sulolasi davrida (IX-X asrlar) arab tili o'rniga «forsiyi dari» yoki forsiy til, ya'ni dariy deb atalgan mahalliy til adabiy til sifatida keng yoyilgan. «Forsiyi dari», ya'ni fors adabiy tiliga Xurosonda yashovchi

---

<sup>5</sup> **Bafoyev B.** Navoiy asarlari leksikasi. –Toshkent: Fan, 1983. – B.150.

tojiklarning soʻzlashuv tili asos boʻlgan. Umuman, Somoniylar hukmronligi davrida fors-tojik tilining nufuzi yanada ortdi. Natijada, forsiy adabiy til arab tilini sheʼriyatdan tamoman siqib chiqardi va u fan, adabiyot va madaniyat tiliga, qolaversa, rasmiy davlat tili darajasiga koʻtarildi. Bularning taʼsirida diniy adabiyotlarga arab tilida yozilgan boʻlsa, fors-tojik tilida dunyoviy adabiyot namunalari yaratildi va u mahalliy turkiy tillarga, ayniqsa, oʻzbek tiliga kuchli taʼsir oʻtkaza oldi. Har ikki tilning oʻzaro hamkorlik qilishi oʻzbek-tojik bilingvizmi hodisasini vujudga keltirgan muhim omil hisoblanadi.

Maʼlumki, tillarning oʻzaro taʼsiri ikki koʻrinishda boʻladi. Birinchisi, tillarning oʻzaro genetik jihatdan yaqinligi nuqtai nazaridan, ikkinchisi, tillar oʻrtasida genetik jihatdan hech qanday aloqalar boʻlmagan holdagi yaqinlik, yaʼni soʻz oʻzlashtirishdir. Ijtimoiy-tarixiy shart-sharoit faqatgina bir tilning ikkinchi tilga taʼsir etish yoʻnalishini belgilab beradi, xolos. Ikki til oʻrtasidagi oʻzaro aloqaning natijalari nafaqat mazkur tilning taraqqiy etishidagi asosiy omil boʻlgan tarixiy sharoitlarga, balki shu til strukturasi oʻziga xos xususiyatlariga ham bogʻliq boʻladi. Oʻzbek tili fors-tojik tilidan har ikki jihatga koʻra ham taʼsirlana oldi.

Hozirgi oʻzbek tili leksikasida anchagina miqdorda forscha-tojikcha soʻzlar boʻlib, oʻzbek tili leksikasida turkiy soʻzlardan keyin miqdor jihatidan ikkinchi oʻrinda turadi. Albatta, aytilgan bu fikrlar umumiy oʻzbek tili leksikasiga tegishlidir. Oʻzbek tilining barcha terminologik sistemalarida bu miqdor koʻrsatkichi bir xilda emas. Masalan, oʻzbek quruvchilik terminologiyasida forscha-tojikcha oʻzlashmalar arabcha oʻzlashmalarga nisbatan koʻp miqdorni tashkil etadi. Lekin oʻzbek kitobchilik terminologiyasida buning tamoman aksini koʻramiz, yaʼni forscha-tojikcha oʻzlashma terminlar arabcha oʻzlashmalarga nisbatan ancha kam miqdorni tashkil etadi. Bu hodisa, ayniqsa, siaxron aspektda yanada yaqqol koʻzga tashlanadi. Chunki, ayni soha terminosistemasida diaxron aspektda sof holda uchrovchi forscha-tojikcha terminlar mavjud boʻlgan boʻlsa, sinxron aspektda (nazm va nasr tilida «maktub» maʼnosida qoʻllanuvchi noma terminidan tashqari) bunday holat deyarli

kuzatilmaydi. Ular aksariyat hollarda forscha-tojikcha affikslar, prefiks va affikslashgan soʻzlar oʻzbekcha yoki arabcha soʻzlar (asos)ga qoʻshilib keladi. Yoki fors-tojik tilida sof arabcha negizlar asosida forscha-tojikcha morfemalar yordamida koʻp miqdorda yangi soʻzlar vujudga keltirildi. Bu soʻzlar poetik nutq, rasmiy yozishmalar tili va ilmiy uslub uchun qulay va zaruriy soʻz va terminlar edi. Oʻzbek tili mana shunday nutqiy vositalarga muhtojlik sezganida buni fors-tojik tilidan oldi. Diaxronik aspektida sof holda uchrovchi forscha-tojikcha oʻzlashmalar (bu terminlarning baʼzilari adabiyotlarda stilistik boʻyoqdorlikni oshirish maqsadida bugun ham muomalada boʻlib turadi): *daftar, kilk, siyoh, fihrast, xoma, xomazan, xomatarosh, iskanja, muhra, nol, noma, nomabar, nomaoro (xushxat kotib), navisanda, xushnavis, nigor (ishlangan rasm, surat, tasvir), nigoranda, nigorish, nigorxona, nishon, roʻznoma, sarnoma, sarsuxan, sheroza* (kitob muqovalarini muqovalashda uni yaxshilab tutib turuvchi ipak tasma; muqova, muqova naqshlari) va boshqalar.

**Rus tili va u orqali Yevropa tillarining taʼsiri.** Maʼlumki, rus tilining oʻzbek tiliga taʼsiri fors-tojik, arab tillariga nisbatan ancha keyingi vaqtlarda sodir boʻla boshlagan. Bu jarayon, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmidan, yaʼni Oʻrta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan istilo etilishidan eʼtiboran boshlandi. Rus tilidan soʻz oʻzlashtirish leksema oʻzlashtirish usulining ikki turiga koʻra, birinchisi, oʻzicha, yaʼni leksemani hech qanday oʻzgarishsiz olish, ikkinchisi, kalkalab olish orqali amalga oshirildi. Dunyo tilshunosligida boshqa tillardan termin oʻzlashtirish masalasiga alohida eʼtibor bilan qaraladi va u doimo tilshunos olimlarning diqqat markazida turibdi. Bu yoʻnalishda koʻplab ilmiy tadqiqot natijalari eʼlon qilinmoqda. Xususan, rus tilshunosi N.V Yushmanov ksenoleksika (yun. *xenos* - oʻzga, begona + yun. *lexikos* - soʻzga oid, lugʻaviy < *lexis* - soʻz, ibora, nutq oʻrami) haqida soʻz yuritib, boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirishni uch turga boʻladi: 1) ksenomaniya (yun. *xenos* - oʻzga, begona + yun. *mania* - aqldan ozganlik; mayl, intilish, hirs qoʻyish, ruju qilish) - oʻzlashmalarga koʻproq eʼtibor bilan qarash; 2) utilitarizm (lot. *utilitas* –

foйда, manfaat) - almashtirish imkoni bo‘lmagan va foydali bo‘lgan o‘zlashmalarni tilda saqlab qolish; 3) purizm (fr. purisme < lat. purus – toza, sof: tilni o‘zga til elementlaridan tozalashga intilish) o‘z so‘zlari bilan almashtirish. Ko‘pgina tilshunoslar zamonaviy terminologlarni «utilitarist» bo‘lishlarini, ya’ni o‘zlashma termin haqida aql bilan ish ko‘rish va unga aniq baho berishni, bunda terminologiyaning eng asosiy tamoyili bo‘lgan sistemalilikka qat’iy amal qilishni tavsiya etadilar.<sup>6</sup> Bizningcha, dunyo taraqqiyotida sodir bo‘layotgan tez o‘zgarishlar davrida bu tamoyilga amal qilish faqat foydadan xoli emas. Buni hozirda dunyoning ko‘pgina tillaridagi aynan o‘zlashgan so‘zlar miqdori ham tasdiqlab turibdi. Ayni shunday holatni turkiy tillar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, turk tilshunosi professor Hamza Zulfiqorning yozishicha, so‘nggi yillarda fan-texnika sohasida sodir bo‘lgan «keskin taraqqiyot natijasida Yevropa tillaridan juda ko‘plab leksik birliklar turk tiliga oqib kelmoqda. Shunga iqror bo‘lishimiz kerakki, o‘z tilimizda yasalgan terminlardan ko‘ra boshqa tillardan olingan so‘z va terminlar miqdori anchagina ko‘pdir. Umuman, terminlar masalasi barcha taraqqiy etgan davlatlarda ham muammo bo‘lib turibdi. G‘arb xalqlari termin yaratishda o‘lik til holiga kelib qolgan lotin va yunon tillari elementlaridan hamda o‘z tillari imkoniyatlaridan samarali foydalanishga harakat qilmoqdalar. Maxsus muassasalar hozir ham termin yaratish ishi bilan jiddiy shug‘ullanmoqdalar. Bizdagi holat tamoman boshqacha. Biz ular tayyorlab bergan so‘z va terminlarni aynan olish yo‘lidan boryapmiz».<sup>7</sup> Bunday holatni dunyoning ko‘plab tillarida ham kuzatish mumkin. Demak, rus tili yoki Yevropa tillaridan aynan termin o‘zlashtirish birgina o‘zbek tili uchun emas, balki dunyoning ko‘pgina tillariga xos bo‘lgan xususiyatdir. Zotan, tillar o‘zaro aloqa qilmasdan taraqqiy eta olmaydi.

---

<sup>6</sup> Суперанская А.В. и др. Общая терминология : Вопросы теории. – М.: Книга, 1989. – С. 213.

<sup>7</sup> Hamza Zulfikar. Терим Сорунлари ве терим уарма уоллари. – Анкара: Турк Дил Куруму уауинлари, 1991. –С.153.

O‘zbek kitobatchilik terminologiyasida rus tili va u orqali Yevropa tillaridan aynan o‘zlashtirilgan terminlar miqdori salmoqlidir. Quyida ularni so‘z o‘zlashtirish usullarining turlariga ko‘ra alohida-alohida ko‘rib chiqamiz.

### **I. Rus tili va u orqali Yevropa tillaridan so‘zlarni asl holicha o‘zlashtirish.**

So‘z o‘zlashtirishning bu usulida bir tildagi so‘z ikkinchi tilga aynan yoki ba’zi bir fonetik o‘zgarishlar bilan qabul qilinadi. Leksemaning bunday usulda o‘zlashtirish hodisasi shu tilda boshqa tildan kirib kelgan fan-texnika yangiligi va unga oid tushunchani ifodalovchi so‘z yoki uni tarjima qilish imkoniyati, zaruriyati bo‘lmagan holatlarda amalga oshiriladi. O‘zbek terminologiyasi, xususan, kitobatchilik terminologiyasida rus tili va u orqali Yevropa tillaridan aynan yoki hech qanday o‘zgarishsiz o‘zlashtirilgan terminlar miqdori anchagina bo‘lib, ular o‘zbek tiliga, asosan, rus tilidan bevosita olingan. Lekin bu leksemalar ichida genetik manbalariga ko‘ra turli tillarga mansub, ya’ni rus tilining o‘zi uchun ham o‘zlashma qatlam hisoblangan lug‘aviy material mavjud. Shuning uchun o‘zbek kitobatchilik terminologiyasidagi mavjud rus tili va u orqali Yevropa tillaridan aynan o‘zlashgan terminlar genetik-etimologik manbaga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

**1. Ruscha terminlar:** *корешок, оттиск, гранка, атлас, завод, полоса* va boshqalar.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘zbek kitobatchilik terminologiyasidagi rus tili va u orqali Yevropa tillaridan o‘zlashgan terminlarni tarixiy-etimologik nuqtai nazardan tahlil qilganimizda rus tilining o‘z so‘zlari nihoyatda kam sonni, asosiy qismini rus tili orqali Yevropa tillaridan o‘zlashgan terminlar tashkil qilar ekan. Ko‘pgina sohalarga oid terminologik leksikalarda inglizcha o‘zlashmalar asosiy o‘rinni egallasa, o‘zbek kitobatchilik terminologiyasida unoncha, qolaversa, lotincha o‘zlashmalar ko‘p miqdorni tashkil etadi. Demak, ayni soha terminologiyasining rus tili materialida ham shu holat mavjuddir. Chunki, o‘zbek tiliga bu o‘zlashmalar rus tili vositasida o‘zlashgan. Rus tiliga Yevropa tillaridan so‘z o‘zlashtirishda ularda rus tili xususiyatlariga uyg‘un shakldagi ma’lum bir fonetik o‘zgarishlar sodir bo‘lgan.

Ularning rus tili orqali o'zicha o'zlashtirishda deyarli o'zgarishsiz olingan. Shu bois ularning o'zbek tilidagi yozilishi va ma'no ko'lami rus tilidagisi bilan aynidir.

**2. Rus tili orqali Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar.** Bularning genetik-etimologik tahlili quyidagi ko'rinishga ega:

**a) grek tilidan rus tili orqali o'zlashgan so'zlar.** Grekcha o'zlashmalarning rus tiliga o'tish jarayoni umumslavyan birligi davridan boshlangan. Keyingi davri VI asrda bo'lib o'tgan Bolqon urushidan keyingi voqealar bilan bog'liqdir. Bunda Vizantiyaning slavyan davlatlarini xristianlashtirishdagi faol ishtiroki g'arbiy slavyan tillariga, undan rus tiliga ko'plab grekcha so'zlarning o'zlashuviga keng yo'l ochdi. Albatta, kitobchilikka oid grekcha termin (so'z)larning rus tiliga o'zlashishi muayyan bir davrni o'z ichiga olmaydi, balki bu jarayon turli davrlarda turlicha bo'lgan. Quyida rus tili orqali o'zlashgan kitobchilikka oid grekcha terminlar tarkibi bilan tanishamiz: *fototipiya* (photos - yorug'lik, nur va typos – namuna, tamg'a, qolip, iz), *tipografiya* (typos – namuna, tamg'a, qolip, iz va grapho – yozaman), *termografiya* (therme - issiq va grapho – yozaman), *stereotipiya* (stereos - qattiq va typos – namuna, tamg'a, qolip, iz), *monotip* (monos - bir va typos – namuna, tamg'a, qolip, iz), *monografiya* (monos - bir va grapho – yozaman), *avtotipiya* (autos o'zim va typos - namuna, tamg'a, qolip, iz), *antologiya* (anthologia - gul terish, tanlash, «anthos» - gul, lego - teraman, tanlayman), *bibliofil* (biblion - kitob va philia - sevgi, muhabbat), *diafaniya* (diaphanes - shaffof), *gektograf hamda gektoografiya* (hekaton - yuz (son) va grapho – yozaman), *geliografiya* (helios - quyosh va grapho – yozaman), *daktilografiya* (daktylos - barmoq va grapho – yozaman), *diazotipiya* (di - ikki hissa (azot) va typos - namuna, tamg'a, qolip, iz), *diazografiya* (di - ikki hissa (azot) va grapho – yozaman), *kserografiya* (xeros - quruq va grapho – yozaman), *kriptografiya* (kryptos - mahfiy va grapho – yozaman), *litografiya* (lithos - tosh va grapho – yozaman), *logogramma* (logos - so'z va gramma - yozuv belgisi), *termografiya* (therme - issiq va grapho – yozaman), *poligrafiya* (polys - ko'p va grapho – yozaman), *paragraf* (asli «paragrapho»dan paragraphos yasalgan – yonidan yozaman:



kitob, maqola yoki rasmiy hujjatlarda § belgisi hamda tartib son bilan belgilanadigan matnning mustaqil bir qismi; § belgisining o‘zi) va boshqalar.

**b) lotin tilidan rus tili orqali o‘zlashgan terminlar.** Umuman, lotin tili rus tili leksikasining boyishida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Ayniqsa, ilmiy-texnikaviy hamda ijtimoiy-siyosiy sohalarga oid terminologiyada grekcha o‘zlashmalarning ta’siri sezilarli darajada bo‘lgan. Rus tiliga lotincha o‘zlashmalar polyak va ukrain tillari orqali kirib kelgan va bu jarayon, asosan, XVI - XVIII asrlarga to‘g‘ri keladi. Lotin tilidan rus tili orqali o‘zbek tiliga aynan o‘zlashgan terminlarning asosiy qismi rus tilidagi shakl va shamoyili bilan bir xildir. Masalan: *avtor* au(c)tor - yaratuvchi), *vokabula* (vocabulary - so‘z), *interliniyaj* (inter - oralig‘ida, o‘rtasida va linea - chiziq, chegara), *illyustratsiya* (illustratio - yoritish, ko‘rgazmali tasvirlash), *inkunabula* (incunabula - yosh bolalik davri; ilk qadam), *kaptal* (capitellum - bosh, kallak), *korrektor* (corrector - to‘g‘rilovchi, tuzatuvchi), *korrektura* (correctio, correctura - to‘g‘rilash, tuzatish), *kontrtitul* (contra - qarshi va titulus - yozuv, sarlavha), *konvolyut* (convolutus - birlashtirilgan, o‘ralgan), *kodeks* (codex - kitob), *kapitel* (capitellum - bosh), *litera* (lit(t)era - harf), *manuskript* (manuscriptum: manus - qo‘l va seribo - yozaman), «*ligatura*» (ligatura < ligare - o‘zaro bog‘lash), referat (refero - xabar beraman), *reproduksiya* (re - lotin tilidagi old qo‘shimcha bo‘lib, yangilash, harakatni takrorlash kabi ma’nolarni ifodalaydi va productio - ishlab chiqarish hamda asar), *rotator* (roto - aylantiraman > rotator - aylantiruvchi), seriya (series - qator), *signatura* (signatura - ifodalamoq, ko‘rsatmoq), ekslibris (ex libris - kitobdan) va h.z.

**d) fransuz tilidan rus tili orqali o‘zlashgan terminlar:** *tiraj* (tirage» - nusxalash, bosish), *medieval* (medieval - O‘rta asrga oid), *buklet* («bouclette» - bejirim uzuk, halqacha), *broshyura* («brocher» - tikmoq > «brochure» - tikilgan), *deshifrovka* («dechiffrer» - o‘ylab topish, echish), *jurnal* («journal» - kundalik, gazeta), *pap’e-mashe* («papier mache» - ezilgan qog‘oz) va boshqalar.

**e) nemis tilidan rus tili orqali o‘zlashgan terminlar:** *diamant* («Diamant» - olmos): sahifadagi jadval ustunlari sarlavhalarini terishda qo‘llanadigan 4 punktli

kegldan iborat bosmaxona harfini ifodalaydi, ushbu soʻz frantsuz tilida ham mavjud va ayni maʼnoda qoʻllanadi; *lyasse* («Lesereichen» - lentali xatchoʻp), *dekel* («Deckel» - qoplama) va boshqalar. Shu oʻrinda aytib oʻtmoqchimizki, nemis tilining boshqa tillarga nisbatan qoʻshma soʻz yasash imkoniyatlari ancha keng. Masalan, shunday fikrlar ham borki, slavyan tillari uchun qoʻshma soʻzlar yasalishi u qadar xarakterli hisoblanmaydi. Nemis tiliga xos boʻlgan bu qulaylik bu tilda tuzilishiga koʻra ixcham va mohiyatan aniq boʻlgan terminologik tamoyilning asosiy talablariga javob beruvchi qoʻshma soʻz shaklidagi terminlar miqdorining sezilarli darajada koʻp boʻlishiga olib keldi. Baʼzida nemis tili ichki qonuniyatlari asosida qoʻshni yoki qarindosh til elementlaridan foydalangan holda ham qoʻshma soʻzlar yasalaveradi. Oʻzlashma terminlar orasida komponentlari Yevropa tillari elementlaridan iborat boʻlib, muayyan tilda yasalgandan keyin rus tiliga va u orqali oʻzbek tiliga oʻzlashgan terminlar ham mavjud. Masalan, nemischa *Kolumnentitel* qoʻshma soʻzi rus tiliga va u orqali oʻzbek tilga *kolontitul* shaklida oʻzlashgan va u «har bir sahifaning ustki hoshiyasiga yozilgan kitob yoki asarning nomi, muallifning familiyasi, lugʻatlarda shu sahifadagi birinchi va oxirgi soʻz haqidagi maʼlumot» maʼnosini ifodalashga xizmat qiladi. Bu termin aslida nemis tili negizida ikki xorijiy komponentlarning qoʻshiluv natijasida hosil boʻlgan: frantsuzcha «colonne» (ustun), lotincha «titulus» (yozuv, sarlavha). Shunga oʻxshash, nemischa *Kolumnenziffer* qoʻshma soʻzi rus tiliga *kolontsifra*, oʻzbek tiliga *kolontsifr* shaklida oʻzlashgan va u «kitob va jurnal kabi bosma nashr betlariga qoʻyilgan tartib raqami» maʼnosini ifodalaydi. Nemis tilida bu soʻz frantsuzcha «colonne» (ustun) hamda polyak tilidan nemis tiliga oʻzlashgan deya taxmin qilingan «ziffer» (bu soʻzning dastlabki oʻzlashma manbasi arabcha boʻlib, uning birlamchi maʼnosi «nol», keyinchalik «raqam», «son» maʼnolarida qoʻllana boshlangan. Ushbu element italyanchaga «cifra», fransuzchaga «chiffre», inglizchaga «cifher» shaklida oʻzlashgan) soʻzlarining qoʻshiluvidan yasalgan. Shuningdek, nemis tilini rus tili uchun (goʻyo rus tili oʻzbek tili uchun boʻlgani singari) boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlarni oʻzida tayyorlab beruvchi vositachi til sifatida ham

ko‘ramiz. Masalan, rus tilidagi va ayni zamonda o‘zbek tilidagi *matritsa* termini nemis tilidan o‘zlashgan. Uning nemis tilidagi shakli «Matrize» bo‘lib, u nemis tiliga lotin tilidan o‘zlashgan, uning lotinchadagi shakli «matrix» (bachadon; manba, boshlanish)dir. Rus va o‘zbek tillaridagi *pergament* termini ham asli grekcha «pergamos» hamda «pergamenos» so‘zlarining nemis tilidagi «pergament» shaklidan aynan qolip ko‘chirilgan ko‘rinishidir.

O‘zbek tilidagi *kursiv*, *foliant* terminlari ham rus tiliga nemis tilidan aynan o‘zlashtirilgan. Aslida, nemischa «Kursiv» va «Foliant» so‘zlari lotin tilidagi «cursivus» (yuguruvchi) hamda «folium» (varaqa) so‘zlarining nemischalashtirilgan shakllaridir.

Shunga o‘xshash holatlar fransuz tili vositasida ham amalga oshgan. Masalan, o‘zbek va rus tillaridagi *guash* termini rus tiliga fransuz tilidan o‘zlashgan. Uning fransuz tilidagi shakli «gouache» bo‘lib, italyanacha «guazzo» (suvli bo‘yoq)ning fransuz tilidagi o‘zlashma shaklidir. *Byulletenʼ* terminining etimologik ildizi yanada chuqurroq: lotincha «bulle» (muhrlangan hujjat) > italyanacha «bulletino» (yozuv, yozma qayd, varaqa) > frantsuzcha «bulletin» (saylov qog‘ozi; jurnal; yozuv, qayd etish; ma‘lumot; kvitantsiya). O‘zbek kitobchilik terminologiyasida shunday ko‘rinishga ega bo‘lgan yana bir qancha o‘zlashma terminlar mavjud:

- lotincha «minium» (kinovar - qizil rangli mineraldan tayyorlangan qizil bo‘yoq; surik - qizg‘ish, to‘q sariq yoki qizg‘ish-jigarrang bo‘yoq) > italyanacha «miniatura» > frantsuzcha «miniature» > ruscha миниатюра > o‘zbekcha *miniatyura*;

- italyanacha «carto» (qog‘oz) // «cartone» > fransuzcha «carton» > ruscha картон > o‘zbekcha *karton*;

-lotincha «memoria» (xotira) > fransuzcha «memoires» > ruscha мемуар > o‘zbekcha *memuar*;

-lotincha «frons» (rod padej: «frontis» - peshona, old tomon) «aspicere» (ko‘rmoq) > frantsuzcha «frontispice» > ruscha фронтшипс > o‘zbekcha *frontispis*;

-lotincha «folium» (varaq) > nemischa «Folie» > polyakcha «folga» > ruscha фолга > o‘zbekcha *folga* va boshqalar.

Bundan tashqari, nemis tilining o‘z so‘zlari bo‘lgan va rus tili orqali o‘zbek tiliga aynan o‘zlashgan terminlar sirasiga yana quyidagilarni kiritish mumkin:

- nemischa «Kegel» > ruscha кегл > o‘zbekcha *kegl*: bosmaxona harflarining katta-kichikligi;

- nemischa «Kante» > ruscha кант > o‘zbekcha *kant*: kitob tayyorlashda muqovaning qirqiladigan cheti;

- nemischa «Vorsatz» > ruscha форзац > o‘zbekcha *forzats*: kitobning muqova tavaqasi bilan blokini biriktirib turadigan o‘rtasidan buklangan qog‘oz varag‘i;

- nemischa «Falzen» > ruscha фальцовка > o‘zbekcha *faltsovka*: bosilgan varaqlarni ma’lum tartibda, sahifa raqamlari to‘g‘ri keladigan qilib buklash;

- nemischa «Tiegel» > ruscha тигел > o‘zbekcha *tigel*: qog‘ozni bosma formaga bosadigan metall taxta va boshqalar.

O‘zbek tiliga o‘zlashgan shunday terminlar borki, ularning komponentlari rus tiliniki emas:

-o‘zbekcha *rotaprint* < ruscha ротапринт < lotincha «ratare» (aylantirmoq) +inglizcha «print» (bosmoq, chop qilmoq);

-o‘zbekcha *diapozitiv* < ruscha диапозитив < grekcha «dia» (orqali, vositasida) + lotincha «positivus» (ijobiy);

-o‘zbekcha *sinkografiya* < ruscha цинкография < nemischa «Zink» (lotincha «zincum» - rux) + grekcha «grapho» (yozaman);

-o‘zbekcha *avtoreferat* < ruscha автореферат < grekcha «autos» (o‘zim) + lotincha «refero» (xabar beraman, ma’lumot beraman);

-o‘zbekcha *geliogravyura* < ruscha гелиографюра < grekcha «helios» (quyosh) + frantsuzcha «gravure» (o‘yma naqsh);

-o‘zbekcha *teksoprint* < ruscha *тексопринт* < lotincha «texera» (tayyorlash, qurish) + inglizcha «print» (bosmoq, chop qilmoq);

-o‘zbekcha *linotip* < ruscha *линотип* < lotincha «linea» (chegara, chiziq) + grekcha «typos» (namuna, tamg‘a, qolip, iz) va boshqalar.

Ko‘rib o‘tilgan bu o‘zlashma terminlarning ba‘zilarida ularning tildan tilga o‘zlashib borishi, shuningdek, jamiyat taraqqiyotida sodir bo‘lgan texnik o‘zgarishlar natijasida ma‘no hajmining kengayishi, leksik ma‘noning avvalgisiga nisbatan kengroq voqelikni ifodalashi kuzatiladi. Masalan, *miniatyura* terminining ilk ma‘nosi «qadimgi qo‘lyozma kitoblarni rang-barang qilib bo‘yashda ishlatilgan qizil, to‘q sariq yoki qizg‘ish rangli bo‘yoqni anglatgan» bo‘lsa, hozirda u «O‘rta asrga oid qo‘lyozma asarlar va kitoblarda bo‘yoqlar bilan chizilgan nafis rasm, surat, bezakli bosh harf yoki lavha; nozik va chiroyli qilib ishlangan kichkina rasm, surat; shunday surat va rasm solish san‘ati; adabiyot, teatr, estrada va sh.k.dagi kichik hajmli janr» kabi ma‘nolarni ifodalashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, ba‘zi terminlarda tarixiy taraqqiyot jarayonida leksema ma‘nosi hajmi (ko‘lami)ning torayishi yoki leksik ma‘noning avvalgiga nisbatan torroq voqelikni ifodalashi, ya‘ni ma‘no torayishi hodisasi sodir bo‘lgan. Masalan, umuman «qog‘oz» ma‘nosidagi karton leksemasi hozirda faqat «maxsus ishlangan qalin, qattiq qog‘oz turi» ga nisbatan qo‘llanadi.

**Rus tili va u orqali Yevropa tillaridan so‘zlarni kalkalab olish.** Har bir til lug‘at tarkibini yangi so‘zlar bilan boyitishda kalkalash ham muhim o‘rin tutadi. Kalkalash orqali sodda so‘zlar bilan birga qo‘shma so‘z hamda birikma shaklidagi terminlar ham hosil qilinadi. O‘zbek kitobchilik terminologiyasi tarkibiga kiruvchi termin (so‘z)larning muayyan qismi kalkalash yo‘li bilan o‘zlashgandir. Chunki terminologiyada kalkalashning o‘ziga xos o‘rni bor. Shu o‘rinda *kalka* (fran. *calque* – nusxa, taqlid, ingl. *translation loan-word*, nem. *Abklatsch, Übersetzungslehnwort*) so‘zi xususida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Tilshunoslikda kalkalashga bo‘lgan qiziqish u qadar uzoq tarixga ega emas. Buni *kalka* so‘zining termin sifatida keyinroq

muomalaga kirganligi ham tasdiqlaydi. Lekin, ba'zi olimlarning fikricha, kalkalashning leksik hodisa sifatida «payqab qolinishi» unga bu nomning berilishidan ancha oldin sodir bo'lgan. Xorijda kalka so'zining termin sifatida ilk qo'llanilishi XIX asr oxiri XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Uni ilmiy termin sifatida frantsuz tilshunos olimi Sh.Balli birinchi bo'lib muomalaga kiritgan. Unga ko'ra, horijiy tildan olingan namunaga ko'ra g'ayriixtiyoriy (mexanik) ravishda yasalgan so'z va iboralar kalkalar deb atalgan. Agar Sh. Balli faqat kitobiy kalkalar haqida fikr yuritgan bo'lsa, B. Unbegaun kalkalashning tillarning o'zaro munosabat tipiga ko'ra sodir bo'lishi (kalka tushunchasi orqali har doim bilingvizmni nazarda tutish) haqida munozara yuritadi. Shuningdek, B.Unbegaun kalka maqomini belgilashda kalkalashning tom ma'noda nemis tilidagi *Lehnubersetzung* (o'zlashma-tarjima) yoki *Ubersetzungsentlehnung* (tarjima-o'zlashma) deb nomlanishlari bilan mos kelishini, bunga ko'ra, kalkalash jarayoni mohiyatan so'z o'zlashtirish va uni tarjima qilish prinsiplariga asoslanganini aytadi. Haqiqatan ham, kalkalash, o'zlashtirish va tarjimalash tushunchalarining mazmunan bir-birlariga yaqinligi shubhasizdir. Chunki ular orqali boshqa tillardan so'z olishning uch imkoniyatidan unumli foydalanishga yo'l ochiladi. So'z olishga imkoniyat yaratuvchi bu uch usulni umumiy holda so'z oluvchi tilda xorijiy leksemaning lekvivalentlarini vujudga keltirish deb qabul qilishimiz mumkin. Bunda ekvivalent ikki xil xarakterda bo'ladi: birinchi turida o'zlashtirayotgan tildagi so'z ayni shu tilga oid morfemalardan quriladi, ikkinchi turida esa, transliteratsiyalangan, ya'ni boshqa tildagi leksemaning alfavit harflari o'zlashtirayotgan tildagi alfavit harflar bilan ifodalangan leksik birliklardan iborat bo'ladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasining boyishida kalkalash yo'li bilan so'z hosil qilishning muhim o'rnini bor. Kalkalash yo'li bilan o'zga tilga mansub so'z namunasi (andozasi) asosida o'z til materiali bilan yangi so'z hosil qilinadi. Demak, kalkalash yo'li bilan yangi so'z hosil qilinarkan, bu ham tilning ichki imkoniyatlari asosida so'z yasalishi hisoblanadi. Ba'zi ishlarda «kalkalash yo'li so'z yasash usuliga

kirmaydi. Chunki kalkalashda soʻzning qismlari boshqa til modeliga mos ravishda tarjima qilinadi, ular sunʼiy tarzda birikadi» tarzidagi fikrlar ham mavjud.

**Substrat va superstrat hodisasi.** Tillarning oʻzaro taʼsiri va rivojlanishi, ayniqsa, tilning leksik sathida yaqqol namoyon boʻladi. Xususan, tillarning chatishuvida substrat va **superstrat** haqida gapirish mumkin (tag qatlam va ustki qatlam). Ikkala tushuncha magʻlub tilning gʻolib tildagi elementlaridir. Bir tildan ikkinchi tilga soʻzlarning oʻzlashtirilishi substratga kirmaydi. Substratda gʻolib til magʻlub tilni siqib chiqaradi va bunda magʻlub til gʻolib tilga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. A.Hojiyev oʻz lugʻatida substratga shunday taʼrif beradi: “Substrat – tillarning chatishishi natijasida magʻlub tilning gʻolib tilda qoldirgan izlari”.<sup>8</sup> **Superstrat**da kelgindilar tili mahalliy tilga sezilarli taʼsir oʻtkazadi, lekin uni siqib chiqara olmaydi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Tilning paydo boʻlishi haqidagi farazlarni soʻzlab bering.
2. Sizing tilning paydo boʻlishi haqidagi shaxsiy fikringiz qanday?
3. Tillarning oʻzaro taʼsiri tilning qaysi sathida yaqqol namoyon boʻladi?
4. Oʻzbek tili lugʻat boyligining rivojida qaysi tillarning taʼsiri katta?
5. Oʻzbek kitobchilik terminologiyasi misolida tillarning oʻzaro taʼsirini izohlab bering.
6. Oʻzbek kitobchilik terminologiyasiga xorijiy tillardan oʻzlashgan qaysi terminlarni bilasiz?
7. Substrat nima?
8. Superstrat hodisasi nima?

#### **Asosiy tushunchalar izohi:**

---

<sup>8</sup> **Hojiyev A.** Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. -Toshkent, 2002, 94-b.

1. Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlarning eng maqbuli – ijtimoiy kelishuvlar haqidagi farazdir.
2. O'z so'z – tilning aslida o'ziga mansub bo'lgan (boshqa tildan o'zlashmagan), tilning o'z qatlami asosida yasalgan so'z.
3. O'zlashgan so'z - o'zga tildan qabul qilingan so'z.
4. O'zlashtirish - o'zaro ta'sir, aloqa natijasi sifatida bir til unsurlarining boshqa tilga qabul qilinishi.
5. Tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanishi, ayniqsa, tilning leksik sathida yaqqol namoyon bo'ladi.
6. Dunyoda o'zga tilning ta'siridan xoli bo'lgan biron bir til mavjud emas.
7. O'zga tildan so'z o'zlashtirishning ijobiy va salbiy tomonlari bor.
8. Substrat til – tillarning chatishuvi natijasida mag'lub til izlari sezilib turadigan til.
9. Superstat til – kelgindilarning ta'siri seziladigan til.

### **3-§. TIL – ENG MUHIM MULOQOT VOSITASI**

**Til va nutqiy faoliyat.** Til va nutqiy faoliyat o'rtasidagi munosabatlarni ko'rib chiqishdan avval til va nutqqa qisqacha ta'rif berib o'tamiz. Til - imkoniyat sifatida aloqa-aralashuv, fikr almashuv quroli. Nutq - tildan fikr almashuv maqsadida foydalanish ususli, jarayoni. Demak, bu tushunchalar bir-biridan farqli va mohiyatan o'ziga xos tushunchalar ekan. Til o'rnida nutqni, nutq o'rnida tilni tushunishimiz xato hisoblanadi.<sup>9</sup>

Til va nutq o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish hozirgi zamon tilshunosligining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu masala alohida bir milliy tilni yoki umuman tillarni nazariy ta'riflashdagi boshlang'ich nuqtadir. Til va nutq hodisalarini farqlash aksariyat tilshunoslar tomonidan tan olinadi, ammo ularning mohiyatini, chegarasini aniqlash mezonlari haqidagi fikrlar turli-tuman.

---

<sup>9</sup> **Rasulov R.** Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2010, 182-6.



F. de Sossyur til va nutqni nutq faoliyatining ikki ajralmas bo‘lagi deb hisoblab, ularni «bir paytning o‘zida fizik, fiziologik va psixik, bundan tashqari, individual va ijtimoiy munosabatlarga daxldor» jarayonlar deb ta’riflagan edi. Til, Sossyurning fikricha, nutq faoliyatining ijtimoiy va psixik tomonlaridir, nutq esa uning individual va psixofizik tomonlari, yoki «odamlar nimani gapirsa, o‘shalarning yig‘indisidir».<sup>10</sup>

«Til faoliyat mahsuli emas, balki faoliyatning o‘zidir» degan g‘oyani ilgari surgan V.fon Gumboltdan farqli o‘laroq, Sossyur «til faoliyat emas, balki so‘zlovchi tomonidan passiv qayd qilinadigan tayyor mahsulot, nutq mahsulidir» deydi. Uning ta’kidlashicha, «tilning voqeligi, o‘z tabiatiga ko‘ra nutqqa nisbatan kam emas».<sup>11</sup>

A.I.Smirnitskiy til va nutq munosabatlarini tahlil qilar ekan, nutqiy faoliyat tushunchasini chetlab o‘tadi, ammo u Sossyurga qaraganda umumiy insoniyat nutqi tushunchasiga ko‘proq mazmun bag‘ishlashga harakat qiladi. Jumladan, olim nutq quyidagi shakllarda mavjudligini alohida ta’kidlaydi:

- 1) tashqi tovushli belgili og‘zaki nutq;
- 2) tashqi grafik belgili yozma nutq;
- 3) hech qanday real belgilarga ega bo‘lmagan botiniy nutq.<sup>12</sup>

A.I.Smirnitskiyning fikricha, nutqning og‘zaki va yozma shakllarda mavjud bo‘lishi uning obyektiv tomonini tashkil etadi va ular tashqi nutqqa tegishli bo‘ladi, ichki nutq esa faqat subyektiv shaklda mavjud bo‘ladi va tafakkurdagi fikrni ifodalaydi. Shuningdek, «inson nutqi son-sanoqsiz va cheklanmagan miqdordagi turli-tuman nutqiy harakatlar natijasidir» va uning turlicha ko‘rinishida aynan bir xil komponentlar va bu komponentlarning qo‘llanishidagi qonuniyatlar aniqlanadi. Turlicha nutq bo‘laklarining majmuasi va bu komponentlarning ishlatilishi to‘g‘risidagi qonuniyatlar va qoidalar umumiylikda muayyan bir sistemani tashkil qiladi, ya’ni o‘zaro bir-birlariga bog‘langan birliklar majmuasini va ular orasidagi munosabatlarni hosil qiladi. Birliklarning bunday tizimi tildir. Olimning fikricha,

---

<sup>10</sup> **Rasulov R.** Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2010, 105-6.

<sup>11</sup> **Rasulov R.** Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2010, 107-6.

<sup>12</sup> **Смирницкий А.И.** Синтаксис английского языка. - М.: ИИЛ, 1957. -С.10.

nutq umuman olganda «tadqiqot uchun xom materialdir», til esa bu «materialga asoslangan tadqiqot predmetidir».<sup>13</sup>

F. de Sossyur va A.I.Smirniskiylar faqat bir masalada hamfikrdirlar, ya'ni til nutqdan hosil bo'ladigan mahsulotdir va u tilshunoslar uchun ilmiy tadqiq predmetidir.

Ayrim tadqiqotchilar til va nutq munosabatiga boshqacha yondashadilar. Ularning fikricha, nutq tildan hosil bo'ladi, ya'ni til mutaxassislarning lingvistik faoliyatining natijasi emas, balki nutqda o'z ifodasini topadigan obyektiv mavjud hodisadir.

Masalan, T.P.Lomtevning fikricha, «Til shunday ma'no-mazmunni anglatadiki, uning mavjud bo'lishi va ifodalanishi nutq orqali amalga oshadi». <sup>14</sup> O'zbek olimi Sh.Rahmatullayev ham xuddi shunday fikrni bildiradi. Uning ta'kidlashicha, til nutq uchun xomashyo bo'lganidek, nutq ham til uchun xomashyo vazifasini o'taydi.<sup>15</sup> Olimning fikricha, chaqaloq tug'ilganda uning til zahirasi bo'sh bo'ladi va u atrofdagilarning nutqi hisobiga boyib boradi. Biz bu fikrni ma'qullaymiz, ya'ni til va nutq o'rtasida qarama-qarshilik emas, balki o'zaro aloqadorlik mavjud deb hisoblaymiz.

O'rganilayotgan masala bo'yicha bildirilgan turli-tuman nuqtai nazarlarni umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, til nutqiy faoliyatning ko'chmasidir, biroq turli tushunchalarni ifodalovchi bu atamalar turli ma'nolarda ishlatilib kelinmoqda. Til bir tomondan nutq hosil qilinadigan va tushuniladigan qurilma sifatida talqin qilinsa, ikkinchi tomondan, mutaxassislar nutq faktlaridan xulosa qiladigan qoidalar tizimi, birliklar majmuasidir. Bu tushunchalarning har ikkalasi ham o'zaro birbirlariga bog'liqdir, chunki til qurilma sifatida mohiyatni anglatadi, bu mohiyatni unda mavjud bo'lgan qoida va birliklar orqali bilish mumkin.

---

<sup>13</sup> **Смирницкий А.И.** Синтаксис английского языка. - М.: ИИЛ, 1957. -С.11-12.

<sup>14</sup> **Ломтев Т.Р.** Общее и русское языкознание: Избранные работы. – М.: Наука, 1976.-С.58.

<sup>15</sup> **Rahmatullayev Sh.** Til qurilishining asosiy birliklari. -Toshkent, 2002, 32-6.

Nutq, birinchidan, fikr-mulohaza bildirish jarayoni, ikkinchidan, u til qurilmasi faoliyati natijasidir.

Til va nutq haqida bildirilgan bunday fikrlarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, ular o‘zaro bog‘liq, bir-birini taqozo etuvchi hodisalardir va ayni paytda, ular o‘rtasida muayyan farqlar ham mavjudki, ularni alohida eslatish lozim bo‘ladi. Ularni quyidagi jadvalda ko‘rsatish mumkin.<sup>16</sup>

TIL	NUTQ
Til potensial hodisa bo‘lib, kishilar ongida bolalikdan o‘zlashtirilgan gapirish qobiliyati va nutq orqali ifodalangan fikrni tushunish vositasi sifatida mavjud bo‘ladi.	Nutq mavjud imkoniyatni voqelantirish va so‘zlashuv qobiliyatini aniq muhitda amalga oshirish jarayonidir.
Til umumiy va ijtimoiy xususiyatga ega	Nutq har bir alohida kishini individ va shaxs sifatida xarakterlovchi eng samarador vositalardan biridir. U tilga nisbatan individual munosabatdagi hodisadir.
Til birliklari va qoidalar vaziyatga bog‘liq emas. Ular nutqiy birliklarni tashkil qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi va o‘z navbatida so‘zlovchidan muloqot vaziyatidagi ekstralingvistik shart-sharoitlarga moslashuvni talab	Nutq hamma vaqt ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan va vaziyatga bog‘liqdir

<sup>16</sup> **Bushuy T., Safarov Sh.** Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.-B.120.

qiladi.	
Til ko'p o'lchamli hodisadir. Uning birliklari o'rtasidagi bog'liqliklar, aloqalar ham turli-tumandir. Til birliklari o'rtasida bunday munosabatlarning mavjudligi uni yaxlit bir butunlikka, sistemaga aylanishga olib kelgan.	Nutq ketma-ketlik xususiyatiga ega, ya'ni u ma'lum zamonda (og'zaki nutq) va makonda (yozma matn) amalga oshirilishi mumkin. Nutq elementlari ifodalanayotgan fikr kechishiga qarab jumlar matnda ma'lum bir tartibda ketma-ket joylashadi.
Til – munosabat asosi	Nutq munosabat ifodasidir
Til jamiyatda shakllangan	Nutq har bir shaxs faoliyatida shakllanadi
Tilning mavjudlik davri uzoq, ijtimoiy hayot bilan bog'liq	Nutqning (og'zaki) mavjudlik davri qisqa, u aytilgan paytdagina mavjud
Tilning hajmi noaniq, chegaralanmagan	Nutqning hajmi aniq: u dialog, monolog, ayrim matn va b. ko'rinadi.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Til va tafakkurning bog'liqligi nimalarda ko'rinadi?
2. Tilni tafakkurdan ajratish mumkinmi?
3. Til bo'lmagan holda ham tafakkur bo'lishi mumkinmi?
4. Til va mantiq birliklarining o'zaro munosabati nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Ya.Marr til va tafakkur haqida qanday fikr yuritdi?
6. Tafakkurga nutq madaniyati qanchalik bog'liq?
7. Til va nutqning farqli jihatlari nimada?
8. Tilga ta'rif bering.
9. Nutqqa ta'rif bering.

**Asosiy tushunchalar izohi:**

1. Ong – voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o'z ichiga olgan va ma'lum maqsadga yo'nalgan holda aks etishi.

2. Fikr – tafakkurning aniq bir natijasi.
3. Tafakkur - o‘ylash, muhokama qilish, voqelikni anglash, tasavvur qilish, unga baho berish, fikrlash qobiliyati.
4. Inson tafakkuri nutq bilan chambarchas bog‘liqdir.
5. Tafakkur zaruriy tarzda moddiy so‘z qobig‘ida mavjuddir.
6. Fikr tilda so‘zlar vositasida shakllanadi.
7. Til- imkoniyat sifatida aloqa-aralashuv, fikr almashuv quroli.
8. Nutq - tildan fikr almashuv maqsadida foydalanish ususli, jarayoni.

#### **4-§. TIL TARAQQIYOTINING JAMIYAT TARAQQIYOTI BILAN BOGLIQLIGI**

**Til va jamiyat.** Til va jamiyat tushunchalari ma’no anglatish nuqtayi nazaridan farqli ma’nolarni ifodalasa-da, bir-biri bilan uzviy bog‘langandir. Tilni xalq yaratadi va o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas ohangda takomil topib boradi. Xalqning madaniy va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti o‘z izlarini, birinchi galda, tilda qoldiradi. Shu bois, jamiyatdagi har qanday o‘zgarish, birinchi navbatda, tilda aks etadi. Ana shu qonuniyat har ikki tushunchaning qanchalik uzviy bog‘liqligini ifoda etadi. Bu yaqin bog‘liqlikni yanada aniq ifodalash uchun quyidagi holatni anglash etarli: agar biz Alisher Navoiy asarlarini o‘qisak, Navoiy yashagan davr bilan «gaplashamiz». Navoiy qo‘llagan so‘zlar o‘sha davrlardan sado beradi. Unda «bank», «kompyuter», «avtobus», «avtomatika», «mashina», «futbol» kabi so‘zlar mutlaqo uchramaydi, uchrashi ham mumkin emas. Chunki u davrlarda bunday tushunchalarning o‘zi bo‘lmagan. Navoiyda «kotib», «qalamzan», «qalam», «kilk», «xoma», «kitob», «lavh», «nuqta», «shuaro» kabi so‘zlarni o‘qishimiz mumkin va ular Navoiy yashagan davrga xosdir. Yuqoridagi so‘zlar esa bizning asrimizga oid so‘zlardir. Jamiyat taraqqiy etib borishi bilan birga undagi o‘zgarishlarga oid tushunchalar va ularni ifodalovchi yangi-yangi so‘zlar tilda ham paydo bo‘lib boraveradi. Demak, til jamiyat bilan doimo hamnafas yuradi.

Tilning paydo bo'lishi, uning takomil topib borishi, odamzodning bunday buYuk ne'matga noil bo'lishiday murakkab jarayonda ijtimoiy muhitning, kishilik jamoasining hal qiluvchi omil ekanligidan iborat haqiqatni inson aqli to'liq anglagunga qadar ko'p zamonlar o'tgan. Eramizdan oldin ham, bizning eramizda ham dunyoning turli burchaklarida ana shu haqiqatni izlab turli-tuman tajribalar o'tkazilgan. «Mo'g'ullar imperiyasining umumiy tahriri» (Parij, 1705) nomli kitobda XVI asrda Akbarshoh tomonidan o'tkazilgan bir g'aroyib tajriba haqida batafsil yozilgan. Ulug' shoh «Biron-bir tilga o'rgatilmagan odamning tabiiy tili yahudiy tili bo'ladi» degan g'ayriilmiy gapni eshitib qoladi. Shunda Akbarshoh bolaga hech qanday til ataylab o'rgatilmasa, u qaysi tilda gapiradigan bo'lishini bilishni istaydi. Ana shu maqsadda shoh o'n ikkita emizikli bolani ajratib olib, Agradan olti mil uzoqlikdagi qal'aga joylashtiradi, ularni tarbiyalashni o'n ikki soqov enagaga topshiradi. Tilsiz qorovulga qal'a darvozasini ochish qat'iyon taqiqlanadi, darvoza ochilsa, uning boshi sapchaday uzib tashlanishi aytiladi. Vaqt o'tib, bolalar o'n ikki yoshga etganda, shoh bolalarni huzuriga keltirishni buyuradi va saroyga barcha tillarni biladigan donishmandlarni ham taklif qiladi. Agrada yashaydigan bir yahudiy bolalar chindan ham yahudiycha gapirish yoki gapirmasliklariga hakamlik qilishi kerak edi. Agrada arablar va xaldey (somiylardan bo'lgan qadimiy xalq)lar ko'p edi. Hind faylasuflari bu bolalarning tili sanskrit (qadimgi hind tili)cha bo'lib chiqadi deb hisoblardilar. Ammo bolalar shoh huzuriga keltirilganda, barcha hayratdan tosh qotib qoladi, Chunki bola bechoralar hech bir tilda gapirmas edilar. Ular o'z enagalaridan fikrlarini faqat turli imo-ishoralar bilan ifodalab, hech qanday tilsiz muomala qilishni o'rgangandilar. Ular bu notanish, begona jamoadan qo'rqib-hurkib turardilar, ochilmay tugulgan bu tillarining tugunini echmoq tamoman mushkul edi, bu tillarga nutq tovushlarini aytirmoq zamoni o'tib bo'lgan edi.

Katta shov-shuvga sabab bo'lgan Tarzan haqidagi «Mutlaq hukmronlik» filmini eslaylik. Kema halokatidan so'ng angliyalik er-xotin omon qoladilar va o'zlarini yovvoyi junglida ko'radilar. Kunlar o'tib, ular farzandli bo'ladilar. Bola hali

chaqaloq ekan, ona kasallikdan vafot etadi, ota esa maymunlar hujumidan halok bo‘ladi. Chaqaloqni maymunlar o‘zlari bilan olib ketadi va bola maymunlar orasida, maymunlar «inida ko‘rganini qilib», balog‘atga etadi. Uning harakati maymuniy, emishi maymuniy, dardu qayg‘usi maymuniy, «tili» maymuniy, insoniy harakat va nutq unga tamoman begona...Hatto insonlar orasiga qaytib, to‘rt-besh inglizcha so‘zni o‘rganganidan keyin ham bu «yot» muhitga ko‘nika olmaydi, yana jungliga qochib ketadi. Ma’lumki, har bir inson o‘zi yashab turgan muhitda, jamiyatda ulg‘ayadi, tarbiya topadi. Albatta, har qanday tarbiyaning, ayniqsa, til, ma’naviy komillik, milliy o‘zlik tarbiyasining asosiy o‘chog‘i bolani o‘rab turgan ijtimoiy muhit, birinchi navbatda, oiladir. Butun faoliyatini el-yurt ozodligi, taraqqiyoti, millat saodati yo‘lida jon fido qilgan Abdurauf Fitrat «Rahbari najot» asarida shunday yozadi: «Suv qaysi rangdagi idishda bo‘lsa, o‘sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo‘lsalar, o‘sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko‘proq yaxshi va yomon ahvolni o‘z uylaridan, ko‘chadagi o‘rtoqlaridan, maktabdagi o‘quvchilardan qabul qiladilar».<sup>17</sup> Bilamizki, hali tili chiqmagan chaqaloq bir kunda o‘z ona tilida gapira olmaydi. Uning tili bir necha oylar, yillar ichida asta-sekin shakllanib, rivojlanib boradi. U dastlabki til ruhiyatini ona suti va ona allasi orqali oladi. Ona allasi orqali chaqaloq orom olish bilan birga uning ko‘ngil dunyosiga milliy ruh kiradi. Demak, bolaning ilk til malakalari, dunyoni milliy ko‘z bilan idrok etish tajribalari oilada tarkib topadi. Til haqida olmon tilshunosi Vilgelm fon Gumboldt shunday deydi: «Tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning turlichaligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko‘rishning farqliligi natijasidir». Agar chuqurroq o‘ylab qarajak, har bir millatning o‘ziga xos ko‘rish tarzi, o‘ziga xos idrok intizomi, o‘ziga xos tafakkur tamoyili bor. Amerika tilshunosi Benjamin Li Uorf

---

<sup>17</sup> Mahmudov M. Til. – Toshkent, 1998.

«Agar Nyuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o‘ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqacharoq bo‘lardi» degan edi.<sup>18</sup>

Tilning mohiyati, vazifasi ko‘pincha benihoya jo‘n talqin etiladi. Go‘yoki til – eng muhim aloqa vositasi bo‘lgan ijtimoiy hodisa. Tilning aloqa vositasi ekanligi uning juda ko‘plab vazifalaridan faqat bittaginasidir. Aslida til, eng avvalo, dunyoni ko‘rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Qolaversa, til har bir insonning, millatning ichki dunyosini, ma‘naviyatini butun borligicha ifodalovchi omil hamdir. Ayni paytda tilning ruhiy, estetik hodisa ekanligini ham unutmash lozim. Tilshunos olim, professor Nizomiddin Mahmudov milliy sezgi va milliy ruhiyatning shakllanishida ona tilining hal qiluvchi ahamiyati xususida qiziqarli ma‘lumotni keltiradi: «Ingliz jurnalisti Govard Brabinning «Ona tili va miya. Yapon olimining g‘aroyib kashfiyoti» nomli maqolasida («Курьер ЮНЕСКО» jurnali, 1982, № 3, 10-13-betlar) bayon qilinishicha, Tokio universitetining tibbiyot professori Tadanobu Tsunoda 1981-yilda YUNESKOning Afinada o‘tgan simpoziumida o‘zining 15 yillik tajriba-tadqiqotlari natijalari haqida axborot bergan. Professor Tsunoda o‘z eksperimentiga yaponiyalik va g‘arblik (fransuz, ingliz, ispan, nemis va hokazo) kishilarni jalb qiladi. Olim ularga inson ovozi, hayvonlar, hasharotlar tovushi, turli fizik tovushlar, yapon va g‘arb musiqa asboblari tovushlarini eshittiradi va tegishli zamonaviy apparatlardan foydalangan holda ularning miyalaridagi markazlarning reaksiyasini qayd etib boradi. Tadqiqotlardan ma‘lum bo‘ladiki, yapon va g‘arb tiplarining, ya‘ni yapon va g‘arblik kishilarning bosh miya yarim sharlaridagi markazlar vazifalarining taqsimlanishida farq mavjud ekan. Boshqacha qilib aytganda, yapon kishisi miyasidagi muayyan bir markaz bilan qabul qiladigan tovushni g‘arb kishisi boshqa markaz orqali qabul qilgan ekan. Tadqiqotchi bu farq etnogenetika bilan bog‘liq yoki bog‘liq emasini aniqlash maqsadida 20 ta yapon emigrantining bolalari ishtirokida yana eksperiment o‘tkazadi. Natija shuni ko‘rsatadiki, bu farq genetik emas, balki ona tili muhiti bilan bog‘liq ekan. Ana

---

<sup>18</sup> Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. – М.: Просвещение, 1979.



shularga asoslanib, professor Tsunoda quyidagicha xulosa chiqaradi: «Men insonning o‘z atrofidagi tovushlarni qabul qilishi, sezishi, o‘zlashtirishi va tushunishini ona tili differentsiatsiya qiladi deb hisoblayman. Ona tili miyadagi emosional (his-hayajon, kuchli tuyg‘u) mexanizmning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq. Bolalikdan egallangan ona tili har bir etnik guruhning o‘ziga xos, betakror madaniyati va ruhiy olamining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir deb o‘ylayman».<sup>19</sup> Eng birlamchi, eng mustahkam, eng zaruriy ona tili muhiti, tabiiyki, oila, uy muhitidir.

Aytilganlardan xulosa qilish mumkinki, til bilan jamiyatning uzviy aloqadorligi isbot talab etilmaydigan hodisadir. Til bilan jamiyatning o‘zaro bog‘liqligi ularning har ikkisi bir vaqtda yuzaga kelganligini, jamiyatning jamiyat bo‘lishida tilning asosiy vazifani bajaruvchi eng muhim omillardan biri ekanligini, shunga ko‘ra, tilsiz kishilik jamiyatining mutlaqo bo‘lishi mumkin emasligini asoslaydi. Shunga ko‘ra til o‘ziga xos ijtimoiy funksiyalarni bajaradi.

**Tilning ijtimoiy vazifalari.** Ijtimoiy hayot sharoiti insonning yaratuvchanlik va bilishga yo‘naltirilgan faoliyati shaxslarning doimiy ravishda o‘zaro muloqotga kirishuvini taqozo etadi. Insoniy munosabatlarning asosini til belgilari orqali aloqaga, muloqotga kirishuv tashkil qiladi.<sup>20</sup>

Bunday muloqotning asosiy vazifasi shaxslararo murakkab va ularning har tomonlama ijtimoiy munosabatlariga mos keladigan, mazmunli va tezkor aloqa o‘rnatishdir. Insoniyat taraqqiyoti tarixi ham muloqot jarayonida ro‘y beradi va yaratiladi. Bu o‘rinda ijtimoiy taraqqiyotning belgilovchi omili sifatida o‘zaro munosabatlarning roli tobora oshib borishi kuzatiladi. Ana shu jihatdan tilning eng muhim aloqa vositasi sifatidagi kommunikativ qudrati, rivojlanish darajasi ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Boshqa tomondan olib qaralganda, insoniyat taraqqiyotida til voqelikni bilishning, ijtimoiy borliqni idrok etishning ham muhim vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

---

<sup>19</sup> Mahmudov M. Til.-B.87.

<sup>20</sup> Mahmudov M. Til.-B.87.

Natijada insonning kommunikativ va bilishga oid faoliyatida yagona bir vosita - tildan foydalanish umumbashariy taraqqiyotning muvaffaqiyatini ta'minladi.

Muloqotning mazmunli, ochiq va tushunarli bo'lishi lisoniy materialning hajm va ma'no jihatdan chegaralanmaganligiga bog'liqdir. Bu o'rinda til zahirasida ijtimoiy - tarixiy axborotni saqlashning ikki darajasini yoki usulini farqlash mumkin:

1) tilning o'zida, ya'ni tilning semantik tizimida, lug'atlarda va grammatik kategoriyalarda;

2) tilda yaratilgan muloqot materialida, ya'ni og'zaki va yozma matnlarda.<sup>21</sup>

Odatda, tilning bajaradigan ko'plab funksiyalari qatorida ba'zilari eng muhim ekanligi ko'rsatiladi: 1) til odamlar orasida eng muhim aloqa vositasidir; 2) u insoniyatning ijtimoiy tarixiy tajribasini saqlash uchun xizmat qiladi; 3) til tafakkurning asosiy elementi vazifasini bajaradi.

Bular har qanday tilning eng muhim, asosiy funksiyalari hisoblanadi. Ammo tilning funkstional imkoniyatlari bu bilangina cheklanmaydi. Inson kommunikativ faoliyatining turli-tumanligi aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan til tizimining ichki murakkabligi va bajaradigan funksiyasining xilma-xilligi bilan ham bog'liqdir.

R.O.Yakobson kommunikativ akt jarayonini o'rganar ekan, uning barcha funksiyalarini, hatto ikkinchi darajali omillarini ham chuqur o'rganish lozimligini ta'kidlagan edi. Shu nuqtai nazardan R.Yakobson tomonidan ilgari surilgan tilning *emotiv, fatik, metalisoniy va estetik* funksiyalarini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>22</sup>

Muloqot nafaqat axborotning mantiqiy mazmunini, balki gapirayotgan shaxsning ruhiy holatini, hissiyotini, istaklarini ham ifodalashi mumkin. Bunday holatlarda til o'zining *emotiv* (emostional-ekspressiv) *funksiyasini* bajarishga kirishadi.

---

<sup>21</sup> **Bushuy T., Safarov Sh.** Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.-B.20.

<sup>22</sup> **Якобсон Р.О.** Лингвистика и поэтика // Структурализм: «за» и «против».- М.: Прогресс, 1975. -С. 197-203.

Ayrim holatlarda muloqot maqsadsiz amalga oshiriladi: bunday hollarda suhbatdoshlar uchun ular o‘zaro almashayotgan axborot muhim emas, ular o‘z hissiyotlarini ifodalashga, bu bilan bir-birlariga ta’sir qilishga urinmaydilar. Bu paytda ular uchun faqatgina aloqaga kirishuv muhim, bu orqali keyingi mazmundorroq muloqotga tayyorlanadilar. Bunday hollarda til o‘zining *fatik funksiyasini* (munosabat o‘rnatish funksiyasi, aloqaga kirishuv) bajaradi. Tilning fatik funksiyasi salomlashuvlarda, tabriklarda, odatiy ob-havo haqidagi va shunga o‘xshash mazmundagi suhbatlarda namoyon bo‘ladi.

Tilning behad semantik imkoniyatlari suhbatdoshlarga uning *metalisoniy funksiyasidan* foydalanish imkonini beradi. Bu so‘zlovchining axborotni yanada tushunarliroq, yanada ifodaliroq yetkazish uchun tilning turli vositalaridan foydalanishida o‘z ifodasini topadi. Bunday vaziyatlarda tilning o‘zi nutq obyektini vazifasini bajara boshlaydi. Tilning metalisoniy funksiyasi atamasi, boshqacha aytganda, «nutq materialini izohlab gapirish» degan ma’noni anglatadi.<sup>23</sup>

Nutq (til) materialiga e’tibor tilga estetik munosabatni shakllantiradi: so‘zlovchilar matndagi so‘zlarning ohangiga, gap qurilishiga, ishlatilayotgan so‘zlarning ifodadorligiga e’tibor bera boshlaydilar. Tilga estetik munosabat, ya’ni, nutqning estetik obyekt sifatida go‘zalligiga yoki ma’nisizligiga munosabat uyg‘otadi. Eshitilayotgan axborotning estetik anglanishi til tizimining *estetik vazifasidan* dalolatdir.

Semiotika nuqtai nazaridan til noyob, biroq yagona belgili tizim emas. Uni asalarilarning tili bilan, yo‘l belgilarining tili bilan, musiqa va dasturlashtirishning algoritimli tili bilan qiyoslash mumkin. Jamiyat haqidagi fanlar nuqtai nazaridan qaralsa, tilni takrorlaydigan boshqa biror bir tizim mavjud emas.<sup>24</sup>

a) har qanday ijtimoiy hodisa xronologik jihatdan chegaralangan: u insoniyat jamiyatida azaldan mavjud bo‘lmagan va mangu davom etmagan. Masalan, oila,

---

<sup>23</sup> **Bushuy T., Safarov Sh.** Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.-B.20.

<sup>24</sup> **Bushuy T., Safarov Sh.** Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.-B.20.

davlatlar, tabaqalar barcha zamonlarda azaldan mavjud bo'lmagan. Ijtimoiy ongning turli shakllari, masalan, fan, huquq, san'at, axloq, din ham azaldan mavjud bo'lmagan. Biroq til azaldan mavjud va u jamiyat mavjud ekan, mangu yashayveradi. Demak, til, mehnat, ong, turmush kabilar insoniyatning ijtimoiy asosini tashkil qiladi;

b) har qanday ijtimoiy hodisa ma'lum hudud va chegarada mavjud bo'ladi. Masalan, fan va ishlab chiqarish o'z ichiga san'atni qamrab ololmaydi, til esa ijtimoiy ongning barcha jihatlarini o'ziga qamray oladigan ijtimoiy hodisadir;

v) tilning globalligi, uning ijtimoiy hayot va ongning barcha jabhalariga kirib bora olishi, boshqa guruhlar, tabaqalardagi hodisalardan ustuvorligini ta'minlaydi. Masalan, umumxalq tili ijtimoiy jihatdan bir xil emas. Uning ijtimoiy tuzilishi jamiyatning ijtimoiy tizimiga bog'liq. Shu sababli kasbiy til, jargonlar, oddiy xalq tili, oliy tabaqadagilar tili, adabiy til singari tushunchalar mavjud. Biroq ijtimoiy dialektlar, shevalar hech qachon alohida til sifatida shakllanmaydi;

g) tub ildizlari ma'naviy madaniyatga borib taqalgani uchun til ijtimoiy ongning boshqa shakllari (ma'naviyat, huquq, axloq, fan, san'at, din) orasida alohida o'ringa ega. Til ijtimoiy ongning asosidir;

d) til ijtimoiy ongning boshqa shakllari singari ijtimoiy hayotni o'zida aks ettiradi va u orqali shakllanadi. Biroq ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan farqli o'laroq, ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi bilvosita ekanligi bilan ajralib turadi;

e) o'zida ijtimoiy hayotning bilvosita ifodalanishi bois til ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan farqli o'laroq, mafkuraga, ya'ni ijtimoiy ongning dunyoqarashga oid shakllari masalan, siyosat, huquq, axloq, estetika va dinga tobe emas;

j) til taraqqiyoti ko'p hollarda jamiyatning ijtimoiy tarixidan mustaqil holda kuzatiladi.<sup>25</sup>

Shunday qilib, til xalqlarning noyob muloqot vositasi vazifasini bajaradi. U avlodlarning tarixiy almashinuvi va ijtimoiy formastiyalarning almashinuvi

---

<sup>25</sup> **Bushuy T., Safarov Sh.** Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.-B.20.

jarayonida xalq, millat birligini ta'minlaydi. U odamlarni vaqt va zamon, jug'rofiy va ijtimoiy muhitdagi birligini ham ta'minlaydi.

## 5-§. TIL TIZIMI VA TARAQQIYOT QONUNIYATLARI

**Til taraqqiyotining ichki va tashqi qonuniyatlari.** Til taraqqiyoti va rivojima'lum qonuniyatlar asosida yuzaga keladi. Til murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, undagi birliklar barcha jihatdan o'zaro uzviy bog'langan. Ushbu birliklarga aloqador qonuniyatlar ham o'zaro bog'liq hisoblanadi. *Til taraqqiyotining ichki qonuniyatlari* tilning o'z tabiati asosida (o'z mohiyatidan) kelib chiqadigan taraqqiyot jarayonlarini ifodalovchi qonunlar hisoblanadi. Juda ko'p tillar uchun umumiy bo'lgan qonunlar (masalan, lug'at tarkibining tez, grammatik qurilishning sekin o'zgarishi) bilan birga ayrim tillarning o'ziga xos ichki qonuniyatlari bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida singarmonizmning yo'qolishi, buning natijasida unlilar sonining kamayishi; -lar affiksining vazifa doirasi kengayishi, so'z birikmalari tuzilishida yangi turkumlarning paydo bo'lishi va b. bunga misol bo'la oladi. Quyida fonetik o'zgarishlar misolida til taraqqiyotining ichki qonunlarini tushuntirib berishga harakat qilamiz. Tildagi fonetik o'zgarishlar ma'lum tarixiy fonetik qonuniyatlar asosida yuz beradi. Fonetik-fonologik o'zgarishlar tilning ichki qonuniyatlari bilan bog'liq hodisalardir. Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlarni tahlil qiluvchi asosiy fonetik-fonologik qonuniyatlar quyidagilar:

1. Umumiy fonetik qonuniyatlar barcha tillarga xos umumiy holdagi tartib va qoidalarni tilning boshqa qonuniyatlari bilan bog'liqlikda aks ettiradi. Masalan, singarmonizm turkiy tillarga xos umumiy qonuniyatdir.

2. Xususiy fonetik qonuniyatlar muayyan til uchun xos bo'lgan hodisalarni ifodalaydi.

Fonetik qonuniyatlar davriy nuqtai nazardan ikkiga bo‘linadi:

1. Tarixiy fonetik qonuniyatlar tillar yoki muayyan bir tilning tarixiy taraqqiyotida yuzaga kelgan tarixiy-fonetik hamda fonologik o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi.

2. Davriy fonetik qonuniyatlar muayyan bir til doirasida hozirgi davrda sodir bo‘layotgan fonetik o‘zgarishlarni izohlaydi.

Umuman, fonetik qonuniyatlarni boshqa yondosh hodisalar ta’sirida o‘rganish tilshunoslik fani uchun ilmiy qiymatga ega.

*XIX asrda paydo bo‘lgan yangi maktab “Yosh grammatikachilar” deb atalib, ular birinchi marta tillarda doimiy o‘zgarishlar bo‘lib turishini kashf etganlar. Ular tovush o‘zgarishlarining ma’lum turi tasodifiy emasligini qayd etishadi, ammo bu o‘zgarishlar juda ko‘p so‘zlarda namoyon bo‘ladi ( masalan, /p/ > /f). Shuningdek, bugungi kundagi ayrim shakllarni til taraqqiyotining ma’lum bir davridagi tovush o‘zgarishlarini aniqlash orqali dastlabki holatidan ajratib olish mumkin. “Yosh grammatikachilar” tomonidan analogiya konsepsiyasi ishlab chiqiladi: tilar doimiyligiga yordam beruvchi va undagi tartibsizliklarni chetlashtiruvchi jarayon – juda muhim mexanizm bo‘lib, biz tildagi odatiy tovush o‘zgarishlari bilan noodatiy (morfologiyada qayd etilgan) tovush o‘zgarishlarini bilishimiz kerak. Yosh grammatikachilar tovush o‘zgarishlarini tabiat qonunlariga ko‘ra qiyoslaydilar va istisno holatlar uchun izoh topishga harakat qilganlar.*

*Keyinchalik ba’zi tilshunoslar tilni o‘zgaruvchanligini izohlashning boshqa yo‘llarini topadilar. Tilshunoslikning strukturalizm maktabi (XX asr boshlari) tildagi barcha elementlarni o‘z o‘rnida sistema holatida o‘rganishni boshlab beradilar. Tildagi bir elementning o‘zgarishi butun sistemaga ham ta’sir qiladi.<sup>26</sup>*

---

<sup>26</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-P.90

Til taraqqiyotining ichki qonuniyatlari asosan lingvistik (lisoniy) omillar hisobiga shakllanadi. Bularga muayyan tilning strukturaviy-sistemaviy xususiyatlari - fonemalar tizimi, lug‘at boyligi, morfema tiplari, so‘z yasash modellari, grammatik qurilishi, leksik, grammatik birliklarning semantik va funksional xususiyatlari, ular o‘rtasidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi qoida-qonuniyatlar kiradi.<sup>27</sup>

*Til taraqqiyotining tashqi qonuniyatlari* asosan ekstralingvistik (nolisoniy) omillarga tayanadi. Bularga tildan tashqari mavjud bo‘lgan omillar kiradi: ijtimoiy tuzum shakllari, tarixiy jarayonlar, xalqlar va millatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma‘rifiy aloqalar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tafakkur, inson ruhiyati, his-tuyg‘ulari, til va yozuvga oid qonun va farmonlar shular jumlasidandir.<sup>28</sup> Masalan, O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng uning leksikasida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi: ayrim so‘zlar mutlaqo iste‘moldan chiqib ketib, ko‘plab neologizmlar kirib keldi.

Ko‘rinadiki, til taraqqiyotining ichki va tashqi qonuniyatlari lingvistik va ekstralingvistik omillarga tayanadi.

### **Tilning strukturasi va sistemasi tushunchasi**

Fanning turli sohalarida sistemalarning o‘rganilishi «sistema» tushunchasini aniqlash vazifasini qo‘ydi. Xo‘sh, «sistema» tushunchasi nimani, qanday voqelikni, hodisani ifodalaydi? Umumiy sistema nazariyasining asoschisi L. fon Bertalanfi bu tushuncha zaminida o‘zaro munosabatdagi birliklar majmuasi yotishini bayon etadi.<sup>29</sup>

A.Hojiyevning qayd qilishicha: «Sistema» (tizim) so‘zining tilshunoslik termini sifatidagi izohi quyidagicha: 1. O‘zaro munosabatlar bilan bog‘langan, bir butun bo‘lib uyushgan til unsurlari majmui: Til sistemasi (tizimi). So‘z yasash sistemasi

---

<sup>27</sup> **Жамолхонов Н.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 2008, 7-b.

<sup>28</sup> **Жамолхонов Н.** Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 7-b.

<sup>29</sup> **Bushuy T., Safarov Sh.** Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.-B.22.

(tizimi). 2.Ma'lum bir grammatik kategoriyaga xos ichki bo'linishlarning bir butunligi: Kelishiklar sistemasi (tizimi). Mayllar sistemasi (tizimi)».<sup>30</sup>

Lug'at sathining sistemali tuzilishi mohiyati so'zlar orasidagi semantik bog'liqliklarning turli-tumanligi bilan izohlanadi.<sup>31</sup> Bu bog'liqliklar so'zlar vositasida ifodalanayotgan voqelik predmet-hodisalarining umumiyligi tufayli (ularning o'xshashliklari, bir turga kirishi, bajaradigan vazifalari umumiyligi va so'zlarning o'zaro munosabatda bo'lgan bir xil predmet, hodisa, xususiyat, belgini ifodalashida) namoyon bo'ladigan ichki lingvistik yaxlitligi tufayli vujudga keladi. Ammo bu holda o'zaro semantik yaxlitlikka ega bo'lgan u yoki bu predmetni ifodalash vazifasini turli lisoniy belgilar bajaradi.

Lug'aviy sathda yuzaga keladigan semantik munosabatlarning eng universal turi *paradigmatik va sintagmatik munosabatlardir*.

Paradigmatik munosabatlar bir so'z turkumiga mansub va ma'no jihatidan birmuncha umumiylikka ega bo'lgan so'zlar orasida vujudga keladi. Bunday so'zlar majmuasiga kiruvchi birliklar gap tarkibida bir xil pozitsiyalarda bir-birlarining o'rnida ishlatilishlari mumkin. Sintagmatik munosabatlar yordamida birliklar o'zaro bog'lanadilar va nutqiy tuzilma hosil qilish uchun o'zaro birikadilar.

Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar lug'aviy birliklarning semantik xususiyatlari bilan o'zaro uzviy bog'langan. Paradigmatik munosabatlar so'zlarni semantik sinflarga bo'lish uchun asos vazifasini bajaradi. Bir paradigmatik sinfdagi birliklarning jumla tarkibida bajarayotgan vazifalari o'zaro o'xshashdir. Sintagmatik munosabatlar asosida esa paradigmatik sinflar birliklari kommunikativ maqsadlarni bajarish uchun o'zaro birikadilar. Bu ikki xil munosabatlar asosida har bir so'z ifodalayotgan ma'noning paradigmatik va sintagmatik aspektlarini aniqlash mumkin.

So'zlarning tematik guruhlari yoki semantik sath so'z orqali ifodalangan, ekstralingvistik umumiylikka asoslangan, ma'no jihatidan o'zaro bog'langan

---

<sup>30</sup> **Hojiyev A.** Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -Toshkent, 2002, 94-b.

<sup>31</sup> **Ne'matov H., Rasulov R.** O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.-Toshkent, 1995.



leksemalardan tashkil topadi. Bu masala M.M.Pokrovskiy, G.Ipsen, Y.Trir, L.V.Sherba, A.I.Smirniskiy va boshqa olimlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan.

O'tgan asrdayoq rus tilshunosi M.M.Pokrovskiy «so'zlar va ularning ma'nolari bir-birlaridan ajratilgan holda yashamaydilar, biroq bizning ongimizga bog'liq bo'lmagani holda turli guruhlariga bo'linib birikadilar» degan edi.<sup>32</sup>

A.I.Smirniskiyning ta'kidlashicha, tilda «makon», «zamon», «son», «hayvonlar dunyosi» kabi keng tushunchalar mavjud bo'lib, ularning semantik maydoni qiyinchiliksiz, «o'z-o'zidan ajraladi». Lekin, shuning bilan birgalikda ushbu tematik sinflardagi so'zlarning ayrimlari, ko'pma'nolilik xususiyatiga ega bo'lganligi sababli, turli semantik guruhlar tarkibiga kirishi ehtimoli yo'q emas.<sup>33</sup>

Tilning tizimli va strukturaviy xususiyatga ega ekanligi ma'lum. Tilshunoslikda «sistema» va «struktura» tushunchalarining mazmuni qorishtirib yuborilmasligi lozim.

*Sistema o'zaro bog'liqlikdagi elementlar majmuasidan iborat bo'lib, bu majmua yaxlitlikni tashkil qiladi va undagi ishtirokchilarning har biri alohida hamda o'zaro munosabatda tavsiflanadilar.*

*Struktura esa ushbu sistemadagi elementlarning munosabatlari asosida yuzaga keladigan tuzilmadir.*<sup>34</sup>

Sistema va struktura tushunchalarining shu yo'sindagi ta'rifi O.Axmanovanning lingvistik atamalar lug'atida ham o'z aksini topgan.<sup>35</sup>

1. Lug'atda «sistema»ga til birliklarining botiniy tarkibdagi majmuasi deb qaraladi. Bu birliklar turg'un (invariant) munosabatlardadir, masalan, ushbu til uchun xos bo'lgan va nutqiy qurilmalarni hosil qiluvchi sintaktik qoliplar to'plami. Ushbu ta'rif tilning fonetik tizimini so'z va morfemalarni farqlash uchun xizmat qiluvchi

---

<sup>32</sup> **Muhamedova S.** O'zbek tilida harakat fe'llarining semantikasi va valentligi. –Toshkent: Fan, 2005, 57-b.

<sup>33</sup> **Muhamedova S.** O'zbek tilida harakat fe'llarining semantikasi va valentligi. –Toshkent: Fan, 2005, 57-b.

<sup>34</sup> **Bushuy T., Safarov Sh.** Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.-B.22.

<sup>35</sup> **Ахманова О.С.** Словарь лингвистических терминов. – М., 1969. –С.458.

nutq tovushlari to'plami sifatida aniqlashga undaydi. Xuddi shuningdek, ushbu til yoki lahja uchun xos bo'lgan gap turlari va qoliplarini quruvchi so'z shakllari to'plami grammatik tizimni tashkil qiladi. Ifoda planiga kiruvchi farqlar umumlashmasiga esa semiologik tizim sifatida qaraladi. O.S.Axmanova «sistema» tushunchasi doirasiga, shuningdek, grammatik kategoriyani ifodalovchi shakllar va forma yasash paradigmasi kabilarni ham kiritadi.

2. Lug'atda «struktura» tushunchasiinng mazmuni quyidagicha izohlanadi: 1) tilning tovush, fonologik, morfologik va morfonologik tarkiblariga xos bo'lgan umumiy, invariant xususiyatlarning bir-biri bilan bog'liqligi, ya'ni quyi sath birliklarining yuqori sath birliklari tuzilishiga ishtirokiga nisbatan. Bu holda «tovush strukturasi», «leksik struktura», «morfologik struktura» atamaları qo'llaniladi; 2) struktura atamasiinng ikkinchi ma'nosi «gap strukturasi», «so'z strukturasi», «ma'no strukturasi» kabi birliklarda namoyon bo'ladi .

Praga lingvistik maktabida «struktura» atamasi ancha tor mazmunda talqin qilinadi. Praga lingvistik lug'atida berilgan ta'rifdan ma'lum bo'ladiki, ushbu tushunchani O.S.Axmanova ajratgan birinchi ma'noda qo'llab bo'lmaydi: «Til strukturasi» tushunchasi «so'z-gap»ga nisbatan mavjud bo'lgan barcha faktlarni qamrab oladi. Bu gapning umumiy tuzilishi yoki umuman ma'lum tilning grammatik tuzilishi bo'lish mumkin. Umumiy grammatik tizim bir qator alohida tizimlarda namoyon bo'ladi. Shu sababli tuslanish sistemasi, turlanish sistemasi, fonologik sistema haqida gapirilib, «struktura tushunchasini til grammatik qurilishining umumiy xususiyatlarini atash uchun saqlashadi». <sup>36</sup>

Ko'rinadiki, sistema va struktura tushunchalari aynan bir hodisa emas. «Sistema» va «struktura» tushunchalari bir-birlariga yaqin tursalar-da, bir xil ma'no anglatmaydilar. Lug'atlarda ta'riflanishicha, «sistema» so'zi grekcha bo'lib «tashkil qiluvchi qismlardan iborat bo'lgan butunlik» degan ma'noni anglatadi. «Struktura» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, «tuzilish», «qurilish», «joylashish» degan

---

<sup>36</sup> **Bushuy T., Safarov Sh.** Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.-B.22.

ma'nolarni ifodalaydi. «Sistema» so'zi «struktura» so'ziga nisbatan kengroq ma'noga ega.

«Til sistemasi» - til birliklari, kategoriyalari, sathlarining tipik munosabatlaridir.

«Til strukturasi» bu birliklarning qismlari va sathlari orasidagi munosabatlarni ifodalovchi tushunchadir.

«Til birligi» deyilganda, tilning bir-birlaridan bajaradigan vazifasi, tuzilishi va til sistemasidagi o'rni bilan farq qiladigan doimiy elementlari tushuniladi. Tilning nominativ birliklari - so'zlar, kommunikativ birliklari - gaplar, tuzuvchi birliklari (nominativ va kommunikativ birliklarni tuzuvchi) – fonema va morfemalar, so'z shakllari va so'z birikmalari mavjud.

«Til kategoriyasi» deyilganda, bir xil til birliklarining guruhlarini tushuniladi. Kategoriyalar umumiy belgiga asoslangan holda ajratiladi. Masalan, otlarda va sifatlarda rod, son, kelishik kategoriyalari, fe'llarda zamon, mayl, nisbat kategoriyalari mavjud.<sup>37</sup>

**Sistemaning besh jihati.** Taniqli o'zbek tilshunosi, professor Abduhamid Nurmonov sistema nima ekanligiga javob berishdan oldin buning qanday muhim belgilardan iborat ekanligiga e'tibor berish lozimligini ta'kidlaydi. *Birinchiidan, har qanday sistema ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga ega.* Demak, sistema muayyan ichki tuzilishga ega bo'lib, ikki va undan ortiq qismlarning o'zaro munosabatidan tashkil topadi. Masalan, bir tup daraxtni olsak, bu daraxt sistema sifatida ichki tuzilish birliklarining o'zaro munosabatidan iborat. Uning ichki tuzilish birliklari ildiz, tana va shox hamda ularning munosabatidan tashkil topgan.

*Sistemaning ikkinchi jihati shundan iboratki, sistemani tashkil etgan uzvlar o'zaro shartlangan, bir-birini taqozo etuvchi ko'p pog'onali munosabatda bo'ladi.* Masalan, ildizsiz tananing, tanasiz shoxning bo'lishi mumkin emas. Ularning har qaysisi bir-birini taqozo etadi, bir-biri bilan shartlangan.

---

<sup>37</sup> **Bushuy T., Safarov Sh.** Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.-B.23.

*Sistemaning uchinchi jihati shundaki, har qanday sistema ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi tufayli, sistemani tashkil etgan qismlar bilan sistema o'rtasida ham munosabat bo'ladi.* Bu munosabatni: «...dan tashkil topadi», «...ning tarkibiga kiradi» ifodasi bilan ko'rsatish mumkin. Boshqacha aytganda, u butun va bo'lak, tur va jins munosabatini o'z ichiga oladi. Masalan, daraxt va uning ildizi, tanasi, shoxi, barglari o'rtasida butun va bo'lak munosabati bo'lsa, daraxt bilan olma, o'rik, shaftoli o'rtasida tur va jins munosabati mavjud.

*Sistemaning to'rtinchi jihati uning ichki tuzilishining pog'onaviyligidir.* Ya'ni butun va bo'laklik, tur va jinslik munosabati nisbiy xarakterga ega. Ma'lum jinslarga nisbatan tur, bo'laklarga nisbatan butun bo'lgan yoki tur tarkibiga kirib bo'lak yoki jins bo'lishi mumkin. Masalan, olma bir necha navlarning umumlashmasi sifatida navlarga nisbatan tur, har qaysi nav esa jins bo'lib kelsa, daraxtga nisbatan olma jins rolini o'ynaydi.

*Sistemaning beshinchi jihati substantsionalligidir.* Ya'ni substantsiya va uni bevosita kuzatishda tazohirlar orqali voqelanishi, umumiylik – xususiylik, mohiyat - hodisa, imkoniyat – voqelik dialektikasining o'zida namoyon qilishidir.

Demak, A.Nurmonov ta'rifiga ko'ra bir-birini taqozo etuvchi ikki va undan ortiq unsurlarning o'zaro shartlangan munosabatidan tashkil topgan butunlik sistema sanaladi.<sup>38</sup>

**Til sistemalar sistemasi sifatida.** Tilni sistemalar sistemasi sifatida ta'riflash ko'pgina olimlar tomonidan amalga oshirilgan.<sup>39</sup> Xususan, o'zbek olimi A.Sobirov doktorlik dissertastiyasida bu masalani maxsus tadqiq qilgan. Ushbu doktorlik ishida elementlar umumiylikda tizimni tashkil qiladigan obyektlardir, element tizimda o'ziga xos xususiyatlarni saqlagan bo'linmas birlikdir, degan fikr ilgari suriladi.<sup>40</sup> Biroq bo'linmaslik nisbiy tushunchadir. Elementning o'zi ham sistemadan iborat va u

---

<sup>38</sup> Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. –Toshkent, 2001.

<sup>39</sup> Солнцев В.М. Язык как системно – структурное образование. –М.: Наука, 1977. –340 с.

<sup>40</sup> Sobirov A. O'zbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish. Filol.fan.d-ri ... dis. avtoref.-Toshkent, 2005.

ham o‘z navbatida elementlardan tashkil topadi. Boshqacha aytganda, element to‘liq ma’nodan sistemadan tashqarida mavjud emas. Ammo elementlarni tizimning alohida qismlaridan farqlash zarur. Sistemaning qismi vazifasini har qanday beixtiyor va tabiiy ravishda ajralib turgan elementlar guruhi tashkil qilishi mumkin. Boshqacha aytganda, sistema ichida subsistemalar (kichik sistemalar) vujudga keladi.

Har qanday til ham o‘zining tuzilishi, ayrim unsurlarining o‘zaro munosabati bilan butun bir sistemani tashkil etadi. Tilning fikrlarni ifodalashi, his-tuyg‘ularni bildirishi, fikr ifodalaydigan eng kichik birlik bo‘lgan gapning so‘zlardan tashkil topishi, bu so‘zlarning asosiy materiali tovush ekanligi, so‘zlarning ham, tovush hodisalarining ham, so‘z shakllarining (formalarining) ham, so‘zlarni biriktirib, so‘z birikmasi va gap hosil qilishning ham o‘z ma’lum qoidalari borligi bizga ma’lum. Ana shu sanab o‘tilgan holatlarning barchasi tilda mundarija, shakl (forma) va funktsiyaning o‘zaro bog‘liqligini, tildagi qonun-qoidalarining shu uch tomonga asoslanganligini, demak, fonetik, leksik va grammatik sistemalarning organik aloqasini – tilning qismlari bir-biri bilan bog‘langan yaxlit, bir butun hodisa – sistema ekanligini ko‘rsatadi.<sup>41</sup> Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, har bir til fonetik tuzilish, grammatik qurilish va lug‘at tarkibidan iborat. Tilning mazkur tarkibiy qismlari ma’lum qonun-qoidalar negizida bir-biri bilan bog‘lanib, butun bir tilni hosil qiladi. O‘z navbatida, til esa mana shu birikmalar asosida uzviy bog‘langan holda bir butun sistemani tashkil etadi. Ayni zamonda, tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug‘at tarkibining har biri ham alohida bir sistemani tashkil etadi.

**Til strukturasi elementlari.** Til materialini muayyan belgilarga ko‘ra tasniflash g‘oyasi lingvistika faniga hech qachon begona bo‘lmagan (masalan, til materialini an’anaviy ravishda fonetika (fonologiya), morfologiya, sintaksis qismlariga bo‘lib o‘rgangan).

---

<sup>41</sup> O‘zbek tili grammatikasi. 1-tom. Morfologiya. -Toshkent: Fan, 1975.

Ammo «til sathi» tushunchasi dastlab Amerika deskriptiv lingvistikasida ilmiy jihatdan asos topdi. Deskriptivistlar hozirgi zamon tadqiqotlaridan farqli o'laroq, tilning tuzilishini bosqichli bog'liqliklarning murakkab tizimi sifatida emas, balki oddiy ketma-ketlik holida tasavvur qilishadi.<sup>42</sup>

Amerika deskriptiv lingvistikasida sathlarga ajratish g'oyasi «Til strukturasi ichidagi turli elementlarning o'zaro munosabatlari va tilni tasvirlash metodikasi» sifatida muayyan ta'limot ko'rinishini oldi.<sup>43</sup>

Sathlarga ajratish konstepstiyasi oliy va quyi sathlar mavjudligini ham e'tirof etadi. Quyi sath deyilganida nisbatan sodda birliklar, masalan, fonemalarning ayrim kichik sistemalar tashkil qilishi, oliy daraja deyilganida esa murakkabroq birliklar, masalan, so'zlarning tuzilishi nazarda tutiladi.

Til tizimi turli darajadagi muayyan murakkablikka ega bo'lgan birliklar va ulardan foydalanish qoidalari yig'indisidir. Til tizimiga turli qo'llar va sxemalar xos bo'lib, ular asosida turli murakkab birliklar, so'z birikmalari va jumlar yasaldi.

Til birliklari tuzilishiga ko'ra ikki tomonlama birlik – ma'lum mazmun anglatuvchi tovushlar kompleksidan yasalishi yoki ushbu ikki tomonlama birlikning farqini ko'rsatuvchi alohida tovushlardan (fonemadan) iborat bo'lishi mumkin. Tildan aloqa vositasi sifatida foydalanish, ya'ni uni nutq jarayonida ishlatish til elementlaridan axborotni ifodalaydigan va uzatadigan alohida tizimlar yaratishga olib keladi. Nutq jarayonida hosil bo'ladigan bunday sistemalar alohida jumlar bo'lib, nutq sistemasi sifatida til birliklaridan tashkil topadi.

Til birliklari ham murakkablik darajasi va vazifasiga ko'ra farqlanadilar: fonemalar morfema va so'zlarning talaffuzini hosil qilsalar, morfemalar so'zlarni hosil qiladi. So'zlar esa muayyan qoidalar asosida erkin nutq birliklarini – konkret ibora va jumlarni hosil qiladi. Bunday holda yuqori darajadagi birliklar quyi darajadagi birliklar hisobiga rivojlanmaydi.

---

<sup>42</sup> **Bushuy T., Safarov Sh.** Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.-B.41.

<sup>43</sup> **Bushuy T., Safarov Sh.** Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.-B.42.

Til tizimining sathlardan iborat bo'lishi haqidagi g'oyani qo'llagan olimlardan E. Benveniste to'rt sathli tuzilishni taklif qiladi: fonemalar, morfemalar, so'zlar va gaplar sathlari. Til birliklarining xususiyatlari ularning boshqa birliklar bilan munosabatga kirishuvida namoyon bo'ladi. Bunday munosabatlarni umumiy ko'rinishda uch turga bo'lish mumkin: *sintagmatik, paradigmatic va ierarxik munosabatlar*.<sup>44</sup>

*Sintagmatik munosabatlar* birliklarning ketma-ket tartibda birikishidagi munosabatlaridir (ularni ba'zan birliklarning kombinatorlik munosabatlari deb ham atashadi).

*Assosiativ yoki paradigmatic munosabatlar* birliklarning ayrim xususiyatlari umumiyliigi yoki o'xshashligi asosida muayyan guruhlarga bo'linib, munosabatga kirishuvidir.

*Ierarxik munosabatlar* nisbatan oddiy birliklarning murakkabroq birliklar bilan birikishi jarayonida yuzaga keladi. Bu munosabat «yaxlitlik va bo'lak» o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi.

Ierarxik birliklar «...dan iborat», «...dan tashkil topadi» kabi iboralar bilan ifodalanishi mumkin.

Ko'rsatilgan uch turdagi munosabatlarga kirishuv barcha til birliklarining eng umumiy xususiyatlari hisoblanadi.

Har bir sath nisbatan bir xil (bir xil murakkablik darajasiga ega bo'lgan) birliklarning majmuasini tashkil qiladi. Ular o'zaro sintagmatik va paradigmatic munosabatlarga kirishuvlari mumkin, biroq ierarxik munosabatlarga kirisha olmaydilar (fonemalar fonemalardan, morfemalar morfemalardan, so'zlar so'zlardan tashkil topmaydi).

Tilning har bir birligiga xos ichki yaxlitlikka va belgi yoki belgilar birikmasining sintagmatik, paradigmatic va ierarxik munosabatlariga asoslangan yagona mezonning qo'llanishi til tizimida ma'lum ko'rinishdagi sathlarni ajratish imkonini yaratadi.

---

<sup>44</sup> **Bushuy T., Safarov Sh.** Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.-B.44.

*Fonetik – fonologik sath* birligi fonemadir. Fonema mavhum birlik hisoblanadi va u funkstional o‘xshash va fonetik jihatdan bir xil tovushlar yig‘indisi, umumlashmasidan iborat. Boshqacha aytganda, fonema mavhum birlik sifatida umumiylik xususiyati va o‘z variantlariga egadir. Konkret tovushlar fonemalarning variantlaridir va ular «fonlar» yoki «allofonlar» deb yuritiladi. «Fonema» atamasi esa aniq fonemalar sinfining qisqacha nomidir. Fonema va fon invariant va konkret shakldagi (ma’lum vazifa bajarayotgan tovushning) yagona birlikning turli ifodalanishidir. Tovush fonemaning ajralmas bo‘lagi emas, balki u konkret fonemaning ifodasidir.

Fonema morfema va so‘zning tovush qobig‘i tarkibiga kiradi, morfema va so‘zlar tarkibida variantlar ko‘rinishida ifodalanadi. U ichki butunlikka va farqlovchi xususiyatlarga ega bo‘lib, eng kichik belgi sifatida mavjud.

*Morfem – morfologik sath* asosini morfemalar tashkil qiladi. U so‘z va grammatik formalar tarkibiga kiradi, talaffuzda fonemalar yig‘indisidan iborat va grammatik shakllar tarkibida variantlarga ega bo‘ladi. U ham ichki butunlikka ega bo‘lib, (barcha variantlar uchun mazmun birligi) maxsus belgi bilan ifodalandi. Bu belgi mustaqil mazmunga ega emas.

*So‘z yasash sathida* til tizimida mavjud bo‘lgan so‘zlarning strukturasi («so‘zlar qanday yasalgan») va yangi so‘zlar yasash imkoniyatlari («qanday yasaladi?») haqida fikr yuritiladi.

Tilning so‘z yasash imkoniyatlari ushbu tizimni alohida sath sifatida ajratishga turtki bo‘ladi. So‘z yasash modellari morfologik guruhlarini (so‘z turkumlarini) tashkil qilishda ishtirok etadi, so‘zlar orasidagi munosabatlarni umumlash-tiradi, nutq tarkibida qayta voqelanadi, model ichki yaxlitlikka ega (ma’no, vosita va ifoda usullarining yaxlitligi). Morfemalarning asosiy vazifasi so‘z yasash va so‘z shakllarini o‘zgartirishdir.

*Leksik – semantik sath* tahlilida leksikologiya va semasiologiya fanlari bog‘liqligi namoyon bo‘ladi. Leksikologiya tilning umumiy lug‘at tarkibini,



semasiologiya esa leksik ma'noni o'rganadi. Leksik-semantik tizimga lug'aviy va frazeologik birliklarning ma'no - mazmun munosabatlari, ular tashkil qiladigan guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari, o'zaro aloqadorlik xarakteri (leksik-paradigmatik) va tilning boshqa quyi tizimlari bilan bog'liq tomonlari, til birliklarining semantik o'zgarishidagi variantlilik kabi masalalar taalluqlidir.

*Sintaktik sathida* so'z birikmalari va gap tuzilishi, ularning semantikasi o'rganiladi.<sup>45</sup>

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Til va jamiyatning uzviy bog'liqligini izohlab bering.
2. Tilning ijtimoiy funksiyalari nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Til taraqqiyotining ichki va tashqi qonuniyatlarini izohlab bering.
4. Til sistemasi nima?
5. Til strukturasi nima?
6. Sistemaning besh jihatini izohlang.
7. "Til - sistemalar sistemasi" deganda nimani tushundingiz?
8. Til strukturasi elementlari qaysilar?

#### **Asosiy tushunchalar izohi:**

1. Til va jamiyat uzviy bog'liqdir.
2. Til – tabiiy, ruhiy, ilohiy emas, balki ijtimoiy hodisadir.
3. Til taraqqiyotidagi ichki qonuniyatlar tilning o'z tabiati asosida (o'z mohiyatidan) kelib chiqadigan taraqqiyot jarayonlarini ifodalovchi qonunlar hisoblanadi. Ular lingvistik omillarga tayanadilar.
4. Til taraqqiyotining tashqi qonuniyatlari ijtimoiy tuzum shakllari, tarixiy jarayonlar, xalqlar va millatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy aloqalar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tafakkur,

---

<sup>45</sup> **Safarov Sh.** Gap qurilishi: lingvistik tahlil va lingvodidaktika // Filologiya masalalari.–Toshkent: O'z DJTU, 2003, 3-4 sonlar.-B. 51-54.

inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, til va yozuvga oid qonun va farmonlarga bog'liq bo'ladi.

5. Sistema o'zaro bog'liqlikdagi elementlar majmuasidan iborat bo'lib, bu majmua yaxlitlikni tashkil qiladi va undagi ishtirokchilarning har biri alohida hamda o'zaro munosabatda tavsiflanadilar.

6. Struktura ushbu sistemadagi elementlarning munosabatlari asosida yuzaga keladigan tuzilmadir.

7. Til – sistemalar sistemasi hisoblandi, chunki u ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga ega.

8. Til birliklarining xususiyatlari ularning boshqa birliklar bilan munosabatga kirishuvida namoyon bo'ladi. Bunday munosabatlarni umumiy ko'rinishda uch turga bo'lish mumkin: sintagmatik, paradigmatic va ierarxik munosabatlar.

9. Til strukturasi elementlari – til sathlari quyidagilardan iborat: *fonetik – fonologik sath*, *morfem – morfologik sath*, *so'z yasash sathi*, *leksik – semantik sath*, *sintaktik sath*.

## **6-§. TIL VA TAFAKKUR MUNOSABATI**

Insoniyat bilan birga paydo bo'lgan til uning hayotida eng muhim rolni o'ynab kelgan va bundan keyin ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Til, eng avvalo, inson va uning tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Aniq nutqning paydo bo'lishi insonning bilish, idrok qilish jarayonlarini tamoman o'zgartirib yubordi. Til tufayli inson tafakkuri boyidi, moddiy dunyodagi narsa va predmetlarni ongi orqali idrok qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, ularga oid fikrlarini so'z bilan ifodalash imkoniga ega bo'ldi. Til ilk boshdan e'tiboran hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan xizmatni, ya'ni inson tafakkurida umumlashtiruvchi vazifani bajarib keladi.

Psixologiyada ham insonning tafakkur faoliyati haqida aytilganda hissiy bilish bilan birga til va nutqning o'zaro bog'liqligi alohida ko'rsatib o'tiladi. Bunda inson

psixikasi bilan hayvonlar psixikasi o'rtasidagi asosiy farqlardan biri namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Hayvonlarning o'ta oddiy, juda sodda tafakkuri hamma vaqt faqat hayoniy harakat tafakkuriligicha qoladi; ular hech qachon mavhum, bivosita bilish darajasiga etmaydi. Ularning, ya'ni hayvonlarning tafakkuri ayni chog'da go'yo ko'z o'ngilarida turgan narsalarni bevosita idrok qilish bilan ish ko'radi. Ana shunday jo'n tafakkur ayoniy harakat tarzidagi narsalar bilan munosabatda bo'ladi va bunday hayvoniy harakat doirasidan chetga chiqmaydi. Faqat nutq paydo bo'lgach, bilinayotgan obyektidan ma'lum bir xususiyatni ajratib olib, uni maxsus so'z yordamida tasavvurda yoki tushunchada mustahkamlash, qayd etish imkoniyati tug'ildi. Tafakkur so'zda o'zining moddiy qobig'iga ega bo'ladi, tafakkur faqat so'z orqali boshqalar uchun va o'zimiz uchun ham bevosita reallikka aylanadi. Inson tafakkurini, u qanday shaklda amalga oshirilmasin, tilsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Har qanday fikr nutq bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'ladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli suratda o'ylangan bo'lsa, u so'zlarda, og'zaki va yozma nutqda shunchalik aniq hamda yaqqol ifodalangan bo'ladi. yoki, qandaydir fikrning so'z orqali ifodasi qanchalik ko'p takomillashgan, sayqallangan bo'lsa, ayni shu fikrning o'zi shunchalik yaqqol va tushunarli bo'ladi.

Kishi o'zining fikr-mulohazalarini boshqalar uchun ovoz chiqarib ifodalab berar ekan, buning bilan u shu mulohazalarni o'zi uchun ham ifodalaydi. Fikrni ana shu tarzda so'zlar orqali ifodalash, mustahkamlash, fikrni so'zlarda qayd qilish fikrni bo'lishni anglatadi, diqqatni mazkur fikrning turli o'rinlarida va qismlarida tutib turishga yordam beradi hamda fikrning qismlarini yanada chuqurroq tushunishga imkon tug'diradi. Shu tufayli keng, izchil, sistemali mulohaza yuritish, ya'ni tafakkur jarayonida tug'ilgan hamma asosiy fikrlarni bir-biri bilan aniq va to'g'ri solishtirib ko'rish mumkin bo'ladi. Shunday qilib, so'zda, fikrni ifodalashda tafakkurning eng muhim zaruriy, mulohazali, mantiqiy bo'laklarga ajratilgan va anglashilgan tomonlari berilgan bo'ladi. Fikrni so'zda ifodalash va mustahkamlash orqali u yo'qolmaydi hamda paydo bo'lishi bilanoq o'chib qolmaydi. Fikr so'z iboralarida – og'zaki yoki

yozma soʻz iboralarida mustahkam qayd qilinadi. Shuning uchun, kerak boʻlganda, mazkur fikrga yana qaytish, uni yanada chuqurroq oʻylab, tekshirib koʻrish va qayta oʻylash davomida boshqa fikrlar bilan solishtirib koʻrish imkoniyati saqlanib qoladi. Shunday qilib, inson tafakkuri til va nutq bilan chambarchas bogʻliqdir. Tafakkur zaruriy tarzda moddiy soʻz qobigʻida mavjuddir.<sup>46</sup>

Maʼlumki dialektika kategoriyalarining uchinchi turkumiga bilish jarayonini aks ettiruvchi tushunchalar kiradi. Dunyoni bilish, idrok etish masalasi doimo falsafa fanining diqqat markazida boʻlib kelgan. Qadimgi faylasuflar ham dunyoni bilish mumkinligini eʼtirof etib kelganlar. Xususan, oʻrta osiyolik buyuk mutafakkirlar Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulugʻbek va boshqalar ham oʻz asarlarida dunyoni bilishning, bilish jarayonida hissiy organlar bilan aqlning roli haqida qimmatbaho fikrlarni ilgari suradilar.

Ingliz faylasufi Bekon taʼlimoticha, bilish jarayoni fan va amaliyot bilan bogʻliq boʻlishi va shularga bevosita xizmat qilishi kerak. Uning fikricha, obyektiv mavjudlik toʻgʻrisidagi bilimlar sezgilarimiz orqali olingan dalillar tufayligina tafakkur yordamida toʻldiriladi. Fransuz faylasufi Dekart esa bilishning birdan bir manbai tafakkur deb biladi. Dekartning vatandoshlari Didro, Golbax, Gelvetsiyalar dunyoni bilish jarayonida sezgilarimiz bilan tafakkurning rolini tan olsalar-da, ularning oʻzaro munosabatlarini toʻla-toʻkis ochib bera olmadilar. Tafakkur xususida bunday falsafiy fikrlarni koʻp keltirish mumkin. Lekin falsafada shunday fikr borki, bilish – inson tafakkuridagi voqelikning inʼikos jarayonidir.<sup>47</sup>

Mantiq ilmida ham til va tafakkur munosabatlariga alohida eʼtibor berilgan. Unda tafakkurning muhim xususiyati sifatida uning til bilan bogʻlanganligi eʼtirof etiladi. Unda taʼkilanishicha, inson tafakkuri uning tili bilan birga takomillashib rivojlangan. Tilda tafakkurning ish natijasi mustahkamlanadi. Til oʻzining shu xislati bilan insonga bilim toʻplashga, uni saqlashga, avloddan-avlodga uzatishga, toʻplagan

---

<sup>46</sup> **Umumiy psixologiya.**- Toshkent: Oʻqituvchi, 1992.

<sup>47</sup> **Tulenov J.** Dialektika nazariyasi. – Toshkent, 2001.

bilish boyliklaridan hayotiy faoliyatida unumli foydalanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, til tafakkurni takomillashtirish, mavhumlashtirish, umumlashtirish va juz'iyashtirish qurolidir. Shuning uchun ham bizning tafakkurimiz voqelikni bevosita aks ettirish vositasi bo'lgan sezgilardan til yordamida ifodalanishi bilan farq qiladi.

**Til va mantiq birliklarining o'zaro munosabati.** Til va tafakkur reallikni bilish, boshqa insonlar bilan munosabatda bo'lish, obyektiv reallikka ta'sir ko'rsatish, har bir ishni oldindan o'ylab, ongli ravishda amalga oshirish kabilarda ko'rinuvchi, umuman, inson faoliyatining ongli, maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi insongagina xos bo'lgan muhim xislatdir. Lekin amalda, hayotda, tarixiy jarayonda til va tafakkur har doim o'zaro ajralmas bo'lsa-da, ularni turli fanlar alohida o'rganadi. Masalan, tafakkur formalarini mantiq fani o'rgansa, til kategoriyalarini tilshunoslik fanlari tadqiq etadi. Tafakkur umuminsoniy bo'lsa, til, uning qonun-qoidalari milliy xarakterga ega. Dunyodagi tillar juda ko'p qonun-qoidalariga ko'ra bir-biridan farq qiladilar. Tafakkur shakllari, tamoyillari esa, insonlarning millati, irqi, davridan qat'iy nazar, hammada bir xildir.<sup>48</sup> Demak, tafakkurning moddiy qobig'i tildir. Shunday ekan til bilan tafakkurni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Lekin ayrim tilshunoslar, xususan, N.Ya.Marr til bilan tafakkurni ajratib qo'ydi. U shunday yozadi: «Bo'lajak til tabiiy materiyadan xoli bo'lgan, texnikada o'sib borayotgan tafakkurdir».<sup>49</sup> Bunda, albatta, tilning tafakkurdan ajratib qo'yilganligi ko'rinib turibdi. Go'yo kishilar kelajakda o'z qobig'idan xoli bo'lgan tafakkur bilan ish ko'ra berar emish. Albatta, bu fikrlar bundan 70-80 yil muqaddam aytilgan. Bizningcha, N.Y.Marr texnika taraqqiyotini o'z ko'rishlariga ko'ra baholagan bo'lishi mumkin. Lekin bugungi axborot texnologiyalari o'ta taraqqiy etgan davrda ham til bilan tafakkur bir-biridan aloqasini uzgan emas, aksincha, yanada yaqin munosabatda bo'lmoqda. Buni biz ko'rib, sezib turibmiz. Tabiat va jamiyatda inson tiliday murakkab, serqirra, serqatlam, servazifa, shakl va mazmun munosabati murakkab hodisa kamdan-kam

---

<sup>48</sup> Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. –Toshkent, 1993.

<sup>49</sup> Sodiqov A. va boshq. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 1981.

topiladi. Til dunyoni bilish, bilimlarni to'plash, saqlash, keyingi avlodlarga etkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajarishiga qaramasdan, asosiy e'tibor uning kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlash vazifasiga qaratib kelindi. Tilni faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatidagina talqin etish insonning tabiiy tilini, bu benihoya murakkab hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mutlaqo ayrilgan sun'iy tilga tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli «til»ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas. Agar til faqat aloqa vositasigina bo'lganda edi, u juda oddiy, sodda va qashshoq bir narsaga aylangan bo'lardi. Holbuki, til bemisl boy, sehru sinoatga, ruhu ruhoniyyatga, ko'rku komillikka limmo-lim bir ne'matdir.

O'zaro fikr almashish va uni kelajak avlodlarga etkazuvchi vosita sifatida milliy madaniyatning shakllaridan biri bo'lgan til ong va tafakkur bilan uzviy bog'langandir. Ushbu matnda qo'llangan «fikir», «tafakkur» va «ong» terminlarini ko'p hollarda sinonim sifatida ko'ramiz. Aslida ularning har biri ma'no ifodalash doirasiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Xususan, ong – voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o'z ichiga olgan va ma'lum maqsadga yo'nalgan holda aks etishi. Fikir – tafakkurning aniq bir natijasi. Tafakkur - o'ylash, muhokama qilish, voqelikni anglash, tasavvur qilish, unga baho berish, fikrlash qobiliyati. Demak, tafakkurni so'z boyligi vositasida ifodalashda asosiy vazifani til bajaradi. Albatta, har bir inson tafakkuridagi fikrlarni ifodalashda shu inson nutqining naqadar takomil topganligi muhim sanaladi. Chinakam nutq madaniyati shu tilning butun boylik va go'zalliklaridan foydalana olish, uni ne'mat sifatida idrok etish asosida shakllanadi. Aniqki, nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulotda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari,

farzandlarimizning nutqiy madaniyat ko'nikmalari va malakalarini oshirish, ta'lim jarayonlarining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan ham dolzarblik kasb etganligi bejiz emas. Respublikamizda so'nggi yillarda qabul qilingan «Davlat tili haqida», «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlar, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va boshqa juda ko'plab hujjatlarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, til masalalariga alohida e'tibor berilgan. Fikrni o'z ona tilida mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda etish uchun odamda nutqiy madaniyat yetarli darajada shakllanishi kerak, busiz, zotan, ona tiliga sohiblik degan tushuncha ham ma'noga ega emas. Chunki nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadga o'ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.<sup>50</sup>

Inson tafakkurining mahsuli yoki fikrni so'z orqali ifodalash qobiliyati, mahorati sanalgan nutqning madaniyligini ta'min etuvchi to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, rang-baranglik, soflik kabi bir qancha sifatlar mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi .

*Tafakkur tili kommunikatsiyada eng muhim metod sifatida namoyon bo'ladi, nafaqat, u metod, balki til tabiatini namoyon qiladi. Biz muloqot jarayonida so'zlash bilan birgalikda imo-ishoralar, yuz ifodalari, qolaversa, tana harakatlaridan ham foydalanamiz, bular noverbal vositalardir.*<sup>51</sup>

Til va tafakkur o'z birliklarining ahamiyati va qurilishi nuqtayi nazaridan farqlanadi. Tafakkurning maqsadi yangi bilimlarni olish va ularni sistemalashtirishdan iborat bo'lsa, til fikrni shakllantiradi, mustahkamlaydi va uni boshqa obyektga yetkazadi. Boshqacha aytganda, biz bilish va tushunish uchun fikrlaymiz, fikrimizni, istak va hissiyotlarimizni ifodalash uchun esa gapiramiz. Tilning asosini uning grammatik qurilishi, so'z yasash va gap tuzish qoidalari tashkil etib, ular fikrni aniq

---

<sup>50</sup> Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. –Toshkent, 1999.

<sup>51</sup> Vrabel T.T. Lectures in theoretical phonetics of the english language and method-guides for seminars, poliprint ungvár, 2009.-P.12

ifodalash hamda tushunarli tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Bir soʻz bilan aytganda, fikr tilda soʻzlar vositasida shakllanadi. Ongimizda shakllanadigan har qanday fikrning mohiyati, mazmunini tashkil etuvchi idrok yoki tasavvur faqat soʻzlar vositasidagina voqelanadi. Demak, inson tafakkurining mahsuli til orqali namoyon boʻladi.

## **7-§. TIL VA MADANIYAT MUNOSABATI**

Til – madaniyatning koʻzgusi boʻlib, unda nafaqat insonni oʻrab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy oʻzini oʻzi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, anʼanalari, urf-odatlarini, axloqi, qadriyatlar yigʻindisi va dunyoqarashi ham aks etadi.

Til – madaniyat xazinasini, sandigʻi, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, ogʻzaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi.

Til – madaniyat tashuvchisi boʻlib, u ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham oʻzlashtiradi.

Til – madaniyatning quroli, vositasidir. U xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi.

Demak, til “bizning hayot tarzimizni tavsiflovchi ijtimoiy meros qilib olingan malaka va gʻoyalarni majmuyi sifatida madaniyatdan tashqarida mavjud boʻlolmaydi. Til inson faoliyatlarining biri sifatida madaniyatning tarkibiy qismi hisoblansa-da, tafakkur shakli va muloqot vositasi sifatida madaniyat bilan bir qatorda turadi.

Agar tilga uning strukturasi, vazifalari va uni oʻzlashtirish jihatidan qaraladigan boʻlsa, u holda ijtimoiy qatlam yoki madaniyatning komponenti tilning tarkibiy qismi boʻladi. Ayni paytda madaniyatning komponenti til orqali xabar qilinadigan qandaydir madaniy informatsiya emas. U tilning barcha sathlariga tegishli boʻlgan tilga xos ajralmas xususiyatdir.



Til – kishilar oqimini xalqqa aylantiradigan, mazkur nutq jamoasining o‘zini o‘zi anglashi, madaniyati, an’analarini saqlashi va ularni meros qilishi orqali millatni shakllantiradigan kuchli ijtimoiy vositadir.

“Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o‘rinda turadi. Til birinchi navbatda, madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni uzib qo‘yuvchi vosita bo‘lishiga yordam beradi. Til – uning sohiblarining muayyan jamoaga tegishli ekanini ko‘rsatadi. Xalqning o‘ziga xos asosiy xususiyati bo‘lgan tilga “ichki” va “tashqi” jihatdan yondashish mumkin. Tilga “ichki” jihatdan yondashilganda, u etnik integratsiyaning bosh omili sifatida namoyon bo‘lsa, “tashqi” jihatdan yondashilganda, u xalqning etnik farqlarini ko‘rsatadi. Bu ikki qarama-qarshi funksiyani o‘zida dialektik birlashtirgan til bir tomondan xalqning o‘z-o‘zini saqlash vositasi, ikkinchi tomondan uni “o‘ziniki” va “begona”ga ajratish vositasi bo‘lib xizmat qiladi”.

Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib “til madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki uning o‘zi madaniyatdan o‘sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir” degan faraz qabul qilina boshlandi. Ayni paytda til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi (matnlar ko‘rinishida) va uning tarkibiy qismidir. Chunki til vositasida madaniyatning moddiy va ma’naviy asarlari yaratiladi. Ana shu g‘oya asosida ming yillar davomida shakllangan lingvokulturologiya fanning yangi, maxsus sohasi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmaning mahsuli bo‘lib, u so‘nggi o‘n yilliklar davomida rivojlanib kelmoqda.

XXI asrning boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylandi. Lingvokulturologiya tilda va diskursda o‘z aksini topgan va mustahkamlangan xalq madaniyatini o‘rganadi. U birinchi navbatda, muayyan madaniyatning mif, afsona, urf-odat, an’ana, udum, taomil, ramzlarini va h.k.ni tadqiq etadi. Mazkur konseptlar madaniyatga taalluqli bo‘lib, ular tilda maishiy va taomil muomalasi shaklida mustahkamlanadi.

V.N.Teliyaga ko‘ra, lingvokulturologiya, avvalo, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda qo‘llaniladigan til ifodalarining sinxron harakatdagi xalq mentaliteti bilan aloqasini tadqiq qiladi.

Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi. Binobarin, V.N. Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir”.<sup>52</sup>

G.G.Slishkinga ko‘ra, “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘i, insondagi madaniyat omiliga yo‘naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo‘lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi”.<sup>53</sup>

N. Alefirenko lingvokulturologiyani quyidagicha tavsiflaydi:

- lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;

- lingvokulturologiyaning asosiy e‘tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi;

- lingvokulturologiya tilshunoslik fanlariga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tillari o‘qitish jarayonida amaliy foydalanish mumkin;

- lingvokulturologiya tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlari: a) lisoniy shaxs; b) til madaniy qadriyatlarning semiotik gavdalantirish tizimi hisoblanadi.<sup>54</sup>

---

<sup>52</sup>Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. –С. 222.

<sup>53</sup> Слышкин Г.Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. –М.: Издательский центр «Академия», 2000.

<sup>54</sup> Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие. –М.: Флинта, Наука, 2010. –С. 21.

Lingvokulturologiyada bugungi kunga qadar bir qancha yo‘nalishlar shakllangan:

1. Muayyan ijtimoiy guruhlar, xalqning ko‘zga ko‘ringan davrdagi madaniy munosabatlari lingvokulturologiyasi, ya’ni aniq lingvokulturologik holatlarning tadqiq etilishi.

2. Xalqning muayyan davriga tegishli bo‘lgan lingvomadaniy o‘zgarishlarni o‘rganadigan diaxronik lingvokulturologiya.

3. O‘zaro aloqada bo‘lgan turli xalqlarning lingvomadaniy ko‘rinishlarini tadqiq qiladigan qiyosiy lingvokulturologiya.

4. Chog‘ishtirma lingvokulturologiya. U endi rivojlanishga boshlagan bo‘lib, ayrim tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Masalan, M.K. Golovanivskaya “Rus tili sohibi nuqtayi nazaridan fransuz mentaliteti” nomli tadqiqotida fransuz mentaliteti xususiyatlarini rus tili va madaniyati sohibining nuqtayi nazaridan o‘rgangan. Tahlil materiali sifatida rus va fransuz tillaridagi taqdir, xavf, omad, jon, vijdon, fikr, g‘oya va h.k. mavhum otlar xizmat qilgan.

5. Geografik lug‘atlar (qarang: Amerikana. Англо-русский лингвострановедческий словарь / Под ред. Н.В.Чернова. - Смоленск, 1996; Мальцева Д. Г. Германия: страна и язык: Лингвострановедческий словарь. - М., 1998; Муравлева Н.В. Австрия: Лингвострановедческий словарь. - М., 1997 va h.k.)ni tuzish bilan shug‘ullanadigan lingvomadaniy leksikografiya.<sup>55</sup>

Qayd qilinganlar orasida oxirgi yo‘nalishning faol rivojlanganligini ko‘rish mumkin. Masalan, D. G. Malsevaning lug‘ati 25 mavzuiy bo‘limni o‘z ichiga oladi. Ularda Germaniyaning geografik realiyalari, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tarixi, urf-odatlari, an‘analari, afsonalari, aforizmlari, turli bayram va marosimlari, diniy aqidalari, pul birligi, o‘lchov birligi, sanoati, savdosi, fan va texnikasi, san‘ati, ta‘limi, milliy taomlari, me‘moriy obidalari, milliy xarakteri va h.k. ni ifodalaydigan

---

<sup>55</sup> Til va madaniyat munosabatiga doir ma‘lumotlar quyidagi manbadan olindi. Usmanova Sh. “Lingvokulturologiya” fanidan ma‘ruza kurslari. –Toshkent: Universitet, 2014.

til birliklari aks etgan. Bunday lug‘atlar asosida til va madaniyatning o‘zaro aloqasini atroflicha o‘rganish mumkin.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalarni tadqiq etilganini ko‘rish mumkin: 1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda miqlar, xalq og‘zaki ijodiga xos janrlar tili o‘rganilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asardagi lingvomadaniy konseptning ifodalanishi tadqiqi. Bunda asosan badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy yo‘nalishdagi tadqiqotlar. Bunda ko‘proq rus tilidagi birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog‘liq jihatlari. Bunda ijtimoiy fanlarda o‘quvchi va talabalarga lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish maqsad qilib olingan.

O‘zbek tilshunosligida lingvokulturologik tadqiqotlar oxirgi o‘n yilliklarda paydo bo‘la boshladi. Jumladan, Z.I.Soliyevaning nomzodlik ishida o‘zbek va ingliz tillaridagi sentensiya, ya’ni axloqiy-ta’limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlari yoritilgan.<sup>56</sup> R.S.Ibragimovanning nomzodlik dissertatsiyasida *ayol* konseptining o‘zbek va fransuz tillarida ifodalanish yo‘llari tadqiq etilgan.<sup>57</sup> D. Xudoyberganovanning “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomli monografiyasining alohida bobi o‘zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.<sup>58</sup> Shuningdek, professor N. Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida lingvokulturologiyaning mohiyati va bu sohadagi muammolar ko‘rsatib berilgan.<sup>59</sup>

Tadqiqotning obyektiga deganda borliqning ayrim sohasidagi o‘zaro aloqadagi jarayonlar, hodisalar majmuyi, tadqiqotning predmeti deganda esa o‘ziga xos

---

<sup>56</sup> Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика предложения в английском и узбекском языках: Автореф. дисс...канд.филол.наук. –Ташкент, 2010. –С.25.

<sup>57</sup> Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида АЁЛ концептининг лингвокогнитив тадқиқи: Филол. фанлар номзоди... дис.автореф. –Тошкент, 2012.

<sup>58</sup> Худойберганова Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013.

<sup>59</sup> Маҳмудов Н. “Тилнинг мукамал тадқиқи йўллариини излаб...”// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. -№ 5. –Б. 3-16.

xususiyatga, jarayonga va mezonlarga ega bo'lgan obyektning ayrim qismi tushuniladi. Masalan, barcha ijtimoiy fanlar uchun umumiy obyekt inson, ularning predmeti insonning muayyan tomoni va faoliyati hisoblanadi.

Lingvokulturologiyaning **obyekti** – madaniyat va tilning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'sirini bir butunlikda tadqiq qilishdir.

Lingvokulturologiya tilni madaniyatning fenomeni, madaniyatni tashuvchisi sifatida o'rganadi. Madaniyatni tildan foydalanuvchi inson yaratadi. Lingvokulturologiyaning obyekti lingvistiki va kulturologiya, etnografiya va psixolingvistika singari qator fundamental fanlarning kesishmasida joylashadi<sup>60</sup>.

Lingvokulturologiyaning obyekti haqida ba'zi munozarali fikrlar ham yo'q emas. Jumladan, V.N.Teliyaning fikricha, lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'rganadi. V.A.Maslovaga ko'ra, bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o'rganadi. Bundan tashqari, V.N.Teliya lingvokulturologiya obyekti umuminsoniy xarakterga ega bo'lishini ta'kidlagan bo'lsa, V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o'rganilishi lozimligini uqtiradi<sup>61</sup>.

Lingvokulturologiyaning **predmeti** – madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi. Bunda muayyan lingvokulturologik birlik bir paytning o'zida bir qancha semiotik tizimlarga tegishli bo'lishi mumkin: ma'lum bir odat frazeologizmga, maqolga, matalga aylanishi mumkin.

---

<sup>60</sup> Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.35-36.

<sup>61</sup> Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение: учебное пособие. –М.: Флинта, 2011.

Tadqiqot obyektining vaziyatidan kelib chiqqan holda, uning alohida lingvokulturologik birliklardan tashkil topgan bir qancha predmetlarini ko'rsatish mumkin.

1. *Muqobilsiz leksika va lakunalar*. Har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir so'z bilan tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar mavjud bo'ladi. Bunday so'zlarga muqobilsiz leksika deyiladi. Muqobilsiz leksika muayyan xalq madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. U ko'pincha mahalliy xalqqa xos pul, masofa-uzunlik birliklari, ro'zg'or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik-ichkilik va h.k. tushunchalarni anglatadigan so'zlardan tarkib topadi. Muqobilsiz leksika boshqa tilga o'zlashtirilganda ularga ekzotik leksika (ekzotizmlar) deyiladi. Ekzotizmlar va etnografizmlar o'zga madaniyatning ramzi sanaladi. Jumladan, *spiker, kriket, shilling* – Angliya; *yaylov, qishloq, ariq, dehqon, cho'l* – O'rta Osiyo; *sakura, geysa, ikebana, sake* – yapon madaniyatining belgilarini assotsiatsiyalaydi. O'zbek madaniyatining belgilarini *palov, patir, sumalak, ko'rpacha, belbog' (belida belbog'i bor), do'ppi (do'ppisi osmonda, do'ppi tor)* va h.k. so'zlarda ko'rish mumkin.

Muqobilsiz leksikani boshqa tilga tarjima qilib berish o'zini oqlamaydi. Shuning uchun uni transliteratsiya yo'li bilan talqin etish maqsadga muvofiqdir. "Amerika Qo'shma Shtatlari "dollar"ining, ingliz "funt sterling"ining, nemis "marka"siyu hind "rupiya"sining, afg'on "afg'oniy"sining transliteratsiya qilinmasdan, o'zbek "so'm"i bilan almashtirib qo'yilishi, AQSh "brendi"si, ingliz "viski"si, nemis "shnapse"sining rus "vodka"si orqali talqin etilishi ingliz boshiga "shlyapa" o'rniga o'zbek "do'ppi"sini, egniga "palto" yoki "plashch" o'rniga "to'n" yoki "yaktak" kiygizib qo'yish bilan baravar"<sup>62</sup>.

Bir tildagi so'z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o'rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi. Lakunalar (lot. *lacuna* – bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy) – matnda bo'sh qolgan, tushib qolgan joy, "tilning semantik xaritasidagi oq

---

<sup>62</sup> Мусаев Қ. Гаржима назарияси асослари. Дарслик. –Тошкент: Фан, 2005. – Б. 93.

dog‘lar”dir <sup>63</sup>. Muqobilsiz leksika singari lakunalar ham tillarning qiyosida seziladi. Masalan, ingliz tilida “yurist, advokat” ma’nosini anglatgan *lawyer* so‘zidan boshqa advokatlik kasbining turli-tumanligini ifodalaydigan *attorney* “vakil”, *barrister* “oliy sudlarda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan advokat”, *solicitor* “mijozlarga va tashkilotlarga maslahat beruvchi; quyi sudlarda ishtirok etish huquqiga ega”, *counsel* “yuriskonsult”, *counsellor* “maslahatchi”, *advocate* “oliy darajadagi advokat”. O‘zbek va rus tillarida qayd qilingan ifodalarga faqat bir *advokat* so‘ziga muqobil bo‘ladi.

2. *Mifologiyalashtirilgan til birliklari*. Bular arxetiplar va mifologemalar, udumlar va rivoyatlar, taomillar va urf-odatlar sanaladi. Har bir aniq frazeologizm da butun boshli bir mif emas, balki mifologema aks etadi. *Mifologema* – bu mifning “bosh qahramoni”, uning muhim personaji yoki vaziyati bo‘lishi va u mifdan mifga o‘tishi mumkin. Mifning asosida odatda arxetip yotadi. *Arxetip* – individlar ongida paydo bo‘ladigan va madaniyatda tarqaladigan turg‘un obraz. Arxetip tushunchasi K.G.Yung tomonidan 1919-yilda e‘lon qilingan «Инстинкт и бессознательное» maqolasida muomalaga kiritilgan. K. G. Yungga ko‘ra, barcha odamlarda tush, miflar, ertak va afsonalarda paydo bo‘ladigan ayrim umumiy ramzlar – arxetiplarni g‘ayriixtiyoriy shakllantiradigan tug‘ma qobiliyat bo‘ladi. Arxetiplarda shaxsiy tajriba oqibatida emas, balki ajdodlardan meros qilib olingan «kollektiv g‘ayriixtiyoriylik» ifodalanadi. K. Yung genetik nazariya doirasida arxetipning mifologiya bilan chambarchas bog‘liqligini belgilaydi. Binobarin, mifologiya arxetiplarning omboridir. <sup>64</sup>

O‘zbek kundalik turmushida non muhim ozuqa hisoblanadi. Xalqimiz nonni azaldan hurmat qiladi, hamma narsadan afzal, aziz va muqaddas biladi. Otabobolardan qolib kelayotgan udum, an’anaga binoan, hatto nonni teskari tishlamaydilar, nonning ustiga boshqa narsalarni qo‘ymaydilar, nonni ustidan hatlab

---

<sup>63</sup> Степанов Ю.С. Французская стилистика. –М., 1965. –С. 120.

<sup>64</sup> Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.37.

o'tmaydilar, agar non qo'ldan yerga tushib ketsa, darhol uni olib, uch marta o'pib, peshanalariga suradilar, non ushoqni dasturxon ustida ko'rsalar barmoqni ho'llab, ushoq ustiga bosib, yeb qo'yadilar. Nonga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lish bolalarga yoshlikdan o'rgatiladi, ularga nonning ushog'ini yerdan yig'ib olish, uni e'zozlash va oyoq osti qilmaslik zarurligi uqtiriladi. Biron o'zbek yo'lga chiqsa, albatta, o'zi bilan birga non oladi. Shunga ko'ra, tarkibida *non* komponenti ishtirok etgan *non yemoq, noni butun, noni yarimta bo'ldi, non ursin* singari frazeologizmlarning asosida *non* arxetipi hayot, tirikchilik, rizq-ro'z, to'kin-sochinlik ramzi sifatida keladi. *Non* arxetipi, binobarin, nonni peshana teri bilan topilishi, uni halolab yeyilishi Muqaddas kitoblardan boshlab ("Sen yerdan olingansan va yerga qaytguningga qadar peshana teri bilan non yeb yurasan". Ibtido 3. 620b.), o'zbek xalq dostonlarida, ertaklarida, rivoyatlarida va h.k.da uqtirilgan.

3. *Tilning paremiologik (maqol va matallar) fondi.* Tilning paremiologik fondini xalq durdonalaridan tuzilgan va uning madaniyatidan mustahkam o'rin olgan javohir sandig'i deyish mumkin. Ma'lumki, maqol va matallar folklorshunoslikda janr matnlari sifatida keng o'rganilgan. Ularni tilshunoslikda, xususan, lingvokulturologiyada o'rganish endi boshlanmoqda. Pragmatik nuqtayi nazardan maqollar turli maqsadlarda, jumladan, ayni maqol kesatish, yupatish, o'git berish, maslahat berish, saboq berish, ogohlantirish, tahdid qilish va h.k. qo'llanishi mumkin. Biroq har qanday maqol va matal ham lingvokulturologik tadqiqotlarning predmeti bo'lavermaydi. Bu o'rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma'naviyati va h.k. bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maqol va matallar o'rganilishi lozim bo'ladi. Masalan, Andijonda mehmon kelgan xonadonga hurmat yuzasidan qo'shnilar dasturxon chiqazishadi. Shuningdek, o'zbek xonadonlarida qo'shnilar o'rtadagi devorning biror yeridan teshik ochib qo'yishadi. Bu teshik orqali bir-birlaridan hol-ahvol so'rashadi, tansiq ovqat qilganlarida biron idishda shu ovqatdan uzatishadi. *Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan* maqoli ana shu odatning ta'siri tufayli yuzaga kelgan. Ba'zan muayyan bir tilning realiyalari ana shu



tilning maqollarida ham o‘z aksini topib majoziy ma’no kasb etadi. Masalan, *Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topilar* maqolida o‘zbek milliy kiyim-kechaklarining atributi bo‘lgan do‘ppi realiyasi ishtirok etgan. Mazkur maqol: “Kishi uchun eng zarur narsa, eng katta boylik – tanisog‘lik. Sog‘lik bo‘lsa, boshqa hamma narsani topish mumkin, ammo hech bir narsa bilan sog‘likni topib bo‘lmaydi” degan ma’noni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

4. *Tilning frazeologik fondi* xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma’lumotlar manbai sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miqlari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlar, ma’naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi. Masalan, *ko‘rpa-siga qarab oyoq uzatmoq* “imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq”, *tanobini tortmoq* “faoliyat doirasini, imkoniyatini cheklab qo‘ymoq”, *to‘ydan ilgari nog‘ora qoqmoq* “ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtidan oldin gapirmoq”, *to‘nini teskari kiyib olmoq* “o‘chakishgan holda qaysarlik qilmoq”, *xamir uchidan patir* “katta ko‘p narsadan boshlang‘ich va kichik bir qism”, *xirmon ko‘tarmoq* “ekin-tikinni yig‘ib, hosil me‘yorini hisob-kitob qilmoq”, *Xo‘ja ko‘rsinga* “shunchaki nomigagina”, *Xizrni yo‘qlasam bo‘lar ekan* “kimnidir ko‘rish istagi qo‘qisdan ro‘yobga chiqqanda aytiladigan ibora”. Biron tilning o‘zigagina xos bo‘lgan hisob so‘zlari qolipining frazeologizmlarga ko‘chganini ko‘rish mumkin. Masalan, “juda qisqa, juda oz vaqt davom etadigan” ma’nosidagi *bir tutam* (*Bir tutam* qish kuni Gulnor uchun bitmas-tugamas uzoq ko‘rindi), “qittak, ozgina” ma’nosidagi *bir chimdim* (*Hazil-huzul, bir chimdim* suhbatdan so‘ng Mirhaydar va O‘ktam paxta dalasiga yo‘l oldilar), “jindak, qittak, juda oz” ma’nosidagi *bir shingil* (*Qani, shunaqa bemaza hazildan bir shingil* ashula yaxshi), “juda yosh, deyarli go‘dak” ma’nosidagi *bir qarich* (*Bir qarichligimdan* yetim qolib, amakining xizmatida o‘tib ketganman) singari frazeologizmlar shular jumlasidandir.

5. *O‘xshatishlar, ramzlar, stereotiplar*. O‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ular nutqda hamisha

badiiy-estetik qimmatga molik bo‘ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘xshatishlarning ikki turi: 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi.

Turli lingvomadaniyatlarda muayyan bir narsaning, masalan, hayvonning turg‘un o‘xshatish etaloni sifatida qo‘llanishini kuzatish mumkin. Masalan, aksariyat tillarda tulki ayyorlik, aldoqchilik, yolg‘onchilik ramzi, etaloni sifatida faol ishlatiladi: *tulkiday ayyor*, *хитрый как лиса* (ruscha), *as false as fox* (inglizcha), *you chorom* (koreyscha). Yoki o‘zbek tilining o‘ziga xos o‘xshatishlari sifatida *qo‘ydek yuvosh*, *arvohday ozg‘in*, *moldek ovqat yeydi* va h.k. ni ko‘rsatish mumkin.

Mazkur o‘xshatish etalonlari milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko‘ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllangan. Etalonlar dunyoning obrazli qiyoslanishidir. Tilda etalonlar ko‘pincha turg‘un qiyoslamalar ko‘rinishida mavjud bo‘ladi, shunga qaramay, insonning dunyoni taqqoslashdagi har qanday tasavvuri ham etalon bo‘lishi mumkin.

Xullas, o‘xshatish etalonlari predmetlar, obyektlar va hodisalarning xususiyatini, sifatini qiyoslaydigan mohiyatdir.

*Ramz* tushunchasi qator fanlar nuqtayi nazaridan turlicha talqin qilinadi: 1) ramz – belgi bilan o‘xshash tushuncha (tillarni sun‘iy formallashtirishda); 2) hayotni san‘at vositasida obrazli o‘rganishning o‘ziga xosligini ifodalovchi universal kategoriya (estetika va san‘at falsafasida); 3) muayyan madaniy obyekt (madaniyatshunoslikda, sotsiologiyada va boshqa ijtimoiy fanlarda); 4) ramz belgi bo‘lib, uning dastlabki mazmunidan boshqa mazmun uchun shakl sifatida foydalaniladi (falsafa, lingvistika, semiotika va h.k.). Lingvokulturologiyani ramzning belgilik jihati qiziqtiradi. Masalan, turli madaniyatlarda *kaptar* – tinchlik ramzi, nasroniylikda Muqaddas ruh ramzi, *yarim oy* – Islom ramzi, *Xoch* – nasroniylik ramzi sanaladi. Daraxt, gul, o‘simliklar ham ramz sifatida qo‘llaniladi. Jumladan, xrizantema Xitoyda o‘lim, qabriston tushunchalarini assotsiatsiyalaydi.

Yoki qirqquloq yaponlar uchun kirib kelayotgan yangi yilda omad tilash, ruslar uchun esa o‘lim, qabrison belgisi hisoblanadi. Ranglardan ham ramz sifatida keng foydalaniladi. Aksariyat xalqlarda oq – yaxshilik, qora esa – yovuzlikni anglatadi, afrikaliklar uchun har ikkala rang ham neytral mazmun kasb etadi.

*Sterotip* hodisasi nafaqat tilshunoslarning ishlarida, balki sotsiologlar, etnograflar, kognitologlar, psixologlar va etnopsixolingvistlarning ham tadqiqotlarida o‘rganiladi. Qayd qilingan fanlarning har qaysi vakili stereotiplarning xususiyatini o‘z sohasining tadqiqoti nuqtayi nazaridan belgilaydi. Shunga ko‘ra, stereotiplar ijtimoiy stereotiplar, muloqot stereotiplari, mental stereotiplar, madaniy stereotiplar, etnomadaniy stereotiplar va h.k. ga ajratiladi. Masalan, ijtimoiy stereotiplar shaxsning tafakkuri va muomalasini ko‘rsatadi. Etnomadaniy stereotiplar biron bir xalqqa xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni ifodalaydi. Masalan, nemislar tartiblilik, yaponlar sermulozamatligi, turklar hissiyotlilik, qozoqlar qaysarligi, o‘zbeklar mehmondo‘stligi bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga chiqargan.

Xullas, stereotip madaniyat vakillarining tafakkuri va tili uchun xarakterli bo‘lib, u madaniyatning vakili va uning o‘ziga xos sinchidir. Shuning uchun ham stereotip madaniyatlarda muloqotda shaxsning tayanchi vazifasini o‘taydi.

6. *Metaforalar va obrazlar*. Tadqiqotlarda metaforalar ongning universalialari sifatida belgilangan. Zamonaviy psixologlar dunyoni metaforalar asosida ko‘rishni insonning genezisi va madaniyati bilan bog‘lashga harakat qilishadi. Bobo tilning metaforik xususiyatga ega bo‘lgani, protokommunikatsiyaning esa metaforalar darajasida amalga oshirilgani haqida taxmin qilinadi.

*Obraz* – so‘z bilan madaniyatning bog‘liqligi haqida asosiy ma’lumot beruvchi muhim lisoniy mohiyat sanaladi. Obrazlilik deganda til birliklarining borliqdagi predmet va hodisalar haqida ko‘rish va hissiy tasavvurlarni hosil qilish qobiliyati tushuniladi.

S. M. Mezeninning qayd qilishicha, obrazlilikning har qanday shakli, hoh u nutqiy, hoh u lisoniy bo‘lsin o‘zining mantiqiy strukturasi uchta komponentga ega

bo'ladi: 1) referent, tasvirlanuvchi predmetni gnoseologik tushuncha bilan o'zaro aloqadorligi; 2) agent, ya'ni tasvirlangan predmet; 3) asos, ya'ni predmet va uning tasviridagi umumiy xususiyat.

Xullas, obrazlilik ongimizda "suratlar"ni gavdalantiradigan qobiliyatni hosil qiladigan til birliklarining real xususiyatidir.

7. *Tillarning stilistik qatlami*. Turli tillarning stilistik qatlami, u yoki bu tilning qaysi shaklda namoyon bo'lishi ham lingvokulturologiyaning tadqiqot predmeti sanaladi. Shunday tillar bor-ki, ularda kuchli dialektik qatlam mavjud bo'lsa, boshqalarida dialektik farqlar deyarli sezilmaydi. Yana shunday tillar mavjudki, ularda stilistik differentsiatsiya endigina boshlangan bo'lsa, boshqalarida aksincha, bu differentsiatsiya chuqur va ko'p qirrali bo'ladi. Adabiy til va noadabiy til shakllari o'rtasida o'zaro aloqaning mavjudligi jamiyat madaniy tarixining barcha rivojlanish bosqichlari, xususan, uning yozuvlari, adabiyotlari, maktablari tarixi, uning dunyoqarashi, madaniy-g'oyaviy simpatiyalari va h.k. bilan belgilanadi.

8. *Nutqiy muomala*, shuningdek, nominativ, grammatik va stilistik birliklarda mustahkamlangan har qanday muomala lingvokulturologiyaning maxsus tadqiqot predmeti bo'la oladi.

A.A.Leontev shunday yozgan: "Nutqiy muloqotning milliy-madaniy xususiyati bizning tasavvurimizda mazkur milliy-madaniy jamoaga xos bo'lgan tuzilishdagi farqlar, muloqot jarayonlarining funksiyalari va usullariga bavosita bog'liq bo'lgan omillar tizimidan tashkil topgan bo'ladi. Ushbu omillar jarayonga turli darajada "qo'shiladi", ularning tuzilishi va o'zi farqli tabiatga ega bo'lsa-da, jarayon ichida ular, avvalo, lisoniy, psixolingvistik va umumpsixologik omillar bilan o'zaro aloqada bo'ladi".<sup>65</sup> A. A. Leontev mazkur omillarni quyidagilarga ajratgan: 1) madaniy an'analar bilan bog'liq omillar (muloqotning ijozat berilgan va taqiqlangan turlari, shuningdek, muloqotning stereotip holatlari); (Men–Sen –U– grammatika); 2) ijtimoiy holat va muloqotning ijtimoiy funksiyalari bilan bog'liq omillar

---

<sup>65</sup> Леонтьев А. А. Психология общения. –Тарту, 1976. - С. 9-10. 46.

(muloqotning funksional til osti va etiket shakllari); 3) tor ma'nodagi etnopsixologiya, ya'ni psixik jarayonlar vositasida kechadigan xususiyatlar va turli faoliyat turlari bilan bog'liq omillar; 4) denotatsiyaning xususiyati bilan bog'liq omillar; 5) mazkur jamoaning til xususiyatlari (stereotiplar, obrazlar, qiyoslash va h.k. ) bilan aniqlanadigan omillar.

Tadqiqotlar natijasida har qanday madaniyatda insonlar muomalasining tipik holatlarda inson o'zining ijtimoiy roliga (boshliq-xodim, er-xotin, ota-o'g'il, o'qituvchi-o'quvchi va h.k.) mos ravishda o'zini qanday tutishi lozimligi haqidagi tasavvurlari bilan boshqarilishi aniqlangan.

9. *Nutq etiketi* – insonlarning rasmiy va norasmiy vaziyatlardagi o'zaro muloqotida ularning ijtimoiy va psixologik roliga mos ravishda amal qilinadigan ijtimoiy va madaniy o'ziga xos nutqiy muomala qoidalari. Nutq etiketi – bu “ijtimoiy silliqlangan” hudud, muloqotning milliy-madaniy komponenti. Masalan, sud jarayonida sudya bilan guvohning muloqoti bu shaxslarning suddan tashqaridagi muloqotiga nisbatan o'ta rasmiy til vositalarining qo'llanishi bilan farqlanadi.

Xullas, lingvokulturologiya jonli kommunikativ jarayonlarni – xalqning madaniyati va mentaliteti, ya'ni uning ongi, shuuri, ommaviy an'analari, urf-odatlarini va h.k. bilan bog'liq til ifodalarining qo'llanilishini tadqiq etadi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Til va madaniyatning uzviy bog'liqligini izohlab bering.
2. Tilning madaniyat bilan munosabati namoyon bo'ladigan jihatlarni ajrating.
3. Tilning ichki va tashqi taraqqiyotida madaniy jarayonlarning o'rnini izohlang.
4. Lingvokulturologik tushunchalar haqida ma'lumot bering.
5. Til va madaniyat munosabati yoritilgan manbalarni ayting.
6. Tilning to'plash vazifasi va lingvokulturologiya masalalarini yoriting.

7. Tilning ijtimoiy tabiati va madaniy taraqqiyot haqida tushunchalaringizni bayon eting.

8. Antroposentrik tilshunoslik va uning mohiyatini yoriting.

### **Asosiy tushunchalar izohi:**

Lingvokulturologiya – tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmaning mahsuli bo‘lib, so‘nggi yillarda rivojlanib kelayotgan, kommunikativ jarayonlarni va ularda qo‘llaniladigan til ifodalarining sinxron harakatdagi xalq mentaliteti bilan aloqasini tadqiq qiladigan soha.

Sinxron lingvokulturologiya – muayyan ijtimoiy guruhlar, xalqning ayni zamondagi madaniy munosabatlarini tadqiq etuvchi lingvokulturologiya.

Diaxronik lingvokulturologiya – xalqning muayyan davriga tegishli bo‘lgan lingvomadaniy o‘zgarishlarni o‘rganadigan lingvokulturologiya.

Qiyosiy lingvokulturologiya – qardosh xalqlarning lingvomadaniy ko‘rinishlarini tadqiq qiladigan lingvokulturologiya.

Chog‘ishtirma lingvokulturologiya – turli genetik asosga mansub xalqlar madaniyatini o‘rganadigan lingvokulturologiya.

Geografik lug‘atlar –lingvogeografik lug‘atlarni tuzish bilan shug‘ullanadigan lingvomadaniy leksikografiya.

Lingvokulturologiya obykti – madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi, o‘zaro ta’sirini bir butunlikda tadqiq qilish.

Lingvokulturologiyaning **predmeti** – madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma’no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari.

Muqobilsiz leksika – har qanday til yoki dialektdagi boshqa tilga bir so‘z bilan tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar .

Lakuna – bir tildagi so‘z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o‘rinlar (lot. *lacuna* – bo‘shliq, chuqurlik, cho‘nqir joy).

Tilning paremiologik fondi – muayyan tildagi maqol, matal, iboralar majmuyi.

## **8-§. YOZUV KISHILIK MADANIY TARAQQIYOTI MAHSULI SIFATIDA**

**Yozuv va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati.** Yozuv – muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Ma’lumki, insoniyat dahosi erishgan eng buyuk va muhim yutuqlardan biri yozuvning kashf etilishidir. Yozuv kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma’nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biridir. Ma’lumotlarga ko‘ra, yozuv tildan ancha keyin paydo bo‘lgan, ya’ni tovush tili taxminan 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan bo‘lsa, yozuvning paydo bo‘lganiga 4-5 ming yillar bo‘lgan. Og‘zaki nutqning zamon va makon nuqtayi nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo‘lishiga olib keldi.

*Yozuv og‘zaki tildan bir qancha belgilarga ko‘ra farq qiladi.*

*Birinchidan, yozuv tizimlari tillardan farqli o‘laroq, turlicha qo‘llanadi. Turli yozuv tizimlari tovush tizimlariga turlicha bog‘langan.*

*Ikkinchidan, Amerika strukturalistlari yozuvni tilning subtuzimi (subsistema) sifatida talqin qilishga urinsalar-da, yozuv tizimlari til tizimi kabi ishlamaydi: masalan, grafema fonemani aks ettiradi, deb qaralsa-da, aksariyat alfvitlar bosh harf va kichik harfdan foydalanadi. Mohiyatan olganda “A” grafemasi va “a” bitta fonemani aks ettiradigan allograf hisoblanadi.*

*Uchinchidan, til doimo o‘zgarib turadi, yozuv esa an’analarga rioya qiladi.*

*To‘rtinchidan, yozuv tizimlari jamiyat vakillari tomonidan o‘zgartirilishi mumkin.*

*Yozuv tizimlari ularning o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil qilinishi lozim. Asrlar osha ularda ro‘y bergan o‘zgarish juda ko‘plab tadqiqotchilarni jalb etgan va ular bo‘yicha tarixiy hujjatlar mavjud. Ayni o‘rinda yozuvning kelib*

*chiqishi va grafik shakllarning fonologik shakllar bilan aloqasiga e'tibor qaratiladi.*

*Odatda, yozuv tizimlarining uch xil ko'rinishi farqlanadi: logografik, bo'g'inli (sillabari), alfavit. Bu ketma-ketlik yozuv tizimlarining rivojlanish tarixini ham aks ettiradi. Barcha yozuv tizimlari oxiri alfavit bosqichida tugaydi, chunki alfavit yozuvi "eng yaxshi" hisoblanadi.*

*Ammo Finikiya tili va boshqa shioliy-g'arbiy semit tillari bo'g'inni aks ettiradi, degan qarash bo'lsa-da, finikiya tili aynan bo'g'inni ifodalamaydi. Bo'g'inlarni ifodalovchi Hindu va Efiopik yozuvlari esa aslida alfavit yozuvidan "o'sib chiqqan". Shimoliy-G'arbiy Semit yozuvlarini bo'g'inli yozuvlar deyishning o'zi noto'g'ri va bitta yozuvning rivojlanishiga qarab tarixiy prinsip haqida gapirish o'rinsizdir.*

*Buning yechimi shundaki, uch tarkibli tipologiyani olti tarkibli tipologiya bilan almashitirish kerak. Abigudani (abiguda undosh va unli ketma-ketligi bitta birlik sifatida ifodalanadigan yozuv) sillabarilardan (bo'g'inli yozuvdan) alohida tip sifatida tan olinsa, 6 ta bosqichni ajratish mumkin bo'ladi va alfabitli yozuvni boshqalaridan afzal deb qarashga barham berish kerak.<sup>66</sup>*

Aytish lozimki, yozuv og'zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo'shimcha aloqa vositasi bo'lsa-da, mazkur ehtiyojlarni qondiruvchi vosita sifatida unga qaraganda juda ko'p afzalliklarga ega. Xususan, tilning eng muhim, asosiy vazifasi kommunikatsiya – kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashdir. Ammo kishilar o'rtasidagi bevosita – «yuzma-yuz» aloqagina og'zaki til vositasida ta'minlanishi mumkin, lekin bu aloqa bivosita bo'lsa-chi, kishilar turli masofalarda bo'lsalar-chi? Demak, tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Har qanday tilning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan estetik va gnoseologik (dunyoni bilish) vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tilning insoniyat

---

<sup>66</sup> Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.



qo‘lga kiritgan tajriba-bilimlarni saqlash va avlodlarga etkazishdan iborat vazifasi ham bevosita yozuv orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so‘z san‘ati durdonalari kabi qimmatli axborotlarning barcha-barchasi avlodlardan avlodlarga yozuv orqali etib boradi. Boy va ulkan o‘tmish madaniyatimiz, tariximiz haqidagi bugungi tasavvurlarimizning mavjudligi, tirikligi faqat yozuv tufaylidir.

**Yozuvning paydo bo‘lishi. Yozuv tarixining piktografik, ideografik, fonografik bosqichlari.** Til kishilik jamiyati bilan qanchalik bog‘liq bo‘lsa, yozuv ham jamiyat bilan shunchalik bog‘liqdir. Yozuv kishilik jamiyatining zaruriy ehtiyoji asosida paydo bo‘lib, rivojlangan. Bugungi shaklini olgunga qadar uzoq va murakkab tadrijiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Insoniyat yozuvday mukammal aloqa vositasini kashf qilgunga qadar uzoq izlangan. Eng qadimgi davrlarda dunyo xalqlarining deyarli barchasida keng tarqalgan «eslatuvchi» belgilar ana shu izlanishlarning ilk ko‘rinishlari edi. Masalan, muayyan miqdorni ifodalash uchun turli toshlar, chig‘anoqlardan foydalanilgan. Tayoqlar, daraxtlarga har xil iplar bog‘lash, tugunlar tugib qo‘yish kabi vositalar bilan ma‘lum bir axborotlarni yodda saqlash yoki muayyan masofaga yuborishga harakat qilingan. Yoki biron xabarni uzoq masofaga yuborish uchun gulxan, tutun, baraban ovozi kabilardan foydalanilgan. Yoki hali sivilizatsiyaga erishmagan xalqlarning nazarida yozuv (xat, kitob) gapira olish imkoniyatiga ega bo‘lgan tirik mavjudot, u murakkab sirlarni ochib berishi, kelajakni oldindan aytib berishi mumkin sanalgan. Mashhur amerika grammatologi (Yozuv tarixini o‘rganuvchi olim) I.E.Gelb o‘zining «Yozuvni o‘rganish tajribasi (Grammatologiya asoslari)» nomli kitobida shunday rivoyatni keltiradi: “Bir missioner bir hinduning qo‘liga to‘rtta non va shu nonlarning miqdori ko‘rsatilgan xatni berib, ularni boshqa bir missionerga olib borishni buyuradi. Hindu yo‘lda nondan bittasini eb qo‘yadi va, tabiiyki, xat tufayli uning bu aybi fosh bo‘ladi. Ma‘lum vaqtdan keyin o‘sha hindu yana xuddi shunday topshiriq bilan yuboriladi. Endi hindu yo‘lda nonning bittasini er ekan, ehtiyotkorlik yuzasidan – uning nonni

eyayotganligini xat yana «ko‘rib qolmasligi» uchun xatni bir toshning ostiga bekitib qo‘yadi, chunki hindu bilardiki, oldingi safar uning bitta nonni eb qo‘yganligini missionerga xat «aytib bergan edi».

**Piktografik yozuv.** Yozuv, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, kishilik jamiyatining obyektiv zaruriy ehtiyoji asosida paydo bo‘ldi, ana shu ehtiyoj negizida rivojlandi va takomillashib bordi. U bugun biz biladigan yozuvlar shaklini olgunga qadar uzoq va murakkab tadrijiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Ulardan eng dastlabkisi sifatida piktografik (lotincha pictus – rasm, surat; grapho - yozaman) yoki rasmliy yozuvni ko‘rsatish mumkin. Bu yozuv turining o‘ziga xos tomoni uning og‘zaki til bilan bevosita bog‘liq emasligi va uni har qanday til vakili tushuna olishidadir. Piktografik yozuvda bildirilmoqchi bo‘lgan fikrlar inson, hayvon, qayiq kabilarning sxematik tarzidagi rasmlarini tushirish orqali ifodalangan. Masalan, ovchining ovga chiqqanligi kishi siymosi ov quroli tutgan holda tasvirlangan, uning biron-bir hayvonni tutib olganligi shu hayvonning tasviri bilan, qayiqda dengiz yoki daryoda suzganligi qayiq tasviri orqali, manzilga etgach, tunab qolganligi chayla tasvirini berish bilan ifodalangan. Albatta, bu holatlar rasmda birin-ketinlikda berilgan. Piktografiyada alifbo bilan hech qanday bog‘liqlik bo‘lmagan, faqat fikrni ifodalashda yordam beruvchi tasvirlarni o‘xshatib tasvirlash kerak bo‘lgan. Bu holat turli tilda so‘zlashuvchi qabilalar o‘rtasida fikrni o‘zaro anglashda qo‘l kelgan. Rasmlar yordamida muayyan fikr-axborotni ifodalash, yuborish mumkin ekanligi natijasida vujudga kelgan piktografik yozuv dunyodagi mavjud barcha yozuvlarning kelib chiqishi uchun asos bo‘lgan deyish mumkin.

Rasm bilan yozuv o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud, avvalo, har ikkalasi ham ko‘rish orqali idrok qilinadi. Piktografik yozuvni ibtidoiy tasviriy san’at ichida yuzaga kelgan deyish mumkin. Toshlarga, suyaklarga, g‘or devorlariga o‘yib ishlangan xilma-xil hayvonlarning rasmlari, umumiy mazmunga birlashuvchi tasviriy lavhalar – bularning bari piktografik yozuvning asoslaridir. Ana shu ibtidoiy tasviriy san’at ikki

yoʻnalishda, xususan, rasmlar va muayyan axborot vositasi, yaʼni yozuv sifatida shakllana borgan.

Rasmlarning soddalashuvi, ularning oʻzlari ifoda etgan buyumlarning nomiga, ramziga aylanishi va asta-sekin bu ramzlarning ogʻzaki til bilan doimiy bogʻlanishi yozuvning takomillashib borishini belgilab beradi.

**Ideografik yozuv.** Tabiiyki, jamiyatning taraqqiy etib borishi bilan piktografik yozuv yetarli boʻlmay qoldi. Zaruriyat bor erda kashfiyotning ham boʻlishi muqarrarligi yozuvning ham takomillashib borishiga turtki boʻldi. Natijada, piktografik yozuv oʻrnini ideografik (idea - gʻoya, grapho - yozaman) va ieroglifik (hieroglyhoi – muqaddas yozuv – kohin, qurbon qiluvchi oʻymakorligi; bu yozuv turida matn yozilmagan, balki suyak va boshqa materiallarga rasmlar oʻyib bitilgan, ikkinchidan, bu yozuv «sirli» yozuv turi ham boʻlgan, chunki uni asosan kohinlar - qurbon qiluvchilar bilishgan, xolos) yozuvlar egallay boshladi. Piktografik yozuvdan ideografik yozuvga oʻtilishiga aytilmoqchi boʻlgan mavhum fikrlarning bu yozuv turida toʻliq ifodalashning imkoni boʻlmaganligi sabab boʻldi. Masalan, «oʻtkir koʻzlik», «ziyraklik», «hushyorlik» tushunchalarini aynan rasmda ifodalab boʻlmaydi, ularni shu holatlarni kuzatuvchi, yaʼni koʻzni tasvirlash orqali berish mumkin boʻlgan. Bunda piktografik yozuvda koʻz rasmi berilganda koʻzning oʻzi tushunilgan, ideografik yozuvda esa, «oʻtkir koʻzlik», «ziyraklik», «hushyorlik» tushunilgan. Xuddi shu singari, «doʻstlik» ikki taraf qoʻlini siqib turganlik bilan, «dushmanlik» esa jang qurollarini bir-biriga chatishtirish orqali ifodalangan.

Davlatlarning paydo boʻlishi, ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishi, buning natijasi oʻlaroq savdo-sotiq koʻlamining ortishi yangi bir yozuv turiga ehtiyoj tugʻdirdi. Ayni zamonda ijtimoiy hayot rivoji yozuv jarayonining jadallashuvi, qolaversa, hajman kattaroq va murakkabroq matnlarni ifodalash imkoniyatlariga boʻlgan talabni vujudga keltirdi. Natijada ieroglifik yozuv turi shakllana boshladi. Endi bu yozuv turida mavhum (abstrak) maʼlumotlar (tushunchalar)ni yuborishda rasmlar sxematikasidan shartli belgilar ifodasiga oʻtildi. Umuman qaralganda, yozuv

belgilari ideografik, ieroglifik belgilar sifatida muayyan soʻzlarning ifodachilariga aylandi, bu yozuv turlari soʻz yozuvi yoki logografik yozuv nomlari bilan umumlashtiriladi. Eng qadimgi bunday yozuv turlari sifatida misr ieroglifikasi, shumer mixxatlari, xitoy ieroglifikasi kabilarni koʻrsatishimiz mumkin. Mazkur yozuvlar ilk quldorlik davlatlarining tashkil topishi bilan, yaʼni eramizdan oldingi IV ming yillikning oxiridan eramizdan oldingi II ming yilliklarning boshlarigacha boʻlgan davr ichida shakllandi.<sup>67</sup>

Shuni alohida taʼkidlash lozimki, bu yozuv turlarida biridan ikkinchisiga oʻtish birdaniga sodir boʻlgan emas. Buning uchun bir necha ming yilliklar kerak boʻlgan. Shu bois ham dastlabki bosqichlarda ideografik yozuv sof boʻlmasdan uning tarkibida piktogrammalar ham mavjud boʻlgan. Bu holat qadimgi shumer yozuvlarida yana ham yaqqol koʻzga tashlanadi.

Ideografiya taraqqiyoti soʻzlarni, ularning maʼnolarini bir-biridan farqlashning yanada aniq usullarini ham yaratdi. Masalan, asosiy belgilarga qoʻshimcha ravishda determinativlar paydo boʻlgan. Determinativlar - yozuvda talaffuz qilinmaydigan, ammo shakli bir xil, maʼnosi farqli (omonim) soʻzlarni bir-biridan farqlash uchun qoʻllanadigan belgilar. Ular maʼno ajratkichlari, ochqich belgilar deb ham yuritiladi. Ular asosan yozuvdagi noaniqliklarni bartaraf etishga xizmat qilgan. Masalan, qadimgi misr yozuvida pr («uy») va prj («chiqmoq») soʻzlari bir xil – uy rejasining konturlaridan iborat rasm orqali ifodalangan. Shuning uchun «chiqmoq» maʼnosidagi soʻz oʻqilishini koʻrsatish uchun mazkur rasmdan keyin yurayotgan ikki oyoq tasviridan iborat determinativ qoʻllangan. Determinativlarning qoʻllanishini xitoy yozuvida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, xitoy yozuvida «ayol» maʼnosida qoʻllanuvchi logogramma mustaqil holatda «ayol» tushunchasini ifodalayveradi. Ammo u determinativ sifatida ta logogrammasi («ot», «ona», «soʻkinmoq» maʼnolaridagi soʻzlar omonimiyasini ifodalaydi) bilan birga qoʻllanganda, bu logogrammaning «ona» maʼnosidagi soʻz sifatida oʻqilishi lozimligi taʼkidlanadi.

---

<sup>67</sup> **Mahmudov N.** Til va yozuv. –Toshkent: Oʻzbekiston, 1987, 7-8- b.

Ba'zan bir so'z uchun birdan ortiq determinativlar ham qo'llanishi mumkin. Determinativlar qadimgi misr, xitoy Yozuvlarida, shumer mixxatlarida va boshqa qadimgi yozuvlarda keng qo'llangan. Determinativlar soni ham bu yozuvlarda turlicha bo'lgan, masalan, mixxatlarda 20 ta atrofida bo'lsa, xitoy yozuvida 250-300 atrofida bo'lgan. Hozirgi paytda aksariyat ko'pchilik tillarda atoqli otlarning (nemis tilida esa barcha otlarning) bosh harf bilan yozilishi qadimgi tillardagi determinativlar bilan o'xshash xususiyatdir.<sup>68</sup>

Ierogrifli yozuv turining qulayligi u orqali tasviriy hamda mavhum tushunchalarni ifodalash imkonining borligidadir. Lekin bunda muayyan bir muammo ham bor, ya'ni biror matnni o'qish yoki yozish uchun juda ko'p sonli ierogliflarni yoddan bilish kerak bo'ladi. Bu, albatta, o'ziga xos murakkab jarayon. Birgina xitoy tiliga oid lug'atda 40 mingdan ortiq ieroglif joy olgan, zamonaviy xitoy tilidagi bir matnda 2 mingdan 5 mingtagacha ieroglif ishtirok etadi. Shundan ham ko'rinib turibdiki, xitoy tilini o'rganish va unda yozish anchagina mehnat talab qiladi.

Demak, ideografiyada so'zning grammatik va fonetik shakllari aynan berilmaydi, balki unda mazkur so'z anglatishi mumkin bo'lgan ma'no maxsus grafik belgilar orqali ifodalanadi.

**Fonografik yozuv.** Albatta, jamiyat taraqqiyoti yozuvning ham takomillashuvini talab qilib boraverdi. Bunda eng asosiy talab, ya'ni imkon darajasida yozuvni soddalashtirishga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. Buning natijasida fonografik (grekcha phone - tovush, grapho - yozaman) yozuv turi shakllandi. Bunday fonografik yozuv tilni nafaqat grammatik tuzilishini, balki uning fonetik tuzilishini, ya'ni so'zning tovush tarkibini ham aks ettirar edi. Fonografik yozuv ikki turga bo'linadi: *bo'g'in yozuvi* hamda *harf-tovush yozuvi*. Bo'g'in yozuvi qo'shma so'zlarni mayda qismlarga ajratish yo'li bilan paydo bo'ldi. Bu mayda qismlar hozirgi vaqtdagi bo'g'inlarga to'g'ri keladi. Bu yozuv turiga qadimgi hind yozuvi hisoblangan devanagari misol bo'la oladi. Devanagarida 50 ta belgi mavjud bo'lib, uning 13 tasi

---

<sup>68</sup> **Mahmudov N.** Yozuv tarixidan qisqacha lug'at-ma'lumotnoma. –Toshkent: Fan, 1990. 17-6.

soʻz yoki boʻgʻin boshidagi unli tovushlarni ifodalagan, 33 tasi boʻgʻinlarga tegishli belgilar, 4 tasi yordamchi belgilardan iborat edi. Devanagari yozuvida juda koʻplab ligatura (lotincha ligature < ligare – bogʻlash, bogʻlanish: Ikki harf yoki transkripsion belgi elementlaridan hosil qilingan bir harf yoki transkripsion belgi)lar ishlatiladi. Devanagarida ikki va undan ortiq undosh boʻlgan boʻgʻinlarni ifodalash uchun bir nechta boʻgʻin belgilari va ligaturalardan foydalaniladi. Bu yozuv turidagi asosiy va ligaturali belgilarning umumiy soni 600 atrofida boʻlib, undagi baʼzi belgilarning juda murakkabligi bois bu yozuvni oʻrganish oʻziga xos qiyinchiliklarni tugʻdiradi. Mazkur yozuv chapdan oʻngga qarab yozilgan va hozirda ham ayni shu yoʻnalish saqlangan. Devanagari yozuvidan Shimoliy Hindistondagi hindi, maratha kabi xalqlar foydalanadilar.

*Harf-tovush* yozuvining shakllanishi butun yozuv taraqqiyoti tarixida inqilob boʻlgan. Bu yoʻnalishdagi ilk yozuv turi **finikiy** yozuvi edi. Finikiy alifbosining paydo boʻlishi insoniyat uchun yozuvni takomillashtirish borasida olgʻa qoʻyilgan qadam boʻldi. Birinchi marta sof tovush yozuvi sanoqli harflardan iborat mukammal alifboning yuzaga kelishi jamiyatdagi yozuvni biladigan kishilar doirasini kengaytirib yubordi. Shuning uchun ham finikiy yozuvi juda tezlik bilan boshqa xalqlar orasida ham tarqaldi. Bu jarayon miloddan avvalgi IX-asrdan boshlangan. Finikiyaliklar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada boʻlgan qoʻshni xalqlar mazkur yozuv bilan tanishib, tez orada uni oʻz tillariga moslashtirib olganlar. Hozirgi kunda bizga maʼlum boʻlgan harf-tovush tizimidagi yozuvlarning 4/5 qismidan koʻprogʻi finikiy yozuvidan kelib chiqqan.<sup>69</sup>

Finikiy yozuvi finikiyaliklar tomonidan misr yozuvidan bir qadar foydalangan holda mustaqil yaratilgan dastlabki sof harf-tovushidir. Finikiya Oʻrta yer dengizining sharqiy qirgʻoqlarida joylashgan qadimgi mamlakat boʻlib, eramizdan oldingi II ming yilliklardan boshlab yuksak rivojlangan. Finikiy yozuvining paydo boʻlishi ham shu davrlarga toʻgʻri keladi. Bizgacha etib kelgan eng qadimgi finikiy yozuvida bitilgan

---

<sup>69</sup> **Mahmudov N.** Yozuv . –Toshkent, 2002. –B. 46.

yodgorliklar eramizdan oldingi XII-X asrlarga oid bo'lib, ular Finikiyaning o'zidan emas, balki unga mustamlaka bo'lgan hududlardan, xususan, Kiprdan topilgan. Ammo finikiy yozuvida bitilgan yodgorliklar u qadar ko'p emas. Finikiy yozuvidagi yodgorliklarning ko'pchiligi eramizdan oldingi V hamda eramizning II-III asrlariga oiddir. Keyinchalik finikiy yozuvi oromiy yozuvi tomonidan siqib chiqarilgan.

Finikiy yozuvi 22 harfdan iborat bo'lib, har bir harf alohida nutq tovushini ifoda etgan. Bu yozuvda bironta ham boshqa sistemadagi belgi – logografik (so'z yozuvi), sillabografik (bo'g'inli yozuv) elementlar qo'llangan emas. Yozuvda faqat undoshlarga ifodalangan, unlihar mutlaqo ifodalanmagan, ya'ni finikiy yozuvi sof konsonant yozuv bo'lgan. Harflar juda sodda, eslab qolish va yozish uchun qulay shaklga ega bo'lgan. Ular muayyan qat'iy ketma-ketlikdagi alifbodan iborat bo'lgan. Har bir harfning atalish nomi bo'lgan. Bu nomlar akrofonik tamoyil asosida, ya'ni harf ifodalaydigan tovush harf nomining birinchi tovushiga to'g'ri keladi. Masalan, b – «bet», d – «dolet», g – «gimel», v – «vov», z – «zayn» kabilar. Harflarning nomi ular ifodalagan tovushdan tashqari harflarning shakli bilan ham ma'lum darajada bog'liq bo'lgan. Masalan, «vov» harfining shakli tashqi ko'rinish jihatidan mixga o'xshaydi, vov so'zi esa semit tilida «mix» degan ma'noni bildiradi. Finikiy yozuvi o'ngdan chapga qarab gorizontal holatda yozilgan. Dastlabki paytlarda so'zlar bir-biridan ajratilmasdan yozilgan.<sup>70</sup>

Albatta, finikiy yozuvi ham davrlar davomida takomillashib bordi. ***Grekl yozuvi*** finikiy yozuvining takomillashtirilishi asosida vujudga keldi va harf-tovush yozuvi ichida eng mukammali sanaladi. Grek yozuvida nafaqat undosh tovushlar, balki unli tovushlar ham alohida harflar bilan ifodalangan. Grek yozuvining shakllanishi eramizning IX asrlaridan boshlangan. Bu yozuv inson zakovatining eng buyuk yutuqlaridan biri sifatida yozuv tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Hozirgi Evropadagi deyarli barcha xalqlarning yozuvi kelib chiqish jihatidan grek yozuvi

---

<sup>70</sup> Mahmudov N. Yozuv . –Toshkent, 2002. –B. 49.

bilan bog‘lanadi. Demak, harf-tovush yozuvi yoki alifboli yozuvning paydo bo‘lishi nisbatan keyingi davrlarga to‘g‘ri keladi.

### **O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqi foydalangan yozuvlar.**

O‘rta Osiyodagi xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqi o‘tmishda turli yozuvlardan foydalangan. Bu yozuvlar o‘z sistemasiga ko‘ra fonografik - harf-tovush yozuvidan iborat bo‘lgan. Masalan, *so‘g‘d, pahlaviy, o‘rxun-enisey (runik), uyg‘ur, arab* kabi yozuvlar shular jumlasidandir. Bu yozuvlarning barchasi ham oromiy yozuvi bilan qaysidir jihatlari bilan bog‘liqdir.

**Oromiy yozuvi** finikiy yozuvi asosida eramizdan oldingi I ming yilliklarning boshida paydo bo‘lgan. Oromiylarning dastlabki vatani Suriya va Mesopotamiyaning janubiy hududlarida bo‘lgan. Eramizning IV asrlarida oromiylarning arablar tomonidan assimilyatsiya qilinishi natijasida oromiy yozuvi ham yo‘qolgan. Bu yozuvga oid qadimgi matnlar eramizdan oldingi IX-VIII asrlarga tegishlidir. Ajdodlarimiz qo‘llagan so‘g‘d yozuvi oromiy yozuvi asosida shakllangan harf-tovush yozuvi sanaladi. So‘g‘d yozuvi ham konsonant yozuv bo‘lgan va dastlabki vaqtlarda gorizontal holatda o‘ngdan chapga qarab yozilgan. Keyinchalik, aniqrog‘i, VI asrning oxirlaridan boshlab vertikal yo‘nalishda chapdan o‘ngga qarab yozilgan.

**Pahlaviy yozuvi** oromiy yozuvining ko‘rinishlaridan biri sifatida eramizning III asrida Sosoniylar sulolasi hukmronligi davrida paydo bo‘lgan. Bu yozuvda faqat undoshlar va cho‘ziq unlilar alohida harflar bilan ifodalangan. Unlilar esa, so‘z boshidagi holatni inobatga olmaganda, ifodalanmagan. Yozuvlar asosan o‘ngdan chapga qarab yozilgan. Faqat VIII asrga oid ayrim yozma manbalarda vertikal (yuqoridan pastga) yozilgan holatlar kuzatiladi.

**O‘rxun-yenisey yozuvi** turkiy xalqlarning qadimgi harf-tovush yozuvidir. Bu yozuv «Yenisey-o‘rxun yozuvi», «Sibir yozuvi», «Turkiy runik yozuv» kabi nomlar bilan ham yuritilgan. Bu yozuv o‘z taraqqiyoti davomida uch bosqichni bosib o‘tgan: 1) arxaik bosqich (Ettisoy yodgorliklari, VI - VII asrlar; Yenisey yodgorliklari, VI - X asrlar); 2) klassik bosqich (ikkinchi Hoqonlik yodgorliklari, VIII asrning birinchi



yarmi); 3) keyingi bosqich (uyg‘ur hoqonligi davri yodgorliklari, VIII asrning ikkinchi yarmi – IX asr; Sharqiy Turkiston yodgorliklari, IX asr). O‘rxun-yenisey yozuvi gorizental holatda o‘ngdan chapga qarab va vertikal holatda yuqoridan pastga qarab yozilgan, harflar chap yoniga yotqizilgan holatda bo‘lgan va satrlar o‘ngdan chapga qarab joylashib boradi.

O‘rxun-yenisey yozuvining o‘ziga xos xususiyalaridan biri shuki, bu yozuv turkiy til uchun juda qulay bo‘lgan va har qanday turkiy til ifodasi uchun mos bo‘lgan, ayniqsa, turkiy tillarga xos bo‘lgan singarmonizm qonuniyatlarini o‘zida to‘liq aks ettira olgan. Shu ma’noda bu yozuv o‘z o‘rniga kelgan uyg‘ur va arab yozuvlariga qaraganda mukammal va qulay alifbo bo‘lgan.

Ma’lumki, o‘zbek yozuvi tarixida **uyg‘ur yozuvining** o‘ziga xos o‘rni bor. Asosini so‘g‘d xatidan olgan va hozirda uyg‘ur yozuvi deb atalayotgan xat o‘tmishda uyg‘ur xati, mo‘g‘ul xati kabi nomlar bilan yuritilgan. Ushbu yozuvni «Mahmud Koshg‘ariy o‘zining «Devonu lug‘otit turk» asarida turkcha yozuv deb tilga olsa, Alisher Navoiy maktublaridan birida uni turkcha xat deb ataydi. XIII asr fors she’riyatining namoyandasi Puri Bahoi Jomiy o‘z she’rlaridan birida uni uyg‘ur xati (xatt-i uyg‘uri), mashhur tarixchi Ibn Arabshoh «Ajoibu-l-maqdur fi navoibi Taymur» nomli asarida uyg‘ur xati, «Fokihatu-l-xulafo» asarida esa mo‘g‘ul xati deb ataydi. Ushbu yozuv «Hibatu-l-haqoyiq»ning 1480-yili Istanbulda Abdulrazzoq baxshi ko‘chirgan qo‘lyozmasida mo‘g‘ul xati deyilgan.

Uyg‘ur yozuvli matnlar bizgacha alohida varaq, o‘rama qog‘oz, daftar, kitob, epigrafik bitiglar, taxta, sopol va metall ashyolardagi yozuvlar shaklida etib kelgan. Ayniqsa, ular orasida turklar tarixining turli davrlarida yaratilgan kitoblar salmoqli o‘rinni egallaydi, kitobatchilikning ajralmas qismi sifatida turkiy elatlar madaniy, ma’rifiy yuksalishini belgilaydi. Uyg‘ur yozuvli turk kitobining tarixi mazkur yozuvning tarixi bilan uzviy bog‘liq. Turklar so‘g‘diy negizli alifboni qo‘llay boshlaganlaridanoq uyg‘ur xatli kitobatchilik o‘z yo‘lini boshlagan edi. Ushbu yozuvning kashf etiluvi, o‘z navbatida, turk kitobatchiligida yangi davrni boshlab

berdi. Binobarin, keyingi kezlarda O'rxun-Yenisey xati o'rniga uyg'ur xatining kengroq yoyila boshlaganligining sabablaridan biri ham uning kitobat ishida ancha o'ng'ayligi, paleografik imkoniyatlarining kengligi bo'lgan. Shuningdek, uyg'ur yozuvli qo'lyozmalar texnik jihatdan ancha puxta bo'lgan. Bu esa, qadimgi turk kitobchiligidan oldin ham o'ziga xos bosqichni o'taganligidan dalolat beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, XVI asrga qadar shoh saroylarida uyg'ur kotiblari ham faoliyat ko'rsatib kelganlar va ular baxshi deb atalgan.

Ma'lumki, buddiylikning keng yoyiluvini munosabati bilan Markaziy Osiyo xalqlari (xususan, to'xrilar hamda turklar) muayyan muddat qadimgi *hind (braxma) yozuvidan* ham foydalanganlar.

XVI asr boshlariga qadar O'rta Osiyo hukmdorlari, xususan, temuriylar saroyida uyg'ur yozuvida uyg'urcha yozuvchi kotiblar faoliyat ko'rsatgan va ularga nisbatan ham *baxshi* termini qo'llangan. V.V.Bartold baxshilarning Chig'atoy xonlari saroyida katta e'tibor sohibi bo'lganliklarini ta'kidlab, tarixiy solnomalarni yozib borishdek sharaflilik ularning zimmasiga yuklanganligini yozadi. Xususan, uyg'ur baxshilari uyg'ur yozuvi bilan uyg'ur tilida sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlari haqida «Xon tarixi» asarini she'riy usulda bitganlar. Bu asar Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Abdulloh bin Muhammad bin Ali Nasrullohning «Zubdat al-asar» nomli asarlari yozilishida asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Ilmiy adabiyotlarda temuriylar hukmronligi davrida idora hujjatlarini yuritishda hamda xorijiy davlatlar bilan olib borilgan yozishmalarda uyg'ur alifbosidan foydalanilganligi aytib o'tilgan. Xususan, bunga temuriyzodalardan Abu Said 1468-yilning 10-oktabrida Uzun Hasanga yo'llagan maktubi misol bo'la oladi. Ushbu xat bugun Istambuldagi To'pqapi muzeyi kutubxonasida saqlanmoqda. 1940-yilda A.N.Qurat tomonidan uning asl nusxasi transkripsiya va tarixiy-filologik sharhlar bilan nashr etilgan.

Umuman, Islom davrida, ayniqsa, XIV-XV asrlarda Movarounnahr, Xuroson, Onado'li madaniy muhitida uyg'ur yozuvli kitobchilik g'oyat gullab yashnadi va bu

zaminda so'ng bor o'zining takomil cho'qqisiga chiqdi. O'sha kezlarda Yazd, Hirot, Samarqand, Istanbul kabi madaniyat markazlarida uyg'ur yozuvida bituvchi baxshilar (xattotlar) maktablari vujudga keldi. XIV-XV asrlarning manbalarida uyg'ur xatida ko'chiruvchi kotiblarga nisbatan bahsi so'zi qo'llangan. Manbalarda baxshilarning nomlari ham qayd etilgan.

*Arab yozuvi* o'zbek xalqi tarixida uzoq yillar davomida foydalanilgan yozuv sanaladi va bu yozuv asosida juda ko'plab qimmatli yozma yodgorliklar bitilgan. Xalqimiz 1929 -yilga qadar bu yozuvdan foydalanib keldi.

O'zbek xalqi XX asr davomida quyidagi yozuvlardan foydalandi:

1. Arab yozuvi 1929 -yilgacha.
2. Lotin yozuvi 1929-1940 -yillar.
3. Rus grafikasi 1940-1995- yillar.
4. Rus va lotin grafikasi 1995-2010 -yillar.

Umuman, hozirgi kunda jahonda yozuv sistemalarining quyidagi to'rt guruhi juda keng tarqalgan:

1. *Lotin yozuvi asosida shakllangan yozuv sistemalari.* Bu yozuvdan dunyo aholisining 30 % dan ortig'i foydalanadi.

2. *Slavyan-kirillitsa yozuvi.* Bu yozuv turidan foydalanuvchilar dunyo aholisining 10 % ini tashkil qiladi.

3. *Arab yozuvi.* Bu yozuvdan dunyo aholisining 10 % dan ortig'i foydalanadi.

4. *Hind bo'g'in yozuvi.* Bu yozuvdan dunyo aholisining 20 % foydalanadi.

Bulardan tashqari yana bir qancha yozuvlar bo'lib, ulardan dunyo aholisining 30 % ga yaqini foydalanadi.

**Yozuv qurollari va materiallari.** Umumbashariy madaniyatning rivojlanishida qog'ozning kashf etilishi juda muhim ahamiyat kasb etdi. Qog'oz kashf etilgunga qadar qadimda qo'lyozma kitob uchun ashyo sifatida papirus, teri, pergament, gazlama-mato, suyak, sopol, daraxt po'stlog'i va taxta kabilardan foydalanib kelindi. Ularning har biri muayyan bir davr uchun o'ziga xos ahamiyatga

ega bo'lgan, lekin ular ba'zi bir kamchilik va nuqsonlardan ham holi bo'lmagan. Xususan, papirus engil bo'lsa-da, lekin o'ta nozik, sopol esa salga sinavergan, gazlama mato tez to'zigan va tez chirishga moyil bo'lgan. Bundan tashqari, ushbu yozuv ashyolarining ko'pchiligi qurt-qumursqalarga em bo'la olgan. Shu tufayli ham bu ashyolarga yozilgan qadimgi qo'lyozmalarning aksariyati bizgacha etib kelmagan. Ajdodlarimiz o'z yozuvlarini kerak hollarda tosh va qoyalarga ham yozishgan. Sopol taxtachalarga yozish ko'proq Sharqqa xos bo'lgan. Sharqning ko'pgina xalqlarida yozuv ashyosi sifatida papirusdan foydalanish keng avj olgan davrlarda ham sopol taxtachalar iste'moldan chiqib ketmagan. Ular ba'zi xabar va qaydlarni yozishda hamda hisoblarni yuritishda baribir qo'l kelavergan. Har ikki tomoniga mum surtilgan yog'och taxtachalardan maktablardagi dars mashg'ulotlarida foydalanilgan. Ularda o'quvchilar mashqlarni bajarishgan. Kattalar uni pochta qog'ozini sifatida ishlatishgan. Ammo bu ashyolar (sopol, mumli va toshtaxtalar)ga yirik badiiy asarlarni yozish juda ham oson bo'lmagan. Doimiy izlanishda bo'lgan ajdodlarimiz papirusni kashf etishdi. Sharqda papirusning yozuv ashyosi sifatida foydalanish tarixi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Manbalarga ko'ra, miloddan oldingi VII asrda qadimgi yunonlar, asosan, Misrdan keltirilgan papiruslardan foydalanishgan. Ba'zi tadqiqotchilar uning yozuv ashyosi sifatida qo'llanilish tarixini ellinizm davriga, xususan, Aleksandr Makedonskiyning g'alabasi hamda Misrda Aleksandriya shahriga asos solinishi bilan bog'lasalar, ba'zilar bunga shubha bilan qarab, misrliklar papirus qog'ozdan miloddan 3000 yil avval ham foydalanishganini yozadilar. Ularning fikricha, Aleksandr Makedonskiyning Misr istilosi papirusning yangi yozuv ashyosi sifatida tanilishi va yoyilishiga turtki bo'lgan, xolos. Papirus so'zi asli misrliklarning *pa-p-uro* so'zidan olingan bo'lib, «shohona» ma'nosini anglatgan. Ushbu so'z olmoncha papier hamda ruscha papirosiga asos hisoblanadi. Yunonlar papirusni biblos deb ataganlar. Zamon o'tishi bilan bu termin umuman kitob ma'nosini anglatgan. Yunonlar hamda rimliklar papirusdan tayyorlangan yozuv ashyolarini xarta deb ataganlar. Arabcha qartas (papirus varaq yoki o'rama qog'oz) termini ushbu so'zdan olingan.

Beruniyning yozishicha: qirtos – yunoncha papirus – «qog‘oz» degani: tumor ham asli yunoncha so‘z, «o‘rama qog‘oz» degan ma‘noni anglatadi.

Dastlabki tumorlar qirtoslardan, keyinchalik qog‘ozlardan bo‘lgan. Papirus qog‘ozni tayyorlash uchun papirus poyasi keskir pichoq bilan tilinib, tolalarga ajratib olingan. Eng yaxshi tola uning o‘zagidan olingan. Birinchi navli papirus qog‘ozlar diniy hamda zodagonlar uchun yaratilajak kitoblarga mo‘ljallangan. Qog‘ozning ikkinchi navi amfiteatr deb atalgan. Bu nom Aleksandriyadagi qog‘oz fabrikasining shahar amfiteatri yaqinida joylashganligi uchun berilgan. Eng past navli papirus qog‘oz bozor uchun tayyorlangan. Undan narsalarni o‘rashda foydalanilgan. Yozuv uchun mo‘ljallangan papirusning eni 20 - 23,5 sm.gacha bo‘lgan. Ba‘zi hollarda eni 44 sm.gacha bo‘lgan papiruslarni tayyorlashga harakatlar bo‘lgan, lekin ular pishiq bo‘lmagan va foydalanishda noqulayliklar keltirib chiqargan. Papirus o‘ramining uzunligi matn hajmidan kelib chiqqan holda 8-10 metrgacha borgan. 10 metrli papirus o‘ramlari kam tayyorlangan. Chunki bunday hajmdagi papirusni ushlab turish o‘quvchi uchun oson bo‘lmagan. Har bir qatorda 35 dan 40 tagacha harf yozilgan. Milodiy uchinchi asrdan e‘tiboran har bir qatordagi harflar soni qat‘iy belgilangan va ular soni 25 dan oshmagan. Matn o‘ngdan chapga qarab alohida ustunlar holida yozilgan. Bu ustunlar lotin tilida pagina (kitob yoki qo‘lyozma sahifalariga raqam qo‘yib chiqishni ifodalovchi paginatsiya termini shu so‘zdan olingan), yunonchada selis, ba‘zida yana bir Yunoncha tomos so‘zlari bilan atalgan. Tayyor bo‘lgan papirus qog‘ozlar g‘altaksimon o‘qlovga o‘xshash tayoqchalarga o‘ralgan. Qadimgi yunonlar hamda rimliklar bunday tayoqchalarni pup hamda omfalos deb atashgan. O‘quvchi qartasni o‘ng qo‘lida tutgan va o‘qib borish jarayonida bosh qismini ikkinchi tayoqchaga chap qo‘li bilan o‘rab borgan. Matn to‘liq o‘qib bo‘lingandan keyin yana boshqatdan birinchi tayoqchaga o‘rab qo‘yilgan. O‘rama qog‘ozdagi birinchi va oxirgi varaqlarning nomlari yunonchadagi «kollao» (yopishtiraman) fe‘lidan yasalgan: esxatokol (esxatos – «oxirgi») va protokol (protos – «birinchi»). O‘rama qog‘ozlar tegishli o‘lchamdagi charm g‘iloflarga solib qo‘yilgan. Bunday g‘iloflarga

nisbatan yunoncha faynola yoki fenola terminlari qoʻllangan. Faynolalar sopoldan ishlangan maxsus qutilarda saqlangan. Koʻp hollarda qutilar tsilindrsimon shaklda boʻlgan. Shaxsiy yoki davlat kutubxonalarida saqlanayotgan kitob yoki qoʻlyozmaning qidirib topilishini osonlashtirish uchun qogʻoz oʻralgan tayoqchanning yoki gʻilofning bosh qismiga kitob nomi yoki matnning sarlavhasi yozib qoʻyilgan.

Qadimgi oʻzbek kitobatchiligida ham oʻrama qogʻoz shakli keng qoʻllanishda boʻlgan. Bundan tashqari qoʻlyozma kitoblar daftar hamda bizga yaxshi maʼlum boʻlgan sharq qoʻlyozmalari shaklida tayyorlangan. Sharqshunos olim Qosimjon Sodiqov olib borgan tadqiqotlar natijasi shuni koʻrsatadiki, kitob tayyorlashning oʻrama qogʻoz shakli qadimgi turklarda, ayniqsa, moniy jamoalarida shuhrat topgan boʻlib, yirik hajmli moniy yodgorliklari ana shu usulda kitobat qilingan. Oʻrama qogʻoz usulini buddiylar ham qoʻllagan. U soʻgʻd kitobatchiligida ham mavjud boʻlgan. Bundan maʼlum boʻladiki, ushbu kitobat turi hududiy tabiatga ega boʻlib, Markaziy Osiyo xalqlarining oʻzaro madaniy aloqalari taʼsirida yuzaga kelgan.

Turk buddiylarda keng tarqalgan kitob turlaridan birining nomi potxi deb atalgan. Abu Rayhon Beruniy oʻzining «Hindiston» asarida bu haqda keng maʼlumot beradi. Potxi usulida kitob tayyorlashda har bir varaqning oʻng betidagi sahifa boshiga asar boʻlimi va ushbu boʻlim varaqlarining tartib koʻrsatkichi yozib ketilgan. Q.Sodiqovning yozishicha, «Noʻm bitiglarining boʻlimlari uLus, kitob varaqlari patar deb yuritilgan. Bir boʻlim tugagach, keyingi boʻlimdan tartib koʻrsatkichi ham yangidan boshlangan. Ushbu koʻrsatkich, oʻz navbatida, poygir vazifasini oʻtagan va kitob sahifalarini tartibli saqlash imkonini bergan. Qadimgi hindlar bunday kitoblarni tayyorlash jarayonida yozuv ashyosi sifatida palma yaproqlaridan foydalangan. Qizigʻi shundaki, bunday kitob shakli turklarga maʼlum boʻlgach, ular oʻz tabiiy-geografik sharoitidan kelib chiqib, palma yaproqlari oʻrnini qogʻozga almashtirdilar. Qogʻoz esa kitobat ishida daraxt yaproqlaridan tayyorlanadigan varaqlarga koʻra ancha qulay boʻlib chiqdi. Chunki yaxshilab ishlov berilgan qoʻy, echki, buzoq va ohu terilaridan tayyorlanuvchi pergament qimmatga tushadi, biroq shunga qaramay, hijriy

sananing dastlabki asrlarida undan keng foydalanilgan. Ma'lumki, papirus faqat Misrda o'sadi. Shu sababdan ham pergament va papirus hamma vaqt ham kitob yaratish uchun qulaylik yaratavermagan. Shunday bo'lsa-da, qadimgi O'zbekiston hududlarida, xususan, Sog'diyonada hayvon terisidan yozuv qog'ozi tayyorlash ishi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bunda ishlov berilgan teri qog'ozlar juda yupqa bo'lib, ular oq rangda bo'lgan.

Dunyo madaniy taraqqiyotida Sharq kitobchilik san'atining o'ziga xos hamda betakror o'rni bor. Ko'hna Sharqda, xususan, O'rta Osiyoda kitobchilik sohasining shakllanishi va taraqqiy etishi Sharq dunyosida ilk bor ayni shu hudud bag'rida qog'oz ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilganligi bilan uzviy bog'liqdir. Manbalardan ma'lumki, eramizning II asrida Xitoyda qog'ozning kashf etilishi va uning ishlab chiqarila boshlanishi dunyo miqyosida kitobchilikning tez sur'atlar bilan rivojlanishiga turtki bo'ldi. Xitoyliklar serdaromad soha hisoblangan qog'oz ishlab chiqarishni qanchalik sir tutmasinlar, VIII asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Samarqandda Xitoy qog'ozi singari sifatga ega bo'lgan qog'oz turi tayyorlana boshlandi. Chunki, Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish uchun kerakli bo'lgan xom ashyoning barcha turlari – ipak, paxta, kanop, qamish, poxol, tut novdasining po'sti kabilar mavjud edi. Samarqandda tayyorlangan qog'oz turlari Samarqand qog'ozi yoki Sharqona qog'oz, Sultoniy hamda Xuroson qog'ozi nomlarini olgan. Shu tariqa Samarqandda tayyorlangan qog'oz turlarining dovrug'i o'zining sifati va nafisligi bilan qisqa vaqt ichida dunyoga taraldi.

Ko'p hollarda tayyor bo'lgan qog'oz bo'laklari o'lchami 58x50 sm. hajmida kesib chiqilgan. Kesishda 20-30 sm. uzunligidagi maxsus buyurtma bilan tayyorlangan va miqraz deb ataluvchi qaychilardan foydalanilgan. Miqraz arabcha so'z bo'lib, uning o'zagi «qarz» – kesmoqdir». Miqraz tayyorlashga ham alohida e'tibor bilan qaralgan. «Bunday qaychilarning pichoq qismi o'ta sifatli po'latdan tayyorlangan va uning ust qismiga oltin yoki kumushdan naqshinkor qilib ishlov berilgan. Qog'ozning yanada jilodor bo'lishi uchun uni etti martagacha

pardoqlashgan. Pardoqlash asbobiga muhura deyilgan. Muhra forscha soʻz boʻlib, «yumaloq narsa yoki soqqa» maʼnosini anglatgan. Muhra yordamida ishlov berilgan bu yaltiroq (jiloli) qogʻoz Oʻrta Osiyoning barcha shaharlarida soʻnggi vaqtlargacha ohor muhrali qogʻoz deb atalgan. Bu qogʻoz turi xattot koʻchirayotganda agar xato qilib qoʻysa, xatni yumshoq bulut orqali suv bilan yuvib quritilgach, bir oz kraxmal surkab qurigandan keyin tuzatib (qayta) koʻchirishga qobil edi. Ayni shu qogʻozdan turli qoʻlyozmalarni koʻchirish uchun maxsus haftrang (forscha soʻz boʻlib, asli maʼnosi «etti rang» demakdir) hamda muqovaning ichki tomoniga qoʻyishda abri bahor (fors tilidagi maʼnosi «bahor buluti» demakdir) deb ataluvchi qogʻoz turlari ham tayyorlangan.

Qogʻoz ishlab chiqarish bilan shugʻullanuvchi hunarmandlarni ifodalashda ham forscha yasalishdagi qogʻozrez, qogʻozgar yoki qogʻozsoz terminlaridan foydalanilgan. Qogʻozgarlik XV-XVI asrlarda hunarmandchilikning muayyan bir kasb-kori sifatida toʻliq shakllandi. Bu soha bilan shugʻullanuvchi hunarmand-ustalar avlodi vujudga keldi. Xususan, VI asrda samarqandlik qogʻozgar usta Mir Ibrohimning nomi juda mashhur boʻldi. Hatto, usta Mir Ibrohim tomonidan qogʻoz tayyorlashning yangi bir usuli ishlab chiqildi. Unga koʻra tayyorlangan qogʻozning ichida bir tangalik doira shaklidagi oppoq «suv belgisi» boʻlgan. Har qanday sharoitda ham qogʻozni mana shu belgisiga binoan boshqa qogʻoz turlaridan osongina ajratib olish mumkin boʻlgan. Bu qogʻoz turi mazkur kashfiyotchining oʻz nomi bilan Mir Ibrohim qogʻozi deb atalgan. Bu qogʻoz turi XVI-XVII asrlarda juda mashhur boʻlgan.

Oʻrta Osiyoda qogʻoz ishlab chiqarishning rivojlanib borishi natijasida qogʻozning bir necha turlari paydo boʻldi. Bunday qogʻoz turlaridan biri qogʻozi abrishoʻmiy deb nomlangan. Ushbu soʻz forscha boʻlib, abrishoʻm – «ipak» demakdir.

Oʻrta Osiyoda tayyorlangan ikkinchi qogʻoz navi qogʻozi nimkatoni deb atalgan. Birikma shaklidagi qogʻozi nimkatoni termini ham forsiy izofada yasalgan



bo'lib, uning ikkinchi komponenti forscha nim (yarim) va katon (kanop) > katoniy (kanopdan tayyorlangan) so'zlarining qo'shilishidan yasalgan. Bu qog'oz turini tayyorlashda ipak va kanop tolasi (katon)dan teng nisbatda foydalanilgan. Bu qog'oz navi ham qog'ozi abrisho'miy singari o'ta darajada sifatli, pishiq bo'lib, pardozi va nafisligi bilan undan qolishmagan.

Bundan tashqari, Sharqda qog'ozning yana bir necha turlari ishlab chiqarilgan va ularning nomlari qog'oz ishlab chiqarilgan joyga nisbat berilgan holda ular qog'ozi samarqandiy, qog'ozi buxoriy, qog'ozi davlatobodiy //qog'ozi sultoniy, qog'ozi haririy (Samarqandda yoki Hindistonda tayyorlangan ipak qog'oz), qog'ozi bag'dodiy, qog'ozi kashmiriy, qog'ozi isfaxoniy kabi nomlar bilan yuritilgan. Ko'p hollarda, ular yana ham qisqartirilgan tarzda, ya'ni samarqandiy, buxoriy, davlatobodiy, sultoniy, haririy deb atalgan shakllari ham iste'molda bo'lgan.

«Qog'oz» so'zining etimologiyasi haqida ham turlicha fikrlar mavjud. Ba'zi manbalarda u forscha deb berilsa, ba'zilarida arabcha deb berilgan. Uchinchi bir fikr borki, unga ko'ra «qog'oz//kagid» termini asli xitoycha bo'lib, arab tiliga so'g'd tili vositasida o'zlashgan. «Qog'oz» so'zi musulmon qo'lyozma kitobchilik an'analari vujudga kelgandan e'tiboran O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Hindiston, Eron, Yaqin Sharq kabi jo'g'rofiy hududlarda qo'llanib kelindi. O'zbek tilida «qog'oz» terminining qo'llanilishini XI asrga oid asarlarda ham kuzatiladi. XIV-XVI asrlarga oid asarlarda «kog'az» shaklida berilgan.

Qamish qalam yoki patqalamning yozuv quroli sifatida o'z tarixi bor. G'oz patidan tayyorlangan patqalamning Sharq dunyosida, nafaqat Sharqda, balki Evropa yozuv madaniyatida qo'llanilganligi haqida turli fikrlar mavjud. Tarixdan ma'lumki, dunyo taraqqiyotining turli bosqichlarida turli o'lkalarda turli xildagi yozuv qurollaridan foydalanilgan. Ular xususida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, rus tadqiqotchisi A.P.Kajdan o'zining «Книга и писатель в Византии» nomli kitobida bu borada juda qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Uning yozishicha, Misr kotiblari eramizdan oldingi uchinchi asrda ham qamish qalamdan

foydalanishganini, uning uch qismi qiyshiq holda kesilgan bo‘lib, yozuvning yanada nafis yozish imkonini berganligini ta’kidlaydi. Qadimda kotiblar qamish qalam bilan birga suyak yoki metallardan ishlangan qalam turlaridan ham foydalanishgan. G‘arb dunyosida bu qalam turlari o‘rnini asta-sekinlik bilan parrandalar patidan tayyorlangan patqalamlar egallay boshlagan. A.P.Kajdanning fikricha, antik davr kotiblari, buyuk ehtimolda, patqalamdan foydalanishmagan; har holda, u davrlarga oid yunon yoki rim yodgorliklarining birontasida ham patqalamdan foydalanilganligi qayd etilmagan, aksincha, barcha matnlarda qamish qalam yodga olingan, rassom suratlarida ham, asosan, qamish qalam tasvirlangan. G‘arbda XI asrga qadar yaratilgan diniy miniatyuralarda evangelist (injilchi)lar surati qo‘llarida qamish qalam bilan tasvirlangan. XII asrdan e’tiboran yaratilgan diniy miniatyuralarda qamish qalam tasviri aks etmagan. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, G‘arbda qamish qalam o‘rnini patqalam egallashi XI asrda o‘z nihoyasiga etgan. Bunday xulosaga kelishimizga XII asrda yaratilgan G‘arb qo‘lyozma asarlarida faqat g‘oz, oqqush yoki tovus patlaridan tayyorlangan qalamlar haqida bahs etilganligi asos bo‘la oladi. Lekin Vizantiyada patqalam turlarining ishlatilganligi hanuz noma’lum, ammo qamish qalamning uzoq vaqtlargacha asosiy yozuv quroli sifatida ishlatilib kelinganligi ma’lum. Masalan, XIII asrda yaratilgan va bugungi kunda Parij kutubxonalaridan birida saqlanayotgan Injilda stol ustida yotgan bir nechta qamish qalam tasviri berilgan. Yoki undan ancha keyin, aniqrog‘i, XIV asr o‘rtalarida yaratilgan va hozir Moskva tarixiy muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozmalarda tasvirlangan 407 ta evangelist (injilchi)ning surati qo‘llarida qamish qalam bilan tasvirlangan. Polyak olimi L. Vinnichuk o‘zining «Люды, нравы и обичаи Древней Греции и Рима» nomli kitobida (–M.,1988) A.P.Kajdanning yuqoridagi fikrlarini tasdiqlovchi dalillarni keltiradi. Uning fikricha, yunonlar qadimda papirus va pergamentga, asosan, qamish qalam bilan yozganlar.

Qadimgi Misrda yozuv quroli sifatida qamish qalam ishlatilgan. Misr kotiblari qalam uchun qamishning faqat sho‘r botqoqlikda o‘sganlarinigina tanlashgan. Qamish

poyasidan kerakli uzunlikdagi qismi kesib olingan va uning bir uchi qiyasiga kesilgan. So'ngra qamishning bu qismiga ishlov berilgan. Qadimgi misrliklar qalamning har ikki tomonidan ham foydalanishgan. Tarashlanib ishlov berilgan qismi bilan ingichka yozuvlarni, tekis kesilgan tomoni bilan esa qalin yozuvlarni yozishda foydalanishgan. Miloddan avvalgi ikki minginchi yilning birinchi yarmiga qadar, ya'ni O'rta podshohlik davrida Misr kotiblari qalam cho'pining uzunligi 40 sm.gacha, uchining eni 2.5 mm.gacha bo'lgan qamish qalamlardan foydalanishgan. Yangi podshohlik davridan, ya'ni Miloddan avvalgi ikki minginchi yilning ikkinchi yarmidan e'tiboran kotiblar uzunligi 20 sm.gacha, uchining eni 1,5 mm.gacha bo'lgan qamish qalamlarga ustunlik berishgan. Yunon-Rim davrida, ya'ni eramizning uchinchi asridan boshlab qamish qalam uchlari maxsus asboblar vositasida tarashlanadigan bo'lindi. Bunday qalamda endi nozik chiziqlarni tortish hamda yozish imkoni paydo bo'lgani holda qog'oz vazifasini bajarib kelgan papiruslarga yozishda ancha qiyinchiliklar tug'ildi. Yunonlar bunday qalamni «kalamos» deb atashgan (arab tiliga «qalam» shaklida o'zlashgan). Monastir rohiblari uzunligi 25 sm, uch qismining eni 1 sm.lik qamish qalamlardan foydalanishgan. Qalamning yaroqsiz holga kelgan uch qismi vaqti-vaqti bilan kesib, taroshlab turilgan. Shundan qalam uzunligi tobora qisqarib boravergan. Ko'p hollarda ancha kalta bo'lib qolgan sifatli qalamga yog'och cho'p ulab foydalanilgan. Shuningdek, Qadimgi Misr kotiblari yozuv ishlarini olib borish jarayonini ancha takomillashtirishgan. Misr kotibi, odatda, yerga o'tirib, oyoqlarini bukkan holda papirusni maxsus taglikka qo'yib ko'chirgan. Qadimgi Suriyada ham asosiy yozuv quroli qamish qalam bo'lgan. Qamish qalamdan foydalanish O'rta Yer dengizi atrofidagi xalqlarda eramizdan oldingi davrlarda ham ma'lum bo'lgan. Taxminan uchinchi asrdan e'tiboran qamish qalamning uchi tarashlangan holda ishlatila boshlandi. Qadimda yozuv quroli sifatida suyak hamda metallardan ishlangan qalamlardan ham foydalanilgan, ammo qamish qalam ishlatilish jihatidan ularga nisbatan qulay bo'lgan. Chunki qamishning g'ovak qismi siyohni tutib turish hamda uning hadeb tomib ketmaslik imkoniyatlarini saqlagan. Suriya

qalamlarining yana bir afzalligi shunda ediki, ularning uchi tarashlanish bilan birga ikki qismga yorib qo'yilganligi natijasida har doim ham bir xil hajmdagi ingichka harflarni ravon yoza olish imkonini berar edi. Qalamning ushbu turi dunyo bo'ylab keng tarqalgan edi. Undan evrey, yunon, kopt, arab kabi dunyoning ko'pgina xalqlari yozuv ishida foydalanishar edi. Suriyaliklar yozuv quroli sifatida parranda patlaridan tayyorlangan patqalamlardan ham foydalanishgan. Bunday xulosaga kelishga Britaniya muzeyida saqlanayotgan 509-yilda yozilgan qo'lyozma asos bo'ldi. Unda yozuv quroli «arbo de-poraxto» (patqalam) deb atalgan. Bundan boshqa ba'zi qo'lyozmalarda ham patqalam tilga olinadi. Shunga asoslangan holda ba'zi olimlar (J.Land, R. Dyuval kabilar) qadimgi suriyaliklar patqalamlardan ham foydalanishgan, degan taxminni o'rta tashlaydi. Ba'zi fikrlarga icha, suriyaliklar qamish qalamdan ancha keyingi davrlarda, ya'ni XII asrdan keyin foydalana boshlashgan. Yana bir ingliz olimi U.Raytning esa, suriyaliklar faqat qamish qalamdan foydalanishgan, Suriya qo'lyozmalarida uchrovchi patqalamda yozilgan ilovalar esa, o'sha davrlarda keng udum bo'lgan yunon yozuv shakllariga taqlid xolos, deb hisoblaydi. Bu fikrlarga teskari holda E.N.Mesherskaya o'z ishida qadimgi Suriyada patqalamning faol ishlatilganligini to'liq yoqlaydi. Patqalam ishlatishdan oldin maxsus ishlovdan o'tgan: pat dastlab bir necha vaqtga qadar kul yoki qumga ko'mib qo'yilgan, so'ngra parda va yog'dan tozalanib, maxsus pichoq yordamida uchiga ancha ishlov berilgan va o'rtasidan tilib qo'yilgan. G'oz patidan tayyorlangan patqalamning uchiga nihoyatda yaxshi ishlov berilganidan unda yozilgan harflar aniq va ravshan bo'lgan. Bunday patqalamlar Suriyada uzoq yillar davomida amalda qo'llangan (X-XI asrlarga qadar). Qamish qalamda esa, qamishga ishlov berish ishi hali takomillashmagani bois, bunday chiroyli yozuvga erishishning imkoni bo'lmagan, o'zidan qo'pol yozuvlarni qoldirgan.

Arman yozuv madaniyatida, dastlab, yozuv quroli sifatida temirdan ishlangan qalamchalardan foydalanilgani ma'lum. Shundan arman tarixida bu davrlarda yozilgan yozuvlar «temir xat» deb atalgan. Bu xat usulida kotib har bir harfning

rasmini alohida-alohida chizib chiqqan. X asrdan e'tiboran arman kitobatchiligida qog'oz ishlatila boshlandi. Yozuv ishida pergament o'rnini qog'oz egallashi sababli endi kotiblar qamish qalamdan foydalana boshlashgan. Endi kotib harf rasmini alohida-alohida chizmasdan, uni rostakamiga yozgan. «Temir xat» usuli faqatgina sarlavhalarni yozishda qo'llangan, xolos. Arman kitobatchiligiga oid yana bir boshqa manbada esa, asosiy yozuv quroli qamish qalam bo'lganligi, lekin keyinchalik uning o'rnini patqalam egallaganligi yoziladi. Efiopiya kitobatchiligida buning aksini, ya'ni qadimgi qo'lyozmalar tovuq yoki yirik yovvoyi parrandalarning dum qismi patlaridan tayyorlangan patqalamlarda yozilgan bo'lsa, keyingi davrlarda ular o'rnini qamish yoki bambukdan ishlangan qalamlar egallaganini kuzatish mumkin.

Eron qo'lyozma asarlari tarixida ham asosiy yozuv quroli qamish qalam bo'lib, arab qo'lyozmasidagi singari, yozuv turiga ko'ra har xil bo'lgan. Turk kitobatchiligida ham asosiy yozuv quroli sifatida qamish qalamdan foydalanilgan. Qamish qalam turlari arab alifbosidagi yozuv turlariga ko'ra turlicha bo'lgan. Qalam uchun qo'llanilgan qamishlar Hindiston, Iroq kabi yurtlardan keltirilgan. Turk yozuv madaniyatida qamish qalam bilan birga yirik yozuvlarni yozish uchun bambukdan ishlangan qalam, yanada yirik yozuvlar uchun jo'ka yoki grab (qayinning bir turi) daraxtlari shoxidan tayyorlangan kurakcha shaklidagi taxta qalamlar ham amalda qo'llanilgan. Qadimda uyg'ur kotiblarining asosiy yozuv quroli qamish qalam bo'lgan. Unchalik katta ahamiyatga ega bo'lmagan yozuvlar Xitoy mo'yqalamida yozilgan. Siyoh hamda mo'yqalamning tashqaridan keltirilishi yozuv ishida har doim ham xorijiy siyoh va mo'yqalamdan foydalanish imkonini bermagan, undan faqat zodagonlargina foydalana olishgan. Shuning uchun uyg'ur qulyozma asarlari asosan mahalliy ishlab chiqarilgan siyoh hamda qamish qalamda yozilgan.

Ma'lumki, hind qo'lyozma kitob madaniyati uzoq tarixga ega. Hind qo'lyozma kitobatchiligi tarixi eramizdan oldingi beshinchi asrdan boshlangan. Qadimgi hind qo'lyozmalarining muayyan qismi daraxt (qayin) po'stloqlariga yoki palma yaproqlariga yozilgan. Shimoliy-G'arbiy Hindiston va Kashmirda topilgan daraxt

po'sti va yaproqlariga yozilgan qadimgi qo'lyozmalar qamish qalamda bitilgan. Bundan tashqari, «potxi» deb ataluvchi hind qo'lyozmalarini yozishda metallan ishlanib, uchi o'tkirlangan qalamlardan ham foydalanilgan. Ular «ara» deb nomlangan. Eng sifatli metall qalamlar oltindan ishlangan. Ammo ular har doim ham amalda qo'llanmagan, ular faqat hukmdorlar saroyidagina ishlatilgan.

Qadimgi Xitoyda kotiblar yozuv quroli sifatida bambukdan tayyorlangan qalamlardan foydalanganlar. Eramizdan oldingi uchinchi asrdan boshlab mo'yqalam ishlatila boshlangan. Ularning turlari ko'p bo'lgan: «bi» deb ataluvchi mo'yqalam tarixi ilk zamonlarga borib taqalsa, «maobi» deb nomlangan qilqalam turi eramizning boshlarida kashf etilgan va keyingi ming yillikda doimo takomillashib borgan. Xitoy xattotlik san'atining asoschilaridan biri bo'lgan Van Si-chji (321-379- y.y.) o'zining «Mo'yqalamlar haqida» (Bi tszin) nomli asarida xitoy mo'yqalamlarining turlari va yasalish tavsiflarini keltiradi. Unda yozilishicha, Xitoy mo'yqalamlarini tayyorlashda asosiy ustunlik quyon yungiga berilgan. Mo'yqalamning o'rta qismi quyon yungidan dag'alroq bo'lgan kalamush yungidan, atrofi esa, quyonning o'ta mayin yungidan tayyorlangan. Jalam dastasini tayyorlashda, asosan, bambuk, ba'zi hollarda oltin, billur, fil suyagi va yog'och ham ishlatilgan. Xitoyda mo'yqalamlar shunchalik e'zozlanganki, ko'pgina mashhur shoir va Yozuvchilar o'z mo'yqalamlarini madh etgan holda xalq orasida mashhur bo'lgan badiiy asarlarini yaratishgan. Masalan, Fu Syuanya (217-287- y.y.) «Mo'yqalam epitafiyasi» (Bi min) va «Mo'yqalam haqida qasida» (Bi fu); Go Pu (276-324- y.y.) «Mo'yqalam madhiyasi» (Bi tszanь); Xan Yuy (768-824- y.y.) «Mo'yqalam uchining tavsifi» (Mao In Chjuanь) kabilar shular jumlasidandir. Umuman, Xitoyda mo'yqalamdan XX asrga qadar foydalanib kelindi, shunday bo'lsa-da, bugungi xitoy xattoti uchun u o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. O'tgan ming yillikning oxirlarida Xitoy kitoblari bambukdan tayyorlangan ashyolarga yozilgan. Xitoy ixtirochisi Tsay Lun tomonidan olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan «qog'oz»ning kashf etilishi bilan yozuv quollarining shakli va tuzilishi tamoman o'zgardi. Ilgarilari suyak, bronza va bambukdan tayyorlangan materiallarga qattiq

uchlik yozuv quroli bilan yozilgan bo'lsa, qog'ozning kashf etilishi bilan unga yoki ipak matoga yozish uchun yumshoq mo'yqalamlar («bi», «maobi»)ga ehtiyoj sezildi. Xitoy xattotlik san'atining asoschilaridan biri bo'lgan Van Si-chji ayni zamonda bunday mo'yqalam turlaridan birining ixtirochisi hisoblanadi. Uning aytishicha, u yaratgan mo'yqalam turi engil va yozish uchun o'ta qulay bo'lib, yozuvchi undan umri davomida qo'llanishi mumkin bo'lgan. Chunki u hech qachon sirpanmagan. Bunday mo'yqalam tutqichlari turli ashyolardan, xususan, bambukdan, ayrimlari esa oltin, billur va fil suyaklaridan tayyorlangan. Mo'yqalamning uch qismi ko'proq quyon yungidan tayyorlangan. Xitoyda bu qalam turi XX asrga qadar ham amaliyotda faol qo'llanib kelingan. So'ngra uning o'rnini «pero»li qalamlar egallagan. Shuningdek, Xitoyda ma'lum bir muddat mubi deb ataluvchi qamish qalamdan ham foydalanilgan. Lekin Xitoy xattotchiligida hanuz mo'yqalamlardan foydalaniladi. Bunday qalam turlarini yaratish borasida Qadimgi Xitoyda juda ko'plab asarlar yozilgan. Rus tadqiqotchisi L.N.Menshikov bular haqida atroflicha to'xtaladi. Uning yozishicha, Qadimgi Xitoy kotiblari yozuv ishlarini olib borishda qilqalam bilan birgalikda mubi deb atalgan qamish qalamdan ham keng foydalanishgan. Mubilar Tibetta ko'proq ishlatilgan. Shuningdek, IX-X asrlarda kundalik foydalanishga mo'ljallangan ko'pgina qo'lyozmalar ham mubida yozilgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, qadimda xitoyliklar biz bilgan pero bilan emas, balki mo'yqalam bilan yozganlar. Xitoyda bi yoki maobi deb ataluvchi mo'yqalam turlarining kashf etilishi uzoq tarixga ega. Bu deb ataluvchi mo'yqalam eramizdan oldin yaratilgan bo'lsa, maobi eramizning boshlarida paydo bo'lgan va asrlar davomida takomillashib borgan. Xitoy xattotlik san'atining asoschilaridan biri bo'lgan Van Si-chji (321-379) o'zining «Bi tszin» (Mo'yqalamlar haqida) nomli asarida xitoy mo'yqalamlarining yasalish tavsiflarini keltiradi. Xitoy mo'yqalamlarini tayyorlashda asosiy ustunlik quyon yungiga berilgan. Mo'yqalamning o'rta sterjeni quyon yungidan dag'alroq bo'lgan kalamush yungidan, atrofi esa, quyonning o'ta mayin yungidan tayyorlangan. Qalam dastasini tayyorlashda, asosan, bambuk, ba'zi

hollarda oltin, billur, fil suyagi va yog'och ham ishlatilgan. Xitoyda mo'yqalamlar shunchalik e'zozlanganki, ko'pgina mashhur shoir va yozuvchilar o'z mo'yqalamlariga bag'ishlab o'z davri uchun taniqli bo'lgan badiiy asarlarini yaratishgan. Masalan, Fu Syuanya (217-287) «Mo'yqalam epitafiyasi» (Bi min) va «Mo'yqalam haqida qasida» (Bi fu); Go Pu (276-324) «Mo'yqalam madhiyasi» (Bi tszanь); Xan Yuy (768-824) «Mo'yqalam uchining tavsifi» (Mao In Chjuanь) kabilar shular jumlasidandir. Umuman, Xitoyda mo'yqalamdan XX asrga qadar foydalanib kelindi, shunday bo'lsa-da, bugungi xitoy xattoti uchun u o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Qadimgi yapon kitobchiligida ham eng yaxshi yozuv quroli sifatida bug'uning yozgi yungidan tayyorlangan mo'yqalam hamda qishki yungidan tayyorlangan qilqalamlardan foydalanilgan.

Rus kitobchiligida qamish qalam deyarli qo'llanmagan. Ushbu fikrni rus kitobshunos olimi I.E.Barenbaum ham tasdiqlaydi. I.E.Barenbaum qadimda rus kotiblarini yozishda asosan patqalam ishlatganligini, uning g'oz, oqqush, hatto, tovus patlaridan tayyorlanganligini yozadi. To'g'ri, qadimgi Rusda yaratilgan injillarga ishlangan miniatyuralarda evangelist (injilchi)lar qo'llarida qamish qalam tutgan holda tasvirlangan. A.P.Kajdanning fikricha, bu qadimgi an'analarga uyg'un shaklda ishlangan, xolos. Bu an'ana Rusga Vizantiyadan o'tgan bo'lishi mumkin. Qadimgi Rusda papirusning ishlatilmagani, uning o'rnida esa, qayin po'stlog'i (beresta) qo'llanilganini hamda yozuv quroli sifatida suyak, metall, taxta kabi ashyolardan tayyorlangan qalamlardan foydalanilganini dalillar asosida yoritib beradi. Uning yozishicha, qadimgi Rusda bunday yozuv qurollari pisala deb atalgan va ular teridan ishlangan maxsus g'ilofda saqlangan. Rus arxeologlari pisolalarni Novgorod, Pskov, Smolensk, Ryazan, Saratov kabi shaharlarda olib borilgan qazilma ishlarida topishgan. Dastlabki vaqtlarda ularni to'g'nog'ich, teriga ishlov berishda qo'llaniladigan asbob, bilaguzuk qoldig'i deb ham taxmin qilishgan. Keyin ma'lum bo'lishicha, ular qadimgi Rusda ishlatilgan asosiy yozuv qurollari – pisala ekan.



Shunga o'xshash fikrlarni yana boshqa manbalarda ham uchratish mumkin. Ularning ba'zilarida rus kitobatchiligida patqalamlardan XIX asrga qadar foydalanilgani, bosh harflar hamda sarlavhalarni yozishda mo'yqalam ishlatilgani haqidagi qimmatli malumotlar ham berilgan.

Arab qo'lyozma kitobatchiligida yozuv qurollari sifatida qamish qalam birinchi o'rinda turgan. Ushbu yozuv qurolini arablar qalam, mizbar, yara kabi nomlar bilan atashgan. Bu nomga hamda predmetga tarixda juda katta hurmat-e'tibor bilan qarashgan va unga har doim hamdu sanolar aytilgan. Islom dunyosida qalamning ilk ta'rifi muqaddas Qur'oni Karimda aytilgan. Qur'oni Karimning ilk nozil bo'lgan suralaridan birining nomi ham "Qalam surasi" bo'lgan. Sura avvalida Oллоh taolo inson zotiga ato etgan buyuk ne'mati - Qalam va u bilan bitiladigan bitiklarga qasam ichib, o'z payg'ambari Muhammad alayhis-salomning Makka mushriklari hasad, adovat bilan u kishiga taqayotgan tuhmat-majnunlik aybidan pok ekanligini uqtiradi.

Qalam asosan qamishdan tayyorlangan, uning uch qismi qiyalatib kesilgan va tarashlanib, o'rtasidan yorib qo'yilgan. Arab adabiyotida qalamga ijod va go'zallik ilhomchisi sifatida nisbat berilib, madh etilgan. Sifatli qalam bebaho boylik hisoblangan, uning sifati qamishning qaerda o'sganligi, saqlanishi, qalinligi, rangi, xullas, tanlab olinishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan. Qamish qalam yoziladigan yozuv turiga hamda xattot didiga uyg'un bo'lishi kerak bo'lgan. Masalan, suls xatini yozishda qalam uchi qalinroq, uning unsi deb ataluvchi o'ng tarafi to'rt dangga, vahshi deb ataluvchi chap tomoni ikki dangga teng bo'lishi kerak bo'lgan. Bu qalamning tili botiq qilib kesilganki, bu hol undan siyohning bir maromda oqib turishini hamda harf qayrilmalarining nozik va nafis chiqishini ta'minlagan. Suls xati ta'limotida qalamning uchdan bir hissasi ko'proq ishga solinadi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Yozuv nima?

2. Yozuvning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati nimalarda ko‘rinadi?
3. Yozuvning paydo bo‘lishini izohlab bering.
4. Yozuv tarixining piktografik bosqichini izohlang.
5. Yozuv tarixining ideografik bosqichini izohlang.
6. Yozuv tarixining fonografik bosqichini izohlang.
7. Yozuv qurollari va materiallari nimalardan iborat bo‘lgan?

### **Asosiy tushunchalar izohi:**

1. Yozuv muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimidir.

2. Yozuv kishilik jamiyatining obyektiv zaruriy ehtiyoji asosida paydo bo‘ldi, shu ehtiyoj negizida rivojlandi va takomillashib bordi. U bugun biz biladigan yozuvlar shaklini olgunga qadar uzoq va murakkab tadrijiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi.

3. Piktografik yozuvda bildirilmoqchi bo‘lgan fikrlar inson, hayvon, qayiq kabilarning sxematik tarzidagi rasmlarini tushirish orqali ifodalangan.

4. Ideografik yozuvda so‘zning grammatik va fonetik shakllari aynan berilmaydi, balki unda mazkur so‘z anglatishi mumkin bo‘lgan ma’no maxsus grafik belgilar orqali ifodalanadi.

5. Fonografik (grekcha phone - tovush, grapho - yozaman) yozuv tilni nafaqat grammatik tuzilishini, balki uning fonetik tuzilishini, ya’ni so‘zning tovush tarkibini ham aks ettiradi.

## **9-§. TIL - BELGILAR TIZIMI**

Har qanday til fonetik tuzilish, grammatik qurilish va lug‘at tarkibidan tashkil topadi. Tilning ushbu tarkibiy qismlari muayyan qonuniyatlar asosida o‘zaro bog‘lanib, butun bir tilni hosil qiladi, til mazkur birikmalar negizida uzviy bog‘langan tizimni tashkil etadi. Tilning rivojlanishi, ichki qurilishi, tilning

murakkab tizim ekanligi I.A.Boduen de Kurtene, H.B.Krushevskiy, F.F.Fortunatov, V.A.Bogoroditskiy, A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov, S.P.Obnorskiy, V.V.Vinogradov, A.M.Peshkovskiy, L.V.Sherba kabi tilshunoslarning asarlarida yoritilgan. Ichki qurilishi jihatidan til ma`lum miqdordagi o`zaro chambarchas bog`liq bo`lgan til birliklarining yig`indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab tizimdir.

Til inson hayotida muhim rol o`ynaydigan hodisadir. Kishining butun hayoti til bilan bog`langan bo`lib, til yordamida kishilar o`zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Shu bilan birga, inson tili nihoyat darajada murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo`lgan sifatlarni o`zida mujassamlashtirgan hodisadir. Til kishilik jamiyatida eng muhim aloqa quroli bo`lib, insoniyatning uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarni saqlaydigan va avloddan avlodga yetkazib beradigan asosiy vosita bo`lib xizmat qiladi. Tilning tabiati, mohiyati, kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi kabi muhim masalalar ilmiy o`rganishni talab qiladi.

Tilshunoslik fanining tarixida tilning tabiati, ijtimoiy mohiyati kabi eng muhim masalalarni o`rganishda turli nazariyalar va oqimlar mavjud bo`lgan. A.Shleyxer tilning tabiati, tilning biologik tabiati to`g`risida, G.Paul til faqat individga xos hodisa ekanligi haqida, Vundt xalq psixologiyasi bilan til o`rtasidagi munosat to`g`risida ilmiy ishlar olib borishgan va bir qancha asarlar yozishgan.

Tilning belgilari uni aloqaning boshqa vositalaridan farqlash, tilni ijtimoiy hodisa sifatida xarakterlash imkonini beradi. Umuman, til kishilik aloqa-munosabatining eng muhim vositasi sifatida jamiyat bilan uning madaniyati, turmush va mehnat faoliyatida tildan keng va har tomonlama foydalanib kelayotgan barcha a`zolari bilan uzviy aloqada bo`lib kelmoqda. Tilning jamiyatdagi bu vazifasini uning jamiyat, kishi ongi va fikrlash qobiliyati bilan aloqasini aniqlamay turib, til sistemasi, uning birliklari va kategoriyalarini chuqur anglab bo`lmaydi. Kishilar o`zaro aloqada o`z fikrlarini, istaklarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini ifoda qilib, bir-birlariga ta`sir

qiladilar, bir-birlarini tushunadilar. Tilning jamiyatda aloqa quroli vazifasini bajarishi uning kommunikativ funksiyasidir. Bundan tashqari til ekspressiv va akkumulyativ funksiya bajaradi.

Til boshqa kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji tufayli paydo bo'lgan. Bu ehtiyojning kishilar jamiyat sohalari va inson faoliyatida yuz beradigan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi tilda, birinchi navbatda, tilning lug'at qismida o'z aksini topadi. Demak, til tabiiy va biologik hodisa emas, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi tabiat qonunlariga bo'ysunmaydi.

Tilning ijtimoiy tabiati uning ayrim shaxsda emas, balki jamiyatda mavjudligini taqozo etadi. Til jamiyat tomonidan yaratilgan bo'lib, uning taqdiri ham jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog'liq.

Til ijimoiy hodisadir. Ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy-biologik va fiziologik xususiyatlari(ovqat yeyishi, nafas olishi, rivojlanisi va hokazo) tabiat qonunlariga muvofiq, jamiyatga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so'zlashish va fikrlashish uchun kishilik jamiyati bo'lishi shart. Shuning uchun ham til tabiiy hodisalardan farqli o'laroq, kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Ko'rinadiki, til o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir.

Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri tilning ichki qurilishini o'rganishdir. Har qanday til fonetik tuzilishi, grammatik qurilish va lug'at tarkibidan tashkil topadi. Tilning ushbu tarkibiy qismlari muayyan qonuniyatlar asosida o'zaro bog'lanib, butun tilni hosil qiladi, til mazkur birikmalar negizida uzviy bog'langan tizimni tashkil etadi. Ichki qurilishi jihatidan til ma'lum miqdordagi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan til birliklarining yig'indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab tizimdir. Til tizimini tashkil etuvchi birliklarning o'zaro munosabati va bog'lanish qonuniyatlari murakkab hamda ko'p qirralidir. Garchi til yaxlit tizim bo'lsa-da, bu tizim o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan,

til tizimining tarkibiy qismlari hisoblangan sathlar birligan iborat. Har bir sathning o‘z birliklari va tushunchalari bo‘lib, ular bir-biridan farqlanib turadi. Masalan, fonetik-fonologik sath lug‘at sathidan, lug‘at sathi grammatik sathdan farqlanadi. Ammo, ushbu sathlar o‘zaro bog‘liq ravishda butun til tizimini tashkil etadi. Til tizimini tashkil etgan asosiy sathlar quyidagilar:

1. Fonetik-fonologik sath.
2. Lug‘at sathi.
3. Grammatik sath.

Tilning fonetik-fonologik sathi til tizimidagi nutq tovushlarini o‘rganadi. Fikr almashish uchun foydalaniladigan so‘zlar va gaplar, albatta, tovush lar tizimida o‘z ifodasini topadi.

Tilning lug‘at sathi tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning yig‘indisidan iborat. Lug‘at sathi tilning fonetik-fonologik va grammatik sathlaridan har doim o‘zgarib va rivojlanib turishi bilan ajralib, farqlanib turadi. Fan, texnika, madaniyatning rivojlanish jarayoni lug‘at sathining doimiy o‘zgarib turishini taqozo etadi. Shunga ko‘ra, tilning lug‘at sathi paydo bo‘lishi va qo‘llanilishi doirasi jihatdan bir-biridan farqlanadigan bir necha qatlamlardan tashkil topadi.

Har bir tilning grammatik sathi so‘zlarning grammatik formasi, so‘z birikmalari va gaplardan tashkil topadi. Tilning boshqa sathlari kabi grammatikaning ham o‘z birliklari bor. Eng kichik grammatik birlik *morfema* bo‘lib, morfemalardan *so‘zlar* yasaladi, so‘zlar esa o‘z navbatida so‘z birikmalari va gaplar qurilishida qatnashadi. *Gap* grammatikaning yirik va mustaqil birligidir. Gapdan katta birliklar ham mavjud: *murakkab sintaktik (birlik) butunlik, abzas va matn.*

Til grammatik strukturasi o‘ziga xos xususiyatlari bor.

*Birinchidan*, tilning grammatik qurilishi: so‘zning strukturasi, tuslanish va turlanish qoidalari, so‘z birikmalari va grammatikaning turlari tarixiy taraqqiyotining mahsuli sifatida juda sekin o‘zgaradi.

***Ikkinchidan***, grammatika umumlashtirish xususiyatiga egadir. Masalan, arava, *maktab, tosh, bola* kabi soʻzlarning oʻz leksik maʼnosi bor, ammo, grammatik nuqtayi nazardan bu soʻzlar predmetlik tushunchasini ifoda qilib, ot turkumini tashkil qiladi. Bu soʻzlarni ularning leksik maʼnosi emas, grammatik maʼnosi umumlashtiradi. Tilning grammatik strukturasi morfologiya va sintaksis oʻrganadi. Morfologiya soʻzning turkumlari va ularning grammatik formalarini tekshiradi. Sintaksis esa nutqning grammatik strukturasi oʻrganadi. Bunda gap asosiy birlikdir. Gapdan katta birliklar ham sintaksisda oʻrganiladi.

Til tizimi til birliklari - fonema, morfema, soʻz, gap va til sathlarining bir butunligidan iborat. Yuqoridagilardan koʻrinadiki, aloqa-munosat vositasi boʻlgan tilning fonetik, leksik, grammatik jihatlari muayyan ichki qonuniyat asosida oʻzaro mutanosiblikni tashkil etuvchi tizimdir. Tizimni tashkil qiluvchi mutanosiblik oʻziga xos boʻlgan alohida qoidalarda namoyon boʻladi. Muayyan tildagi gaplar soʻzlardan, soʻzlar boʻgʻinlarning birikuvidan, boʻgʻinlar nutq tovushlaridan hosil boʻladi. Jumlani, gapni tashkil etuvchi soʻzlar oʻzaro til qonuniyatlari asosida birikadi. Ixtalagan har qanday soʻzlar yigʻindisi gap boʻla olmaydi. Tartibsiz suratda yigʻilgan soʻzlar mazmun ifodalash uchun xizmat qilmaydi. Soʻzlarning ketma-ketligi maʼlum tartib va umumiy qoidaga muvofiq boʻlishi talab etiladi. Shu holatning oʻziyoq tilning tizim ekanligini koʻrsatadi. Maʼlum bir tilga xos tovushlar shu tilning fonetik tizimini, soʻzlar leksik tizimini tashkil etadi. Bir tildan ikkinchi tilga oʻzlashgan soʻz shu tilning fonetik tizimiga-talaffuz meʼyorlariga boʻysunadi. Masalan: oʻzbek tiliga rus tilidan kirgan ayrim soʻzlar oʻzbek tili talaffuz meʼyorlariga moslashadi: *чайник-choynak, поднос-patnis*. Aksincha oʻzbek tilidan rus tiliga oʻzlashgan soʻzlar rus tilining talaffuz meʼyorlariga boʻysungan: *qorovul-караул, karvon-караван, bozor-базар*.

Umuman, tilda tovushlar, lugʻat tarkibi, grammatik tartib birikib, tizim sifatida bir butunlikni tashkil etadi. Til tizimini tashkil etuvchi sathlar oʻzaro mutanosib holda

bir-birini taqozo qiladi. Ular orasidagi bog‘liqlik tilning umumiy qoyidalar va qonuniyatlariga asoslangan.

**Morfologiya. Ingliz tilida ko‘plikni bildirish uchun ko‘plikni bildiruvchi “s” qo‘shilishi bilan birga uning oldidan sonlarni qo‘yish yoki son o‘rnida qo‘llaniluvchi so‘zlar (many, a lot of) qo‘llaniladi. Masalan,**

***One apple, two apples, three apples, four ... (bitta olma, 2ta olmalar, 3ta olmalar, 4ta...)***

***Quyida uning formulasi keltiriladi: 1 apple ... // 2 apple + s.***

***Yoki bo‘lmasa, ko‘plikni berishda o‘zak o‘zgarishini kuzatish mumkin.***

***Masalan,***

***One mouse, two mice, three mice, four mice. (bitta sichqon, 2ta sichqon, 3 ta sichqon, 4 ta sichqon)<sup>71</sup>***

Til muayyan birliklarning yaxlit birligidan iborat murakkab tizim hisoblanadi. Til birliklarining o‘ziga xos tabiati professor Sh.Rahmatullayevning ”Til qurilishining asosiy birliklari” qo‘llanmasida izchil bayon etilgan:

Til - tabiiy yo‘sinda vujudga kelgan murakkab ijtimoiy hodisa. Tilshunoslik ana shu murakkab ijtimoiy hodisani o‘rganadi va o‘rgatadi.

Tilshunoslik oldida turgan eng birinchi masala til so‘zini qanday tushunishdan boshlanadi. Til kishilar orasidagi eng muhim aloqa-aralashuv quroli deyiladi. Bu ta`rif-lingvistik ta`rif emas, falsafiy ta`rif. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilsa, til so‘zini ikki xil mundarija bilan ishlatish mavjudligi ko‘rinadi: 1) Ijtimoiy hodisa bir butun holda tushuniladi, 2) Ijtimoiy hodisaning nutqqa zid qo‘yiladigan holatigina tushuniladi. Demak til deganda butunni ham (nutqni qamrab olgan holda), qismni ham (nutqni qamrab olmagan holda) tushunish mavjud. Til so‘zini bunday ikki xil mundarija bilan ishlatish bir qancha milliy tilshunosliklarda mavjud va uni bartaraf qilish harakati bor. Masalan, til so‘zini butunning nomi sifatida saqlab, nutqqa zidlanuvchi hodisani lison deb atash mumkin.

---

<sup>71</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.37

Lison – kishining miyasida, miyaning til xotirasi qismida mavjud hodisalar va ularni ishlatish qoidalari.

Nutq – miyada, til xotirasida mavjud hodisalardan va ularni ishlatish qoidalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi (Nutq jarayonining hosilasi tekst – matn deb yuritiladi). Demak, til hodisalariga ikki nuqtayi nazardan – lison nuqtayi nazaridan va nutq nuqtayi nazaridan baho beriladi, shu asosda til birliklari lisoniy birliklar va nutqiy birliklar deb farqlanadi.

Lison – tilning kishi miyasidagi til xotirasi markazida mavjud birliklardan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boylik. Nutq esa ana shu boylikdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi. Lison kishi miyasida mavjud mavhum hodisa bo‘lib, uni aql bilan idrok qilamiz; nutq esa ana shu mavhum hodisadan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan moddiy hodisa bo‘lib, uni talaffuz birliklari sifatida eshitamiz. Lisonga mansub, ya`ni til xotirasida mavjud hodisalarga ***lisoniy birliklar*** deyiladi; lisoniy birlikning nutqda moddiy shakl olgan holatiga nutqiy birlik deyiladi. Demak, har bir kishining miyasida lisoniy birliklarning ramzlaridan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boylik bor, har bir kishi ehtiyojiga qarab bu boylikdan foydalanib nutq hosil qiladi. Inson tili asosini tovush tashkil qiladi: tilda bor hodisalar tovushlarda reallashadi. Tovush til birligi sifatida boshqa til birliklari uchun qurilish birligi bo‘lib xizmat qiladi. Shunga ko‘ra til tovushi til birliklarining birlamchi ifoda jihati deyiladi. Til tovushi lisoniy birlik sifatida miyadagi til xotirasi markazida ma`lum bir ramz sifatida aks etadi. Ana shu ramzda til tovushiga xos belgi-xususiyatlar haqida axborot bo‘ladi. Masalan, **u** tovushi haqida ”ovozdan iborat ” , ”og‘iz bo‘shlig‘i tor holatda”, ”tovush hosil bo‘lish oralig‘i til sathining orqa qismida ”, ”lablar aktiv qatnashadi degan axborot bor. Inson faoliyatini, shu jumladan til faoliyatini ham boshqaruvchi miya markazidan **u** tovushini aytish haqida ”ko‘rsatma”(impuls) berilsa, shu tovushning ramzida mujassamlashgan axborotga binoan tovush hosil qilish a`zolari harakatga kelib, ko‘rsatmaga binoan ma`lum holat



egallaydi va o'pkadan chiqayotgan havo ma'lum nutq tovushi sifatida, nutqiy birlik sifatida namoyon bo'ladi".

Til bu belgilar tizimi. Belgilar esa muayyan ma'noni va uni ifodalash vositasining umumlashmasidir.

Insoniyat jamiyatida muloqot, o'zaro fikr almashinuvning ro'y berishi, ya'ni qanday vositalar bilan axborotni bir-birlariga uzatish, bu vositalarning paydo bo'lishi, ularning qanday qo'llanilishi, qanday o'zgarishlarga duchor bo'lishi haqidagi fan *semiotika* (grekcha «sema» - belgi) deb ataladi (Kravchenko 2001: 20).

Semiotika fanining asoschisi amerikalik faylasuf Ch.Pirs (1839-1914) birinchilardan bo'lib, o'zi asoslagan fanning tekshirish ob'ektini (jamiyatda foydalanadigan turli belgilar sistemasi), belgilarning mohiyatini va o'zaro munosabatlarini aniqlab, tasnif qildi.

Tilshunos olimlardan semiotika fanining rivojlanishiga Ferdinand de Sossyur katta hissa qo'shdi. U tilni belgilar sistemasi sifatida ta'riflaydi. Agar Ch.Pirs semiotika fanining asoschisi hisoblansa, Sossyurni, tom ma'noda, tilni belgilar sistemasi sifatida o'rganadigan umumiy tilshunoslikning bir bo'limi – lingvosemiotika fanining asoschisi deb atash mumkin.

Til belgisi moddiy tuzilmadir. U voqyelikdagi predmetni, xususiyatni, munosabatlarni anglatadi. Til belgilarining majmui belgilar sistemasining vujudga kelishiga olib keladi. Ushbu sistema muayyan fikriy (mantiqiy) mazmun (ifodalanmish) va fonematik jihatdan bir-birlaridan ajrala oladigan belgilar (ifodalovchi) yig'indisidan iborat. Lisoniy belgining bu ikki aspekti inson ongiga doimiy bog'langani holda turg'un birikuvni hosil qiladi va ijtimoiy ahamiyatga molik ma'noni anglatadi. Bu ikkala aspektning ajralmasligi, yagona butunligi asosida borliqning muayyan bir bo'lagi, ya'ni alohida voqyea va hodisalar inson ongida o'z aksini topadi va lisoniy ifodalanadi.

Belgining har ikkala aspekti bir-biriga bog'liq holda mavjud bo'ladi, ammo til tizimining umumiy assimetriya qonunlariga bo'ysunadi.

Eng tipik lisoniy belgi soʻzdir. Chunki insoniy bilimlarning barchasi va predmetlarni obrazlari orqali bilish ajdodlarning fikrlash jarayonining natijasi sifatida soʻzlarda oʻz ifodasini topgan. Shunday qilib, soʻz birligi kumulyativ maʼnoga ega, u yaʼni ilgari jamlanib kelinayotgan axborotlar yigʻindisidan iborat.

Ayrim soʻz birliklarida ifodalangan maʼno insoniyat toʻplagan tajribalarning, ularni oʻrab turgan olamdagi fakt va hodisalarning sxematik inʼikosi boʻlib, ular tavsiflovchi, taʼriflovchi belgilarni, yaʼni toʻliq maʼnoli soʻzlarni hosil qiladilar.

Boshqa til belgilari ifodalaydigan maʼnolar (olmoshlar, predloglar, bogʻlovchilar) til belgilari orasidagi ichki munosabatlarni, murakkab lisoniy belgilar – gaplar tarkibida fikrning turli munosabatlarini ifodalovchi axborotdan iborat.

Alohida ichki tizim orqali ifodalanadigan maʼnolar, masalan, oʻziga xos maʼno anglatuvchi belgilar soʻz yasovchi, soʻz oʻzgartiruvchi morfemalar boʻlib, ular maʼno ifodalaydilar va shu sababli ularni ayrim hollarda «yarim belgilar» deb ham atashadi.

Soʻz belgisining asosiy farqlovchi xususiyatlaridan biri u ifodalaydigan maʼnoning (ifodalanmishning) bosqichli prinsip asosiga qurilganidir. Zero, har qanday soʻz belgisi ifodalagan shakl fonemalardan, har qanday tilda chegaralangan miqdordagi «semasiologiyalashgan» (I.A. Boduen de Kurtene) tovushlardan tashkil topadi. Ular turli birikuvlar orqali obʼektiv borliqdagi, inson faoliyatining barcha jihatlariga oid tushunchalarni nomlovchi birliklarni yasaydilar. Soʻz birligining quyi bosqichida turuvchi ishtirokchilari fonemalarning farqlovchi belgilari boʻlib, ular faqat perseptiv (his qilish, idrok qilish) funksiyasigina emas, balki distinktiv (farqlovchi) funksiyani ham bajaradilar. Differensial belgili fonemalar oʻziga xos «belgilarning belgisi» (K.L.Byuler, O.S.Axmanova, Yu.S.Stepanov), «figuralar» (L.Yelmslev) deb ham talqin qilinadi.

Shunday qilib, soʻz belgisi umumiy bilishga oid vazifadan tashqari, tilning kichik strukturaviy (fonema, morfema) va katta (soʻz birikmalari, gap) birliklarini identifikatsiyalash (ajratish) vazifasini ham bajaradi.

Bu birliklar til belgilarining murakkab tizimi sifatida ikki tomonlama ifodalanishi bilan xarakterlanadi, zero, ular dastlab vositalar sistemasida (predmet va hodisalarning ma'nosini anglatish uchun), keyin esa nutqda kommunikantlar o'rtasida axborot uzatish, pragmatik ta'sir o'tkazish uchun ishlatiladi.

Lisoniy belgilar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi va shuningdek, bir-biridan ajralgan holda ishlatilmaydi. Har qanday til elementi u yoki bu sistema, mikrosistema, qator doirasida sayqallangan namunalar asosida ikki turdagi strukturaviy o'zgarishlar, ya'ni paradigmatic va sintagmatic birikuv qonuniyatlariga ko'ra qo'llaniladi.

Xullas, lisoniy belgi quyidagi xususiyatlariga nisbatan tasnif qilinishi mumkin:

1. Belgi yasash tamoyiliga (usuliga) ko'ra:

a) belgi yasashning semiologik usuliga ko'ra (leksik morfemalar, to'liq ma'noli va yordamchi so'zlar);

b) ikkilamchi ma'no anglatuvchi belgilar (E.Benvenist). Ular semantik interpretatsiya tamoyiliga binoan farqlanadilar (bular qatoriga barcha diskursiv – nutqiy birliklar kiradi);

2. Fikrning tugallanganligi yoki tugallanmaganligiga ko'ra lisoniy belgi to'liq (gap) yoki to'liqsiz (so'z, so'z birikmasi) bo'lishi mumkin;

3. Nutq harakatiga bog'liq va bog'liq emasligiga nisbatan lisoniy belgi virtual (nutqda faollashmagan) yoki aktual (faollashgan) bo'lishi mumkin. Masalan, so'z belgisi ma'nosini faollashtirish uch bosqichda amalga oshadi:

a) so'z-leksema, semantik jihatdan bo'linmas virtual belgi (masalan, «uy»).

b) so'z birikmasi semantik jihatdan alohida belgilardan tashkil topadi (masalan, «eski uy», «ota uyi»);

v) so'z qo'llanishi–jumlada to'liq faollashgan so'z belgilari (masalan, «Bu uy arzon sotiladi»).

Misollarda keltirilgan oxirgi ikki lisoniy belgi o'zaro oppozitsiyaga ega: virtual so'z belgisi (leksik sistemada) – aktual so'z belgisi (nutq aktida); Ular o'rtasidagi

oraliq uzv ma'lum darajada faollashgan so'z belgisi – til leksik tizimining elementi (birligi).

4. Asosiy xususiyatlari umumiylikiga ko'ra (kategorial ma'nosiga, nutqda bajaradigan funksiyasiga, qo'llanish doirasiga ko'ra) til belgilari semiologik sinflarga ajratiladilar:

a) xarakterlovchi – to'liq ma'noli so'zlar;

b) identifikatsiyalovchi – atoqli otlar;

v) kvantitativ – sonlar;

g) deyktiv belgilar – sub'ektiv, ob'ektiv va ichki struktural munosabatlarni ifodalovchi so'zlar (kishilik, ko'rsatish va boshqa olmoshlar);

d) bog'lovchi so'zlar (relyativ) – predloglar, bog'lovchilar.

Nutqiy xususiyatga ega strukturasi va ifodalagan ma'nosiga ko'ra turli-tuman bo'lgan, nafaqat vaziyatni, balki «fikir mahsuli» bo'lgan hodisalarni, faktlarni ifodalovchi to'liq lisoniy belgilar alohida semiologik guruhni tashkil qiladi.

Til taraqqiyotining hozirgi bosqichida me'yorlashuv, namunalashish, tabaqalanish, «intellektuallashuv», globallashuv, internatsionallashuv va demokratlashuv kabi turli jarayonlar kechmoqdaki, ularning umumiy til tizimiga, u nutqiy muloqot faoliyatiga ta'siri bir xilda kechmaydi.

Me'yorlashtirish yoki standartlashtirish so'zlashuv tili va yozma til uslublarini bir qolipga tushirish, ular orasidagi farqni yo'qotish harakatidir. Bunda adabiy tilning dialektlarga ta'siri va o'zaro ta'sir natijasida hududiy dialektlarning asta-sekin yo'qolishi ko'zda tutiladi. Bu xildagi jarayonning boshlanishi badiiy adabiyot tilining «kambag'allashuvi», uning grammatikasi va lug'atining namuna va norma vazifasini bajara olmay qolishiga sabab bo'ladi, insonlar badiiy adabiyotdan ko'ra matbuot, radio, televidenie, reklama tiliga ko'proq duch kelishadi. Natijada ommaviy axborot vositalari tili bilan adabiy til normalarini muvofiqlashtirish muammosi kelib chiqadi. Bunday global hodisalarning asosiy sababi mehnat faoliyati jarayonidagi

integratsiyadir va bu esa, o'z navbatida, muloqot faoliyatini jadallashtiruvchi qandaydir bir «umumiy til» yaratish zaruratini ilgari suradi.

Tilning tabaqalanishi esa sotsiolektlar (muayyan hududdagi bir guruh, bir yoshdagi, bir xil madaniyat darajalaridagi odamlarning muloqotidagi o'ziga xosliklar), «professiolektlar» (ma'lum shakldagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishilarning muloqot tili) kabi qatlamlarning farqlanishidir. Til taraqqiyotidagi bu an'ana ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning, yangi kasblar, zamonaviy kommunikatsiya vositalarining vujudga kelishi natijasidir. Masalan, hozirgi davrda dunyodagi barcha tillarning lug'at tarkibida yangi atamalarning yaratilishi, sinonim, omonim so'zlarning keng tarqalishi, kontekstual ma'no rolining oshishi bilan bog'liq lug'aviy tabaqalanish hodisasi keng tarqalmoqda.

*Tilning «intellektuallashuvi»* - umumiy muloqot tiliga ilmiy tilga xos xususiyatlarning keng miqyosda kirib kelishidir. Bu holatda lisoniy muloqotning aniqlikka, bir ma'nolilikka, ifoda vositalarini tejashga bo'lgan intilishi kuzatiladi. Buning sabablaridan biri fan va texnika taraqqiyoti, jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning tobora chuqurlashib borayotganligidir. Intellektuallashuv til sistemasining leksik, fonologik va morfologik qatlamlarida o'z aksini topadi. Masalan, hozirgi nemis tilida bu hodisani quyidagi jarayonlarda ko'rish mumkin: 1) lug'at tarkibiga maxsus ilmiy-texnikaviy atamalarning ko'p miqdorda kirib kelishi (masalan, «Plast»- dastlab bu termin organik kimyoga mansub edi, hozirgi paytda u «sun'iy mato» ma'nosini anglatadi.); 2) tilda mavjud bo'lgan lug'at birliklarining maxsus semantik ma'noga ega bo'lishi.

*Tilning internatsionallashuvi* – umumiy tilning bir necha tillarda mavjud bo'lgan, bir xil shakl va ma'noda ishlatiluvchi yangi so'zlar bilan boyishidir. Tillarning internatsionallashuvida ingliz tili muhim o'rin tutadi. Lotin, yunon va boshqa tillar asosida ham yangi internatsional so'zlar vujudga kelmoqda. Masalan, olmoncha: «Autopilot» - avtopilot, «Antikriegs film» - urushga qarshi film; o'zbekcha: «monitoring», «litsey», «traffik», «gender» kabilar.

*Tilning demokratlashuvi* – bu yozma va so‘zlashuv tilining bir-birlariga yaqinlashuvidir. Bu hodisa so‘zlashuv tilidagi birikmalarning yozma nutqqa kirib kelishida o‘z aksini topadi. Masalan, nemis tili yozma nutqida mustahkam o‘rin olgan «Fernsehen» - «televidenie» so‘zi yoshlarning so‘zlashuv tilida «Television» singari qo‘llaniladi, asos so‘z «Tele» esa ayrim qo‘shma otlarning yasashida ishlatiladi: «Tele - Theater» - teleteatr, «Tele -Klub» - teleklub; Qiyoslang: o‘zbekcha «Teledibat», «Teleo‘yin».

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda til va madaniyatning o‘zaro munosabatlarini ifodalovchi «til madaniyati» masalasining o‘rganilishi dolzarb muammo ekanligi haqidagi fikrga qo‘shilish mumkin.

Til va madaniyatning o‘zaro munosabatlari masalasini o‘rganar ekanmiz, madaniyatning ko‘p qirrali va ko‘p aspektli hodisa ekanligini unutmasligimiz lozim. O‘z navbatida, til ham murakkab qurilma sifatida madaniyatning turli qismlari bilan bir xil munosabatlarga kirishavermaydi. Ammo, tilning madaniyatning turli elementlariga ta'siri hal qiluvchi ahamiyatga ega emas (Safarov 2006).

Insonning til madaniyati uning ma'naviy olamida muhim va zalvorli o‘rin egallaydi. Unda tarixiy bosqichning, tizimning, u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy qurilmalarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z aksini topadi. Ular til qurilishida uning asosiy lisoniy xususiyatlarning o‘zgarishlarida, stilistik vositalarning idrok qilinishida, muloqotning o‘ziga xos (maxsus) shakllarida, shuningdek, tilning ijtimoiy faoliyatdagi vazifalarida ham o‘z ifodasini topadi. Shu sababli «til madaniyati» tushunchasi turli tarixiy davrlarda turlicha mazmunga ega bo‘lgan.

Til madaniyati, eng avvalo, ilmiy xulosalar va ijtimoiy amaliyot natijalari asosida o‘rnatilgan, lisoniy fikrlashning aniqligini ta'minlaydigan til normalari, uning lug‘at boyligi, frazeologik zahirasidir.

Til madaniyati hodisasini uning taraqqiyoti nuqtai nazaridan o‘rganish uchun quyidagi tadqiq yo‘nalishlariga murojaat qilish lozim:

1) orfografiya (zamonaviy tizimni arxaik xususiyatlardan tozalash maqsadida orfografiyani ilmiy asoslarda isloh qilish borasidagi tadqiqotlar);

2) nutqning tovush (ohang) tomonini o'rganishga oid tadqiqotlar (bu tadqiqotlar faqat orfoepiyagagina doir emas, balki talaffuzning muloqotni amalga oshirishdagi vazifasini ham qamrab oladi);

3) morfologiya. Til madaniyati muammosi grammatikaga ham daxldordir, biroq grammatik tizimda til madaniyati boshqacha yo'nalish oladi. Zero, til madaniyati nazariyasi mustaqil ravishda morfologik norma yaratishga qodir emas. Norma til tizimining o'zida vujudga keladi, til madaniyatining unga ta'siri bilvositadir;

4) sintaksis. bu sohani til madaniyati doirasida o'rganishda og'zaki va yozma nutq sintaksisi o'rtasidagi farqlarga alohida e'tibor berish talab qilinadi;

5) til madaniyatini stilistik farqlar nuqtai nazaridan o'rganish;

6) til madaniyatini semantik nuqtai nazardan o'rganish lug'at tarkibini me'yorlashtirish va atamalar tizimini taraqqiy ettirish imkoniyatlarini aniqlash bilan bog'liq.

Nutq uzusiga bog'liq bo'lgan sotsiolingvistik hodisalar quyidagilardan iborat:

1) adabiy til faoliyat doirasining kengayishi;

2) milliy tilning alohida variantlarining ichki integratsiyalanishi; adabiy til va mahalliy dialektlar orasidagi farqlar tobora kamaya boradi. Bu ko'plab mamlakatlardagi urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi, jamiyat tizimining o'zgarishi tufayli ro'y beradi.

3. Nutq uzusi adabiy til normalariga katta ta'sir o'tkaza boshlagan yangi ziyolilar avlodining shakllanishi.

Barcha tabiiy tillar fikr ifodalashning universal sistemalaridir. Til yordamida madaniyat rivojining turli bosqichlarida turgan har qanday jamoa barcha turdagi kommunikativ ehtiyojlarini qondiradi. Hozirgi zamon adabiy tillarining xarakterli xususiyatlaridan biri, masalan, yuqorida zikr qilingan «internatsionallashuv» va

«intellektuallashuv»dir. Buning natijasi o'laroq, barcha mamlakatlarda, nafaqat milliy o'z-o'zini anglash va ona tiliga, uning madaniyatiga, balki tillarning lug'at tarkibini boshqa tillar orqali boyitishga ham e'tibor kuchaydi (Bushuy 2003: 120-124). Masalan, Janubiy - Sharqiy yevropa tillarida XX asr davomida ijtimoiy-siyosiy atamalar tizimi shakllanishiga nazar solsak, u o'xshash o'zgaruvchan kommunikativ vaziyatlar sharoitida yuzaga kelgan hamda yangidan vujudga kelgan ma'naviy va moddiy madaniyatga oid tushunchalar hisobiga boyiganligini ko'ramiz. Ammo bu jarayon turli tillarda turlicha yo'llar bilan kechdi. Masalan, bolgar tilida lug'at tarkibining boyishi ko'proq rus tilidan kirib kelgan so'zlar hisobiga ro'y berdi. Rumin tili fransuz tili, yangi grek tili qadimiy yunon tili hisobidan boyigani kuzatildi. Alban tilida esa, ona tili elementlaridan yangi so'zlar yasash an'anasi, serb-xorvat tillari rus tilidan o'zlashtirish va ona tili zahirasiidan foydalangan holda yangi so'zlar yasalishi bilan xarakterlanadi. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, bolqon tillarining o'zaro munosabatlari ularning ijtimoiy-siyosiy leksikasida qariyb o'z aksini topmadi va ushbu tillarda innavatsion jarayonlar ko'proq nolisoniy faktorlarning ta'siri hisobiga kechdi.

Tillararo munosabatlarga til madaniyati nazariyasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bu o'rinda akademik L.V.Sherbaning quyidagi ibratli fikrini keltirmoq joiz: «Yangi tushunchalarni nomlash uchun tilning o'zida so'z topilmasa, o'zga tillardagi tayyor so'zlardan, ayniqsa, ular baynalminal ko'rinishda bo'lsa, foydalanishdan cho'chimaslik kerak. Mabodo, yangi tushunchani o'z vositalari bilan ifodalash imkoniyati bo'lsa (so'z yasash yoki qo'shma so'zlar tuzish), albatta, o'z lug'at tarkibini begona elementlar bilan to'ldirmaslik yaxshi. Biroq, bu ikki holatning chegaralari shunchalik nozikki, uni maxsus lingvistlik, adabiyotshunoslik sezgisi bilangina payqash mumkin. Biroq, bu sezgi albatta mistik xarakterga ega emas va u filologik tarbiya natijasida shakllanadi»<sup>72</sup>(IIJerba 2000: 117).



Hozirgi paytda jahonda milliy tillarni atamalar yaratish hisobidan boyitish borasida katta tajriba to'plandi. Masalan, malay tili quyidagi prinsiplar asosida yasalgan atamalar orqali o'z tarkibini boyitmoqda:

1. Dastlab umumfoydalanishda bo'lgan so'zlar asosida atamalar yaratish. Masalan, «birga qochmoq» ma'nosidagi malaziycha «selari» so'zi ilmiy tildagi «parallel» ma'nosida ishlatiladi;

2. Mumtoz malaziy tilining lug'at boyligi semantik o'zlashtirma so'z manbai vazifasini bajaradi. Masalan, «jism» - oldin «tana, vujud»ni anglatib, hozirda «osmon jismi» ma'nosidagi tushunchani ifodalaydi.

3. Ilmiy atamalarning bir qismini atamalarga aylangan dialektga oid so'zlar tashkil qiladi. Masalan, kedax va kelantan dialektlaridagi «oxir», «yakun» ma'nosidagi «sut» so'zi ilmiy terminologiyada boshqa ma'noda ishlatiladi. Shuningdek, semantik derivatsiya, kalkalash, fonetik o'zgartirish va boshqa so'z yasash usullaridan ham foydalaniladi (Istilah pendiekan Melayu- Inggeris... 1996).

Til madaniyati sotsiolingvistik hodisa sifatida majmuaviy xususiyatga ega. Til madaniyati deganda, adabiy tilning asosiy qonuniyatlarini va o'ziga xos xususiyatlarini, uning ijtimoiy normalarini (orfoepik, orfografik, leksik, morfologik, sintaktik vositalarini) ongli va mustahkam o'zlashtirish tushuniladi. Bunga adabiy tilning funksional uslublarini ham kiritish mumkin. Til madaniyati doirasiga tilning jamiyatda tutgan o'rniga bog'liq bo'lgan hodisalar ham mansubdir. Barcha dialektlari bilan munosabatda bo'lgan adabiy til madaniylashadi.

Til madaniyati masalalarini o'rganishda har bir adabiy til o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanishi va bu xususiyatlarning muloqot muhiti va vaziyati bilan bog'liqligi hisobga olinadi. Adabiy til normalari ham dinamikdir va uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ifoda vositalarining variantlilikidir.

Til madaniyati uchun ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, milliy ong, madaniy omillarning ta'siri tilning ichki tizimiy o'zgarishlari faolligi, me'yorlashtirish siyosatining ta'sirchanligi katta ahamiyatga egadir.

Til normasiga ta'sir qiluvchi ichki jarayonlar qatoriga, birinchi navbatda, so'zlar polimorfizmining cheklanganligini va analitik konstruksiyalar salmog'ining oshib borayotganligini kiritish mumkin. Bu jarayonlar ta'sirida muqobillar miqdori oshib bormoqda. Ularni baholash va eng ma'qul variantlarini tanlash bugungi kundagi ko'plab mamlakatlarning me'yoriylashtirish borasidagi siyosatining dolzarb masalasi hisoblanadi.

«Til madaniyati» tushunchasi umumiy «madaniyat» tushunchasi doirasida uning boshqa sohalari bilan bog'lab o'rganiladi.

O'tmishda til madaniyati eng avvalo purizm (tilni yot unsurlardan tozalash) g'oyasi bilan bog'liq holda o'rganilgan va u nazariy tilshunoslik tamoyillaridan ancha yiroq bo'lgan. Hozirgi paytda til madaniyati mustaqil ilmiy predmet sifatida shakllanayapti.

Til madaniyatining asosiy o'lchovi sifatida, qandaydir bir mavhum me'yor (soflik) emas, balki tilning o'z asosiy vazifalarini bajara olish qobiliyati qabul qilindi. Hozirgi zamon til madaniyati fani o'z oldiga erkin va aniq nutqiy muloqotni ta'minlashni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Masalan, yevropada bu ishga Praga tilshunoslik maktabi o'zining katta hissasini qo'shdi (tilga funksional yondashuv, til tizimining dinamik muvozanati haqidagi ta'limotlar).

«Til madaniyati» tushunchasini unda so'zlovchi shaxslar madaniyati bilan bog'lab o'rganish zarur. Chunki «til madaniyati» tushunchasida bir tomondan til sistemasi va nutq faoliyatining, ikkinchi tomondan, til va nutq orqali yuz beradigan ijtimoiy va individual faoliyatning dialektik munosabatlari o'z aksini topadi.

Til madaniyatining bu tomonlari alohida shaxs fazilatlarining majmuasini tashkil qiladi. Shu sababli, til madaniyatini shakllantirish shaxsga ta'lim va tarbiya berish jarayonida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan quyidagi masalalar muhokamasi muhimdir: 1) shaxsning ta'lim va tarbiyasi jarayonida til madaniyati qanday rol o'ynaydi? 2) ta'limning turli bosqichlarida til madaniyatini o'rgatish borasida qanday vazifalar ilgari suriladi?

Soʻzlovchi shaxs va tinglovchi nutqiy muloqot jarayonida oʻzaro toʻrt turdagi *sotsiolingvistik munosabatlar pillapoyasini* egallashi qayd qilingan, bular – *yuqori, teng, past va neytral*.

Bunday darajalanishda nutqiy muloqot ishtirokchilarining «ijtimoiy masofa» si (social distance) ham oʻz ifodasini topadi. Bu koʻpincha muloqot jarayonining «yuqoridan pastga» qabilida, suhbatdoshni mensimaslik, buyruqona ohangda roʻy berishiga olib keladi. Bundan tashqari, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshi tanimasligi oqibatida roʻy beradigan «betakalluf» muloqot turi ham mavjud. Muloqotda ishtirok etuvchi shaxslarni bir-biridan ajratib turuvchi bu holatlar nutqiy muloqot munosabatlarning darajasini belgilaydi. Masalan, oʻgʻilning oʻz otasiga munosabati «pastdan yuqoriga» va «oʻzaro yaqinlik» darajalarida baholanadi. Bularning hammasi til madaniyatini belgilovchi muhim omillardir.

Taʼkidlash joizki, koʻrsatilgan munosabat darajalarining biror bir tilda toʻliq ifodalanishi qiyin masala. Masalan, K.M.Hornening kuzatishlariga koʻra, ingliz tili uchun koʻproq «betakalluf neytral» daraja xarakterlidir (Horne 1995: 77-87).<sup>73</sup> Fransuz-nemis va ispan tillari esa bu borada «yaqin - neytral» («close - neutral») va «uzoq neytral» («distant - neutral») darajalaridan foydalanishadi. Ayni paytda, koreys tili yuqorida keltirilgan darajalarning oltitasidan foydalanishi bilan boshqa tillardan farq qiladi: «uzoq-yuqori» («distant-superior»), «yaqin-teng» («close-equal»), «uzoq-past» («distant-inferior»), «uzoq-neytral» («distant-neutral»), «shaxssiz-neytral» («impersonal-neutral»), «yaqin-neytral» («close-neutral»).<sup>74</sup> Yavan tilida esa, nutq darajalarining soni toʻqqiztaga yetadi. Yavan tillari doirasida yuqori mansabdor shaxslarning bolalari nutq madaniyati darajalarini kollejga oʻqishga kirish paytlaridayoq egallab oladilar.

Nutqiy muloqot darajasini ifodalovchi vositalar turli-tumandir. Shunday boʻlsa-da, har bir tilda, odatda, qaysidir bir usul ustuvor xarakterga ega boʻladi. Masalan, tay

---

73

74

tilida asosan rasmiy (protocol) iboralar ishlatilsa, yavan tilida bunday holda shunga mos leksika tanlashga intilishadi. Koreys tilida esa, boshqa ifoda vositalaridan foydalanish istisno qilinmasa-da, grammatik ko'rsatkichlarga tayaniladi. K.M.Xorne taklif qilgan bu model hozirgi paytda ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar nutq darajalaridagi farqlarni kamayishiga olib kelayotgan yapon va boshqa tillarda sodir bo'layotgan ayrim siljish, yangiliklarni aniq tavsiflashga yordam beradi.

Nutq madaniyati til vositalaridan muayyan nutq vaziyatiga mos holda foydalanishni taqozo qiladi. So'zlovchi turli funksional uslublardan erkin foydalanishi lozim. Ijtimoiy kommunikativ faoliyatni muayyan qonun-qoidalar asosida rivojlantirish, til madaniyati va til siyosatiga oid nazariy va amaliy masalalarni hal qilish umummadaniy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Nutq madaniyati g'oyasi doirasida rivojlanayotgan nazariy yo'nalishlar quyidagilardir:

- 1) nutq normalarining variantlilikligi;
- 2) normalarni baholashga vazifaviy yondashuv;
- 3) adabiy til normalarining shakllanishi va rivojlanishida tashqi va ichki (lisoniy va nolisoniy) faktorlarning aloqasi;
- 4) milliy til tarkibida adabiy til elementlarining o'rni, roli va boshqalar.

Normativlik masalalariga til birliklari vazifalari nuqtai nazaridan yondashuv madaniy muloqot faoliyatining lisoniy tarbiya dasturiga aylanishiga, lisoniy hissiyotning shakllanishiga, muloqot malakasining rivojlanishiga, har qanday nutqiy vaziyatlarda jamiyatda o'rnatilgan qonun-qoidalarga mos ravishda obrazli ifoda vositalaridan unumli foydalanishga olib keladi. Bunday yondashuv til normasini, adabiy tilni, uning funksional aloqalarini va diaxronik o'zgarishlarni tarixan, ijtimoiy va lingvistik jihatdan anglashni taqozo qiladi. N.Mahmudov ta'kidlaganidek. «madaniy nutq uchun faqat grammatik to'g'rilik emas, balki tanlangan ifoda variantining ijtimoiy maqbulligi, o'rnliligi ham muhimdir». Til madaniyati nutq madaniyatiga nisbatan keng tushuncha; Birinchisi, nafaqat eshitiladigan nutqqa, balki

matnga ham taalluqlidir. Nutq madaniyati esa avval eshitiladigan va keyin idrok qilinadigan hodisadir. Biroq ular orasidagi barcha ziddiyatlar lisoniy faoliyat jarayonida yechiladi. Bu jarayonda til zahiralarga goh faol, goh ongli munosabatlar ko‘zga tashlanadi va aynan ular til madaniyatining mohiyatini tashkil qiladi.

Til madaniyati tushunchasining mazmuni ham ko‘p qirralidir. Masalan, milliy (masalan, nemis tili) adabiy tilning nutq madaniyati shu millatning an‘analari va hozirgi ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liqdir va ular milliy madaniyatning umumiy shart-sharoitlari va ular tarqalgan hududdagi til qurilishi bilan ifodalanadi. Masalan, Shvetsariyada nemis tilining sofliqi nemis standart tilining sofliqi deb emas, milliy xususiyatlarga ega bo‘lgan shvetsar uzusining nemis adabiy tili me‘yoriy deb tushuniladi.

Shunday qilib, madaniyat deganda, insoniyat jamiyati tomonidan yaratilgan va shu jamiyat amal qiladigan xulq-atvorlar majmuasi tushuniladi. Til umumiyligi deyilganda esa, tarixan shakllangan, bir xil lisoniy birliklardan foydalanish, shuningdek, foydalaniladigan tilga nisbatan mavjud umumiy sotsial baholashlar sistemasi tushuniladi.

Insonning umumiy madaniyati til madaniyati bilan uzviy bog‘liq. Inson umumiy madaniyatining rivojidadagi eng muhim yutuqlardan biri o‘z tilidagi qoloq elementlarni yo‘q qilishga intilishdir. Bu shaxsning o‘z fikrini samarali ravishda og‘zaki va yozma bayon qila olish, tilning zamonaviy leksik va frazeologik vositalaridan, stilistik zahiralardan foydalana olish qobiliyatini ifodalaydi.

Til madaniyatining taraqqiyoti ham ijtimoiy, ham lingvistik omillarga bog‘liq. Ijtimoiy omillar qatoriga jamiyatning muayyan darajadagi taraqqiyoti, iqtisoddagi, xalqaro miqyosdagi, fan va madaniyat sohasidagi integratsiyalashuv an‘analari kiradi. Bu omillar lingvistik faktorlar bilan birlashib, yagona butunlikni hosil qiladi, ya‘ni milliy tilni, birinchi navbatda, adabiy tilni ilmiy anglash orqali til madaniyatining to‘liq nazariyasi yaratiladi.

Til madaniyatining nazariyasini va amaliyotini, sotsiolingvistik asoslarini quyidagi vazifalar faollashtiradi:

- til madaniyatini tadqiq qilishni madaniyat tushunchasining umumiy doirasida tashkil qilish.

- tilni ongli ravishda madaniylashtirishga intilish (Germaniya, Vengriya, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Bolgariya, Fransiya, Turkiya).

- fuqarolarning adabiy tilga nisbatan mustahkam va ijobiy munosabatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan til va madaniyat siyosatini qo'llab - quvvatlash, chunki til madaniyati borasidagi har qanday faoliyat, so'zlovchi shaxsning tilga munosabatini e'tiborga olishi lozim. Bundan tashqari, ushbu faoliyat muayyan, oldindan mavjud bo'lgan qoida, yo'l-yo'riqlar, obyektiv baho shartlariga ham tayanadi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Tilni tizim sifatida ta'riflang.
2. Tilning rivojlanishi, ichki qurilishini til birliklari yordamida asoslang.
3. Til tabiatini o'rganishga doir nazariyalar va oqimlarni ayting.
5. Til fonetik-fonologik sathini misollar asosida tushuntiring.
6. Fonetika tilning boshqa qismlari va sathlari bo'lgan morfologiya va sintaksis, leksika va uslubiyat bilan uzviy bog'liqligini tushuntiring.
7. Tilning lug'at sathini tavsiflang.
8. Tilning grammatik sathini tavsiflang.
9. Tilning murakkab ijtimoiy hodisa ekanligi haqida o'z fikrlaringizni bayon eting.
10. Lison va nutqni bir-biridan farqlang.

### **Asosiy tushunchalar**

**Til tizimi**– til birliklari: fonema, morfema, so'z, gap va til sathlarining bir butunligidan iborat bo'lib, tizim sifatida uning birliklari bir-birini taqozo etadi va boshqa bir belgisiga ko'ra bir-biriga zidlanadi.

**Ramz** – belgi bo'lib, til belgilar tizimidir.

**Fonologiya** – nutq tovushlarining vazifaviy qiymatini o‘rganadi. Fonologiyaning o‘rganish manbai fonemadir.

**Fonema** – so‘z, so‘z shakllari va morfemalarni tashkil etuvchi, ma‘no farqlash uchun xizmat qiluvchi eng kichik, boshqa bo‘laklarga bo‘linmaydigan til birligi.

**Kvaziomonim** – tarkibidagi birgina fonema bilan farq qiluvchi so‘zlar.

**Etimologiya** – so‘zlarning boshlang‘ich ma‘nosi va shaklida bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlaydi, o‘rganadi.

**Leksikografiya** – lug‘at va uning tuzilishini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.

**Semasiologiya** – so‘zning ma‘nosi va uning taraqqiyotini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.

**Lison** – kishining miyasida, miyaning til xotirasi qismida mavjud hodisalar va ularni ishlatish qoidalari.

**Nutq** – miyada, til xotirasida mavjud hodisalardan va ularni ishlatish qoidalaridan foydalanish jarayoni.

## **10-§. TILSHUNOSLIK VA UNING BO‘LIMLARI. FONETIKA VA FONOLOGIYA**

**Fonetika.** Fonetika grekcha *phone* - tovush so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tilning tovush tomonini o‘rganadi. Tovushlar bir-biridan akustik, ya‘ni eshitilishi jihatdan farq qiladi va so‘zlarning shakllanishi va ajralib turishi uchun xizmat qiladi.

Nutq tovushlari murakkab hodisa bo‘lib, ular quyidagi xususiyatlarga egadir:

1) tovushlar – fizik hodisa, chunki ular havo zarrachalarining tebranuvchi harakati natijasidir;

2) tovushlar – fiziologik hodisa, chunki ular nutq organlarida hosil bo‘ladi;

3) tovushlar psixik hodisadir, chunki ularning paydo bo‘lishi ongli harakat natijasidir;

4) tovushlar ijtimoiy hodisadir, chunki ular aloqa vositasi bo‘lishi tilning elementlaridir.

Fonetika tilning tovush tizimini, nutq tovushlarini va nutq fiziologiyasi, nutq tovushlarining paydo bo'lishini o'rganadi. Kishilarning tovushi tovush paychalarining tebranishidan hosil bo'ladi. Paychalarning tebranish xususiyatiga qarab ovoz (un) yoki shovqin paydo bo'lishi mumkin. Agar tebranish bir tekis, bir maromda takrorlanib tursa, ovoz hosil bo'ladi: a, o, o', u kabi. Tebranish bir tekis bo'lmasa, shovqin paydo bo'ladi: d, k, sh, ch kabi.

Tovushning eshitilishi haqidagi nazariya akustika deyiladi. Fonetika nutqning eng kichik birliklari – fonlar bilan shug'ullanadi. Fonlar uchta, ya'ni akustik, fiziologik, ijtimoiy jihatdan o'rganiladi. Nutq tovushlarining akustik xususiyati deganda, ularning fizik xususiyatlari, quloqqa chalinish xususiyatlari tushuniladi. O'pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini tebratishi va nutq organlarida hosil bo'ladigan shovqin natijasida nutq tovushlari vujudga keladi.

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etuvchi qismlar nutq a'zolari deyiladi. Nutq a'zolarining jami nutq apparatini tashkil etadi. Bular diafragma, o'pka, kekirdak, ovoz paychalari, bo'g'iz, bo'g'iz qopqog'i, kichik til, tanglay, til, tish, labdir.

Nutq apparati uch qismdan iborat:

Ovoz paychalaridan pastki qism: o'pka, nafas olish yo'llari, kekirdak, diafragma.

Bo'g'iz. Xalqasimon va qalqonsimon tog'aylar bo'g'izda joylashgan. Bu ikki tog'ay o'rtasida ovoz paychalari o'rnashgan bo'lib, ovoz paychalari harakati bilan tovush paychalari ochilib-yopilib turadi. Natijada shunga muvofiq har xil tovushlar chiqadi.

Ovoz paychalaridan yuqoridagi qism: bo'g'iz qopqog'i, og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i, qattiq va yumshoq tanglay, til, kichik til, ustki va pastki tishlar, ustki va pastki lablar kiradi. Til eng harakatchan a'zodir. U til uchi, til oldi, til o'rtasi, til orqasi va chuqur til orqa qismlariga bo'linadi. Til uchi eng harakatchan nutq organidir.

**Fonema tilning eng kichik birligi sifatida.** *Fonema* (grekcha Phone – tovush, ovoz) nutqni tovush tomondan shakllantirishda ishtirok etuvchi vosita sifatida tilning



eng kichik birligidir. Chunki nutqning muhim elementi sanalgan soʻzlar, uning maʼnoli qismlari (morfemalar), soʻzining formalari ana shu fonemalar vositasida shakllanadi va shu fonemalar yordamida maʼno jihatidan oʻzaro farqlanadi. Fonema tilning eng kichik birligi sifatida tilning fonetik sistemasida muhim oʻrin tutadi. Fonema insonlar jamiyatining asosiy aloqa vositasi boʻlgan nutqni shakllantiruvchi soʻzlarning asosiy elementidir.

Aytilganlardan maʼlum boʻldiki, tilning eng kichik qurilish materiali sifatida fonemalarning eng muhim, bosh vazifasi – fonologik xususiyati morfema, leksema, soʻz kabi maʼno ifodalovchi birliklarni hosil qilish – ularning tovush tomonini shakllantirish hamda oʻrni bilan tovush jihatini farqlash kabi ijtimoiy vazifalarni bajarishdir.<sup>75</sup>

Insonlar fikr almashuvda til elementlari va til hodisalaridan foydalanadilar. Tilning tovushlar sostavi, fonemalar sistemasi ham til elementlaridan biridir. Tilning asosiy elementlari nutqda reallashadi. Nutq fikr almashuv-aloqa jarayonida insonlarning til vositalaridan /elementlaridan/ foydalanish faoliyati demakdir. Yuqorida taʼkidlanganidek, til va nutq oʻziga xos tabiatga ega boʻlgan, biri ikkinchisini toʻldiradigan oʻzaro bogʻliq hodisalardir. Til aloqa quroli boʻlsa, nutq aloqa formasidir. Nutqning barcha koʻrinishlari tilning ham nutqning ham muhim birligi sanalgan soʻzlar, soʻz formalari asosida shakllanadi. Soʻzlar esa, oʻzining moddiy material bazasi material qobigʻi boʻlgan nutq tovushlari orqali mavjuddir. Demak, nutq tovushlari nutqni tovush tomondan shakllantiruvchi fonetik vositalarning birinchisidir.

Nutq elementi sanalgan har bir soʻzda ichki tomoni – maʼnosi; soʻzning tashqi tomoni – bu fonetik tomoni boʻlib, uni shakllantiruvchi tovushlardir. Chunonchi, *qalam* – yozuv quroli, predmet; *oʻqimoq* - harakat tushunchasini anglatadigan soʻz. Bu soʻzlarning birinchisi *q-a-l-a-m* besh tovushdan, ikkinchisi *oʻ-q-i-m-o-q* olti

---

<sup>75</sup> **Rasulov R.** Umumiy tilshunoslik. 217-b.

tovushdan tashkil topgan. *Qalam* va *o'qimoq* so'zlarini shakllantirgan tovushlar shu so'zlarning tashqi tomoni yoki qobig'idir. So'zning tashqi tomonini shakllantiruvchi tovushlar kompleksi tasodifiy tovushlar yig'indisi emas, balki inson nutq tovushlari kompleksidan iboratdir. Nutq tovushlari so'zning tashqi tomonini shakllantiribgina qolmay, ularning ma'nolarini farqlashda so'zlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi barcha grammatik ko'rsatkichlar va gaplarning vujudga kelishida moddiy material baza vazifasini o'taydi.

Nutq tovushlari o'zining fiziologik, akustik va fonologik xususiyatlari bilan tovushlardan farq qiladi. Nutq tovushlarining fonologik xususiyati – fonematik holati, ya'ni so'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qilishi, uning muhim ijtimoiy mohiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Faqat ijtimoiy mohiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy aloqa vositasi sanalgan tilning muhim birligi sifatida xizmat eta oladigan tovushlargina fonema sanaladi. Shuning uchun ham har bir konkret tilda tovushlar soni ko'p bo'lgani holda, fonemalar soni adabiy til, yozuv uchun qonunlashtirilgan tovushlar soni bilan cheklanadi. Ammo gap shundaki, mutaxassis-nazariyachilar fonemani turlicha talqin qiladilar, turlicha ta'riflaydilar.

*Fonologiya tovushlar bilan bog'langan, biroq u ma'noga ta'sir etmaydigan kichik farqlanishlarni kuzatmaydi. Quyida ikki so'zlovchi nutqini kuzatamiz: bir so'zlovchining "Ssh!"(Jim bo'ling ma'nosida) va boshqa so'zlovchining ayni "Ssh!"ni boshqacha talaffuz qilishi fonolog olimni qiziqtirmaydi.*

*Barcha tovushlar farqlanadi, xuddi odamlarning qo'l yozuvlaridek. Fonologiya bunday farqlanishlarni kuzatmaydi. Fonologiya "sh" (shoe so'zidagidek) va "s" (Sue so'zidagidek) tovushlari orasidagi farqlanishlarga e'tibor qaratadi. Fonologiyaning birligi – fonema.<sup>76</sup>*

Mavjud qo'llanmalarda fonemani tovushdan farq etmoq kerak, har qanday tovush fonema emas; fonema ma'no ajratishga xizmat qiladi, deyiladi.

---

<sup>76</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.26

Ma'lumki, nutq tovushlari so'zlarning faqat tovush tomoni, tovush tarkibi jihatidagina emas, balki ma'no jihatidan farqini ham ko'rsatib beradi. Chunonchi, ber, bir, bo'r; ko'l, qo'l, do'l va uy, o'y, oy so'zlari tovush tomonidan ham, ma'no tomonidan ham farq qiladi. Mana shu farqni, ya'ni so'zning tovush tarkibi va ma'nosi jihatidan farqini ko'rsatayotgan, ularni alohida so'z sifatida shakllantirayotgan vosita – bu *e, i, u, o', o, k, q, d* fonemalaridir. Misollardan ma'lum bo'ladiki, nutq tovushlari so'zlarning fonetik tarkibida bir-birlari bilan yonma-yon keladi va bir yo'sinda so'zning tovush tomonini shakllantiradi, hamda ularning ma'nolarini ajratib berish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu funksiyasi bilan nutq tovushlari o'zining fonematik xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ta'kidlash lozim bo'ladiki, nutq tovushlarining fonematik xususiyati – ma'no ajratishdagi roli faqat so'zda namoyon bo'ladi. Misollarga murojaat etamiz: *kul, qul* so'zlarining ma'nolarini farqlash uchun xizmat qilayotgan fonemalar *q, k* undoshlari; *bor, bur* so'zlarida bo'lsa, ma'no farqlashda rol o'ynayotgan tovushlar *o, u* unli fonemalaridir. Ammo bu unli va undosh fonemalar so'zdan tashqarida talaffuz etilsa, oddiy nutq tovushiga aylanadi.

Yuqorida misollardan *kul, qul* so'zlarida *u* va *l* tovushlari; *bor, bur* so'zlarida esa *b, r* undoshlari shu so'zlarning ma'nosini farqlashda bevosita xizmat qilayotganlari yo'q. Shu sababli nazarimizda ular /*u, l, b, r*/ ikkinchi darajali tovushdek, yohud ular fonema sifatida qo'llanilmayotgandek ko'rinadi. Haqiqatan ham, mazkur so'zlarda bu tovushlar fonema emas, ammo ularning o'rnini (*qul - qo'l; qul - qush; kul - kel; kul - kuch; bor - tor; bor - bol; bo'r - ko'r; bo'r - bo'z*) boshqa tovushlar bilan almashtirsak, so'z tarkibida har bir unli va undosh o'rnini bilan fonema bo'la olishi, ma'no ajratishga xizmat qila olishini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Fonema so'z ma'nolari bilan bir qatorda so'z formalarini ajratishda ham muhim rol o'ynaydi. Chunonchi, *otam, onang* so'z formalarining I va II shaxs egalik formasi (grammatik formasi) -m, -ng affikslari yohud *m, ng* fonemalari yordamida farq etiladi.

Demak, soʻz va soʻz formalarini shakllantiradigan, ularni maʼno jihatdan farqlash uchun xizmat qiladigan til tovushi fonema deyiladi.

Tilda asosiy fonemalardan tashqari nutq jarayonida seziladigan, tovushlarning oʻtkinchi yoki variantlari ham mavjud. Bular adabiy tilda, shevalar talaffuzida turli tovushlar qurshovida, yondosh tovushlar taʼsirida vujudga keladigan tovushlar boʻlib, adabiy tildagi fonemalardan prinsipial farq qiladilar. Chunki talaffuz jaraynida paydo boʻladigan tovush variantlari maʼnoga taʼsir etmaydilar. Masalan, oʻzbek adabiy tilidagi i fonemasi pozitsiyasiga koʻra turli oʻrinda turlicha talaffuz etiladi: *bildi*, *ishladi* soʻzlarida yopiq va ochiq boʻgʻindagi i ning talaffuzi bir xil emas. Xuddi shu i tovushining xilma-xil soʻzlaridagi talaffuzi yuqoridagilardan mutlaqo farq qiladi. Shuningdek, *kul*, *qul* soʻzlaridagi u tovushi yondosh tovushlar taʼsiriga koʻra ikki xil nutq tovushi kabi eshitiladi. Ammo talaffuzdagi bu xilma-xillik maʼnoga taʼsir etish quvvatiga ega emas. Shunga koʻra talaffuzda bir necha tovush kabi quloqqa eshitilgan i va u fonemalarining variantlari sifatida qolaveradilar. Chunonchi, *qir*, *kir*, *qiyiq*, *kiyik* soʻzlarining maʼnosini farqlashga xizmat qilayotgan tovush i fonemasining variantlari emas, balki k, q mustaqil fonemalaridir.

Tovushlarning ana shunday turli qurshovda, yondosh tovushlar taʼsirida hosil boʻlgan variantlari kombinator variantlar sanaladi. Fonema haqida yuqorida bayon etilgan mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Fonema nutq tovushlarida namoyon boʻladi va tildagi oʻzidan yirik birliklar boʻlgan soʻz va morfemalarning tovush qobiqlarini farqlaydi. Bir fonema oʻz pozitsion oʻrni, yondosh tovushlar bilan yonma-yon holatda kombinator holati bilan talaffuzi va eshitilishi jihatidan farqlanuvchi birqancha tovushlarda namoyon boʻladi. Bu tovushlar shu fonemaning pozitsion va kombinator variantlari yoki allofonlari sifatida qaraladi.<sup>77</sup>

---

<sup>77</sup> **Abduazizov A.A.** Oʻzbek tili fonologiyasi va morfofonologiyasi.-Toshkent:Universitet, 2010.-B. 30.

Har bir fonema ayni vaqtda nutq tovushidir, ammo har bir nutq tovushi fonema bo'lolmasligi mumkin. Chunonchi, jonli so'zlashuvda paydo bo'ladigan tovush variantlari tovush sifatida ma'noga ta'sir etavermaydi. Jumladan, tovushlarning yumshoq-qattiqligi, old-orqa qator variantlari kabi.

Tovush va fonema ayrim xususiyatlari bilan o'zaro farq qiladigan hodisalardir. Chunki, tovush (nutq tovushi) so'z tarkibida boshqa tovushlar qurshovida qolib ma'noga ta'sir etgandagina fonemaga aylanadi. Nutq tovushlarining fonematik xususiyatlari faqat so'z ichida ko'rinadi. So'zdan tashqarida u tovushdir. Nutq tovushlari fonema sifatida bevosita ma'no ajratishga xizmat qilmagan holatlarida ham ma'lum ma'noli qism, so'z va so'z formalarini shakllantiruvchi tovush kompleksi a'zosi sifatida muhim funktsiya bajaradi. "Fonema" va "tovush" terminlari ko'pincha aralash, biri ikkinchisi o'rnida qo'llanaveradi (ms.: f tovushi, f fonemasi kabi). Bunda nutq tovushlarining o'rnini bilan fonema bo'la olish xususiyatlari ko'zda tutiladi.

Ko'pgina tillarda, masalan o'zbek, rus, nemis tillarida so'z oxirida tovushlarni jarangsizlanishi hodisasi kuzatiladi. Bu jarangsiz tovushlar so'zdagi jarangli tovushning variantlari hisoblanadi. Fonemalarning variantlari tovushning so'zdagi joylashuviga boshqacha aytganda pozitsiyasiga bog'liq.

Odatda fonema va uning pozitsion variantlari farqlanadi. Lekin, shu bilan birga fonemaning har bir gapiruvchi talaffuzidagi variantlarini ham unutmaslik kerak. Gap shundaki, bitta fonema turli kishilar tomonidan ma'lum darajada o'ziga xos qilib talaffuz qilinadi va bu ham fonemaning variantlashuviga, fonemaning yangi turlarining hosil bo'lishiga olib keladi. Buning oqibatida chet tilini o'rganayotgan kishilar shu til fonetik sistemasini o'zlashtirishida sezilarli qiyinchiliklarga duch keladilar.

Shuning uchun iloji boricha shu tilda gaplashuvchi ko'proq kishilarning talaffuziga e'tibor berish va ulardan o'rganish kerak bo'ladi.

Fonemani o'rganish tilshunoslikda XIX asrning etmishinchi yillarida boshlangan. Ayniqsa, L.V.Shcherba fonema, fonetika va fonologiya masalalarida qimmatli fikrlar bildirgan.

U fonema nazariyasini to'liq ishlab chiqdi. Fonemalarda so'zlarni ajratish xususiyatiga ega bo'lgan tovush tiplari mavjud bo'lib, ular insonlarning muloqotlariga xizmat qiladi, deb hisoblaydi.

Fonema tarixiy kategoriya bo'lib, u tilning ma'lum bir rivojlanish etapiga xizmat qilib, paydo bo'ladi va yo'qoladi.

Demak, fonema tilning tarixiy jihatdan shakllangan, tovush sistemasining haqiqatan mavjud tipik birligi bo'lib, so'zlarni farqlash uchun xizmat qiladi.

**Fonologiya.** Fonologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning tovush materiyasi taraqqiyotini va shu materiyaning fonologik sistemaga uyushish qonuniyatlarini hamda tildagi vazifalarini tadqiq qiladi. Bu sohaning o'ziga xos jihati shundaki, u o'z obyektini semiotik aspektida (belgilar tizimi sifatida) o'rganadi. Tilshunoslikda fonologiyaning fan sifatidagi maqomi xususida ikki xil fikr mavjud.

***Birinchi fikrga ko'ra,*** fonologiya fonetikaning o'zi emas, chunki *fonetika nutq tovushlarini, fonologiya esa til tovushlarini* o'rganadi: nutq tovushlari haqidagi ta'limot – fonetika aniq fizik hodisalarni, til tovushlari haqidagi ta'limot – fonologiya esa shu tovushlarning lisoniy-vazifaviy xususiyatlarini tadqiq qiladi. Shunga ko'ra ularning tadqiqot metodlari ham har xil: fonetika tabiiy fanlarning tadqiqot metodlariga, fonologiya esa lingvistik tadqiqot metodlariga asoslanadi.

***Ikkinchi fikrga ko'ra,*** fonetikani fonologiyadan ajratib bo'lmaydi, chunki muayyan tilning fonemalar tizimini, bu tizimdagi har bir fonemaning "semantizastiyalashgan" belgilarini shu tilning konkret talaffuz xususiyatlarini o'rganmasdan tadqiq qilib bo'lmaydi. Demak, fonologiya aslida fonetikaning o'zi, faqat uning yuqori bosqichi, xolos.<sup>78</sup>

---

<sup>78</sup> **Abduazizov A.A.** O'zbek tili fonologiyasi va morfofonologiyasi.-Toshkent:Universitet, 2010.-B. 45.

R.I.Avanesov fikricha, fonologiya fonetikaning eng yuqori mavhum bosqichidir. Fonologiya til tovushlarini, fonetika esa nutq tovushlarini o'rganadi. N.S.Trubetskoyning ko'rsatishicha, fonologiyaning fonetikaga munosabati iqtisodiyot fanining nimuzmatikaga (pul haqidagi fanga) munosabati kabidir. Yana bir qarashga ko'ra tilning tovush tomoni ikkita fan tomonidan - fonetika va fonologiyada o'rganiladi. Tovush jihatining material tomonini fonetika, uning funksional tomonini fonologiya o'rganadi.<sup>79</sup>

Binobarin, fonolog bir vaqtning o'zida fonetist bo'lmay iloji yo'q, ayni paytda fonetist ham doimo ma'lum darajada fonolog bo'lgan, chunki u umuman tovushni emas, balki til tovush tovushlarini o'rgangan. Ma'lumki, fonetikada tovush va bo'g'in segment birliklar, urg'u va intonasiya esa supersegment birliklar tarzida tavsiflanadi. Fonologiyada bu birliklar lisoniy-vazifaviy xususiyat taqozosi bilan fonema (tovush), sillabema (bo'g'in), akstentema (urg'u) va intonema (ohang) deb nomlanadi.

Fonologiyaning o'zi ikkiga bo'linadi: *segmental fonologiyaning* predmeti – fonema, shunga ko'ra u *fonematika, fonemika* nomlari bilan ataladi. *Supersegmental fonologiyaning* predmeti esasillabema, akstentema va intonemadir, shunga ko'ra u prosodika deb ham yuritiladi.

Fonologiyaning xulosalari fonetikaning fizik-akustik, anatomik-fiziologik va perseptiv aspektlarda to'planilgan tajriba va ma'lumotlarga asoslanadi.

**Nutq tovushlari artikulyatsiyasi.** Nutq apparatining ishlashi natijasida tovush hosil bo'lish jarayoni artikulyatsiya deyiladi. Ma'lum bir tilga xos bo'lgan nutq tovushlarini hosil qilishga muvofiqlashgan nutq apparati artikulyatsiya bazasi deyiladi. Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi uchta etapni: 1) talaffuz qilishga tayyorgarlik-ekskursni, 2) talaffuzning o'zini, 3) nutq organlarining o'z o'rniga

---

<sup>79</sup> **Abduazizov A.A.** O'zbek tili fonologiyasi va morfofonologiyasi.-Toshkent:Universitet, 2010.-B. 48.

qaytishi-rekursni o'z ichiga oladi. Nutq tovushlarini hosil qilishdagi artikulyatsiya harakatlarining yig'indisi artikulyatsiya bazasi deyiladi.

Nutq tovushlarining akustik xususiyati ularning kuchi, balandligi, tembri va cho'ziq-qisqaligi bilan ifodalanadi. Akustika tovushlarning quyidagi belgilari borligini ta'kidlab ko'rsatadi:

1. Tovush amplitudaga, ya'ni tebranish chegarasiga bog'liq bo'ladi.
2. Tovushning baland–pastligi tebranish tezligiga, ya'ni bir sekunda bo'ladigan tebranish soniga bog'liq. Tebranish ko'p bo'lsa, tovush baland bo'ladi. Tebranish oralig'i qancha uzun bo'lsa, tebranish shuncha kam, sekin bo'ladi, tovush yo'g'on va past chiqadi.
3. Tovushning cho'ziq-qisqaligi tebranish vaqtining davomli yoki davomsiz bo'lishiga bog'liq. Tebranish qancha davomli bo'lsa, tovush shuncha qisqa bo'ladi.
4. Tovush tembri asosiy ton bilan qo'shimcha tonlarning munosabatiga bog'liqdir. Tembrning o'ziga xos xususiyatlari bor; tembrga qarab tovushning baland–pastligini aniqlaymiz. Bir xil cholg'u asboblarning farqini ham tembridan ajratish mumkin. Ularda rezanatori farq qiladi.

Nutq tovushlarining paydo bo'lishida rezonansning roli katta. Nutq tovushlarining tarqalishi va kuchayishida kishilarning og'iz va burun bo'shlig'i rezonator vazifasini bajaradi. Og'iz bo'shlig'i o'zgaruvchan rezonator hisoblanadi. Uning bo'linishi, tilning yuqoriga ko'tarilishi va pastga tushishi, oldinga va orqaga surilishi turli–tuman tovushlarning chiqishiga imkon beradi. Burun bo'shlig'i esa o'zgarmas rezonatoridir.

**Nutq tovushlari tasnifi.** Tovushlar shovqin va ovozdan hosil bo'ladi. Shunga ko'ra tovushlar unli va undoshlarga ajraladi. Agar o'pkadan chiqayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratib o'tib, og'iz bo'shlig'ida qarshilikka uchrasa, unda undosh tovush hosil bo'ladi. Hamma tillarda tovushlar miqdori har xil. O'zbek tilida 6 ta unli, 23 ta undosh bor.



**Unlilar (vokalizm).** Unli tovushlar faqat ovozdan iborat. Unli tovushlar faqat ovozdan iborat. Ular ikki tomonlama tasnif qilinadi

1. Lab ishtirokiga ko‘ra

Lablangan unlilar - u, o‘

Lablanmagan unlilar -e, a, i.

Bu jihatdan o unlisi oraliq holatda qoladi.

2. Og‘izning ochilish darajasiga ko‘ra

Tor unlilar – u, i

O‘rta tor yoki o‘rta keng unlilar – e, o‘

Keng unlilar – a,o

Qisqa va cho‘ziqligiga qarab unlilar qisqa va cho‘ziq unlilarga ajraladi. Bu miqdor belgisi deyiladi. Bu xususiyat o‘zbek va rus tillarida yo‘q, ingliz, turkman tillarida bor.

Unlilarning tarkibiga ko‘ra turlari uch xil - monoftonglar, diftonglar, triftonglar bo‘lib, bu ularning tarkibidagi tovushlar miqdoriga bog‘liq. Bunday ajratish ham o‘zbek va rus tillariga xos emas. U roman-german tillarida ko‘p uchraydi. Diftonglar va triftonglar garchi ikki va uch tovushdan iborat bo‘lsa ham bir vazifani bajaruvchi, bir fonema hisoblanadi. Bo‘g‘in ajratilganda bir bo‘g‘inga kiritiladi.

**Undosh tovushlar (konsonantizm).** Undosh tovushlarning hosil bo‘lishida havo oqimi tovush paychalarini titratish - titratmasligidan qat‘iy nazar og‘iz bo‘shlig‘ida qarshilikka uchraydi. Agar havo oqimi faqat og‘iz bo‘shlig‘ida qarshilikka uchrasa, jarangsiz undoshlar (p, t, s, f) hosil bo‘ladi. Agar shovqin ovozdan ustun tursa, jarangli undoshlar hosil bo‘ladi: (b, v, g, d, j). Agar ovoz shovqindan ustun tursa, sonor yoki sonantlar deyiladi. Ular og‘iz (r) va burun (m, n, ng) sonorlariga bo‘linadi.

Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra undoshlar **lab, til, bo‘g‘iz** undoshlariga ajraladi.

1. Lab–lab undoshlari: b, m, r.

Lab–tish undoshlari: v, f.

2. Til oldi undoshlari: t, d, s, sh, ch, l, z.

Til orqa undoshlari: k, ng, g, q, g', x.

Til o'rta undoshi: y.

3. Bo'g'z undoshi: h

Hosil bo'lish usuliga ko'ra undoshlar portlovchi, sirg'aluvchi, qorishiq va ba'zi tillarda nafas turlariga ajratiladi.

*Portlovchilar* (b), (p), (t), (d) kabilar talaffuzida o'pkadan chiqayotgan havo nutq organlari qarshiligini yorib o'tadi, natijada portlash ro'y beradi.

*Sirg'aluvchilar* (v), (f), (s), (sh), (l), (x) bunda nutq organlari qattiq jipslashmaydi, bir-biriga yaqinlashadi, havo oqimi ularning orasidan sirg'alib o'tadi.

*Qorishiq tovushlar* (ch) - ular ikki undosh yig'indisidan tashkil topgan. Bunda til milkka taqaladi, lekin tovush portlash bilan emas, sirg'alish bilan chiqadi. Ba'zi tillarda nafas undoshlari ham bor.

Tillardagi nutq tovushlari son jihatdan ham, sifat jihatdan ham o'zaro to'g'ri kelmaydi. Ularning akustik – artikulyatsion xususiyatlari ham har xil bo'ladi.

**Nutqning fonetik bo'laklari.** Nutq ketma-ket kelgan tovushlar yig'indisi yoki zanjirsimon ulanishdan iborat bo'lib, u talaffuz davriga ko'ra oldinma-keyin kelgan fonetik birliklarga bo'linadi. Nutqning ana shunday katta va kichik birliklarga bo'linishi uning fonetik bo'linishi deb ataladi.

Til materiya sifatida, eng avvalo, havo qatlamlaridagi harakat natijasida hosil bo'lgan tovush sifatida reallashadi. Ma'lumki, til tovushlar orqali ifodalanmasa, jamiyatning aloqa vositasi bo'la olmaydi. Jamiyat a'zolari o'zaro tovush nutqi orqali munosabatda bo'ladi. Shu bilan birga, nutqimiz tartibsiz holda talaffuz etilgan tovushlar oqimidan iborat emas. Biz gapirayotganimizda nutq tovushlari oqimi muntazam ravishda o'zaro bog'liq holda chiqadi. Shu bilan birga, nutqimiz to'xtovsiz tovushlar oqimidan iborat bo'lmay, balki ayrim – ayrim bo'laklardan iborat.

Nutq fonetik jihatdan jumlar (intonatsion birliklar), taktlar, bo‘g‘inlar va tovushlarga bo‘linadi. Binobarin, nutq tovushlari mustaqil holda emas, balki bo‘g‘in, takt va jumlar tarkibida qo‘llaniladi. Nutq fonetik jihatidan zanjir kabi bir – biriga ulangan tovush oqimlaridan iborat. Bu tovush oqimlari yana bir – biriga tobe bo‘lgan sof fonetik birliklarga — halqalarga bo‘linadi. Chunonchi:

1. Jumla (frazaga) (yunoncha plrrusis ifoda, nutq iborasi ma’nosini bildiradi).

2. Taktlarga (lotincha — tactus — tegish, sezish ma’nolarini bildiradi). Bu erda: bo‘lak, qism kabi ma’nolarni ifodalaydi.

3. Bo‘g‘inlarga.

4. Ayrim tovushlarga bo‘linadi.

Jumla — fraza nutqning eng yirik mustaqil birligi sifatida aloqa vositasidir. Shu bilan birga, jumla eng yirik intonatsion birlik bo‘lib keladi. Umuman, jumlar biridan keyin ikkinchisini aytish uchun nafas olish bilan, ya’ni to‘xtamlar bilan ayrim – ayrim birliklarga ajratiladi: *Do‘stim, / uyqu yo‘q. / yotishim bilan uyqum qochib / o‘rnimdan turib ketaman / chiroq yoqib, / kitob o‘qish bilan tunni o‘tkazaman.* Bu misolda besh intonatsion – fonetik birliklar to‘xtam bilan bo‘lingan.

Jumla — fonetik birlik, gap esa grammatik (sintaktik) birlikdir. Jumlar taktlarga bo‘linadi. Takt intonatsion butunlik (jumla)ning bir bo‘lagi bo‘lib, u bosh urg‘u bilan birlashtiriladi. Takt bir yoki bir necha bo‘g‘indan iborat bo‘ladi. Ko‘p tillarda urg‘u mustaqil ma’noli so‘zlarning o‘zida bo‘lgani uchun ularning har qaysisi bir takt bo‘ladi. Yordamchi so‘zlar mustaqil ma’noli so‘zlar bilan birikib, bir taktni hosil qiladi. Masalan: *Otam bilan maslaxatlashib singlim uchun kerakli narsalarni oldim.* Bu jumla olti taktdan iborat. Taktlarda yordamchi so‘zlarning mustaqil so‘zlar bilan birikib kelgan o‘rniga qarab enklitika va proklitika hodisalari ro‘y beradi. Yordamchi so‘zlar mustaqil ma’noli so‘zlardan oldin yoki keyin kelishi mumkin. Odatda urg‘u olmagan so‘zlar urg‘u olgani bilan birikib keladi. Masalan: *Havo bulut edi.* Bu gapda ikkita takt bor. Urg‘u olmagan so‘z urg‘uli so‘zdan oldin turib unga

bogʻlansa, uni tilshunoslikda proklitik elementlar deb ataladi. Agar urgʻusiz soʻz urgʻulidan keyin kelib bogʻlansa, enklitik elementlar, deb ataladi. Masalan, *Bor ekan, yoʻq ekan.*

*Enklitika* – urgʻuli soʻzdan keyin kelib, urgʻu jihatdan unga qoʻshilib ketadigan soʻz.

*Proklitika* - urgʻuli soʻzdan oldin kelib, urgʻu jihatdan unga qoʻshilib ketadigan soʻz. Oʻzbek tilida proklitika deyarli uchramaydi.

Rus tilida ham proklitika, ham enklitika uchraydi. Masalan: *Уехали-ли, иностранные делегаты в Москву?*

Turkiy tillarda jumladan, oʻzbek tilida, asosan, enklitika hodisasi uchraydi. Masalan: *Talabalar uchun yangi yotoqxonasi qurildi. Jamoa yerlari traktor bilan haydaldi.* Bu gaplarda *talabalar uchun, traktor bilan* taktlaridagi *uchun, bilan* yordamchi soʻzlari enklitikadir.

Takt grammatikadagi soʻz birikmasiga teng emas. Takt boʻgʻinlardan iborat. Soʻzda nechta unli tovush boʻlsa, shuncha boʻgʻin boʻladi. Baʼzi tillarda sonorlar ham boʻgʻin hosil qiladi; *Trnka* soʻzi (chex tilidagi soʻz boʻlib, ikki boʻgʻindan iborat).

Boʻgʻinlar 4 xil boʻladi:

Undosh tovush bilan tugagan boʻgʻin *yopiq boʻgʻin* deyiladi: *mak-tab.*

Unli tovush bilan tugagan boʻgʻin *ochiq boʻgʻin* deyiladi: *bo-la.*

Undosh bilan boshlangan boʻgʻin *berkitilgan boʻgʻin* deyiladi: *sa-na, cha-na va b.*

Unli tovush bilan boshlangan boʻgʻin *berkitilmagan boʻgʻin* deyiladi: *o-na.*

Boʻgʻinlar berkitilgan ochiq: *da-la,* berkitilgan yopiq: *daf-tar.*

berkitilmagan ochiq: *o-lim,* berkitilmagan yopiq: *at-las* boʻladi.

Soʻzni gapiruvchilar boʻgʻinlarga ajratib talaffuz qiladilar. Shuning uchun boʻgʻin nutqning eng kichik akustik-artikulyatsion birligidir. Boʻgʻinning maʼno anglatish yo anglatmasligi fonetika uchun ahamiyatsizdir. Baʼzan boʻgʻin morfema bilan toʻgʻri kelib qoladi. Boʻgʻin taktning bir boʻlagidir. Boʻgʻin bir yoki bir necha

tovushlardan iborat bo‘lib, bir nafas chiqarish bilan aytiladi. har qanday tovush bo‘g‘in hosil qilavermaydi. Umuman, unlilar eng kuchli sonor tovushlar bo‘lgani uchun har doim bo‘g‘in hosil qila oladi. Masalan: *olaman* so‘zi uch bo‘g‘indan (*o-la-man*), *korxonamiz* so‘zi esa to‘rt bo‘g‘indan (*kor-xo-na-miz*) iborat bo‘lib, ularning har birida bo‘g‘in hosil qiluvchi bittadan unli tovush bor. Ba’zi tillarda bir bo‘g‘in tarkibida ikki va undan ortiq unli tovushlar bo‘lishi ham mumkin. Masalan: qirg‘iz tilidagi *tooda* (*tog‘da*), *sooda* (*savdo*) so‘zlarida *too-*, *soo-* birinchi bo‘g‘in, -da ikkinchi bo‘g‘in bo‘lib, birinchi bo‘g‘indagi ikki unli tovush bir bo‘g‘inni hosil qilgan. Bir bo‘g‘inda ikki unli tovushning birikib kelishi *diftong* deb ataladi.

Ayrim tillarda diftong ko‘p uchraydi. Masalan, nemis tilidagi *heute* (bugun) so‘zida diftong — eu, *hous* (uy) so‘zida diftong — au, *eins* (bir) so‘zida diftong ei; fransuz tilidagi *moi* (men) so‘zida diftong — oi iigliz tilidagi *Vou* (o‘g‘il bola) so‘zida diftong — bou dir. Diftonglar kuchli va kuchsiz bo‘lishi mumkin. Kuchli (ko‘tariladigan) diftong sust unli tovush bilan boshlanib, to‘la unli holiga keladi. Masalan, rus tilidagi красная so‘zida keyingi bo‘g‘indagi ya ikki unli (y-a) dan iborat bo‘lib, y- sust unli, a esa to‘la unlidir. Mana shunday diftonglar fransuz, nemis tillarida va boshqa tillarda ham uchraydi.

Sust (pasayadigan) diftong to‘la unli bilan boshlanib, sust unli holiga keladi. Masalan, rus tilida *day*, *pey*, *ley*, *moy* so‘zlaridagi ajratib ko‘rsatilgan unlilar to‘la unli bo‘lib, ulardan keyin kelgan y unlisi sust unlidir. O‘zbek tilida, asosan kuchsiz diftong uchraydi, Masalan, *qiynameq*, *to‘yga*, *saroy* so‘zlaridagi ajratib ko‘rsatilgan unlilar kuchsiz diftonglar bo‘lib, i, o‘,o — to‘la unlilar; ulardan keyin kelgan y esa sust unlidir. Kuchli (ko‘tarilgan) diftonglar ham uchraydi: *yara*, *yog‘*, *yer* (*y+ara*, *y+og‘*, *y+er*) so‘zlarida y kuchli, a, o, e sust unlilar. Ulardan keyin kelgan y esa sust unlidir. Bundan tashqari, ba’zi tillarda bir bo‘g‘inda uch unli tovushning birikib kelish hodisasi ham uchraydi. Uch unlining birikib bir bo‘g‘in hosil qilishi *triftong* deb ataladi. Masalan, ingliz tilida *five* — *stjreed* (*Fayvstroid*) (besh qavatli) birikmasida eue — triftong.

Bo'g'in tuzilishi jihatidan ham tillar bir – biridan farq qiladi.

Tillarda juda ko'p uchraydigai bo'g'in chizmalari: kv, vk, vkv, kvk, kkv, vkk, kkkv, kvkk va h. k. (bu yerda k-konsonant (undosh), v- vokal (unli)).

O'zbek tilida: *Ke-ma* (kv-kv), *ba-ra-ka* (kv-kv-kv), *osh-paz* (vk-kvk), *o'r-mon* (vk-kvk), *nasl, nafs, musht* (kvkk) kabi.

Rus tilida *му-ка* (kv- kv), *со-ба-ка* (kv-kv-kv), *ар-гу-мент* (vk-kv-kvkk), *о-па-мор* (v-kv-kvk), *ста—кан* (kkv—kvk), *стра-на* (kkkv-kv), *встре-ча* (kkkkv-kv) kabi. Shunday qilib, o'zbek tiliga xos kv-kv, kv-kv-kv, vk-kvk, vk-kvk, kvkk kabi bo'g'in chizmalari uchraydi. Rus tilida esa kv- kv, kv-kvk, vk-kv-kvkk, v-kv-kvk, kkv-kvk, kkkv-kv, kkkv-kv bo'g'inli chizmalar ko'proq uchraydi. O'zbek tilida birinchi bo'g'inda ikkita, uchta, to'rtta (kk, kkk, kkkk) undosh qator kelishi uchramaydi.

4. Bo'g'inlar yana kichik qismlarga, ya'ni tovushlarga bo'linadi. Bo'g'in bir yoki bir necha tovushlardan tashkil topadi. Masalan, *kitob* so'zi ikki bo'g'indan iborat bo'lib, birinchi bo'g'ini -ki ikki tovushdan, ikkinchi bo'g'ini tob uch tovushdan tashkil topgan: oson so'zi ham ikki bo'g'indan iborat bo'lib, birinchi bo'g'ini —bir tovushdan, ikkinchi bo'g'in soni uch tovushdan hosil bo'lgan.

Ba'zi tillarda sonor undosh (l, m, n, r) tovushlar ham bo'g'in hosil qiladi. Masalan, rus tilidagi *пeрcть* (barmoq) so'zida bo'g'in hosil qiluvchi unli tovush - e bo'lsa, serb tilidagi *прst* (barmoq) so'zida bo'g'in hosil qiluvchi tovush r dir. Rus tilidagi *волк* (bo'ri) so'zida bo'g'in hosil qiluvchi unli tovush o bo'lsa, chex tilidagi *vлк* so'zlarida bo'g'in yaratuvchi undosh tovushdir.

**Urg'u.** Nutq tovushlari hamda bo'g'in segment elementlar deyiladi. Yana supersegment elementlar bo'lib, ular urg'u va ohangdir. Supersegment elementlar nutqqa ohang bag'ishlaydi.

So'zlarda bo'g'inlarni, gaplarda so'zlarni ma'lum vositalar bilan ajratib ko'rsatish urg'u deyiladi. So'z urg'usi bir so'zning tarkibidagi bir bo'g'inni

boshqalardan ajratish demakdir. Tilshunoslikda dinamik, miqdor va musiqiy urg‘uni farqlaydilar.

*Dinamik urg‘uda* ajratib ko‘rsatilayotgan bo‘g‘in kuchli talaffuz qilinadi (masalan, nemis tilida). *Miqdor urg‘usiga* ega tillarda unli cho‘ziqroq talaffuz qilinadi (masalan, rus, o‘zbek tillarida). *Musiqiy urg‘uda* urg‘u olgan bo‘g‘in ovoz tonini ko‘tarish va pasaytirish yo‘li bilan ajratib ko‘rsatiladi (masalan, xitoy tilida).

Urg‘uning o‘rniga ko‘ra turg‘un urg‘uli tillar va erkin urg‘uli tillar farqlanadi. Turg‘un urg‘uli tillarda urg‘u doim so‘zning ma‘lum bo‘g‘iniga tushadi. Masalan: o‘zbek, fransuz tillarida oxirgi bo‘g‘inga, polyak tilida oxiridan bitta oldingi, venger, chex tillarida birinchi bo‘g‘inga tushadi.

Erkin urg‘uli tillarda urg‘u so‘zning qaysi bo‘g‘iniga tushishini oldindan bilish mumkin emas. Rus, ingliz, nemis tillari shular jumlasidandir.

Fraza urg‘usi so‘z birikmalari yoki bir necha so‘zni boshqalardan ajratib ko‘rsatishni nazarda tutadi. Fraza urg‘usining turlari quyidagilar: ***Sintaktik urg‘u. Sintaktik – logik urg‘u. Kuchsiz sintaktik urg‘u. Emfatik (his - hayajon) urg‘u.***

Fraza urg‘usidan tashqari ohang tarkibiga nutqning ritmik– melodik tuzilishi kiradi. Nutq jaryonida urg‘u olgan va olmagan bo‘g‘inlar almashinib nutqning ritmi paydo bo‘ladi. Nutq ohanglariga gap urg‘usi, ohang, pauza, sur‘at, ritm, tembr kiradi.

Ohang pasayuvchi va ko‘tariluvchi bo‘ladi. Pasayuvchi ohang darak, undov gaplarda, ko‘tariluvchi ohang so‘roq gaplarda uchraydi.

**Gap urg‘usi yoki logik urg‘u.** Ovozning kuchaytirishi yoki ko‘tarish yordamida gap tarkibidagi biror-bir so‘zni ajratib talaffuz etiladi. Ana shu gapda ajratib talaffuz etish hodisasini gap urg‘usi yoki logik urg‘u deb ataymiz. Ana shu logik urg‘u tufayli gap turli xil ma‘noga ega bo‘ladi. Logik urg‘u yordamida mantiqiy tomondan muhim va butun e‘tiborni qaratish kerak bo‘lgan so‘z ajratib talaffuz etiladi. Logik urg‘u gapdagi har bir so‘zga, hatto u yordamchi so‘z ham turkumiga oid bo‘lsa ham tushishi mumkin. Logik urg‘uning ifodalanishi turli tillarda turlichadir. Masalan, rus tilida urg‘u tushgan so‘zdagi so‘z urg‘usi yana ham kuchliroq talaffuz

qilinadi. Frantsuz tilida logik urg‘u olgan so‘zning birinchi bo‘g‘ini so‘z urg‘usi oladi. O‘zbek tilida logik urg‘u olgan so‘z kesimdan oldingi o‘ringa ko‘chiriladi. Masalan:  
*Men maktabga bugun bordim* (kecha emas, bugun)  
*Men bugun maktabga bordim.* (do‘konga emas, maktabga)  
*Bugun maktabga men bordim.*(do‘stim emas, men).

Nutq jarayonida ovozimiz ko‘tarilib yoki pasayib, nutqqa ohang bag‘ishlaydi. Nutqning ohangdorligi intonatsiya deb ataladi. Gap ohangi turli vazifalarni bajaradi. Masalan, uning eng muhim vazifalaridan biri sintaktik funktsiyasi hisoblanadi. Bunda ohang yordamida biz tasdiq, savol, hayajon kabilarni ifodalaymiz. Intonatsiya yordamida biz so‘z birikmasi gapga tegish yoki tugallanmagan gapning bir qismini, aniqlashimiz mumkin.

**Intonatsiya.** Intonatsiya melodika, ibora urg‘usi, temp (nutq sur‘ati), tembr (ovozning neytral va emotsional sifati) pauza, ritm (urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlar almashinuvi) majmui bo‘lib, so‘zlovchining his-hayajoni, maqsadi va fikrini ifodalovchi prosodik birlikdir. Demak, intonatsiya ohang emas, ohang - intonatsiyaning bir komponenti melodikaga to‘g‘ri keladi. Melodikani pasayuvchi, ko‘tariluvchi turlarini qo‘shma gaplarda kuzatish mumkin. Masalan: U kelsa (ko‘tariluvchi), biz boramiz (pasayuvchi).

Intonatsiyaning komponentlariga quyidagilar kiradi:

1. Melodika.
2. Faza urg‘usi
- 3 Intensivlik
4. Ritm
5. Nutq tempi
6. Ovoz tembr. <sup>80</sup>

---

<sup>80</sup> **Abduazizov A.A.** O‘zbek tili fonologiyasi va morfofonologiyasi.-Toshkent:Universitet, 2010.- B. 30.



**Tovushlarning nutq jarayonida o'zgarishi.** Ma'lumki, nutq tovushlari yozuvda har qaysi tilda qabul qilingan belgilar - harflar orqali aks ettiriladi. Biroq so'zlashuv jarayonida nutq tovushlari harflar orqali aks ettirilganidek, yakka-yakka holda ishlatilmaydi. Nutq tovushlari har bir til qonun – qoidalariga muvofiq ma'lum tartib bilan tutashib, birikib so'z hosil qilarkan, so'z tarkibida aks ettirilgan harflarga nisbatan birmuncha o'zgargan holda talaffuz etilishi mumkin. So'zlashuv jarayonida nutq tovushlarishshg o'zgarishi ayrim tovushlarning bir-biriga ta'sir qilishi natijasida ro'y beradi. Masalan, yozuvda *yotdi, kelibdi* shaklida yoziladigan so'zlar og'zaki nutqda *yotti, kelipti* shaklida talaffuz etiladi.

Nutqda so'z tarkibidagi tovushlarning bunday o'zgarishiga kombinator o'zgarishlar deyiladi. Kombinator o'zgarishlar assimilyatsiya, dissimilyatsiya jarayonlarida va boshqa fonetik jarayonlarda ro'y beradi.

So'zlarda ikki yonma-yon tovushshshg bir-biriga ta'sir qilishi natijasida, ya'ni oldingi tovushning keyingisiga yoki keyingi tovushning oldingisiga o'xshab ketishi, moslashishi kabi fonetik jarayon *assimilyatsiya* hodisasi deb aytiladi. Bunday hollarda tovushlar artikulyatsiya yoki akustika jihatidan bir-birlariga moslashadi. Masalan, yozuvda *otda* shaklida ifodalangan co'z so'zlashuv jarayonida *otta* deb talaffuz etiladi: bunda shu ot so'zidagi jarangsiz t tovushning ta'siri natijasida shu tovushdan keyin kelgan jarangli d ham t ga o'xshab ketgan Rus tilida *сдела́ть* so'zi talaffuzda *зде́лать* tarzida aytiladi, bunda keyingi jarangli d tovushiniig ta'siri bilan oldingi jarangsiz s tovushi jarangli z tarzida talaffuz etiladi, ya'ni jarangli d undosh tovushi o'zidan oldin kelgan jarangsiz s undosh tovushini o'z-o'ziga o'xshatib singdirib, jaranglilashtiradi.

Assimilyatsiya to'liq va to'liqsiz bo'lishi mumkin. Nutq jarayonida singdiruvchi tovush qo'shni tovushni aynan o'ziga o'xshatsa, to'liq assimilyatsiya deyiladi. Masalan, o'zbek tilida *otdan, o'tda* so'zlarida oldingi jarangsiz t tovushining ta'siri bilan jarangli d tovushi ham t bo'lib, ikki boshqa – boshqa tovush bir xilda *ottan, o'tta* kabi talaffuz etiladi. Bu hodisa boshqa tillarda ham uchraydi. Masalan, rus tilida

*omdam* soʻzi *oddam* tarzida talaffuz etiladi. Bu soʻzda keyingi d tovushi t ga taʼsir qilib, oʻziga oʻxshagan d kabi talaffuz etiladi. Shu xilda soʻz tarkibidagi singdiruvchi tovush qoʻshni tovushga taʼsir qilib, qisman oʻziga oʻxshatsa, toʻliqsiz assimilyatsiya deyiladi. Masalan, *toshgan*, *oʻtgan* soʻzlarida -gan affiksidagi jarangli g undoshi oʻzidan oldin kelgan sh, t tovushlarining taʼsiri bilan talaffuzda qisman oʻzgarib, k tarzida talaffuz etiladi: *toshkan*, *oʻtkan*. Bunda jarangsiz sh, t undosh tovushlari oʻzlaridan keyin kelgan g undosh tovushini aynan, toʻla oʻziga oʻxshatmasa ham, jarangliligini yoʻqotib, sh, t tarzida jarangsiz talaffuz etiladi.

Baʼzi tillarda assimilyatsiya hodisasi orfografiyada ham oʻz aksini topadi. Masalan, hozirgi oʻzbek adabiy tilida joʻnalish kelishigi, asosan -ga affiksi bilan ifodalanadi. Lekin, q, k, gʻ, tovushlari bilan tugagan soʻzlarning oxirida jarangsiz undosh tovushi boʻlgani uchun -qa, -ka shaklida yoziladi: *oʻrtoq—ga— oʻrtoqqa*, *terak—ga—terakka*, *buloqqa—ga—buloqqa* kabi. Bunday holni rus tilida ham uchratish mumkin: z tovushi bilan tugagan prefikslar jarangsiz tovushlar bilan boshlangan soʻzlar oʻzagi bilan tutashib kelganda, jarangsizlashib, talaffuzga muvofiq s harfi bilan yoziladi: Masalan, *без платно—бесплатно*, *из ходитъ—исходитъ*, *раз сказатъ—рассказатъ*.

Assimilyatsiya ikki xil boʻladi. Agar soʻzda oldingi tovush oʻzidan keyingi tovushga taʼsir qilib, uni oʻziga qisman yoki toʻla oʻxshatsa, bunday hodisa progressiv assimilyatsiya deyiladi. Masalan, *otdan (ottan)*, *tutda (tutta)*, *beshta (beshka)* kabilar.

**Progressiv assimilyatsiya** asosan turkiy tillarga xosdir. Agar soʻz tarkibidagi keyingi tovush oʻzidan oldin kelgan tovushga taʼsir qilib, uni oʻziga toʻla yoki qisman oʻxshatsa, bunday assimilyatsiya regressiv assimilyatsiya deyiladi. Masalan, *mazkur*, *atlas*, *birla* soʻzlari *maskur*, *allas*, *billa* tarzida talaffuz etiladi.

**Regressiv assimilyatsiya**, ayniqsa, rus tili uchun xosdir. Masalan, *лодка* soʻzida k tovushi oʻzidan oldin kelgan jarangli d tovushiga taʼsir qilib, uni t tovushiga aylantiradi, natijada bu soʻz *лотка* tarzida talaffuz etiladi; *сбор* soʻzidagi

jarangli b tovushi o'zidan oldin kelgan jarangsiz s tovushiga ta'sir qilgani uchun bu so'z *збоп* tarzida talaffuz etiladi.

Turkiy tillarda, mo'g'ul tilida, ayrim ugor-fin tillarida **singarmonizm** hodisasi ham uchraydi. Singarmonizm ham assimilyatsiyaning bir ko'rinishidir. So'zning birinchi bo'g'inidagi unlining xususiyati va sifatiga qarab, boshqa bo'g'inlardagi unlilarning ohangdoshlashib moslashuviga singarmonizm deb aytiladi. Singarmonizm ikki xil bo'ladi.

**Palatal singarmonizm.** Palatal singarmonizm o'zbek tilidan boshqa barcha turkiy tillarga xos fonetik qonundir. Bu fonetik qonunga muvofiq so'z tarkibidagi «qattiq», ya'ni til orqa unililari yoki «yumshoq», ya'ni til oldi unililari ohangdoshlashib uyg'unlashadi, moslashadi. Agar so'z tarkibida birinchi bo'g'indagi unli «qattiq», ya'ni til orqa unlisi bo'lsa, qolgan bo'g'inlarda ham faqat til orqa unililari ishlatiladi. Masalan, qoraqalpoq tilida - *balalarımızdan*, ozarbayjon tilida *gardashlarımızdan*, qirg'iz tilida — *mol dolordon*. Agar so'z tarkibida birinchi bo'g'indagi unli «yumshoq», ya'ni til oldi unlisi bo'lsa, qolgan bo'g'inlarda ham til oldi unililari ishlatiladi. Masalan, qoraqalpoq tilida — *mekteplerimizdenu*, ozarbayjon tilida — *telebelerimizden*, qirg'iz tilida — *mekteptin*.

Shunday qilib, palatal singarmonizm da so'zning hamma morfemalaridagi unililar, ya'ni so'z o'zagidagi va morfemalar hamda affikslardagi unililar, ohangdoshlashib moslashgan bo'ladi. Shuning uchun ham ko'pchilik turkiy tillarda affikslarning kamida ikki varianti bor. Masalan, qoraqalpoq tilida: *bala-lar-ı-miz-dan*, *mekgep-ler-i-miz-dan*- qirg'iz tilida — *mekteptete*, *toodo*.

**Labial singarmonizm.** Labial singarmonizm barcha turkiy tillarda ham uchramaydi. Labial singarmonizm hodisasi bor bo'lgan tillarda so'zning oldingi bo'g'inidagi labiallangan unli o'zidan keyingi bo'g'indagi unliga yoki qolgan hamma bo'g'indagi unlilarga ta'sir qilib, ularni labiallangan unliga o'xshatib, moslashtiradi. Masalan, qirg'iz tilida *kol*, *kolu*, *koldor* so'zlarida labial singarmonizm hamma bo'g'inlarda yuz bergan. Tuva tilida *kol*, *kolu*, *kollar*, *kolları* so'zlarida labial

singarmonizm ba'zi bo'g'inlardagina yuz beradi. O'zbek tilida labial singarmonizm og'zaki nutqda hamda ba'zi shevalarda uchraydi: *mumkun (mumkin), muhum (muhim), buvu (buvi), bo'lum (bo'lim), so'lum (so'lim), o'g'ul (o'g'il) kabi.*

**Dissimilyatsiya** nutq jarayonida ba'zi bir so'zlarda yonma-yon kelgan ikki tovushning o'xshab ketishi o'rniga noo'xshashlik yuz beradi. Artikulyatsiya o'rni yoki usuli jihatidan bir - biriga o'xshashi yoki yaqin tovushlarning nutq jarayonida bir-biriga o'xshamay qolishi dissimilyatsiya hodisasi deb aytiladi. Bu hodisa ko'proq jonli tilda uchraydi. Masalan, *maqsad—maxsad* (qs-xs). Bu so'zda q til orqa portlovchi undosh sirg'aluvchi x tovushi bilan almashgan yoki *maqto'v—maxto'v*, (qt-xt), *doktor—duxtur* (kt-xt) kabi. Rus tilida *мягко—мякко* (kg-xk), *конечно — конешно* (chn-shn) kabi. Dissimilyatsiya hodisasi adabiy tilda juda ham kam uchraydi.

Nutq jarayonida tovushlarning bir-biriga ta'sir etishida boshqa fonetik hodisalar ham ro'y beradi.

**Akkomadatsiya** (lot. *Accomodatio* - muvofiqlashuv) – tovushlarning moslashuvi bo'lib, u yonma – yon turgan unlilar va undoshlar orasida sodir bo'ladi. U progressiv yoki regressiv bo'lishi mumkin. Moslashuv to'liq bo'lmaydi, qisman ro'y beradi. Masalan: qafas so'zida til oldi “a” tovushi chuqur til orqa “q” ta'sirida til orqa unli kabi talaffuz qilinadi.

**Metateza** hodisasi. Talaffuzda so'z tarkibidagi tovushlarning o'rin almashishi metateza deb aytiladi. Ba'zi tillarda so'z tarkibidagi tovushlar umuman o'zgarmasdan, bir-birlari bilan o'rin almashadi. Masalan, o'zbek tilidagi *daryo, tuproq, supra* so'zlari og'zaki nutqda ko'pincha *dayro (y-r), turpoq (p-r), surpa* (p-r) tarzida talaffuz etiladi. Bu hodisa chetdan qabul qilingan so'zlarda ko'proq uchraydi. Chunonchi, rus tilidagi *tarelka* so'zi aslida *talerka* (nemischa - *tflerka*) shaklida bo'lgan. Biroq bu so'z tarkibidagi l va r tovushlari o'rin almashtirib, rus tiliga *tarelka* shaklida qabul qilingan.

**Proteza** hodisasi. Soʻzni talaffuz etganda uning old tomonidan biror tovushning orttirib (qoʻshib) talaffuz etilishi proteza deyiladi. Chunonchi, oʻzbek tilida, ayniqsa, chetdan kirgan soʻzlarga, koʻpincha soʻz boshida, qator kelgan undoshlar oldidan bir unli tovushni orttirib aytish hodisasi uchraydi. Masalan, rus tilidan qabul qilingan *spravka, stadion, stakan, stol* soʻzlari ogʻzaki nutqda *isparafka, istadion, istakap, ustol* tarzida, yaʼni i, u unli tovushlari orttirilib talaffuz etiladi. Shuningdek, soʻz boshida kelgan unli tovush oldidan undosh tovush orttirilib kelish hodisasi ham uchraydi. Masalan, uygʻur tilida *araq* soʻzi *harok, arava* soʻzi *harava* tarzida talaffuz etiladi.

**Epenteza** hodisasi. Talaffuzda soʻz tarkibi ichida ortiqcha tovushning paydo boʻlish epenteza deyiladi.

Ikki unli tovush oʻrtasida undosh tovushning yoki ikki undosh tovush oʻrtasida unli tovushni paydo boʻlib qolishi mumkin. Bunday hodisa jonli tilda koʻproq uchraydi. Masalan, *traktor — taraktr, tranvay — tiramvay yoki taranboy, trolleybus — taralabus*. Bu hodisa baʼzan orfografiyada ham aks ettiriladi: *krovat — karavot, klubnika — qulupnay* kabidar.

**Diereza** hodisasi. Soʻz tarkibida birorta tovushning tushib qolishi diereza deyiladi. Ayrim tillarda soʻzlar talaffuz etilganda baʼzi bir tovushlar tushib qoladi. Masalan, oʻzbek tilida *past, rost, goʻsht* soʻzlari jonli tilda odatda *pas, ros, goʻsh* tarzida; *boʻlsin, kelsang-chi, buni olma* gaplari esa *boʻsin, kesang-chi, buni oma* tarzida talaffuz etiladi. Binobarin, oldingi misollarda soʻz oxirida qator kelgan undoshlardan t tovushi, keyingi misollarda esa soʻz oʻrtasida kelgan l undosh tovushi talaffuzda tushirilib qoldirilgan. Rus tilida *счастливо* soʻzi *счасливо, известно* soʻzi *извесно, праздник* soʻzi *празник* tarzida talaffuz etiladi. Demak, avvalgi ikki soʻzda t tovushi, keyingi soʻzda d tovushi tushirib qoldirilgan. Jonli tilda baʼzan butun bir boʻgʻin ham tushib qolishi mumkin. Masalan, *olib bor — obor, olib keldi — opkeldi* kabilar.

Undosh tovushlarning soʻz tarkibida oʻzgarishi ularning atrofidagi fonetik muhitga, fonetik sharoitga, oʻrniga bogʻliq, chunonchi, soʻz oxirida kelgan jarangli undoshlar jarangsiz talaffuz etiladi: *maktab (maktap), avlod (avlot), barg (bark)*; rus tilida: *город (gorot), столб(столн), паравоз (паравос)*. Soʻz boshida yoki soʻz ichida unli tovushlardan oldin kelgan undoshlar toʻliq, oʻz nomi bilan aytiladi: *qa-lan-dar, to-mo-sha, te-rim*, rus tilida: *ма-шу-на, чис-мо-та, ба-ра-бан* kabi.

Shu tariqa ogʻzaki nutq soʻz tarkibidagi baʼzi undoshlarda oʻrniga qarab, tushib qolish hodisasi uchraydi: *rost – ros, rast – pas*.

**Gaplologiya** (yun. Gaplos – oddiy; logos - tushuncha) - yonma–yon turgan oʻxshash undosh yoki boʻgʻinlarning tushirib qoldirilishi: *qayinona – qaynona, qayinini – qayni*.

Nutq tovushlari soʻzda tutgan oʻrniga qarab talaffuzda, yozuvda oʻzgarishi mumkin. Buni tovushlarning pozitsion oʻzgarishi deyiladi.

**Reduksiya** shunga misol boʻla oladi. Reduksiya uch xil boʻladi:

*Miqdor reduksiyasi:* urgʻu olmagan boʻgʻinning qisqa talaffuz qilinishi; ingliz tilida uchraydi.

*Sifat reduksiyasi:* urgʻuli boʻgʻinda unlining boshqa unliga aylanishi: *вязать – визать*; bunda urgʻusiz birinchi boʻgʻindagi *ya (ya) - i* ga aylangan.

*Toʻliq reduksiya:* Urgʻu olmagan boʻgʻinda unlilar tushib qoladi. Masalan: *ogʻiz - ogʻzim*.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Fonetika nimani oʻrganadi?
2. Fonologiyaning predmeti nima?
3. Fonema tushunchasini izohlab bering.
4. Nutq tovushlarining akustikasi va artikulyastiyasi nima?
5. Unli tovushlarning (masalan, oʻzbek tilidagi) tasnifini ayting.

6. Undosh tovushlarning (masalan, o‘zbek tilidagi) tasnifini ayting.
7. Nutqning fonetik bo‘laklari: jumla (fraz), takt, bo‘g‘in, tovush haqida ma’lumot bering.
8. Enlitika va enkliza hodisasi. Proklitika va prokliza hodisasi.
9. Bo‘g‘in va uning turlarini izohlang.
10. Intonastiyaning vazifasi nimalardan iborat?
11. Urg‘u nima va uning qanday turlari bor?
12. Nutq tovushlarining pozistion va kombinator o‘zgarishlariga misol keltiring.
13. Reduksiya nima?

### **Asosiy tushunchalar izohi:**

1. Fonetika –tilshunoslikning fonetik birliklar, ularning fizik-akustik va b. xususiyatlari haqida ma’lumot beruvchi bo‘limi.
2. Fonologiya - tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, u tilning tovush materiyasi taraqqiyotini va shu materiyaning fonologik sistemaga uyushish qonuniyatlarini hamda tildagi vazifalarini tadqiq qiladi.
3. Fonema - so‘zlar, morfemalar va grammatik shakllarning tovush qobig‘i, binobarin, ma’nolarni ham farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik segment birlik.
4. Vokalizm – unli fonemalar tizimi.
5. Konsonatizm – undosh fonemalar tizimi.
6. Segment birliklar – so‘z yoki morfema tarkibida gorizontal chiziq bo‘ylab birin-ketin keladigan birliklar: nutq tovushi, bo‘g‘in, fonetik so‘z, takt, fraza.
7. Supersegment birliklar – urg‘u, ohang, melodika, pauza kabi ustama hodisalardir, ular so‘zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit holda aloqador bo‘lishi bilan segment birliklardan farq qiladi.

8. Nutqning fonetik bo‘laklari jumla (fraza), takt, bo‘g‘in, tovushdan iboratdir.

9. Enklitika – urg‘uli so‘zdan keyin kelib, urg‘u jihatdan unga qo‘shilib ketadigan so‘z.

10. Proklitika - urg‘uli so‘zdan oldin kelib, urg‘u jihatdan unga qo‘shilib ketadigan so‘z.

11. Reduksiya – tovush artikulyastiyasining kuchsizlanishi natijasida tovush (ovoz)ning o‘zgarishi, tovushning miqdor va sifat belgisi jihatidan pasayishi.

## **11-§. TILNING LUG‘AT SATHI. LEKSIKOLOGIYA VA LEKSIKOGRAFIYA**

**Leksikologiyaning obyekti, predmeti va vazifalari.** *Leksikologiya* so‘zi grekcha *lexicos* – “lug‘aviy belgi” va *logos* - “bilim” so‘zlaridan olingan bo‘lib, tilshunoslikning so‘z va so‘zga teng lug‘aviy birliklar, aniqrog‘i, til boyligi haqida bahs yurituvchi qismidir. Har bir tilning lug‘at tarkibi, boyligi, shuningdek, tildagi so‘zlar majmui leksika deb yuritiladi. Shunga ko‘ra leksika so‘zi adabiy tilning lug‘at tarkibi ma‘nosida ham, biror sheva yoki dialektning lug‘at tarkibini ifodalash uchun ham (dialektal leksika), ma‘lum bir kasb-hunar kabi sohaga oid lug‘at tarkibi ma‘nosida ham (terminologik leksika), hatto ayrim yozuvchi asari (yoki asarlari)ning so‘zlari majmui ma‘nosida ham (masalan, Navoiy asarlari leksikasi) qo‘llanaveradi.

Leksikologiya leksikani o‘rganadi, leksika esa, o‘z navbatida, so‘zlardan yoki so‘zlar majmuidan iborat bo‘ladi. Lug‘at tarkibi har bir tilning boyligini aks ettiradi. Til so‘zga qanchalik boy bo‘lsa, fikr va maqsadni shunchalik yaxshi va to‘liq bayon etish, eng nozik his-tuyg‘ularni ifodalash mumkin. Til kishilarning turli faoliyati bilan bevosita bog‘langanligi uchun ham tilning lug‘at tarkibi uzluksiz o‘zgarib turadi. Jamiyatning taraqqiy qilishi, sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo-sotiq, fan va texnikaning rivojlanishi bilan tilning lug‘at tarkibi ham yangi so‘zlar bilan boyib boradi. Chunki kishilarning muhim aloqa vositasi bo‘lgan til yangi so‘zlar bilan boyib turmasada,



jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlarni, yangi hodisalarni aks ettirish vazifasini bajara olmay qoladi. Jamiyatning taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan til ijtimoiy tuzumning o'zgarishini ishlab chiqarishning taraqqiy topishini, fan, texnika va madaniyatning rivojlanishini o'zida aks ettiradi, buning natijasida ko'plab yangi so'zlar paydo bo'ladi. Shu bilan birga, eskirib qolgan ba'zi so'zlar iste'moldan chiqib ketadi. Bu hodisani hozirgi zamon o'zbek tili taraqqiyotida ham ko'rishimiz mumkin. O'zbek tili keyingi 40-45 yil davomida fan, texnika va madaniyat sohalariga bog'liq bo'lgan so'zlar bilan juda boyib ketdi. Masalan: *raketa, atom, yadro, fizika, kosmos, traktor, kultivator, strategiya, struktura, futbol, rektor, stanok, meteorologiya, meridian* kabi juda ko'p so'zlar o'zbek tili lug'at tarkibidan mustahkam o'rin oldi. Shu bilan birga *mingboshi, amin, yuzboshi* kabi so'zlar iste'moldan chiqib ketdi.

Har bir tilning lug'at tarkibi har doim uzluksiz o'zgarib turadi. Tilning lug'at tarkibi asosan tildagi so'z yasash imkoniyatlaridan foydalanib yangi so'zlar yaratish yo'li bilan boyib boradi. Shuningdek, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish yoki shu tilning shevalaridan yangi so'zlar yasashning ham til lug'at tarkibining botishidagi ahamiyati katta. Chunonchi, har bir tildagi so'z negizi va turli so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi-yangi ma'nolarni ifodalovchi so'zlar yasash tilning lug'at tarkibini boyitishda alohida o'rinni egallaydi. Masalan, o'zbek tilida qadimdan bor bo'lgan - chi affiksi (temirchi, taqachi, oluvchi) yordamida hozir ham *o'quvchi, uchuvchi, yozuvchi, traktorchi, kutubxonachi* kabi ko'plab so'zlar yasalmogda. Shuningdek, - dosh qo'shimchasi yordamida *maslakdosh, suhbatdosh, safdosh, sinfdosh, fikrdosh, musobaqadosh, yondosh, izdosh, zamondosh, maktabdosh* kabi so'zlar hosil bo'ladi. Ayni shu affikslar yordamida boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar ishtirokida yangi so'zlar yasash ham anchagina faol sanaladi. Xususan, o'zbek tilidagi *futbol+chi, montaj+chi, neft+chi, sport+chi, boks+chi, traktor+chi, tank+chi, gazeta+chi, shofyor+lik, dekan+lik, dirijyor+lik* kabi so'zlarni shular sirasiga kiritish mumkin.

Eskirib qolgan soʻzlarni yangi maʼnoda qoʻllash yoʻli bilan ham tilning lugʻat tarkibi boyib turadi. Masalan, *domla* soʻzi (eski shakli domulla) eski maktab va madrasa oʻqituvchilari hamda din ayonlariga nisbatan qoʻllanardi. Hozir esa, oʻqituvchilarga nisbatan hurmat bilan murojaat qilinganda ishlatiladi.

*Rais* soʻzi oʻtmishda diniy marosim va urf-odatlarining bajarilishini kuzatib boruvchi, shuningdek, oʻlchov va tosh-tarozilarning toʻgʻriligini tekshirib boruvchi mansabdor kishi maʼnosini ifodalagan boʻlsa, hozir (mansab) idora va xoʻjalik tashkilotlarining rahbari, shuningdek, majlisni boshqaruvchi shaxs maʼnolarini ifodalaydi. Xuddi shunday *dehqon*, *maorif*, *farmon*, *qurultoy* singari soʻzlar ham mazmunan yangi maʼnolarni ifodalaydigan boʻldi.

Shuningdek, *jadval* soʻzining dastlabki maʼnosi kitobatchilikda eng koʻp qoʻllangan bezak turlaridan birini anglatgan boʻlsa, bugungi kunda uning semantikasida keskin oʻzgarish sodir boʻlgan va uning dastlabki maʼnosi yoʻqolgan. Natijada, *jadval* leksemasi oʻzining bugungi maʼno anglatishi jihatidan mustaqil termin sifatida kitobatchilik terminologiyasi tizimidan chiqib ketdi. U hozirgi oʻzbek adabiy tilida «muayyan shakl asosidagi maʼlumotlar; dars, mashgʻulot, faoliyat, hatti-harakatlarning tartib roʻyxati» kabi maʼnolarni ifodalamoqda. Xuddi shuningdek, raqam leksemasi ham avvalgi «yozuv, bitish» kabi asliy maʼnolarini butunlay yoʻqotgan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida maʼno hajmining tamoman oʻzgarishi, leksik maʼnoning avvalgisiga nisbatan farqli voqelikni bildirishi tufayli yangi mazmun kasb etgan: «1. Sonni ifodalovchi grafik belgi. 2. Biror son bilan ifodalangan miqdor, koʻrsatkich. 3. Bir turdagi predmetlarga tartib bilan qoʻyilgan son; nomer». Yoki muharrir soʻzini koʻraylik, dastlab «asar yozuvchi, muallif», «tahrir qiluvchi» maʼnolarida qoʻllangan boʻlsa, bugun uning «asar yozuvchi, muallif» maʼnolari yoʻqolgan, faqat «tahrir qilgan yoki qiluvchi» maʼnosigina saqlanib qolgan. Ayni shunday hodisa unvon soʻzida ham sodir boʻlgan. U dastlab kitobatchilik sohasida «qoʻlyozmaning nomi, sarlavhasi, sarvaraq, baʼzi hollarda ekslibris, yaʼni kitob belgisi» kabi maʼnolarni anglatgan boʻlsa, bugun uning oʻzbek tilidagi leksik maʼnosi

butunlay o'zgarib ketgan. Endi u kitobchilik sohasi bilan bog'liq bo'lmagan butunlay farqli ma'noni bildirmoqda: «Biror ish-faoliyat sohasidagi xizmat yoki mutaxassislik darajasini belgilovchi maxsus ta'sis qilingan nom». Shunga o'xshash, tasnif so'zining «biror asar yaratish» yoki «musiqada biror kuy yaratish» kabi ma'nolari tamoman yo'q bo'lgan, uning birgina «turlarga, sinflarga ajratish, klassifikatsiya» ma'nolari qolgan, xolos.

Rus tilida *майор, полковник, генерал, офицер* kabi so'zlar oldin podsho, pomeschchik va kapitalistlar tuzumini himoya qiluvchi harbiy kishilarning unvonini bildirar edi. Vatan urushi davrida bu so'zlarning ma'nosi yangicha tus olib, mehnatkash xalqning tinch mehnatini himoya qilgan va qilayotgan harbiy kishilarning unvonini ham bildiradigan bo'ldi.

Lug'at tarkibini boyitishda boshqa tillardan so'z qabul qilish ham muhim rol o'ynaydi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, boshqa tillardan birorta ham so'z olmagan sof til dunyoda yo'q, bo'lishi ham mumkin emas. Chunki jamiyat taraqqiyotida turli tillarda so'zlashuvchilar o'zaro munosabatda bo'lganlar. Savdo-sotiq, fan-texnika, madaniyat va boshqa sohalarda bo'ladigan aloqalar boshqa-boshqa tilda so'zlovchi xalqlar bir-birining tiliga ozmi-ko'pmi ta'sir qiladi. Shuning uchun har qanday tilning lug'at tarkibida ma'lum darajada chetdan kirgan so'zlar bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi *gazeta, jurnal, biologiya, matematika, radio, telefon* kabi so'zlar rus tili orqali boshqa tillardan kirib, o'zlashib ketgan so'zlardir.

Chetdan kirgan so'zlar ma'lum darajada shu tilning talaffuz me'yorlariga, grammatik qoidalariga bo'ysunadi, sekin-asta shu tilda so'zlovchi xalqning o'z so'zlari bo'lib qoladi. Masalan, *maktab, oila, kitob, daftar, qalam, rasm, maslahat, shakar, non* kabi so'larning boshqa tillardan o'zlashganini deyarli farqlamaymiz.

O'zbek tilining lug'at tarkibida boshqa tillardan kirgan so'zlar anchagina bo'lib, ular o'zbek tilining so'z boyligi hisoblanadi. Chetdan kirgan, lekin ma'lum bir tilga singib, o'zlashib qolgan so'zlarni boshqa xalqning so'zlari deb ajratish, uni tildan chiqarib tashlashga urinish xato hisoblanadi. Tilshunoslik qonun-qoidalariga e'tibor

bermaslik yoki bu qonunlarni tushunmaslik natijasida tilda o‘zlashib, xalqning qononiga singib qolgan so‘zlarni o‘rinsiz ravishda boshqa tillarga oid so‘zlar bilan almashtirish ham to‘g‘ri emas. Bunday yo‘dan borish chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Chetdan kirib, xalqning so‘z mulki bo‘lib qolgan so‘zlarni bir muncha tor ma‘noni ifodalovchi chet tillari so‘zlari bilan almashtirish hodisasi 90-yillarda o‘zbek tilida ro‘y berdi, chunonchi, *gazeta* so‘zini *ro‘znoma* bilan almashtirishga ancha urinishlar bo‘ldi. Hatto, hamma joylarga “*Ro‘znomalar*” deb yozib ham qo‘yildi, lekin bu so‘z tugal holda qabul qilinmadi, to‘g‘rirog‘i, xalq bu so‘zni iste‘molda qo‘llamadi. Natijada, *gazeta* so‘zi takror iste‘molga kirdi va faol so‘z sifatida tilda o‘rnashdi. Vaholanki, *gazeta* so‘zi tilimizga shu qadar o‘zlashib ketgan ediki, undan yangi so‘zlar, so‘z birikmalari ham paydo bo‘lgan edi: *gazetachi, gazetxon, gazeta xodimi* kabi. Bunday so‘zlar sirasiga *jurnal // oynoma, institut // oliy ilmgoh // oliygoh, samolyot // tayyora* va hokazolarni ham kiritish mumkin. Yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, eskirib, keraksiz bo‘lib qolgan so‘zlar asta-sekin lug‘at tarkibidan chiqadi. Lekin bunday so‘zlar butunlay yo‘qolib ketmaydi. Davrlar o‘tishi bilan, bu so‘zlarga zaruriyat qolmaganligi sababli ular lug‘at tarkibidan butunlay chiqib ketishi mumkin. Biroq bunday so‘zlar har bir tilning lug‘at fondida saqlanadi. Shu bilan birga eskirib qolgan, iste‘moldan chiqqan boshlagan ba‘zi so‘zlar faol so‘zlar qatoriga o‘tishi mumkin. Masalan, *farmon, vazir, qurultoy, domla, tibbiyot, muallim, muallif, musahhih* kabilar ana shunday so‘zlardandir.

Demak, leksikologiyaning obyekti tilning lug‘at boyligidir. Leksikologiyaning predmeti – lug‘at boyligining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini, tilning boshqa sathlari bilan aloqasini tadqiq etishdan iborat.

Uning vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Muayyan til lug‘at boyligidagi eskirish va yangilanish jarayonlarini, bu jarayonlarda lisoniy va nolisoniy omillarni o‘rganish.

2. Lugʻaviy birliklarning funksional-semantik tavsifini berish, eskirgan, yangi va zamonaviy qatlamlarini, tematik guruhlari va mikrosistemalarini aniqlash, lisoniy va uslubiy xususiyatlarini yoritish.

3. Talabalarni leksikaga oid bilimlar bilan qurollantirish va b.

**Leksikologiyaning turlari.** Leksikologiya barcha tillarning soʻz boylikligi taraqqiyotiga xos umumnazariy masalalar bilan birga, ayrim olingan muayyan bir tilning lugʻat boyligi masalalari bilan ham shugʻullanadi. Shunga koʻra umumiy leksikologiya va xususiy leksikologiyaga boʻlinadi.

1. **Umumiy leksikologiya** barcha tillarning boyligini, ularning rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganadi.

2. **Xususiy leksikologiya** esa faqat bir tilning lugʻat boyligini oʻrganadi. Masalan, oʻzbek tili leksikologiyasi, rus tili leksikologiyasi kabi.

Xususiy leksikologiya oʻz navbatida tavsifiy (sinxron) va tarixiy (diaxron) leksikologiyaga boʻlinadi:

a) **tavsifiy (sinxron) leksikologiyada** ayrim olingan bir tilning, masalan, oʻzbek tilining leksikasi statik holatda - shu til leksikasining avvalgi taraqqiyoti dinamikasiga bogʻlanmay oʻrganiladi, shunga koʻra u sinxron leksikologiya sanaladi.

b) **tarixiy leksikologiyada** ayrim olingan bir tilning leksikasi dinamik holatda - tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bogʻlab oʻrganiladi, shunga koʻra u tarixiy (diaxron) leksikologiya hisoblanadi.

3. **Qiyosiy leksikologiyada** qardosh tillar leksikasi va ular oʻrtasidagi bir xillik hamda tafovutlar, tafovutlar sabablari, semasiologik va frazeologik umumiyliklar solishtiriladi.

**Leksikologiyaning boʻlimlari.** Leksikologiya quyidagi boʻlimlarni qamrab oladi:

1. **Semasiologiya** til birliklarini ma'no jihatdan o'rganadi. Unda so'zning shakl va ma'nosi izohlanadi. Semasiologiyada tilning barcha ma'no anglatuvchi birliklarini tahlil qiladi.

2. **Leksikografiya** til tarkibida so'zlarni ma'lum tartib va maqsad asosida yozma ravishda to'plab, lug'at tuzish masalalarini o'rganadi.

3. **Onomasiologiya** narsa va hodisalarga nom berish jarayonini o'rganadi.

4. **Etimologiya** so'zlarning kelib chiqish masalalarini ham shakl, ham ma'no jihatidan o'rganadi.

5. **Frazeologiya** tilning turg'un birikmalarini o'rganadi.

6. **Onomastika** atoqli otlarni o'rganadigan fan. U 9 bo'limdan iborat:

1) *antroponimika* - shaxs bildiruvchi atoqli otlarni o'rganadi;

2) *toponimika* - geografik obyektни bildiruvchi atoqli otlarni o'rganadi, u 3ga bo'linadi: a) *oykonimika* – shahar, qishloq nomlari; b) *oronimika* - er ustidagi relyef nomlari; d) *urbanomimika*- shaharning ichki obyektlarini o'rganadi;

3) *zoonimika* – hayvonlarga qo'yilgan atoqli otlarni o'rganadi;

4) *gidronomimika* – suv havzalari va inshootlariga qo'yilgan atoqli otlarni o'rganadi, u ham 3ga bo'linadi: a) *pelagonimika* – dengiz nomlari; b) *limnonimika* – ko'l va kechuv nomlari; d) *potanonimika* – daryo nomlari;

5) *teonimika* – ilohiy kuchlarga qo'yilgan atoqli otlarni o'rganadi;

6) *kosmonimika* – kosmik fazo zonasidagi atoqli otlarni o'rganadi;

7) *astronimika* - ayrim osmon jismlariga qo'yilgan atoqli otlarni o'rganadi;

8) *xrononimika* – ijtimoiy ahamiyat kasb etgan ma'lum voqeani bildiruvchi vaqt bo'laklarining nomlarini o'rganadi;

9) *fitonimika* – ayrim o'simliklarga qo'yilgan atoqli otlarni o'rganadi.

7. **Etnonimika** millatlarning nomlarini o'rganadi.

8. **Terminologiya** terminlarni o'rganadi.

**Til va nutq birliklari haqida dastlabki ma'lumotlar.** Darslikning odingi sahifalarida ta'kidlab aytilganidek, til va nutq o'zaro dialektik bog'liq bo'lib,

ijtimoiy – tarixiy, ijtimoiy – psixik hamda ijtimoiy – individual jarayon - hodisalar sifatida jamiyatga tengi yo ‘q aloqa quroli va aloqa usuli bo ‘lib xizmat qiladi. Shunday ekan, til va nutq jarayoni qanday amalga oshadi? Til va nutq qanday birliklar bilan “ish ko‘radi”? Umuman, til va nutq birliklariga qanday birliklar kiradi-yu, ularga xos xususiyatlar nimada? Ular orasidagi o‘zaro munosabat, bog‘liqlik qanday kechadi? kabi savollar ko‘p yillardan beri tilshunoslarni o‘ylantirib keladi.

Til va nutq o‘zaro bog‘liq ekan, bundan o‘z-o‘zidan - mantiqiy ravishda til va nutq birliklarining ham o‘zaro bog‘liqligi, o‘zaro “ajralmas” aloqada ekanligi tushunchasi kelib chiqadi. Boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas. Negaki, til va nutqning bog‘liqligi, jamiyatdagi vazifasi ular birliklarining faoliyati, faolligi sababli yuz beradi. Til va nutqning o‘zaro munosabati aslida ular birliklarining o‘zaro bog‘liqligidan, munosabatidan kelib chiqadi. Til va nutq jamiyatdagi o‘z “operastiyalarini”, ta’sir qilish quvvatini muayyan birliklari orqali amalga oshiradi.

Hozirda tilshunoslikda, xususan, o‘zbek tilshunosligida til va nutqning asosiy birliklari sifatida fonema, morfema, leksema, model va tovush, so‘z (so‘z formasi), so‘z birikmasi hamda gap kabilar qayd etiladi. Aniqrog‘i, til birliklariga: *fonema, morfema, leksema (so‘z) va modellar*; nutq birliklariga: *tovush, so‘z (so‘z formasi), so‘z birikmasi, gap* va boshqalar kiritiladi.

Aslida til birliklari muammosini hal qilish nutq birliklarisiz, nutq birliklari muammosini hal qilish esa til birliklarisiz amalga oshmaydi. Ularning dialektik bog‘liqligi, munosabati ham shunda. Boshqacha aytganda, nutq birliklari nutqda til birliklaridan hosil bo‘ladi, ya’ni nutq birliklari asosida til birliklari mavjud bo‘ladi. Til birliklari nutq birliklari uchun moddiy asos vazifasini o‘taydi. Nutq birliklari (tovush, so‘z, so‘z birikmasi, gap kabilar) aslida tilning – til birliklarining harakatdagi ko‘rinishi, faolligidir.

Siz keyingi kurslarda ular bilan yanada chuqurroq tanishasiz. Hozircha til birliklari qaysilaru, nutq birliklari qaysilar, shuni bilsangiz, kifoya qiladi.

**So‘z-til birligi, so‘z forma -nutq birligi sifatida.** So‘z til birligi, so‘z formani nutq birligi sifatida ta’riflashga o‘tishdan oldin so‘z tushuncha - terminiga to‘xtab o‘tamiz. So‘z haqida gap ketganda, ko‘pincha, unga «asosiy til birligi», «til va nutqning eng muhim unsurlaridan biri», «tilning eng kichik asosiy birligi» tarzida ta’rif beriladi. Lekin so‘z aslida juda murakkab xususiyatga ega. So‘zga uch-to‘rt og‘iz so‘z, hatto uch-to‘rt jumla bilan ham to‘la ta’rif berib bo‘lmaydi. Shu vaqtgacha tilshunoslik tarixida so‘zga 300dan ortiq ta’rif berilgan. Shunga ko‘ra ko‘p vaqtlardan beri tilshunoslikka oid adabiyotlarda so‘zga uning boshqa hodisalardan farqini belgilovchi aniq, mukammal ta’rif o‘z aksini topmay kelayapti. So‘zga berilgan ta’riflarni jamlab, ularga o‘z munosabatini bildirgan olimlardan biri L.M.Vasilevning fikricha, mazkur ta’riflarni 6 guruhga ajratish mumkin:

1. So‘z – bu gapning eng kichik bo‘lagi (L.V.Shcherba, L.Blumfeld).
2. So‘z – bu eng kichik sintaktik birlik (Boduen de Kurtene, A.Meye, E.Sepir).
3. So‘z – bu tilning eng kichik ma’no birligi (A.Reformaskiy, L.Elmslev).
4. So‘z – bu fonetik, grammatik va semantik belglar jamlangan til birligi (V.V.Vinogradov, K.Byuller, A.Meye).
5. So‘z – bu obyektiv borliqning ifodasi (E.M.Galkina-Fedoruk, V.V.Vinogradov, V.Doroshevskiy).
6. So‘z - bu nutqning mustaqil va maqsadli elementi (F.Fortunatov, J.Vandries, V.V.Vinogradov).<sup>81</sup>

So‘zga oid ta’rifni akademik Azim Hojiyev ham bergan. Unga ko‘ra so‘z: «Leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko‘rinishi. O‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, obyektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular o‘rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatlarni ifodalay oladigan, turli grammatik ma’no va vazifalarda qo‘llanadigan eng kichik nutq birligi».<sup>82</sup>

---

<sup>81</sup> **Sobirov A.** O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. - Toshkent: Ma’naviyat, 2004. 47-b.

<sup>82</sup> **Hojiyev A.** Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. 95-6.



A.Sobirov ham o'z monografiyasida so'zga o'ziga xos ta'rif beradi: "Leksik va grammatik ma'nolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka so'z deyiladi".<sup>83</sup>

Ko'rinadiki, so'zda uning barcha xususiyatlarini jamlab keluvchi 3 asosiy belgi mavjud bo'ladi: 1. So'zning tovush tomoni (moddiy qobig'i), ya'ni uni tashkil qiluvchi fonemalar. 2. Uning atamalik xususiyati (nom bo'la olishligi). 3. Muayyan bir tushunchani ifodalashi. Shular asosida so'zning persteptiv (idrok qilish), nominativ (nomlash), signifikativ (ma'no anglatish) vazifalari shakllangan. Demak, so'zlar tildagi shunchaki birlik emas, ularda fizik, anatomik, ruhiy-psixologik, mantiqiy, ijtimoiy, tarixiy, geografik kabi ko'plab xususiyatlar jamlangan bo'ladi.

Ma'lumki, har qanday so'zning ma'lum bir ma'no ifodalashi shu tilda so'zlashuvchilar uchun yoki shu tilni biluvchilar uchun sir emas, albatta. Har qanday so'z paydo bo'lishidayoq o'z ma'nosi va tovushlar qiyofasiga (tovush qobig'iga) ega bo'ladi. Demak, har qanday so'z, avvalo, tovush va ma'no birligiga ega bo'ladi. Bu narsa so'zning fonetik va semantik tomonlari.

So'zning tovush tomoni uning ma'nosini yuzaga chiqaruvchidir. Xuddi shu tovush tomoni bilan so'zning ma'nosi tinglovchiga etadi, tushuniladi. Demak, u so'zning ma'nosi uchun, yuzaga chiqishi uchun xizmat qiladi. Aytib o'tilganidek, har bir so'z (tub so'z) aniq bir tovush qobig'iga ega bo'ladi. Bu qobig'dagi tovushlarni, ularning miqdorini, tartibini kishilar, ya'ni shu tilda so'zlashuvchilar belgilamaydi. Balki har bir so'z ma'lum ma'noni ifodalovchi sifatida o'z tovush qobig'i bilan yuzaga keladi va shu tovush qiyofasidagina u ma'no ifodalanadi, tushuniladi. Agar tovush qobig'idagi tovush yoki tovushlar miqdori yoki tovushlar tartibi o'zgartirilsa, u holda bu qobiqqa xos ma'no va shu qobiqdagi so'z ham yo'qoladi, o'zgaradi. To'g'ri, so'zning tovush qobig'ida o'zgarish bo'lsa-da, ma'no saqlanishi mumkin. Lekin bu hodisa, ya'ni so'zning tovush qobig'idagi o'zgarish birdaniga emas, balki til

---

<sup>83</sup> **Sobirov A.** O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. - Toshkent: Ma'naviyat, 2004. 49-b.

taraqqiyoti jarayonida yuz bersagina shunday bo‘ladi. Bu hodisa tub so‘zlardagina emas, balki yasama so‘zlarda ham yuz berishi mumkin. Masalan, *yomg‘ir - yog‘mir, yog‘och - og‘och, kiprik – kirpik, qo‘shni - qo‘nshi, magiz – mayiz* va boshqalar. Albatta, so‘zning tovush qobig‘ida bo‘ladigan bunday o‘zgarishlar so‘zning o‘z ma‘nosi bilan yashash jarayonida ma‘lum qonuniyatlar asosida ro‘y beradi. Shuning uchun ham bu o‘zgarish ma‘noning, shu bilan birga so‘zning yo‘qolishiga olib kelmaydi.

So‘zning yana bir belgisi uning ma‘lum bir ma‘noga egaligidir. So‘zning fonetik shakli uning ma‘nosini yuzaga chiqaradi. Boshqacha aytganda, tovush yoki tovushlar majmuida ma‘lum ma‘no yuzaga kelsagina, uni so‘z deb atash mumkin. Affikslar ham ma‘lum tovush qiyofasiga va ma‘noga ega bo‘lsa-da, lekin ularning tovush qiyofasi ma‘noni yuzaga chiqaruvchi emas. Affiksga xos ma‘no u qo‘shiladigan so‘z orqaligina (shu so‘z doirasidagina) yuzaga chiqadi. Bu aytilgan fikrlar so‘zning ikki asosiy xususiyatiga, ya‘ni tovush va ma‘no tomoniga oiddir. Lekin so‘z bundan boshqa yana bir qator xususiyatlarga egaki, xuddi shu xususiyatlari tufayli u tilshunoslikning turli sohalari uchun tekshirish obyekti bo‘ladi.

Inson tili tovush tilidir. Har tilning paydo bo‘lishidayoq o‘z tovush qiyofasiga ega bo‘lishi sababi ham shunda. So‘zning moddiy qobig‘ini hosil qiluvchi tovushlar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator hodisalar tilshunoslikning fonetika bo‘limida o‘rganiladi.

Har qanday so‘zning ma‘lum ma‘noga ega bo‘lishini ko‘rdik. So‘zning ma‘nosi va unga oid hodisalar (so‘z ma‘nosining taraqqiyoti, bir ma‘nolilik va ko‘p ma‘nolilik va boshqalar) tilshunoslikning leksikologiya, yana ham aniqrog‘i, leksikologiyaning semasiologiya bo‘limida tahlil qilinadi.

So‘zlar fonetik, semantik strukturadan tashqari, morfema strukturasi ham egadir (*ish+chi+lar* kabi). So‘zning bu tomoni morfemika bahsida o‘rganiladi.

Yangi so‘zlarning paydo bo‘lishida so‘z yasashi hodisasi muhim rol o‘ynaydi. Yangi so‘zlarning juda ko‘p miqdori har bir tilning o‘ziga xos so‘z yasash usullari

bilan yaratiladi: terim (*ter+im*) – affiksatsiya usuli, kitobsevar (*kitob+sevar*) – kompozitsiya usuli va boshqalar. So‘z bilan bog‘liq bu hodisa, ya‘ni so‘z yasalishi va unga aloqador hodisalar tilshunoslikning so‘z yasalishi bo‘limida o‘rganiladi.

So‘z nutqda turli-tuman grammatik ma‘nolarni ifodalash uchun shu ma‘nolarga xos formalarda qo‘llanadi. Boshqacha aytganda, so‘zlar forma yasalishi sistemalariga ham ega: *kitob+lar+im*, *talaba+lar+imiz+ga*, *o‘qi+yap+ti+lar* kabi. So‘zning forma yasalish sistemasi va u bilan bog‘liq hodisalar tilshunoslikning morfologiya bahsida o‘rganiladi.

So‘zlar so‘z birikmalari va gaplarning tuzilishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday holatlar grammatikaning sintaksis bo‘limida o‘rganiladi.

Demak, so‘z o‘ta murakkab xususiyatlarga ega bo‘lgan til birligidir. U o‘zining muhim belgi-xususiyatlari bilan tilshunoslikning maxsus bo‘limlarining o‘rganish obyekti bo‘ladi.

So‘z til birligi sifatida ta‘riflansa, uning shakli – so‘z forma nutq birligi sanaladi, chunki u nutqda muayyan grammatik ma‘no va ushbu ma‘noni ifoda etuvchi grammatik shaklga ega bo‘lgan holda voqelanadi.

**So‘z va leksema.** Tilshunoslikda sistem leksikologiyaning rivojlanishi so‘z haqidagi bilim va tasavvurlarni kengayishiga xizmat qildi. Shu tariqa *leksema* termini paydo bo‘ldi. Tilshunoslik nazariyasida leksemaga ham turlicha ta‘riflar berilgan.

Xususan, H.Ne‘matov va R.Rasulovlar “O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari” o‘quv qo‘llanmasida leksemaga quyidagicha ta‘rif berishgan: “Leksema – jamiyat a‘zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo‘lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan, voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug‘atda grammatik morfemalarni o‘ziga biriktira oladigan morfema turi leksemdir”.<sup>84</sup>

---

<sup>84</sup> Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.-Toshkent: O‘qituvchi, 1995, 37-b.

B.Mengliyev ham o‘zining doktorlik ishida leksemaga ta’rif bergan: “Leksema o‘zida tayyorlik, majburiylik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiy xususiyatlarni mujassamlashtirgan, shakl va denotativ ma’no birligidan iborat, mustaqil anglanish va qo‘llanish tabiatiga ega bo‘lgan lisoniy birlikdir” .<sup>85</sup>

Akad.A.Hojiyev o‘z lug‘atida leksemaga quyidagicha ta’rif beradi: “Tilning lug‘at tarkibiga xos birlik; til qurilishining lug‘aviy ma’no anglatuvchi unsuri”.<sup>86</sup>

R.Rasulov 2010-yilda nashr qilingan “Umumiy tilshunoslik” darsligida leksemani quyidagicha izohlaydi:

“1. Leksema til birligi sifatida tayyorligi, yaxlitligi va jamiyat a’zolari uchun umumiyliigi, ular xotirasida mavjudligi bilan o‘ziga xosdir.

2. Leksema ifoda va mazmun tomonlarning bog‘liqligidan, bir butunlikdan tashkil topib, muayyan predmetlarni atash, nomlash vazifasini bajaradi.

3. Leksema fikr almashish jarayonida so‘z birikmasi va gap kabi nutq birliklari uchun material vazifasini o‘taydi.

4. Leksema nutq faoliyatida so‘z (so‘z formasi) sifatida voqelashib, nutq birligi bo‘lish imkoniga ega bo‘ladi. U til sistemasining leksik birligi, lug‘at boyligi hisoblanadi.

5. Leksemaning til birligi sifatidagi umumiyliigi til umumiyligidan kelib chiqadi. Chunki til va nutq dialektikasida til umumiy, nutq esa xususiy hisoblanadi”.

87

Ushbu fikrlarni umumlashtirib, leksemaga quyidagicha ta’rif berish mumkin: “Leksema – shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan, voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, jamiyat a’zolari uchun umumiy, tayyor, majburiy bo‘lib, mustaqil anglanish va qo‘llanish tabiatiga ega bo‘lgan lisoniy birlikdir”. Ko‘rinadiki, leksemaning eng asosiy xususiyati uning

---

<sup>85</sup> **Mengliyev B.** Lisoniy tizim yaxlitligi va unda sathlararo munosabat: Filol. fan. d-ri dis. -Toshkent, 2001. -248 b.

<sup>86</sup> **Hojiyev A.** Ko‘rsatilgan lug‘at. 56-b.

<sup>87</sup> **Rasulov R.** Ko‘rsatilgan darslik. 224-b.

lugʻaviy birlik ekanligida, yaʼni lugʻaviy maʼno anglatish qobiliyatiga ega ekanligida namoyon boʻladi.

Soʻz va leksema oʻrtasida ayrim farqlar mavjud:

1. Leksema – lisoniy birlik, yaʼni til qurilishi birligi boʻlib, u – umumiy.

Soʻz - ham til birligi, ham nutq birligi boʻlib, u xususiydir, yaʼni soʻz xususiylik sifatida umumiylikning – leksemaning nutqdagi, amaldagi koʻrinishi, harakati, muayyan vazifa bajarishidir.

2. Leksema terminini faqat leksik maʼnoga ega boʻlgan birliklarga nisbatan ishlatish mumkin. Yaʼni *ot-leksema*, *sifat-leksema*, *feʼl-leksema*, *son-leksema* tarzida qoʻllash mumkin, ammo yordamchi soʻz turkumlariga kiruvchilarga nisbatan *bogʻlovchi-leksema*, *koʻmakchi - leksema* tarzida qoʻllash mumkin emas, Chunki ularda leksik maʼno yoʻq.

Soʻz terminini esa leksik maʼnoga ega boʻlgan ham leksik maʼnoga ega boʻlmagan, yaʼni faqat grammatik maʼnoga ega boʻlgan birliklarga nisbatan qoʻllash mumkin. Yaʼni *ot*, *sifat*, *feʼl*, *ravishlar* ham soʻz, ham leksema. *Bogʻlovchi*, *koʻmakchi*, *yuklama*, *modal soʻz*, *undov soʻzlar* – soʻz, ammo leksema emas.

Soʻz bilan leksemaning yana bir farqini quyidagi oddiy misolda ham koʻrish mumkin: “Inson - insonga doʻst” birikuvida uchta soʻz, ammo ikkita leksema bor (inson, doʻst).

Leksema ikki tomonlama birlik boʻlgani sababli tilshunoslik nazariyasida leksemaning shakliy tomoni – **nomema**, mazmun tomoni (leksik maʼno) - **semema** deyiladi. Nomema – *fonemalardan* tashkil topadi. Semema esa *semalardan* tashkil topadi. Sema leksik maʼno (semema)ni tashkil qiluvchi mazmuniy qismlar va maʼno qirralaridir. Quyida leksik maʼno va tushuncha munosabatini koʻrib chiqamiz.

**Leksik maʼno (denotat) va tushuncha (signifikat).** Leksemalar oʻz maʼnosi bilan, aytilganidek, obyektiv borliqdagi narsa, harakat, belgi kabilarning konkret (aynan) oʻzini emas, balki u haqidagi tushunchani ifodalaydi. Leksema-soʻz orqali nomlanuvchi (ataluvchi) voqelik, narsa-buYum denotat deb ataladi. Denotat lotincha

*denotate* - “*belgilamoq*” soʻzidan olingan. Tilshunoslikda *referent* termini denotatga sinonim holda ishlatiladi.<sup>88</sup>

Tushuncha (signifikat) esa obyektiv borliqdagi narsa-hodisalarning kishi ongida umumlashgan tarzidagi inʼkiosidir. Tushuncha mantiqiy kategoriya boʻlib, u tafakkurga xos; leksik maʼno va uni ifodalovchi leksema esa tilga oid, til strukturasi tegishlidir. Soʻz maʼnoni bildiradi, ammo har bir soʻz tushuncha anglatishi shart emas (masalan, yordamchi soʻzlarda tushuncha boʻlmaydi). Demak, tushunchani faqat nomlovchi soʻzlar, asosan, leksemalar anglatadi.

Bir polisemantik leksema-semema bir necha tushunchani oʻz ichiga olishi mumkin. Shunga koʻra semema va tushuncha har doim ham mos kelavermaydi. Bir leksemaga bir tushunchaning toʻliq mos kelishini faqat terminlarda kuzatish mumkin.

Prof.A.Sobirovning fikricha, denotat, tushuncha va soʻz (leksema) oʻrtasidagi munosabatlarda: **predmet (denotat) → umumlashma obraz (signifikat) → asos (markaziy maʼno) → ust (qoʻshimcha maʼno) → leksema – soʻz (belgi)** qoidasiga amal qilinadi. Yaʼni bu qoidani quyidagicha tushuntirish mumkin: dastlab biror predmet (denotat) paydo boʻladi, keyin u haqda tushuncha (signifikat) yuzaga keladi, soʻngra unga asosiy maʼno (qoʻshimcha maʼnolar) tayinlanadi, tanlanadi undan soʻng uni nomlash biror leksemaga topshiriladi. Masalan, *koʻz* soʻzini olib koʻraylik. Dastlab predmet-denotat boʻlgan, soʻngra u haqda tushuncha yuzaga kelgan, unda avvalo denotativ leksik maʼno, soʻngra bir nechta koʻchma maʼnolar yuzaga kelgan, oʻzbeklar bu denotatni nomlashni “*koʻz*” leksemasi bilan belgilab qoʻyishgan boʻlsa, ruslar “*glaza*”, tojiklar “*chashm*” leksemalari bilan belgilashgan. Koʻrinadiki, turli xalqlar uchun denotat va signifikat umumiy boʻlgan holda uni ifodalash xususiy. Yoki *kompyuter* soʻzini olaylik. Oʻzbeklar va ruslar uni *kompyuter* deyishsa, turklar *bilgi sayaq* deb nomlashadi va b. Xullas, predmet - tushuncha –

---

<sup>88</sup> Hojiyev A. Koʻrsatilgan lugʻat. 34-b.

leksema o'rtasida mustahkam dialektik aloqa mavjud bo'lib, denotat va signifikat leksemaning yuzaga kelishida poydevor vazifasini o'taydi.

**Leksemaning semantik tarkibi.** Leksemaning semantik tarkibi leksik ma'no; qo'shimcha ottenkalar (ma'no qirralari, uslubiy semalar) va turkumlik semalarini o'z ichiga oladi.

**Leksik ma'no** leksemaning nimanidir nomlashi (atashi), anglatishi va ifodasidir. Leksik ma'noning yana bir muhim belgisi shundaki, u leksemaning tildagi boshqa so'zlar bilan birikuvchi imkoniyatini – valentligini belgilaydi. Ikki leksemaning leksik ma'nosida bir xil sema, ya'ni klassema bo'lsagina, bu so'zlar nutqda birikishi mumkin bo'ladi. Masalan, *non va emoq* so'zlarining leksik ma'nosida klassema mavjud, bu umumiy sema – “qattiq” semasidir. *Non va ichmoq* so'zlarida bunday sema yo'q, shuning uchun ular birika olmaydi. Ammo *suv va ichmoq* so'zlari bemalol birika oladi, chunki ularda umumiy sema – “suyuqlik” semasi bor.

**Qo'shimcha ottenkalar** (ma'no qirralari, uslubiy semalar) leksemaning semantik tarkibidagi ikkinchi hodisadir. Ular leksik ma'noga ustama sema tarzida birlashtirilgan bo'ladi.

**Turkumlik semalari** – leksemaning semantik tarkibidagi uchinchi komponent. Bunday semalar leksik ma'noga tayangan holda leksemalarning grammatik ma'nolarini belgilaydi, shu asosda leksemalarning leksik-grammatik guruhlanishi - so'z turkumlariga uyushishi ta'minlanadi. Har bir so'z turkumining ichki kategoriyalariga xos ma'nolar - otlarda egalik, kelishik, birlik, ko'plik; fe'llardagi shaxs-son, zamon, mayl; sifatlardagishi daraja ham turkumlik semalariga asoslanadi.

Leksema va uning semantik strukturasi masalasida ham tilshunoslikcha turlicha fikrlar bildirilgan. Xususan, M.Sodiqova o'z doktorlik dissertatsiyasida so'z semantik strukturasi quyidagilardan tashkil topadi deb hisoblagan:

1. Leksik ma'no.
2. Grammatik ma'no.
3. Stilistik ma'no.<sup>89</sup>

---

<sup>89</sup> **Sodiqova M.S.** Hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l stilistikasi (semantik aspektida): Filol.fan.d-ri...dis.-Toshkent, 1991.-288 b.

A.Hojiyevning ta'kidlashicha, so'z semantik strukturasi leksik ma'no va shu leksik ma'noga qo'shimcha tarzda o'ttenkalardan iborat.<sup>90</sup>

**Semema (leksik ma'no)ning semantik tarkibi.** Sh.Rahmatullayev o'z darsligida leksik ma'noning semalari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Ideografik sema.
2. Baho semasi.
3. Turkumlik semasi.<sup>91</sup>

M.Mirtojiyevning OMT filologiya fakultetlari talabalari uchun darsligida ko'rsatilishicha: "So'zning ma'no tarkibi borliqqa bo'lgan munosabatiga ko'ra : denotativ va konnotativ semalardan; sub'ekt xabariga ko'ra: informativ va pragmatik semalardan tashkil topadi".<sup>92</sup>

H.Jamolxonovning darsligida ta'kidlanishicha: "Leksik ma'noning semantik tarkibi atash, ifoda va vazifa semalaridan tashkil topadi".<sup>93</sup>

H.Ne'matov va R.Rasulovlar "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" da ta'kidlashicha: "So'z semantik strukturasi quyidagi semalar mavjud:

- 1) atash (denotativ) semalari;
- 2) ifoda (konnotativ) semalar;
- 3) vazifa (funkstional) semalar".<sup>94</sup>

B.Mengliyev va A.Sobirovlarning doktorlik ishida ham xuddi shu tasnifga amal qilinadi.

Ko'rinadiki, sememaning mazmuniy tuzilishini tashkil etuvchi qismlar – semalar borasida turli fikrlar mavjud ekan. Bizning vazifamiz bularning ichidan eng maqbulini tanlab olib, undan tilshunoslik faoliyatimizda samarali foydalanishdir.

Avvalo, ularga qisqacha ta'rif berib o'tamiz.

**Atash semalari.** Atash semalari – semema tarkibidagi nomlash, atash semalaridir, ayrim olimlar uni ideografik sema deb ham nomlaydilar. Masalan, *olma* so'zidagi "ko'p yillik mevali daraxt", "shu daraxtning mevasi" semalari atash semalaridir.

---

<sup>90</sup> O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent, 1981.

<sup>91</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili.- Toshkent, 2006, 50-b.

<sup>92</sup> Mirtojiyev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent, 2004.

<sup>93</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent: TDPU, 2008, 12-b.

<sup>94</sup> Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. 87-b.



**Ifoda semalari.** Ifoda semalari - semema tarkibidagi uslubiy ma'no qirralaridir, ular so'zda ko'chma ma'no hosil qilish uchun xizmat qiladi. Ular leksemalarning atashdan, nomlashdan tashqari, shaxsiy munosabatlarini ifodalashga yoki shu leksemaning qo'llanish doirasini belgilashga ham xizmat qilishi mumkin. Ayrim leksemalarning semantik strukturasi ifoda semasi (konnotativ ma'no) nutqiy matndan tashqarida ham voqelanadi, ya'ni leksema – so'z shu ma'no bilan “tug'ilgan bo'ladi”, ular til sifatida ham nutq birligi sifatida ham ifoda semasiga ega. Bu hodisa tilshunoslik nazariyasida ingerent konnotastiya deyiladi. Masalan, quyidagi leksemalarda ifoda semasi etakchilik qiladi: *turq, bashara, likillamoq, dikillamoq* va b. Ba'zi leksemalar esa ifoda semasiga (konnotativ ma'noga) ma'lum nutqiy matnda ega bo'lishi mumkin. Bu hodisa tilshunoslik nazariyasida adgerent konnotastiya deyiladi. Masalan, *shirin* leksemasini olib ko'raylik. Unda birinchi navbatda atash semasi etakchilik qiladi, til birligi sifatida unda ifoda semasi yo'q. Ammo muayyan mantda (nutqiy vaziyatda) unga ifoda semasi yuklanadi va u ham konnotativ ma'no bildiradi: *shirin bola, shiringina qizcha* kabi.

Atash semalari bilan ifoda semalari bir-biri bilan teskari proporsional munosabatda: biri kuchaysa biri pasayadi. Masalan, “tulki” so'zida atash semasi etakchilik qilsa (masalan, *Kecha dashtda oq tulkini ko'rdim* gapida) ifoda semasi kuchsizlanadi, u - yo'q. Ammo ushbu so'zda ifoda semasi kuchaytirilsa (masalan, *Katta amakim - g'irt tulki* gapida) atash semasi yo'qqa chiqadi.

**Vazifa semalari.** Vazifa semalari haqida ham o'zbek tilshunosligida turlicha fikrlar mavjud. H.Ne'matov va R.Rasulovlarning vazifa semasi haqidagi fikrlari quyidagicha: “Vazifa semalari semema tarkibiga kiruvchi va leksemaning nutqda qanday vazifalarda kela olishini bildiruvchi semalardir. Vazifa semalari leksemaning birikuvchanligini (sintaktik valentligini) ham belgilab keladi”.<sup>95</sup>

H.Jamolxonovning fikricha: “Vazifa semalari ham semema tarkibiga kiradi, ammo ular atash, ifodalash bilan birga leksemalarning nutqda o'zaro birika olishini

---

<sup>95</sup> Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. 62-b.

(valentligini), shu orqali gapda ma'lum vazifa bajarishini belgilaydi. Masalan, *choy* leksemasining sememasi tarkibida “qayta ishlangan”, “suyuqlik”, “ichimlik”, “quruq”, “choy o'simligi” semalari bor. Bu semalar *choy* leksemasining *o'stirmoq, ichmoq, qaynamoq va damlamoq* fe'llari bilan birika olishini ta'minlaydi: *choyo'stirmoq, choy ichmoq, choy qaynatmoq, choyni damlamoq* va b.”<sup>96</sup>

A.Hojiyev esa leksema sememasida umuman vazifa semasi yo'q deb hisoblaydi.<sup>97</sup> Uning fikricha, vazifa semasi yasama so'z va so'z shakllarida bo'lishi mumkin.

Bizningcha, sememaning semantik tarkibi atash va ifoda semalaridan iboratdir. Bu mustaqil leksemalardagi vaziyat, binobarin vazifa semasi faqat yordamchi so'z turkumlariga xos so'zlarda mavjud. Yordamchi so'z turkumlari doirasiga kiruvchi birliklarda atash va ifoda semasi bo'lmaydi, ammo ularda vazifa semasi bo'lishi mumkin. Chunki ular gap tarkibida vazifa bajarishga (bog'lash, munosabatni ifodalash va b.) xoslangan.

**Leksik ma'no turlari.** Tilshunoslik nazariyasida leksik ma'noning quyidagi turlari ajratilgan:

1. So'z semantik taraqqiyoti nuqtai nazaridan:

*Genetik ma'no* - o'zi oid bo'lgan so'zning hosil bo'lishida ahamiyat kasb etgan dastlabki leksik ma'nodir.

*Ko'chma ma'no* – so'zning genetik ma'nosi taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan leksik ma'nodir.

2. So'z leksik ma'nosi o'z denotatini qanday ifoda etishiga ko'ra:

*Nomlovchi (nominativ) ma'no* – o'z denotatini to'g'ridan-to'g'ri anglatuvchi leksik ma'nodir.

---

<sup>96</sup> **Jamolxonov H.** Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent: TDPU, 2008, 15-b.

<sup>97</sup> **Hojiyev A.** O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari (leksema sememasi tarkibida vazifa semasi bormi?) // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari.- Toshkent:TDPU, 2010. -B.7-12.

*Konnotativ ma'no* – o'z denotatini hosil qilgan ma'noga qo'shimcha majoziy ma'no anglatuvchi leksik ma'nodir.

3. So'z leksik ma'nosi namoyon bo'lishida so'zning birikuv imkoniyati nuqtai nazaridan:

*Erkin ma'no* – matndagi ma'lum so'zda namoyon bo'lar ekan, so'zning birikuv imkoniyati nihoyatda keng ekanligida kuzatiladi.

*Bog'li ma'no* - bu ma'no bilan nutqda qo'llangan so'z sanoqli so'zlar bilan birikuvga kirishadi.

4. Leksik ma'no so'z yasalishining aks etishiga ko'ra:

*O'zak ma'no* – o'zi oid bo'lgan so'zda yuzaga kelgan va hech qanday o'zak va qo'shimcha ma'nolari sintezidan tashkil topmagan leksik ma'no bo'ladi.

*Yasama ma'no* - so'z yasalishida o'zak va qo'shimchaning ma'nolari sintezidan hosil bo'lgan leksik ma'nodir.

**Leksik ma'noning taraqqiyot yo'llari.** So'z leksik ma'nosi asosan ekstralingvistik (tashqi) sababga ko'ra taraqqiy etadi. Faqat ko'chma ma'no yuzaga keltirilishida ba'zan intralingvistik (ichki) sabab ham ahamiyat kasb etadi. So'z leksik ma'nosi taraqqiyoti uch ko'rinishga ega: 1) leksik ma'noning kengayishi va torayishi; 2) so'z leksik ma'nosining ko'chma ma'no yuzaga keltirishi; 3) evfemizm va disfemizm.

**Leksik ma'noning kengayishi va torayishi.** So'z leksik ma'nosining kengayishi va torayishi faqat ekstralingvistik sababga ko'ra sodir bo'lib, bu sabab ularda qarama-qarshi xarakterda bo'ladi. Leksik ma'noning kengayishida u ifoda etgan denotat o'z hajmini yoki xilini oshira boradi va uni bildirgan leksik ma'no doirasi ham kengaya boradi, leksik ma'noning kengayish jarayoni kechadi. So'z ma'nosining rivojlanishi sifat va miqdor o'zgarishiga, ma'noning kengayishi va torayishiga, hatto tildan umuman tushib qolishiga olib keladi. Bunda jamiyat tarixining ahamiyati katta. Har bir yangi narsa yoki hodisaga yangi nom yaratmasdan mavjud so'zlar yordamida ifodalash ham mumkin. Natijada leksik-semantik ma'no

kengaya boradi. Masalan: *uchmoq* - faqat parrandani bildiruvchi soʻzlar bilan birikkan. Hozir uning maʼnosi kengayib *koʻz, varrak, samolyot, yer yoʻldoshi* kabi birliklar bilan aloqaga kirishadigan boʻlgan. Soʻzning leksik maʼnosi kengayishi natijasida koʻp maʼnoli (polisemantik) soʻzlar paydo boʻladi.

Leksik maʼnoning torayishida u ifoda etgan denotatning maʼlum qismlari farqlanib, soʻz leksik maʼnosida torayish kechadi. Shunga koʻra, aytish mumkinki, leksik maʼnoning torayishi soʻz maʼnosining kengayishiga nisbatan aks jarayondir. Bunda soʻzning qoʻllanish doirasi chegaralanib qoladi. Masalan: *osh* soʻzi barcha ovqat turini bildirar edi. Hozirda koʻproq *palov* maʼnosini anglatadi.

Soʻzlarning maʼno kengayish yoki torayishi hodisasiga “baxshi” soʻzi misolida chuqurroq tanishamiz. *Baxshi* soʻzi asli xitoycha boʻlib, «uning xitoy tilidagi shakli «pak - si» (hozirgi xitoy tilida «bo - shi») boʻlgani holda turkiy tilga moʻgʻul tili vositasida oʻzlashgandir. Ushbu xitoycha soʻz yapon tilidagi «hakase // hakusi» soʻzlari uchun ham manba boʻlib hisoblanadi. «Turk tilining etimologik luqati»da *baxshi* soʻzi haqida quyidagilarni oʻqiymiz: «Xitoycha pak - si (po - si ham deyiladi: ustoz; yozuvchi, kotib maʼnolarini anglatadi)dan bahsi – baksi. Bu soʻz Anadoli turkchasida u qadar keng qoʻllanilmagan, u, asosan, shaman eʼtiqodli turklarga oid boʻlib, «toʻy-tantanalarni boshqaruvchi kishi»ga nisbatan ishlatilgan. Osiyo turkchasida «p» tovushi «b» bilan beriladi. Shu sababli: *po – si / bo – si / baski / baksi*. Ushbu soʻzning xitoy tilidagi talaffuzi bilan lahjalardagi talaffuz farqliliklari birgalikda qoʻllanishda boʻlgan. Sanskritcha - bhiksu, moʻgʻulcha baksi. Shuningdek, «Drevnetyurkskiy slovar»da tabib yoki hakimlarning *otachi baqshi* deb atalgani aytib oʻtiladi. Bu yerdagi *otachi* soʻzi qadimgi turkiy tilda «ot» (oʻt, maysa)ga - amak (amak) qoʻshimchasini qoʻshish natijasida vujudga kelgan «otamak» (oʻtamoq) – «sogʻaytirmoq» feʼlidan yasalgan. Ushbu soʻz qadimda «dorivor oʻt-oʻlanlardan dori-darmon tayyorlab, bemorni xastalikdan xalos etuvchi tabib, hakim maʼnosini ifodalagan.

Hozirgi o'zbek tilida *otachi* so'zi mavjud emas. Lekin bu so'z bugungi turk tilida mavjud bo'lib, «otamak – dori-darmon berib kasalni tuzatish; otaci - hakim, tabib» ma'nolarini ifodalaydi. «Attuʻfatuz zakiyatu fillugʻatit turkiya»da ham *otachi* leksemasining «tabib» ma'nosini ifodalashi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, “Devonu luqotit turk”da ham *otachi* sqzining «tabib» ma'nosini ifodalashi aytilgan. Prof. E.R.Tenishev *baxche* leksemasi uyqur tilining sharqiy lahjasida «baxshi», «tabib», «shaman», shuningdek, uyg'ur tili markaziy shevasining dolan lahjasida baqsu - «afsungar», «folbin»; oqsuy lahjasida baqshi, baxshi: qush vaxshisi «ovchi qushlar yordamida ov qiluvchi», qashqar va yorqent lahjalarida – «(kasallik keltiruvchi jinlarni quvish yo'li bilan) xastalikni davolovchi»; uyqur adabiy tilida – baxshi; X-XIII asrlarga oid qadimgi uyqur yodnomalarida esa, «ustoz», «shogird» ma'nolarini ifodalaganini yozadi. Shuningdek, *bashi*, *boshi*, *baq-shi* ko'rinishidagi leksik shakllarning xitoy tilidan o'zlashganini ko'rsatib o'tadi. Boshqa bir manbada *baxshiso*zining *baxshi*, *bahsi*, *pahsi*, *pahsi* shaklidagi ko'rinishlari keltiriladi va ularning «pak-si»ga bog'liqligi ta'kidlanib, braxma yozuvlarida bitilgan yodgorliklarga oidligi aytiladi.

V.V.Bartoldning fikricha, *bahshi* (sankritcha asli - bhikshu) leksemasi Sharqiy Turkistondagi uyg'ur kotiblarga hamda uyg'urlar ichida yashagan buddist rohiblarga nisbatan qo'llangan. Mo'g'ullar davlatida *baxshi* so'zi «kotib», «ma'mur» ma'nolarini anglatgan. Shuningdek, Turkiston hukmdorlarining forscha bilmagan kotiblari ham baxshi deb atalgan. A.K.Borovkovning izohlashicha, XII-XIII asrlarda Sharqiy turk kitobatchiligida uyqur kotib – baxshilarning o'rni katta bo'lgan. Ular, asosan, rasmiy devonxonada faoliyat ko'satganlar.

XV-XVI asrlardagi yozma manbalarda, xususan, Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan *baxshi* termini, asosan, «kotib», «mirzo» ma'nolarini anglatib kelgan. *Baxshi* termini «Boburnoma»da ham «kotib», «mirzo», «yozuvchi» ma'nolarini ifodalagan. XVIII-XIX asrlarda *baxshi* leksemasi Buxoro xonligidagi lavozimlardan birining nomini anglatgan va u hukmdor tomonidan olib borilayotgan qurilish uchun

belgilangan mablaqlarning hisob-kitobini yuritgan. Hozirgi o‘zbek tilida ham *baxshi* so‘zi mavjud bo‘lib, u quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi: 1. Xalq dostonlarini kuylovchi shoir, oqin. 2. Duolar o‘qib, dam solib, irim-sirimlar qilib davolovchi tabib. Ko‘rinib turibdiki, *baxshi* leksemasining bugungi ma‘no anglatish doirasida o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Uning qadimgi davrdagi ma‘nolaridan ayrimlarigina bugungi kunda ham saqlanib qolgan, xolos. Tilimizda *baxshi* so‘zining «kotib» ma‘nosi yo‘qolgan va unga uyg‘un holda *baxshi* so‘zi kitobatchilik termini sifatida iste‘moldan chiqib ketdi.

*Tahrir* so‘zining ham arab tilidagi «asar yozish» ma‘nosi o‘zgarib, endi «asarga tuzatishlar kiritish» yoki ilmiy terminologiyada uning mazkur ma‘nosi yanada kengaygan holda «nashrga tavsiya etilayotgan asarning bugungi ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, g‘oyaviy, adabiy talablarga shaklan va mazmunan uyg‘un kelishi, ya‘ni asarning ijtimoiy qiymatini belgilash hamda muallifga asarni to‘liq nashrga tayyorlashda yordam ko‘rsatish jarayonlari» tarzida ifodalanadi.

*Lavh, munshiy, musavvir, xattot, insho* kabi so‘zlarda ham kitobatchilik nuqtai nazaridan ma‘lum miqdorda ma‘no torayishi hodisasi sodir bo‘lgan. Buning aksi o‘laroq, ba‘zi arabizmlarda, termin sifatida emas, balki so‘z sifatida, ularning leksik ma‘nolari avvalgisiga nisbatan yanada kengroq ma‘nolarni ifodalashi tufayli ularda ma‘no kengayishi hodisasi sodir bo‘lgan. Masalan, *xat* so‘zi dastlab uch ma‘noda qo‘llangan bo‘lsa, bugun u to‘qqiz ma‘noni ifodalashga xizmat qilmoqda. *Qalam* so‘zining ma‘no anglatish ko‘lamida keskin o‘zgarish sodir bo‘lgan va u ham ma‘no kengayishi tufayli avval ikki ma‘noda qo‘llangan bo‘lsa, hozir olti ma‘noni bildirmoqda. Shuningdek, *safha, hoshiya, bob, lavha, juz(v)* kabi so‘zlarda ham semantik ma‘no kengayishi hodisasi sodir bo‘lgan. Masalan, arab tilida polisemantik hisoblangan va ayni shaklda o‘zbek tiliga o‘zlashgan *safha* so‘zi quyidagi ma‘nolarni ifodalagan: «1. Sahifa, varaq, bet. 2. Har narsaning yuza tomoni; 3. Yoq, qirra; 4. Majoziy. Kitob». Hozirgi o‘zbek tili leksikasida *safha* o‘rnida uning arab tilidagi sinonimi bo‘lgan *sahifa* qo‘llanadi. Ta‘kidlash lozimki, *sahifa* so‘zi *safha* anglatgan barcha ma‘nolarni ifodalamaydi, undan faqat birinchi ma‘nosi o‘rnida foydalaniladi,

xolos. *Safha* soʻzining qolgan maʼnolari yoʻqolgan. Ularning oʻrnida bu maʼnolarni ifodalashda boshqa soʻzlar muomalada mavjud. Xususan, uning ikkinchi maʼnosini ifodalashda asli turkiy «ust», «ustki qism», «yuza», «sirt» hamda yana bir arabcha «sath» soʻzlari, uchinchi maʼnosida ham asli turkiy «yoq», «qirra», «tomon» va arabcha «taraf» soʻzlari ishlatiladi. *Safha* yoki *sahifa* soʻzining toʻrtinchi, yaʼni «kitob» maʼnosi oʻrnida arabcha kitob ishlatiladi.

**Soʻz leksik maʼnosining koʻchma maʼno yuzaga keltirishi.** Soʻz leksik maʼnosining koʻchma maʼno (ayrim adabiyotlarda koʻchma maʼno) yuzaga keltirishi har bir tilda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. U ekstralingvistik sababga koʻra ham, intralingvistik sababga koʻra ham yuzaga keladi. Koʻplab lingvistik adabiyotlarda koʻchma maʼnoning yuzaga kelishida: 1. Metafora. 2. Metonimiya. 3. Sinekdoxa. 4. Vazifadoshlik kabilar taʼkidlab koʻrsatilgan. Ammo M.Mirtojiyev oʻz asarlarida (doktorlik dissertatsiyasi, monografiya, darsliklarida ) koʻchma maʼno hosil boʻlishining beshinchi yoʻli - tobelilikni ham asoslab bergan. Biz bu borada ustozni maʼqullaymiz va soʻz leksik maʼnosining koʻchishining quyidagi koʻrinishlari mavjud deb hisoblaymiz:

1. **Metafora** soʻz maʼlum leksik maʼnosining denotatiga boshqa bir denotat oʻxshashligi uchun ham uni ataganligi orqasida koʻchma maʼno yuzaga keltirishdir. Masalan, *darvoza* soʻzi hovlidan koʻchaga chiqadigan joydagi moslangan qurilmani anglatadi. Bu qurilmaga futbol yoki xokkey oʻyinida koptok yoki shayba kiritiladigan qurilma oʻxshaydi, yaʼni ularning denotatlari oʻxshash. SHuning uchun ular *darvoza* deb atalgan. Metoforaning sodir boʻlishi deyarli barcha mustaqil leksemalarda kuzatiladi.

Metaforalar mohiyat eʼtibori bilan 3 koʻrinishga ega boʻladi: *sof metaforalar, sinesteziyalar, jonlantirishlar*.<sup>98</sup>

---

<sup>98</sup> **Mirtojiyev M.** Hozirgi oʻzbek adabiy tili.-Toshkent, 2004, 152-b.

Sof metaforalarda o‘zaro o‘xshatilgan denotatlarning biror belgisi, aniq va ko‘zga tashlanadigan belgisi asos qilib olingan bo‘ladi. Masalan, yuqorida keltirilgan *darvoza* leksemasida buni kuzatish mumkin.

Sinesteziyalarda hosil qiluvchi va ko‘chma ma’no denotatlari o‘rtasidagi o‘xshashlik belgilarining ondagi umumlashmasiga asoslanadi. Masalan, *mayin yung* va *mayin ovoz* birikmalaridagi *mayin* so‘zining bu ikki ma’nosi denotatlari o‘rtasidagi o‘xshashlik birida tussmollashga, ikkinchisida eshitishga asoslangan belgilar ta’siri haqidadir.

Jonlantirishlarda jonli narsa nomi bilan jonsiz narsa yoki voqelikni, umuman, jonli narsaga xos belgi, harakat yoki holat nomi bilan jonsiz narsaga xos belgi, harakat yoki holatni atash va bunda o‘xshatishga asoslanish orqali mazkur nomda ko‘chma ma’no yuzaga keltirishdir. Bu hodisa tilshunoslikka oid ayrim adabiyotlarda *personifikastiya* deb ham yuritiladi.

2. **Metonimiya** so‘z ma’lum leksik ma’nosi denotati boshqa bir denotat bilan zamon va makonda o‘zaro aloqador bo‘lganligi uchun uni ham ataganligi orqasida ko‘chma ma’no yuzaga keltirishidir. Masalan *etak* so‘zi “kiyimning pastki qismi” ma’nosiga ega. Undan “beldan pastga tutiladigan buyum” ma’nosi hosil qilingan. Keyingi ma’no denotati, ya’ni buyum o‘rnashish o‘rniga ko‘ra ko‘ra avvalgi ma’no denotati bilan aloqador. Shunga ko‘ra *etak* so‘zida metonimik ko‘chma ma’no yuzaga kelgan.

3. **Sinekdoxa** so‘z ma’lum leksik ma’nosining denotati bilan boshqa bir denotat biri ikkinchisiga bo‘lak yoki aksincha butun bo‘lish munosabatiga egaligi, uni ham ataganligi orqasida ko‘chma ma’no yuzaga kelishidir. Masalan, *vatan* so‘zi “ma’lum shaxsning daxlsiz xududi” leksik ma’nosiga ega. Undan esa “ma’lum xalqning daxlsiz xududi” ma’no hosil qilingan. Bu ma’nolar denotatiga e’tibor qilinsa, ikkinchi denotat tarkibida birinchi denotat joylashgan, uning bo‘lagi hisoblanadi. Xalqimizda “farzandga zor” ma’nosi “tirnoqqa zor” bilan berilishi ham sinekdoxaga



asoslanadi, ya'ni bunda butunning nomi bilan qism, qismning nomi bilan butunni atash mumkin bo'ladi.

**4. Vazifadoshlik** so'z ma'lum leksik ma'nosining denotati eskirib iste'moldan chiqib ketishi va o'rniga boshqa denotat kelib uning vazifasini olishi sababli uni ham ataganligi orqasida ko'chma ma'no yuzaga keltirilishidir. Masalan, *quvur* so'zi avval tegirmon novini bildirgan. Hozir esa ichidan suv oqiziladigan metall yoki asbest moslamani bildiradi. Yana *otlanmoq* fe'lini olaylik. U ilgari "otga minmoq" ma'nosini berardi, hozir esa "biror joyga borishga hozirlanmoq" ma'nosini bildiradi.

**5. Tobelilik** so'z ma'lum leksik ma'nosining denotati o'z faoliyati yoki asosiga ko'ra ikkinchi bir denotatni yuzaga keltirishi munosabatiga egaligi uchun, uni ham ataganligi orqasida ko'chma ma'no yuzaga keltirilishidir. Mantiqan ham anglashiladiki, hosil qiluvchi ma'no denotatining mavjudligi ko'chma ma'no denotatining mavjudligi uchun asosdir, ya'ni ko'chma ma'no denotati hosil qiluvchi ma'no denotati mavjudligi bilan bog'liq holda, unga tobe holda mavjuddir. Masalan, *musht* so'zining ko'chma ma'no yuzaga keltirishi tobelilik hisoblanadi. Musht so'zi "qo'lning barmoqlari kiftga tugilgan qismi" ma'nosiga ega edi. Shu ma'no denotati bilan berilgan zarb ham shu so'zda ifodalanadi. Zarbni bildirgan ma'no ko'chma (ko'chma) ma'nodir. Turgan gapki, musht bo'lmasa, uning zarbi ham bo'lmaydi.

**Evfemizm va disfemizm.** Evfemizm va disfemizm so'z ma'no taraqqiyotidagi shu tilda gaplashuvchi xalq psixologiyasining aks etishi deb qaraladi. Efemizm bir narsani o'z nomi bilan atashda noqulaylik tug'ilganda unga ijobiy, yoqimli his uyg'otuvchi belgi berish maqsadida xuddi shunday belgiga yaqin narsaning nomi bilan atash, yoki o'sha noqulaylikni yopib yuboruvchi so'z yoki lug'aviy birlik bilan nomlashdir. U ikki holatda yuzaga keladi: 1) biror lug'aviy birlik tabuga uchraganida; 2) biror lug'aviy birlikni qayd etish madaniylikka sig'ishmaganda.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida, ayniqsa, kishilik jamiyatining ibtidoiy bosqichlarida ba'zi bir narsalar, harakatlar man etilgan. Ana

shunday man qilish hodisasi tabu deb ataladi. Bu hodisa tilda ham uchraydi. Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida kishilar o'rtasida jin, arvoq va shunga o'xshash ilohiy narsalarga ishonish juda kuchli bo'lgan. Bunday xalqlar jin va arvoqlarga yaqin bo'lgan shaxs yoki predmetning nomi tilga olinmasa, ulardan saqlanish mumkin, deb o'ylashgan. Qadimgi xalqlarda, shuningdek, hozir ham qabila bo'lib yashayotgan xalqlarda qabila boshliqlari o'lgandan keyin ularning narsalariga tegish, ularning nomini tilga olish man etilgan. Agar ularning narsalariga tegilsa yoki bu narsalarning nomi tilga olinsa, arvoqlar, jinlar urib ketadi, biror zarar etkazadi, deb tasavvur qilganlar. Xuddi shuningdek, ayrim yirtqich, zaharli hayvonlarning nomlarini aytish ham man etilgan. Go'yo bunday hayvonlarning nomi tilga olingach zarar etkazishi mumkin emish. Tabu qoldiqlarini hozir ham uchratish mumkin. Masalan, musulmon ayollari orasida erlarini o'z ismi bilan chaqirishsa, bunday holat erga nisbatan hurmatsizlik sanalgan.

Oqibatda, man etilgan so'zlar o'rniga tushunchani ifodalovchi boshqa so'zni ishlatish zaruriyati tug'iladi. Ana shunday man etilgan so'zlarning ishlatilishi evfemizm deb ataladi. Masalan: *qizamiq* so'zi o'rniga *gul* so'zi, *chayon* so'zi o'rniga *eshak*, *otiyo'q* so'zlarining ishlatilishi evfemizm hodisalaridandir. Jamiyat taraqqiyotining keyingi davrlarida dag'al, qo'pol, noqulay so'zlar o'rniga yoqimliroq, silliqroq so'zlarni ishlatish hodisasi ham evfemizm ko'rinishlaridandir. Masalan, *o'ldi* so'zi o'rniga *vafot etdi*, *qazo qildi*, *dunyodan o'tdi*, *dunyodan ketdi*, *jonini egasiga topshirdi*, *ko'zi yumildi* kabi. *Bo'g'oz* xotin o'rniga *ikkiqat*, *oyog'i og'ir*, *yuki bor*, *yukli xotin*, *homilador* kabi so'z yoki so'z birikmalari ishlatiladi. Evfemizm adabiyotda stilistik vosita sifatida katta rol o'ynaydi.

Disfemizm kishilarni o'z nomlari bilan atamay, haqoratlash va kamsitish maqsadida tabiatdagi salbiy xarakterda deb bilgan jonivor yoki narsa nomi bilan atashdir. Masalan, aytilgan gapni yaxshi fahmlamaydigan odamlarni *to'nka*, ayyor odamlarni *tulki* deyish disfemizmga kiradi. Ko'rinadiki, evfemizm va disfemizm hodisasi ham ma'no ko'chishning bir turiga kiradi.

**Soʻzlarning shakliy munosabatlari.** Lugʻaviy birliklarning oʻzaro shakliy munosabati ikki koʻrinishdadir: 1) oʻzaro shakliy oʻxshashlik; 2) oʻzaro shakliy bir xillik.

**Paronimiya.** Soʻzlarning oʻzaro shakliy oʻxshash boʻlishi paronimiya deyiladi. Talaffuzi (fonetik ifodasi) oʻxshash, ammo lugʻaviy maʼnosi farqli oʻzakdosh leksemalar paronimlar deyiladi.

Rus tilshunosligida paronimlarni izohlash XX asr oxirlarida boshlanganiga qaramay, faqat XX asrning 60-yillaridan paronim va paronimiya haqida maxsus tadqiqotlar yaratishga kirishildi. Xuddi shu davrlardan oʻzbek tili leksikologiyasi va frazeologiyasi boʻyicha chiqarilgan baʼzi qoʻllanmalarda leksik va frazeologik paronimlarga taʼrif berildi. Keyinchalik oʻzbek tili paronimlari haqida bir qator maqolalar eʼlon qilindi, “Paronimlar lugʻati” nashr qilindi. Eng muhimi, paronim va paronimiya haqidagi maʼlumot “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsligidan va “Oʻzbek tili leksikologiyasi” monografiyasidan ham joy oldiki, bu holat, oʻz navbatida, oʻzbek lingvistik terminlari sistemasida “paronim” va “paronimiya” terminlarining mustahkam oʻrin olishi uchun zamin yaratdi.

Rus va oʻzbek tillarida eʼlon qilingan lingvistik adabiyotlarda paronim va paronimiyaga berilgan izoh va taʼriflar bilan tanishsak, bu hodisaga munosabat bir xil emasligi, xatto oʻzaro zid fikrlar mavjudligi, paronimiyaning boshqa hodisalar bilan qorishtirib yuborilayotganligini sezish qiyin emas. Paronimiya hodisasining mohiyatini aniqlash maqsadida “paronim” va “paronimiya” terminlariga berilgan oʻzaro farqli taʼriflardan baʼzilarini tahlil qilib koʻraylik.

O.S.Axmanovanning “Lingvistik terminlar lugʻati”da “paronimlar... talaffuzining oʻxshashligi va morfem sostavining qisman mos kelishi tufayli nutqda yo xato, yo soʻz oʻyini sifatida qoʻllaniladigan soʻzlardir”, deyiladi. Taʼrifda paronimlarning morfem, morfologik, semantik jihatlardan boʻlgan chegarasi aniq belgilanmaydi. Natijada fonetik tuzilishi qisman oʻxshash boʻlgan barcha birliklar – turli turkumga va morfem strukturaga ega boʻlgan soʻzlar (leksemalar) va grammatik formalar (soʻz

formalar) o‘zaro paronim deb ko‘rsatiladi: *sud-ssud* (leksik birlik) sud va grammatik birliklar; */po/ drova - /so/ dvora* (turli grammatik formadagi morfologik birliklar). Bunday misollar “Paronimlar lug‘ati”da ham bor: *so‘nggi* (yasama sifat: *so‘ng+gi*) - *so‘ngi* (egallik formasi: *so‘ng+i*): *burish* (harakat nomi) - *burish* (ajin, tirish – ot leksema).

Talaffuzi yaqin bo‘lganligi uchun bunday so‘zlarni bir-biri bilan almashtirib qo‘yish ehtimoli bor. Aytilishi (talaffuzi) bir-biriga o‘xshash, ammo yozilishi va ma‘nosi har xil bo‘lgan so‘zlar paronimlardir: *yuvindi-yuvundi, fakt-pakt, abzal-afzal, yoriq-yorug‘, quyulmoq-quyilmoq, arch-art, otalik-otaliq, yonilg‘i-yoqilg‘i, matal-ma‘tal (mahtal), jodi-jodu, yondosh-yondash, bob-bop, tub-tup, tanbur-tambur, daha-daho, sada-sado, juda-judo, qism-qisim, adl-adil, ahl-ahil, asr-asir, quyilmoq-quyulmoq, tuyilmoq-tuyulmoq, kift-kaft, yod-yot, darz-dars, ramz-razm, qarz-qars, qayd-qayt, naq-naqd, o‘tkazmoq-o‘tqazmoq.*

Paronimlarga oid ko‘plab ilmiy maqolalar va o‘quv qo‘llanmalari muallifi O.V.Vishnyakovaning paronimlarga bergan quyidagi ta‘rifga e‘tibor beraylik: “Paronimlar talaffuzi yaqin, ammo bir xil bo‘lmagan, urg‘usi aynan bir bo‘g‘inda tushadigan, bir so‘z turkumiga mansub va qo‘shimcha mazmun ottenkasi bilan farqlanib, fikr aniqligi uchun xizmat qiladigan tushunchalar ifodalovchi o‘zakdosh so‘zlardir”. Bu paronimlarning fonetik va morfologik chegaralarini aniq belgilashga qaratilgan ta‘rifda, bizningcha, bir qator e‘tirozli o‘rinlar bor.

Birinchi, so‘z ma‘nosi o‘rnida muallif “tushuncha” termini qo‘llaydi, qolaversa, qo‘shimcha mazmun ottenkalari haqida gapirar ekan, aslida ma‘no ottenkalarini nazarda tutadi, chunki tushuncha borliq obyekt haqidagi tasavvur sifatida so‘z ma‘nosida reallashadi.

Ikkinchi, mazkur ta‘rifni o‘zakdosh sinonimlariga nisbatan ham qo‘llash mumkin, chunki qo‘shimcha ma‘no ottenkalarini ifodalash barcha sinonimlarning, jumladan, o‘zakdosh sinonimlarning asosiy funktsiyasidir.

Uchinchidan, ta'rifda paronimlarning urg'usi aynan bir o'rinda bo'lishi shart qilib qo'yiladi. Bunday konsepsiyani mantiqan bo'g'in miqdori farqli yoki turli bo'g'inda urg'u olgan, lekin o'xshash fonetik strukturaga ega differentsial ma'noli o'zakdosh leksemalar o'rtasidagi paronimik munosabatni (masalan, O.V.Vishnyakovaning o'zi keyingi qo'llanmasida) paronimlar sifatida keltirgan удачный "muvaffaqiyatli" va удачливый "omadli" yoki o'zbekcha *silamoq* va *siylamoq* kabi urg'u pozitsiyasi farqlangan, farqlanayotgan so'zlar munosabatini inkor etadiki, bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi.

T.G.Ponomarenko paronimlarga shunday ta'rif beradi: "Paronimlar strukturasi va tovush o'xshashligi (shuningdek, bir tildagi urg'u olish), bir so'z turkumiga mansubligi bilan birlashgan o'zakdosh so'zlar bo'lib, ular ma'nosiga ko'ra aynan yoki farqli bo'lishi mumkin". Bu ta'rifda paronimlarning formal yaqinligi, o'zakdoshligi orqali paronimlarga yaqin turadi, bir xil semantik xarakteristikasi bilan esa doim differensial ma'noli bo'lgan paronimlardan farq qiladi.

N.P.Kolesnikov paronimlarning faqat o'zaro formal yaqinligini emas, balki semantik munosabatini ham hisobga olib, ularni quyidagicha ta'riflaydi: "Paronimlar deb tovush jihatidan o'xshash, mazmunga ko'ra farqli va biri o'rnida boshqasi yanglish qo'llanadigan so'zlarni atash to'g'riroqdir". Bu ta'rifda paronimlar doirasi ancha torayadi, ya'ni har qanday o'xshash so'zlar emas, balki ma'nosi farqli va o'zaro yanglish ishlatiladigan leksemalargina paronimlar hisoblanadi. Misol taraqqasida ham o'zakdosh (здрависта - "tabriknoma" va здравница - "shifoxona"), ham o'zakdosh bo'lmagan (инфексия va ин'ексия "ukol") so'zlar keltiriladi. Paronim va paronimiyaga bo'lgan bunday munosabatni o'zbek tadqiqotchilari asarlarida ham uchratish mumkin. Chunonchi, M.Toshaliyev va M.Jo'raboevalar shunday deb yozadilar. "Paronimiya shaklan yaqin, yondosh so'zlarning nutqda xato ravishda bir-birining o'rnida qo'llanilishiga, shuningdek, shu tip so'zlarning ba'zan so'z o'yini, qochiriq vositasi sifatida ishlatilishiga nisbatan qo'llanadi. Paronimlar esa shunday xususiyatga ega bo'lgan so'zlar bo'lib, paronomaziya paronimlarning nutq

protssidagi yaqinlashuvidir”. Birgina ta’rifning o’zida ikki xil termin “paronimiya” va “paronomaziya” terminlari mualliflarning ta’kidlashicha, “til strukturasi alohida o’rin tutadigan til faktini leksik hodisa sifatida izohlash uchun” ishlatiladi. Anglashiladiki, bu o’rinda til hodisasi (paronimiya) nutq hodisasi (paronomaziya) bilan qorishtirib yuborilgan. Leksik–semantik kategoriya bo’lgan paronimiya va nutqiy hodisa – paronomaziyaning o’zaro farqi, qiyosi bir qator ishlarda maxsus yoritilgan. Shuning uchun biz masalaga bevosita aloqador bir holatni ta’kidlash bilan cheklanamiz. Ma’lumki, har qanday so’zning, jumladan, paronimlarning ham leksik ma’nosini faqat kontekstda, uning boshqa so’zlar bilan mumkin bo’lgan potentsial bog’lanishlari yordamidagina aniqlash kerakligi haqidagi tezislar matbuotda tanqid qilingan va bu haqida taniqli sovet tilshunosi R.A.Budagov shunday deb yozgan edi: “Har qanday ongli kishining tasavvurida, agar rus tili uning uchun ona tili hisoblansa, stol va voda “suv” kabi so’zlarning ma’nosi (bunga o’xshash so’zlar esa minglab topiladi) hech qanday kontekstsiz ham anglashilaveradi. Kontekst uni faqat to’ldiradi, uning ikkinchi, uchinchi yoki tamomila yangi ma’nosini birinchi planga olib chiqadi”. Demak, o’zbek tilida mavjud bo’lgan *ayrim va ajrim, jamoat va jamiyat, kemptik va kemshik, tanti va tantiq, diplomat va diplomant, ekonomika va ekonomiya* kabi yuzlab paronimlarning ma’nolarini kontekstsiz ham tushunish va tushuntirish mumkin.

Keyingi ikki ta’rifda (N.P.Kolesnikov hamda I.Toshaliyev va M.Jo’raboevalar ta’riflarida) ta’kidlangan tezis – “Paronimlar nutqda qo’llanadigan so’zlar ekanligi” masalasiga kelsak, talaffuzi yaqin, ma’nosi farqli so’zlar nutqda adashtirilishi ham, adashtirilmasligi ham mumkin. Bu so’zlovchining bilim va ko’nikmalari, uning nutq madaniyati darajasiga bog’liq. Paronimlarning xato qo’llanishi yoki ularning xato qo’llanish imkoniyatiga ega bo’lishi paronimik munosabat uchun asosiy kriteriy bo’lolmaydi. Chunki adashtirish – paronimlarni bilmaslik belgisi, lekin ularning mohiyatini belgilovchi prinsip emas.

Paronimiya va bu hodisa haqidagi ta’riflarga yakun yasashdan oldin yana bir muhim masalaga to’xtalmoqchimiz. Ma’lumki, har bir konkret tilda obyektiv ravishda

faqat til faktlarigina emas, balki bu faktlarga doir kategoriyalar ham mavjud bo‘lib, ular obyektiv mavjud bo‘lmagan sof abstraktsiyalar yoki hozirgi zamonaviy talqinda til kategoriyalarining modellaridir. Tilshunoslik kategoriyalarini til kategoriyalaridan farqlash zarurligi haqidagi lingvistikada e’tirof etilgan ushbu tezis paronimiyaga ham bevosita aloqadordir. “Paronimiya” termini boshqa tilshunoslik terminlari singari ikki ma’noda qo‘llaniladi. U, bir tomondan, konkret tilda mavjud bo‘lgan turli ma’nodagi o‘xshash talaffuzli o‘zakdosh so‘zlarning o‘zaro leksik-semantik munosabatini bildirsa, ikkinchi tomondan, ana shunday munosabat haqidagi nazariyani bildiradi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, paronimlar munosabati har bir tilda o‘ziga xos nisbiy yopiq sistemaga ega va bu sistemani o‘rganish tilshunosdan so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga asoslangan leksik-semantik kategoriyalar – sinonimiya, omonimiya, antonimiya kabi e’tibor talab qiladi.

*Lug‘aviy sathda so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari ham qayd etiladi. Sinonimlar. Gaplar tarkibida ma’nosi bir-biriga o‘xshash so‘zlar ishlatiladi. Bunday so‘zlar sinonimlar deyiladi. Misol uchun ikkita gap keltiramiz: Sue has bought a book. // Sue has purchased a book.*

*Buy (sotib olmoq) va purchase (xarid qilmoq) so‘zlari sinonimdir. Biroq har doim ham emas, ba’zi sinonimlarda boshqa sinonim izohlagan ma’no bo‘lmasligi mumkin. Bu uning kognitiv ma’nosidan kelib chiqadi.*

*Turlicha sinonimlik birliklar kuzatiladi:*

*Birinchidan, bir so‘z ibora bilan sinonimlik hosil qilishi mumkin. Masalan, look (qaramoq) fe’li take a look (qaramoq) frazasi bilan sinonimlikni hosil qiladi.*

*Ikkinchidan, birikmali holatda sinonim bo‘lishi mumkin. Masalan, buy into a company birikmasi (kompaniyaning bir qism ulushini sotib olmoq, ya’ni hissador bo‘lmoq) birikmasi purchase the shares of a company birikmasi bilan sinonimlikni hosil qiladi. Buy fe’lining yana “ishonmoq” ma’nosi ham mavjud, biroq bu o‘rinda u purchase fe’li bilan sinonim bo‘la olmaydi, chunki purchase fe’li ma’nosida ishonmoq ma’nosi yo‘q. qolaversa, have a bought it iborasi*

*ma`nosi “o`ldirilmoq” bo`lib, bu o`rinda ham have purchased it iborasi bilan sinonimlik hosil qila olmaydi. Ingliz kishisi uyga kelgan holatda I`ve purchased the beer, darling! (Azizam, pivo olib keldim!) deb, purchase fe`lidan foydalanadi, buy fe`li olib kelmoq ma`nosida qo`llanilmaydi.*

*Venger tilida ham kutya–eb, kukorica–tengeri so`zlari o`zaro sinonim hisoblanadi. Sinonimlar ma`no bo`yoqlarida biroz faqlansa-da, ayni bir ma`noni bildiradi.<sup>99</sup>*

Sinonimiya shakli har xil, ma`nosi bir yoki o`zaro yaqin so`zlar munosabatini, omonimiya shakli va talaffuzi bir xil, ma`nosi turlicha so`zlar munosabatini, antonimiya esa shakli har xil, ma`nosi o`zaro zid so`zlar munosabatini bildirishi qadimdan ma`lum va bu klassik tushuncha hozirgi tilshunoslar tomonidan ham e`tirof etiladi. Ammo paronimiya hodisasi, yuqorida ko`rib o`tganimizdek, aksariyat ta`riflarda o`zining ilmiy-differentsial xarakteristikasini olgan emas.

Qadimgi greklar paronimlarni (para – yondosh, yaqin+onoma – ism, nom) “...umumiy o`zakka ega bo`lgan, o`xshash talaffuz qilinuvchi, lekin har xil ma`noli so`zlar deb ataganlar”. O`tgan asrda nashr qilingan va rus tilidagi 30 ming chet el so`zi izohiga bag`ishlangan lug`atda: “Paronimika o`xshash talaffuzli, ma`nosi va yozilishi har xil o`zakdosh so`zlar haqidagi ta`limotdir”, deyiladi. Ushbu lug`atda paronimik va etimologik so`z – terminlarining bir xil ma`noda qo`llanilishi ham e`tiborga loyiq. Demak, paronimlarning etimologik aloqadorligi o`zining tarixiy asosiga ega.

**Omonimiya.** Tilda leksik ma`nolar o`zaro munosabatda bo`ladi. Ular shakldosh, ma`nodosh, ma`nolari zid bo`lishi mumkin. Omonimlar – shakldosh so`zlar. Yozilishi va talaffuzi bir xil, ma`nosi har xil bo`lgan so`zlar omonimlar deyiladi. Masalan, *o`t* (“olov”), *o`t* (“maysa”) kabi. Omonimlar bir so`z turkumiga ham, turli so`z turkumiga ham mansub bo`lishi mumkin. Omonimlar ham tilda azaldan mavjud ayrim so`zlarning o`xshashligidan, ba`zan boshqa tillardan o`zlashgan so`zlar hisobidan paydo bo`lishi mumkin.

---

<sup>99</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-B.68



Omonimlar har bir tilda uchraydi. Omonim soʻzlar kontekstda yaqqol ajralib turadi. Masalan, «Quritib qoʻyilgan oʻtga oʻt ketmasin» deganimizda har ikkala «oʻt»ning maʼnosini ajratib olish qiyin emas.

Omonimlar yozilish va grammatik shakliga koʻra uch xil boʻladi:

**Omonimlar** – talaffuz etilishi bir xil, lekin tovushlar tarkibidagi baʼzi fonemalar farqli boʻladi. Masalan, oʻzbek tilida *yetti* (son) – *yetdi* (feʼl); *bod* – *bot*, *bob* – *bop*, *mard* - *mart*; rus tilida *ябло* (meva) – *ял* (sol) kabi.

**Omonimlar** – turli soʻz turkumlarining ayrim grammatik shakllarida roʻy beradi. Bu hodisa odatda turli turkumga oid soʻzlar oʻrtasida sodir boʻladi. Masalan, *olma* (ot) – *olma* (feʼl), *yor* (ot) – *yor* (feʼl) va boshqalar. Omonimlar boshqa grammatik shakllarda oʻzaro omonimlik xususiyatini yoʻqotadi. Masalan, *Yorim dushman safini yorib oʻtdi*. Bu misolda *yorim* – *yorib* soʻzlari grammatik shakllarini olgach, oʻzaro omonimlik xususiyatini yoʻqotgan.

**Omonimlar** – yozilishi bir xil, talaffuzi farqli boʻlgan soʻzlardir. Masalan, *tok* (uzum) – *tok* (elektr quvvati) kabi.

Omonimlar til fakti boʻlishi ham, nutq fakti boʻlishi ham mumkin. Nutq jarayonida tarkib topgan omonimlar nutqiy omonim, lugʻaviy birlik holatida mavjud boʻlgan omonimlar leksik omonimlardir.

**Nutqiy omonimlar** nutqdan tashqarida hayot emas. Masalan, *old+-i* (*ayvonning oldi*) soʻz shakli bilan *ol- + -di* (*kitobni javondan oldi*) soʻz shakli oʻzaro bir xil boʻlib qolgan. Yoki *ataladi* (*Salim ovqatni yaxshilab ataladi*) va *ataladi* (*bu koʻcha mening bobom nomi bilan ataladi*) feʼllarini qiyoslab koʻring. Ular nutqiy omonimlardir.

**Leksik omonimlar** lugʻaviy birlik holatida bir xil tarkibga ega boʻlgan birdan ortiq soʻzlardir. Bu soʻzlar bir turkumdan iborat boʻlishi ham, birdan ortiq turkumdan iborat boʻlishi ham mumkin.

**Leksik omonimiya bilan polisemiyaning farqlari.** Omonimiya bilan polisemiyaning farqlash muhim ahamiyatga ega. Bu farqlar quyidagilardan iborat:

1. Polisemantik soʻz birdan ortiq maʼnoga ega boʻlgan ayni **bir soʻzning** oʻzidir. Masalan, *koʻz, tuz, etak, bosh*.

Leksik omonim esa fonetik tarkibi bir xil boʻlgan **bir nechta soʻzdir**. Masalan, *ot* (ism), *ot* (hayvon), *ot* (koptokni ot).

2. Polisemantik soʻz maʼnolari bir biri bilan bogʻlangan boʻladi. Omonim tarkibidagi soʻz maʼnolari bunday bogʻlanishga ega emas.

3. Polisemiya bir turkum doirasida kuzatiladi. Masalan, polisemantik ot, polisemantik feʼl va b. Omonimiya turli soʻz turkumlari doirasida kuzatiladi.

4. Polisemantik soʻz deyarli bir til doirasidagi taraqqiyot hosilasi boʻladi, yaʼni muayyan soʻzning polisemantik soʻzga aylanishi bir tilga oid boʻladi. Omonimiya boshqa tildagi soʻzlar bilan fonetik jihatdan bir xil kelib qolish natijasida ham yuzaga keladi va b.<sup>100</sup>

### **Soʻzlar oʻrtasidagi semantik munosabatlar. Sinonimiya**

Tilda sinonimlarning koʻp uchrashi soʻz boyligini koʻrsatadigan muhim dalildir. Sinonim soʻzlardan unumli foydalanish badiiy asarlarning mazmunli, taʼsirli chiqishini, hamda ularning badiiyligini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ham aytish kerakki, tilda bir-biriga tamomila oʻxshash, hech farq qilmaydigan soʻzlarning yonma-yon ishlatilishi tilni boyitmaydi. Masalan, oʻzbek tilidagi *traktorchi – traktorist, gazeta – roʻznoma, buxgalter – hisobchi, aeroport – tayyoragoh, rus tilida samolёт – аэроплан, языкознание – языковедение* kabi. Shuning uchun bunday soʻzlar kam uchraydi. Til bunday soʻzlarning biridan toʻliq foydalanib, ikkinchisini esa isteʼmoldan chiqarib tashlashga intiladi.

Har bir tilning sinonimlari boshqa tillardan kirgan soʻzlar, shuningdek, shu tilning oʻz imkoniyatlaridan foydalanib yasalgan soʻzlar hisobiga boyib boradi.

---

<sup>100</sup> **Mirtojiyev M.** Hozirgi oʻzbek adabiy tili.-Toshkent, 2004, 156-b.

Masalan, *tajriba* – arabcha, *sinov* - o‘zbekcha; *muhabbat, ishq* - arabcha, *sevgi* - o‘zbekcha; *chashma* – forsha-tojikcha, *buloq* - o‘zbekcha va boshqalar.

Sinonimlarning o‘zaro farqli xususiyatlari talaygina bo‘lib, ulardan eng asosiysi ularning har birining ma’nosidagi farqli belgilardir. Sinonimlarning o‘zaro farqli belgisi, avvalo, ularning ma’no hajmida, aniqrog‘i, ma’no nozikligida ko‘rinadi. Masalan, o‘zaro sinonim bo‘lgan so‘zlardan biri biron-bir qo‘shimcha ma’no nozikligiga ega bo‘lmasligi, boshqasi esa qandaydir farqli ma’no nozikligiga ega bo‘lishi mumkin. *Yuvosh, mo‘min, qobil, royish* sinonimlaridan *Yuvosh* so‘zi shaxsga, shuningdek, hayvonlarga nisbatan qo‘llanaveradi. Lekin *mo‘min, qobil* so‘zlari faqat odamga nisbatan ishlatiladi. *Royish* so‘zida gapga ko‘nadigan, aytganga yuradiganlik ma’no nozikligi bor.

Demak, sinonimlarning o‘zaro farqli xususiyatlaridan biri ularning qo‘shimcha ma’no nozikligiga ega yoki ega emasligida bo‘lib, bu xususiyat shu sinonimik qatordagi so‘zlarning qo‘llanish doirasini, qo‘llanish o‘rnini ham belgilaydi.

Sinonimlar bildiradigan vaqt, harakat, belgi, miqdor kabilarda ularning har birida belgining darajasi har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, *avval, oldin, ilgari, burun, qadim* sinonimlaridan *ilgari* so‘zida vaqtning o‘tishiga qarab uzoqlik darajasi *avval, oldin* so‘zlaridagidan ortiq. *Burun* so‘zida ilgari so‘zidagiga nisbatan, *qadim* so‘zida esa burun so‘zidagiga nisbatan ortiqroq. *Ishchan, harakatchan, serharakat, g‘ayratli, serg‘ayrat, tirishqoq, urinchoq* sinonimlaridan *g‘ayratli, serg‘ayrat, tirishqoq* so‘zlari belgini kuchliroq ma’no bilan ifodalaydi. Shuningdek, *kambag‘al, qashshoq* sinonimlaridan *qashshoq* so‘zi belgini kuchli ma’noda ifodalaydi. *Kuch, quvvat, mador, majol, darmon* sinonimlaridan *mador, majol, darmon* so‘zlari, asosan, kuch-quvvatning normal holatdan pastligini ifodalashda qo‘llanadi. Demak, sinonimlar bildirgan belgi darajasidagi har xillik ham shu so‘zlarning ma’nosidagi farqli ma’no nozikliklari sanaladi.

Sinonimlar nutqda ishlatilishi doirasiga ko‘ra sinonimiya qatorini hosil qiladi. Masalan: a) *yuz, bet, aft, bashara, chehra, siymo*; b) *yurak, dil, qalb, ko‘ngil* kabilar.

Sinonimiya qatorini tuzishda har qanday uslubda qo'llanishi mumkin bo'lgan «betaraf» so'z asos qilib olinadi. Sinonimiya qatoridagi qolgan so'zlarning ma'nodoshligi ana shu «betaraf» so'zni solishtirish natijasida aniqlanadi. Masalan, *yuz, bet, aft, bashara, chehra, siymo* sinonimiya qatorida *yuz* so'zi «betaraf» so'z bo'lib, uning iste'mol doirasi kengdir, har qanday uslubda qo'llanaveradi: *yuzi tanish, yuzingni yuv, yuzi yoqimli, yuzing qursin*. Lekin shu qatordagi *bet, bashara, aft, chehra, siymo* so'zlarining iste'mol doirasi nisbatan chegaralangan (tor) bo'lib, ular turli uslubiy bo'yoqlarni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday so'zlar bilan predmetga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatni yaqqol ifodalash mumkin. Chunonchi, *chehrasi issiq, chehrasi yoqimli, chehrasi ochiq* deyish mumkin, ammo *chehrasi qursin* deb aytish mumkin emas.

Ko'rinadiki, yozilishi ham, talaffuzi ham boshqa-boshqa bo'lib, umumlashgan, bir tushunchani ifodalaydigan, lekin ma'no nozikliklari jihatidan bir-biridan birmuncha farq qiladigan so'zlar sinonimlardir.

Sistem leksikologiya nuqtai nazaridan kelib chiqsak, sinonimlarning denotati va signifikati bir xil bo'ladi. Masalan, **yuz** denotati va u haqdagi tushuncha bir xil, ammo uni nutqiy sharoitga qarab farqlash, ifodalash har xil: kimdir uchun u **chehra**; kimdir uchun u **aft**; kimdir uchun u **bashara** va b. Demak, sinonimlarda atash semalari bir xil, ifoda semalari har xil bo'ladi.

**Antonimiya.** Bir-biriga qarama-qarshi ma'noli so'zlar antonimlar deyiladi. Antonim so'zlarning xususiyati shundaki, ularning biri ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yilib, birining mazmuni ikkinchisini inkor etadi, birinchisining ma'nosi ikkinchisiga qarshi qo'yiladi. Shuning uchun bu so'zlarning birini aytish bilanoq unga qarama-qarshi tushuncha esga tushiriladi. Masalan, *oq - qora, issiq - sovuq, kirish - chiqish, oriq - semiz, past - baland* kabi.

Har bir so'zning antonimi bo'lavermaydi. Masalan: *magazin, kitob, institut, daryo, tog* kabi so'zlarning antonimi yo'q. Antonimlar predmet belgisini bildiradigan so'zlarda ko'p uchraydi. Masalan, *yaxshi - yomon, chiroyli - xunuk* kabi. Bir so'zning

bo'lishli yoki bo'lishsiz shakllari o'zaro bir-biriga qarama- qarshi qo'yilsa ham antonimlar qatoriga kirmaydi. Masalan, *o'qigan – o'qimagan, kelgan - kelmagan* kabi. Ba'zi bir so'z birikmalarida, xususan, tarkibida termin bo'lib qolgan so'z birikmalarida antonimlik xususiyatini yo'qotib, umuman predmet nomini bildirishi mumkin. Masalan, *oq - qora* antonim, lekin *oq gul* deganimizda qora gulni ko'z oldimizga keltirmaymiz. Shuningdek, *qora metallurgiya, qora kuch* birikmalari tarkibida ham *qora* so'zining antonimlik xususiyatini yo'qotib, bu birikmalar ma'lum sohaga doir terminlarga aylangan.

Antonim so'zlar nutqda predmet, hodisa va ularning belgilarini solishtirib ko'rishda, bir-biriga qarama-qarshi qilib ko'rsatishda va fikrimizni, his-tuyg'ularimizni ta'sirli, aniq-ravshan ifodalashga juda katta yordam beradi.

*Kontekstual antonimiya* o'zaro zid ma'no ifoda etmagan leksemalarning ma'lum kontekst ichida so'zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritilishidir. Buni quyidagi she'riy misralar tahlilida ko'rish mumkin:

Ushoq qand oq tuzga monand erur,  
Va lekin biri tuz, biri qand erur.

Bu misolda qo'llangan *qand* va *tuz* so'zlari aslida antonimlar emas, ammo birinchi misolning ikkinchi misrasida *tuz* va *qand* leksemalari muallifning leksik qo'llashi natijasida «achchiq» va «shirin» ma'nolarini ifoda etib, kontekstual antonimiya hosil qilgan.

Bunday qo'llanish olmoshlarda va sonlarda ham uchraydi: *Bir u deydi, bir bu deydi*, deganda u va bu olmoshlarida kontekstual zidlanish bor. Bu quyidagi she'riy misrada ham o'z aksini topgan:

Sichqonlarga nisbatan

Poyloqchiman, to'g'riman.

Ko'rsam tekin go'sht ba'zan

Chidolmayman – o‘g‘riman.

*Leksik antonimiya* leksemalarning bir-biriga zid ma‘no anglatishi asosida guruhlanishidir: *oq* va *qora*, *qalin* va *yupqa* kabi.

Antonimiya hodisasi, asosan, bir so‘z turkumi leksemalari doirasida yuz beradi. Sifatlar: a) hajmi belgisiga ko‘ra: *issiq* - *sovuq*; b) yosh belgisiga ko‘ra: *yosh* - *qari*; c) xarakter - xususiyati belgisiga ko‘ra; *saxiy* - *xasis*, *botir* - *qo‘rqoq*, *aqlli--ahmoq*; d) shakl - belgisiga ko‘ra; *to‘g‘ri* - *egri*; e) ma‘za - ta‘m belgisiga ko‘ra; *achchiq-* *shirin* kabi. Payt, holat, miqdor ma‘noli leksemalar doirasida ham antonimiya hodisasi keng tarqalgan: a) *kecha* - *ertaga*, *avvalo* - *keyin* (payt belgisiga ko‘ra), b) *tez-- sekin*, *arang* - *bemalol* (holat belgisiga ko‘ra), v) *ko‘p* - *oz*, *mo‘l* - *kam* (miqdor belgisiga ko‘ra) va boshqalar. Bunday leksemalarning sifat yoki ravish turkumiga mansubligi keyingi yillarda bir qadar munozarali bo‘lib qolmoqda.

Otlarda: a) belgi otlarida: *boylik* va *kambag‘allik*; b) qarama-qarshi tomon nomlarida: *sharq* va *g‘arb*; c) fasl nomlarida: *yoziq* va *qishi*, *kuz* va *bahor*; d) sutkaning qarama-qarshi tomonlarini ifodalovchi nomlarida: *kecha* va *kunduz*, *tong* va *shom* kabi.

Fe‘llarda: a) qarama-qarshi harakat ma‘nolarini ifodalovchi fe‘llarda: *bormoq* va *kelmoq*; b) sifat yoki ravishdan yasalgan fe‘llarda: *kengaymoq* va *toraymoq*, *sekinlashmoq* va *tezlashmoq* kabi.

Ba‘zan fe‘lning sifatdosh shakli sifat turkumidagi leksema bilan anatomik munosabatlarga kirishi mumkin: *o‘qigan* va *bilimsiz*, *o‘qimagan* va *bilimli* kabi. Antonimiya hodisasi sifat turkumida keng tarqalgan, ot va fe‘llarda bir oz kamroq uchraydi, olmosh va sonlarda esa bo‘lmaydi.

*Enantiosemiya* (yun. *enantios* – qarama-qarshi+sema - belgi) bitta leksema ma‘nosida nutqiy talabga ko‘ra zidlanishning ifodalanishi. Masalan, o‘zbek tilidagi *chiqmoq* fe‘li aslida «ichkaridan tashqariga harakatlanish»ni ifodalaydi. Shu bilan birga transport vositalaridan foydalanishda «tashqaridan ichkariga harakatlanish»ni ham anglatadi.

Tilda bir soʻzga qarama-qarshi maʼnoli bir necha soʻz boʻlishi ham mumkin. Masalan, *oson* soʻzini antonimlari *qiyin, ogʻir, mashaqqatli, mushkul* kabi soʻzlardir.

Baʼzi bir soʻz birikmalarida, xususan, tarkibli termin boʻlib qolgan soʻz birikmalarida antonimlik xususiyatini yoʻqotib, umuman predmet nomini bildirish mumkin. Masalan, *oq - qora* antonim, lekin *oq gul* deganimizda *qora gulni* esimizga keltirmaymiz; umuman, amaliyotda *qora gul* degan soʻz birikmasi uchramaydi. Shuningdek, *qora metallurgiya, qora kuch* birikmalari tarkibida ham *qora* soʻzining antonimlik xususiyati yoʻqolib, bu birikmalar maʼlum sohaga doir terminga aylangan. Antonim soʻzlar nutqda predmet, hodisa va ularning belgilarini solishtirib koʻrishda, bir-biriga qarama-qarshi qilib, koʻrsatishda va fikrimizni, his-tuygʻularimizni taʼsirli, aniq ravshan ifodalashga juda katta yordam beradi.

Tilshunoslikda antonimlarni belgilash mezonlari boʻyicha munozarali qarashlar ham bor. Xususan, ayrim manbalarda *opa va singil, aka va uka, togʻa va xola* kabi soʻzlar antonimlar deb baholanadi. Shu soha boʻyicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan B.Isabekov esa ularni antonimlar emas, deb hisoblaydi.

Feʼlning boʻlishli va boʻlishsiz shakllari ayrim adabiyotlarda «antonimlarning alohida bir tipi», deb qaraladi, biroq tilshunos Sh.Rahmatullaev bu fikrga qoʻshilmaydi. Uningcha, «Oddiy inkorning oʻzi ham antonim emas. Masalan, *ayt va aytma, aytar va aytmas* kabilar biri ikkinchisining inkori. Ammo ularni oʻzaro antonimlar deb boʻlmaydi. Asli bular ikki leksema emas, balki ayni bir leksemaning ikki shakllaridir. Antonimiya esa ikki leksema orasidagi maʼno munosabatdir». Antonimiyani ayni shunday tushunish boshqa ilmiy manbalarda ham bor.

Antonimiya mezoni belgilashda Sh.Rahmatullaev, N.Mamatov va R.Shukurovlar tomonidan tavsiya etilgan mantiqiy markaz prinsipiga tayanish yaxshi natija beradi. Bu prinsipga koʻra ikkita maʼno oʻrtasidagi oraliq tushuncha aniqlanadi va shu markazning ikki tomonidan oʻrin olgan tushunchalar oʻzaro antonimik munosabatlarda deb qaraladi. Masalan, *kuz* bilan *bahor* orasida qish bor, demak *kuz* va *bahor* leksemalari oʻzaro antonimlar deb qaraladi, ammo *kuz* bilan *qish* antonim

leksemalar emas, chunki bu ikki leksema orasida oraliq tushuncha yo‘q; shuningdek, *qish* bilan *yoz* antonimlar, *kecha* bilan *bugun* antonimlar emas, *kecha* va *ertaga* – antonimlar; *o‘tmish* va *hozir* antonimlar emas, *o‘tmish* va *kelajak* antonimlar kabi. Antonimik munosabatda bo‘lgan ayrim leksemalar orasida mantiqiy markaz bo‘ladi-yu, ammo uni nomlovchi so‘zning o‘zi bo‘lmaydi. Masalan, *kulgi* va *yig‘i* leksemalari orasidagi mantiqiy markazni bildiruvchi maxsus so‘z tilda yo‘q, ammo oraliq hodisaning o‘zi bor: u kishining kulmasdan, yig‘ilmasdan turgan normal holatidir, demak, ana shu holat mantiqiy markaz sifatida tasavvur qilinadi.

Antonimlar maqol va matal janrlarida ham muhim uslubiy vosita sanaladi - hayotiy tajriba umumlashmalarni maqol va matallar tiliga mos uslubda ta’sirchan ifodalash imkonini yaratadi: *Yozgi mehnat – qishki rohat. Yaxshi do‘st – jon ozig‘i, Yomon do‘st – bosh qozig‘i. Do‘st achitib gapirar, Dushman - kuldirib.*

**Giponimiya.** O‘zbek tilshunosligida leksika tafsiviga bag‘ishlab yaratilgan ayrim monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalarida leksemalar o‘rtasidagi semantik munosabatlar sifatida faqatgina *sinonimiya va antonimiya* ko‘rsatib kelindi. Bu esa o‘z-o‘zidan muayyan cheklanish hisoblanadi. Zero, dunyo tilshunoslik nazariyasida leksemalar o‘rtasidagi semantik munosabatlarning yana boshqa turlari haqida ma’lumot berilgan va ular yuzasidan izchil tadqiqotlar yaratilgan. Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida ham bu borada izlanishlar yuzaga kela boshladi. Xususan, E.Begmatov, H.Ne‘matov, R.Rasulovlarning maxsus maqolasi,<sup>101</sup> R.Safarova va A.Sobirovlarning monografiyalarida, H.Jamolxonovning darsligida leksemalar o‘rtasidagi semantik munosabatlarning boshqa turlari haqida ham ma’lumot berilgan. Biz ham ushbu darslikda leksemalar o‘rtasidagi semantik munosabatlar sifatida *giponimiya, graduonimiya va partonimiya* haqida ma’lumot berib, ular haqidagi bilimlarni talabalarga o‘rgatish zarur deb bildik.

---

<sup>101</sup> **Begmatov E., Ne‘matov H., Rasulov R.** Leksik makrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari) // O‘zbek tili va adabiyoti. –1989, №6.-B.35-40.



Ma'lumki, real borliqqa ko'p sonli paradigmalardan iborat bo'lgan ulkan va murakkab sistema sifatida qarash hamda uning in'kiosini inson tilidan qidirish natijasida g'arb tilshunosligi o'tgan asrda juda ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritdi. Xususan, Jon Rey, Karl Linney, Charlz Darvin kabi botanik va biolog olimlar tomonidan o'simliklar va hayvonlar sistematikasiga kiritilgan jins-tur munosabati keyinchalik til birliklariga nisbatan ham tatbiq etila boshlandi.<sup>102</sup> 1968- yilda ingliz olimi Dj.Layonz tomonidan *giponimiya*, *giperonim*, *giponim* so'zlari jins-tur munosabatini ifodalovchi atamalar sifatida tilshunoslikka olib kirildi. Uning 1977-yilda Londonda bosilib chiqqan "Semantika" kitobida giponimiya haqida to'liq ma'lumot berilgan. Giponimiya hodisasi fransuz tilshunosi V.Gak, rus tilshunoslari Yu.S.Stepanov, A.A.Ufimsteva, L.A.Novikov, M.V.Nikitinlar tomonidan keng tadqiq qilingan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida bu haqda "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" o'quv qo'llanmasida, R.Safarova va A.Sobirovning monografiyalarida<sup>103</sup> fikr bildirilgan. Xususan, A.Sobirovning monografiyasida ta'kidlanishicha: "Muayyan turlarga nisbatan umumiy ma'noni ifodalovchi va semantik maydonning yadrosi (markazida) keluvchi bosh so'zga, dominantaga nisbatan **giperonim** atamasi ishlatiladi. Bu so'z jinsni bildiradi. **Giponim** ma'lum bir jinsning turini bildiruvchi leksik birlik sifatida yuzaga chiqadi. O'zi bilan teng qiymatga ega bo'lgan turdosh giponimlar bilan birgalikda giperonimga tobe bo'ladi". Demak, giponimiya - lug'at boyligidagi leksemalarning pog'onali aloqasidan kelib chiqadigan semantik munosabatlardir. Bunday munosabatlarning mohiyati shundaki, torroq tushuncha yoki ma'no ifodalayotgan leksemalar kengroq tushuncha yoki ma'no ifodalayotgan leksemalar bilan tur (giponim) va jins (giperonim) aloqasida bo'ladi. Masalan, "hayvon" va "o'simlik" giponimining (turining, katta tushunchaning) giperonimlarini (unga nisbatan kichkina, shu tushuncha tarkibiga kiruvchi tushunchani) ko'rib chiqamiz. Hayvon – bosh giponim, u ham yana bo'linish hosil qiladi: 1) yovvoyi

---

<sup>102</sup> **Sobirov A.** O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. - Toshkent: Ma'naviyat, 2004. 136-b.

<sup>103</sup> **Safarova R.** Leksik-semantik munosabat turlari. –Toshkent: O'qituvchi, 1996.

hayvonlar (giponim); 2) uy hayvonlari (giponim) va b. 1) yovvoyi hayvonlarning gipernomlari - *yo'lbars, maymun, sirtlon, echkiemar* va b.; 2) uy hayvonlarining giperonimlari – *sigir, ot, echki, tuya, qo'y* va b. O'simlik – bosh giponim, u yana 1) daraxt; 2) gullar; 3) boshqli o'simliklar va b. turlarga bo'linib ketadi. 1) Daraxtning gipernomlari – *olma, behi, terak, tol, sada, bereza* va b.; 2) gullarning giperonimlari – *gvozdika, atirgul, orxideya* va b.; 3) boshqli o'simliklarning giperonimlari – *sholi, bug'doy* va b.

**Graduonimiya.** “Moddiy borliqdagi voqea va hodisalar so‘z orqali bizning hayotimizga ko‘chadi. So‘z kundalik turmushimizning o‘ziga xos ko‘zgidir. U muayyan xalqning hayotiga kirish, bilim olish uchun bebaho kalitdir”-deb yozadi rus tilshunoslari E.M.Vereshchagin va V.G.Kostamarovlar.<sup>104</sup> Haqiqatan ham, hayotimizdagi bor voqea va hodisalar tilda o‘z lisoniy ifodasini so‘zlar orqali topar ekan, ular o‘rtasidagi turli semantik munosabatlar olimlar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Bular ichida graduonimik (darajalanish) hodisasini tilshunoslikda ko‘p bora o‘rganilganligini kuzatish mumkin. Dunyo tilshunosligida J.Lokk, E.Sepir, D.Bolinjer, Yu.D.Apresyan, Yu.S.Stepanov, L.N.Tolstoy, I.V.Chervenкова, T.N.Grigorenko kabi olimlar tomonidan graduonimik (darajalanish) haqida qimmatli fikrlar bildirilgan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida bu masala S.G‘iyosov, E.Begmatov, H.Ne‘matov, R.Rasulov, R.Safarova, M.Narzieva, M.Fayzullaevlar tomonidan ko‘rib chiqilgan. O‘zbek tilshunosligida hatto graduonimik (darajalanish) munosabatiga bag‘ishlangan maxsus, aytish mumkinki, fundamental tadqiqotlar yaratilgan.<sup>105</sup> Demak, graduonimiya - leksemalarning ma’no guruhlari a’zolarida u yoki bu belgining darajalanishidir.Masalan:

firma →shirkat → kompaniya →xolding;

---

<sup>104</sup> **Верещагин Е.М., Костамаров В.Г.** Лингвострановедческая теория слова. –М.: Русский язык, 1980.-С.7.

<sup>105</sup> **Orifjonova Sh.** O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya. Filol.fan.nomz....dis.avtoref. –Toshkent, 1996. **Bozorov O.** O‘zbek tilida darajalanish. Filol. fan. dok-ri...dis. –Toshkent, 1997.

go‘dak → bola → o‘spirin → yigit → kishi → erkak → chol;  
go‘dak → bola, → qiz → o‘smir → ayol → kampir;  
sirli → yashirin → maxfiy;  
buzmoq → sindirmoq → abjag‘ini chiqarmoq;  
yalinmoq → yalbormoq; baqirmoq → chinqirmoq → o‘kirmoq;  
usul → tartib → qoida;  
yakun → nihoya → pirovard natija.

Sistem leksikologiya nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, graduonimik munosabatdagi leksemalar denotatida o‘zgarish bo‘lishini kuzatish mumkin. Sinonimik munosabatdagi leksemalar denotatida o‘zgarish bo‘lmaydi. Shu xususiyati bilan **graduonimiya sinonimiyadan farq qiladi.**

**Partonimiya.** Borliqdagi har bir narsa, hodisa, jarayon bizning ko‘z oldimizda alohida butunlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ular ma‘lum bir qismlardan, bo‘laklardan, komponentlardan tashkil topadi. Bu qismlar, bo‘laklar, komponentlar bir-biri bilan bog‘lanib turib yagona bir yaxlitlikni, sistemani tashkil qiladi. **Butun** – o‘zaro dialektik aloqada bo‘lgan qismlar, bo‘laklar, komponentlar, elementlarning uzviy birligidan iborat bo‘lgan yaxlit narsa, hodisa, jarayon. **Qism** – butunni tashkil qilgan, uning tarkibiga kirgan bo‘lak, element, komponentdir. Real borliqdagi butun-bo‘lak munosabati tilshunoslarning ham diqqatini tortib, uni tilga tatbiq etishlariga sabab bo‘ldi. Rus olimi M.V. Nikitin bu hodisani nazariy jihatdan asoslab chiqishga muvaffaq bo‘ldi. U butun tushunchasini *xolonim*, qism tushunchasini *meronim yoki partonim* deb atashni taklif qilgan.<sup>106</sup>

O‘zbek tilshunosligida tildagi bu hodisaga birinchi bo‘lib E. Begmatov, H. Ne‘matov, R. Rasulovlarning “Leksik makrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari)” maqolasida e‘tibor berilgan.<sup>107</sup> Keyinchalik

<sup>106</sup> **Никитин Н.В.** Основы лингвистической теории значения. –М.: Высш.шк., 1988, с. 88.

<sup>107</sup> **Begmatov E., Ne‘matov H., Rasulov R.** Leksik makrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari) // O‘zbek tili va adabiyoti. –1989, №6.-B.35-40.

B.Qilichev bu masalada maxsus monografik tadqiqot yaratdi.<sup>108</sup> Shuningdek, A.Sobirovning monografiyasida ham partonimik munosabat haqida izchil fikrlar bildirilgan.<sup>109</sup>

Demak, partonimiya leksemalarning ma'no guruhlarida butun-bo'lak munosabatlarining ifodalanishidir. Shunga ko'ra partonimik munosabatda alohida olingan uzv(a'zo)ning uni tashkil qilayotgan ichki a'zolari bilan munosabati ko'rib chiqiladi.

Masalan:

**Kecha-kunduz** (butun nom, xolonim)ning partonimlari: ←sahar ←tong  
←ertalab ←choshgoh ←tush ←oqshom ←namozshom ← kechqurun ←xufton.

**Vaqt** (butun nom, xolonim)ning partonimlari:  
←sekund←minut←soat←sutka←hafta←oy←yil.

**Qo'l** (butun nom, xolonim)ning partonimlari:←tirnoq ←barmoq ←kaft ←bilak  
←tirsak ←yelka.

**Oyoq** (butun nom, xolonim)ning partonimlari: ←tirnoq ←kaft ←tovon←to'piq  
←ilik ←tizzax ←boldir ←son.

**Bosh** (butun nom, xolonim)ning partonimlari: ←soch ←qosh ←qovoq ←kiprik  
←ko'z ←quloq ← burun ←og'iz ← peshana ←ensa ←iyak.

**Mashina** (butun nom, xolonim)ning partonimlari:← radiatr ←g'ildirak ←rul  
←ressor ←akkumulyator←eshik ←salon ←avtomagnitola ←avtomobil bort  
kompyuteri ←faralar va b.

Bir fikrni qat'iy ta'kidlab aytish zarur: giponimik, graduonimik va partonimik munosabatlar bir so'z turkumi doirasida, aniqrog'i, shu so'z turkmiga oid leksemalarning ma'noviy guruhlarida (ular leksik-semantik guruhlar deb ham nomlanadi) tarkibida kuzatiladi. Ya'ni fe'l bilan sifat, fe'l bilan ot, ot bilan sifat,

---

<sup>108</sup> **Qilichev B.** O'zbek tilida partonimiya. Filol.fan.nomz...dis. –Toshkent, 1997.

<sup>109</sup> **Sobirov A.** O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – B.141.

ravish va son o'rtasida giponimik, graduonimik va partonimik munosabatlar bo'lishi mumkin emas.

**Tilning lug'at tarkibi. leksikografiya.** Tilning lug'at tarkibi turli qatlamlardan iborat. Shunga ko'ra nutqda so'zlarning ishlatilish doirasi cheklangan bo'ladi. Cheklangan doirada qo'llaniladigan so'zlar turli ko'rinishlarga ega. Bular asosan: dialektizmlar, kasb-hunarga oid so'zlar, jargon va argolar, terminlar va b.

**Dialektizmlar** - shevaga xos so'zlar bo'lib, ular faqat muayyan hududdagina ishlatiladi. Leksik dialektizmlarning 2 turi mavjud: a) dilektizm-so'z. Bunda so'zning ifoda plani, demak, nomemasi shevaga xos so'z bo'ladi, masalan: *buzog'* (*Toshkent*), *go'sala* (*Buxoro*), *o'djak* (*Xorazm*); b) dialektizm-ma'no. Bunda so'zning ma'no plani, demak, sememasi shevaga xos bo'ladi, masalan: *chopqi* (*Toshkent* shevasida qiyma qilish uchun ishlatiladigan asbob), *chopqi* (*Samarqand* shevasida *pichoqcha*).

Dialektizm hodisasi tilning fonetik va grammatik sathlarida ham bor.

Fonetik dialektizmlar dialektga xos nutq tovushlari yoki so'zning u yoki bu shevadagi fonetik tarkibi.

Grammatik dialektizmlar biror shevaning o'zigagina xos (adabiy tildan o'zgacha) grammatik shakllari. Masalan, adabiy tildagi *-miz* o'rniga *Toshkent* shevasida *-vuz* shaklining ishlatilishi.

**Kasb-hunarga oid so'zlar** ijtimoiy mehnatning u yoki bu turiga, ishlab chiqarish, ilm-fan, adabiyot-san'at va b. sohalarga oid narsa-hodisa hamda tushuncha nomlaridir. Masalan, *degrez* – qozon, omoch tishi va boshqa cho'yan asboblari quyuvchi usta. *Toqi* – do'ppining ichki tomoni va b.

**Jargon va argolar.** Jamiyatning ba'zi bir ijtimoiy guruhlari mehnat qilmay tekinox'rlilik bilan hayot kechiruvchilar, chunonchi, o'g'ri, bezori va qimorbozlar o'zlarining yomon niyatlarini, yovuz maqsadlarini boshqalardan yashirish uchun so'zlarga har xil ma'no berib qo'llaydilar. Bunday so'zlarga argo deyiladi. Masalan,

*til so‘zi o‘rniga lay, o‘g‘irlamoq so‘zi o‘rniga ovqatlanmoq, o‘ldirmoq so‘zi o‘rniga sallasini olib kelmoq so‘zlarini ishlatadilar.*

**Terminologiya.** Terminologiya – tilshunoslikning terminlarni o‘rganuvchi bo‘limi. Shuningdek, biror ilm, kasb va b. sohaga oid terminlar majmui.

Har bir til shu tilga mansub xalqning moddiy va ma’naviy dunyosini butun borlig‘icha o‘zida aks ettiruvchi yorqin ko‘zgu bo‘lib, insonning mehnat va ijtimoiy faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois, jamiyatda sodir bo‘lgan har qanday voqelik yoki o‘zgarish, birinchi navbatda, tilda o‘zini namoyon etadi. Tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davomida tilning lug‘at tarkibi tadrijiy ravishda doimo rivojlanib, boyib boradi. Bu boyish jamiyat rivojlanishi natijasida paydo bo‘lgan yangi tushunchalarni ifodalovchi yangi so‘zlar, nomlarning vujudga kelishi hisobiga sodir bo‘ladi. Tilning lug‘at tarkibi, uning leksik-semantik sistemasi doimo o‘zgarib boradi, ayni zamonda, jamiyat uchun keraksiz holga kelgan tushuncha yoki predmet nomlarini ifodalab kelgan so‘zlar arxaik so‘z sifatida iste’moldan chiqib, uning o‘rnini yangi so‘zlar egallaydi. Lekin iste’moldan chiqqan so‘zlar miqdori yangi paydo bo‘lgan so‘zlarga nisbatan ancha kam bo‘ladi. Lekin ba’zi hollarda buning aksi ham bo‘lishi mumkin. Albatta, lug‘aviy birliklarning iste’moldan chiqishi lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida, tilning tabiati, til taraqqiyoti qonuniyatlari asosida ro‘y beradi. Bunda ikki asosiy hodisa kuzatiladi: 1. Jamiyat va tabiatdagi narsa-hodisalarning yo‘qolishi bilan ularning ifodachisi bo‘lgan so‘zlar ham yo‘q bo‘ladi, hozirgi til strukturasi (lug‘at sistemasidan) chiqadi va tarixiy so‘zlarga aylanadi. 2. Tilning takomillashuvi jarayonida narsa-hodisaning mohiyatini aniq, to‘la va to‘g‘ri ifodalay olmaydigan lug‘aviy birliklar iste’moldan chiqib, ularning o‘rnini hodisani aniq, to‘g‘ri va to‘la ifodalaydigan lug‘aviy birliklar egallaydi.

Diaxron aspektda o‘zbek terminologiyasida faol bo‘lgan, lekin, yuqorida aytganimizdek, bugunga kelib muayyan sohalarda ko‘pgina jarayon va narsa-hodisalarning yo‘q bo‘lib ketishi natijasida ularni ifodalovchi mistar, sheroza, nol, kilik, xoma, muzahhib, lavvoh, kitobdor, midod, musavvada, xushnavis, dabir kabilar

iste'moldan chiqib, tarixiy terminlar qatoridan joy oldi. Shuningdek, rivojlanish natijasi o'laroq qog'oz ishlab chiqarishda zamonaviy texnika vositalarining qo'llanishi azaliy mavjud bo'lgan qog'oz tayyorlash texnologiyasini jiddiy bir shaklda o'zgartirib yubordi. Qog'ozning ipak yoki kanopdan emas, balki sellyulozadan tayyorlanishi natijasida qog'oz turlarini anglatuvchi qog'ozi nimkatoniy, qog'ozi abrisho'miy, qog'ozi sultoniy, ohor muhrali qog'oz; qog'oz ishlab chiqaruvchi geografik hududning o'zgarishi bilan Samarqand qog'ozi, Xuroson qog'ozi, Qo'qon qog'ozi; qog'oz tayyorlash ishining hunarmandchilikdan takomillashgan sanoat sohasiga aylanishi tufayli *qog'ozgar, qog'ozrez, varroq, sahhof, juvozi kog'az, korxonai kog'azbardor* kabi terminlar muomaladan chiqib ketdi. Ularning o'rini *fin qog'ozi, kompyuter qog'ozi, yozuv qog'ozi, qog'oz sanoati, qog'oz fabrikasi, muqovachi* kabi yangi terminlar egalladi.

Lug'at tarkibining doimiy ravishda boyib borishi ijtimoiy hodisa sifatida til taraqqiyotining eng asosiy qonuniyatlaridan hisoblanadi. Leksik taraqqiyot jamiyat rivojlanishining turli davrlarida turli ko'rinishda, turli darajada bo'ladi. Yangi so'z ixtiro qilinmaydi, balki tilda mavjud bo'lgan so'z yasovchi elementlar, ya'ni muayyan tilning o'z ichki imkoniyatlari hisobiga vujudga keladi. O'ylab topilgan so'zlar turli tillarda juda ham kam sonni tashkil etadi. Rus tilshunosi E.A.Zemskaya yozadi: «Bir dam o'ylab ko'raylik, yangi so'z eskisi bilan butunlay bog'lanmagan holda yasaldi, deylik. U holda tilni egallash juda qiyin bir ahvolga kelib qolar yoki buning umuman imkoni ham bo'lmas edi. Lug'at tarkibini kengaytirish yo'sini undan foydalanishni yanada qulaylashtirish, eng asosiysi, tildagi mavjud o'zaro bog'langan so'zlar orqali real hayotdagi o'zaro bog'langan voqea-hodisalarni ifodalashdan iboratdir. Shunday qilib, so'zlarning tildagi o'zaro aloqasi real predmet va mavjud voqea-hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aks ettiradi .<sup>110</sup>

---

<sup>110</sup> **Земская Е.А.** Как делаются слова? – М., 1963.

Tilning lugʻat tarkibi yangi soʻzlar hisobiga doimo boyib boradi, bu bilan til ham taraqqiy etadi. Yangi soʻzlarning asosiy qismini terminlar tashkil etadi. Fan va texnika taraqqiyoti yangi terminlarni vujudga keltiradi, ayni zamonda, terminlar fan va texnika taraqqiyotiga zamin yaratadi. Zotan, terminologik jihatdan ilmiy ishlanmagan fan yoki ishlab chiqarish sohasi kutilganidek rivojlana olmaydi. Jamiyatdagi har qanday oʻzgarish, birinchi navbatda, tilda oʻz aksini topadi. Jamiyat taraqqiyotidagi maʼlum bir davrlarda u yoki bu soha terminologiyasining muayyan bir tor doira koʻlamidan chiqib, umumxalq nutqida ham keng foydalanish holatlari kuzatiladi. Xususan, Oʻzbekiston mustaqilligi yillarida ijtimoiy-iqtisodiy terminologiyaga oid koʻplab terminlarning oʻzbek adabiy tilining chegaralanmagan qatlamiga singib borib, ommaviy nutqda keng koʻlamda qoʻllanilishini kuzatish mumkin. Investitsiya, valyuta, bank, mustaqillik, bozor iqtisodiyoti, konvertatsiya, maʼnaviyat, milliy mafkura, milliy istiqlol gʻoyasi, akademik litsey kabi terminlar mustaqillik mevasi sifatida tilimizda faol qoʻllanib kelmoqda. Tadqiqotimizning avvalgi bobida koʻrib oʻtganimizdek, ayni shunga oʻxshash vaziyatni kitobchilik terminologiyasining XV-XVI asrlardagi taraqqiyotida ham kuzatishimiz mumkin. Chunki bu davrlarda kitobchilikning gullab-yashnashi oʻz taʼsirini xalq turmush tarziga, oʻz navbatida, soʻzlashuv tiliga ham koʻrsata oldi. Ijtimoiy hayotda xalq turmush tarziga kirib kelgan narsa-hodisalar bilan birga ularga oid terminlar ham tilga singib, xalqning kundalik nutqidan keng oʻrin olib boradi. Demak, har bir til leksikasi tarkibi doimiy ravishda yangilanib turadi. Ayni zamonda, tilning lugʻat tarkibidagi oʻz ahamiyatini yoʻqotgan soʻzlar arxaik soʻzlar qatoriga oʻtib, isteʼmoldan chiqish hodisasi ham sodir boʻlib boradi. Lekin yangi soʻzlarning paydo boʻlish hodisasi soʻzlarning isteʼmoldan chiqishiga nisbatan ancha yuqori boʻladi. Bunda lugʻat sostavining boyib borishi har bir tilning oʻz ichki imkoniyatlari asosida va oʻzga tildan oʻzlashtirish yoʻli bilan boʻlishi lingvistik adabiyotlarda qayd etilgan va barcha tomonidan tan olingan.



Ma'lumki, har bir tildagi so'zlar bir nechta ma'noga ega bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zlarning aniq ma'nosi kontekstda, gap tarkibida aniqlanadi. Bunday so'zlar nutqning ta'sirli, jonli, ixcham va badiiy bo'lishida nihoyatda katta rol o'ynaydi. Shuning bilan birga, har bir tilda o'zining ishlatilish doirasiga ko'ra cheklangan, asosan; birgina ma'noga ega bo'lgan birgina tushunchani ifodalaydigan so'zlar ham bo'ladi. Bunday so'zlar, xususan fan, texnika, san'at, siyosat, til va adabiyot, hunarmandchilik kabi turli sohalarda uchraydi. Bu sohalarda hamma diqqat borliqni faqat mantiq jihatdan bilishga qaratilgan. Shuning uchun fan-texnika, siyosat sohalarida so'zlarning nihoyatda aniq bo'lishi talab qilinadi.

**Termin** lotincha *terminus* so'zidan olingan bo'lib, chegara, chegara belgisi, chek ma'nolarini anglatadi. Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi termin deb ataladi. Terminlar bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo'lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadi. Masalan, lingvistik terminlar: *gap, ega, ot, son, tovush*; geometriyaga oid terminlar: *aylana, uchburchak*; fizikaga oid terminlar: *jism, bosim, harakat, maydon*; kimyoga oid terminlar: *suv, kumush, ishqor, tuzlar* va boshqalar.

Terminlarning muhim xususiyati shundaki, ular ko'p ma'noli bo'lmaydi. Ko'chma ma'nolarda ishlatilishi nihoyatda kam uchraydi. Masalan: ko'pgina tillarda bo'lgani singari o'zbek tilida ham operatsiya so'zi termin sifatida: 1) meditsina sohasida yorish, kesish, kesib olib tashlash, yangisini solish va shu yo'llar bilan kasallikni tuzatish davolash ma'nosida; 2) harbiy sohada biror vazifa va maqsadni amalga oshirishga qaratilgan urush harakatlari ma'nosida; 3) davlat idoralarida rasmiy muomala (masalan: bank operatsiyasi, pochta operatsiyasi kabi) ma'nolarida qo'llaniladi.

Ma'lumki, har bir soha terminologiyasining shakllanish jarayoni adabiy tilga xos bo'lgan omonimiya, sinonimiya va boshqa xildagi leksik-semantik ko'rinishlar

bilan bog‘liq holda kechadi. Lekin ushbu holatlar o‘zbek terminologiyasining barcha sohalarini uchun bir xilda emas. Xususan, hozirgi o‘zbek ilmiy-texnikaviy terminologiyasida avj olgan salbiy hodisalardan biri ko‘p shakllilik – sinonimiyadir. Bunda birgina tushunchani ifodalash uchun turli so‘z (yoki so‘z birikmalari) qo‘llanadi. Garchi bunday holat vaqtinchalik bo‘lib, terminlarni tartibga solish jarayonida bartaraf etilsa-da, ammo ma‘lum davr mobaynida u terminlardan foydalanishda turli qiyinchiliklar va chalkashliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shuni alohida qayd etish kerakki, terminologiyada birgina tushunchani ifodalashda qo‘llanadigan turli terminlarni qanday atash masalasida munozaralar ham mavjud. Chunonchi, ba‘zi tilshunoslar terminologiyada neytrallik bo‘lishini hisobga olib, bir tushunchani anglatuvchi turlicha ifodalarni «dublet terminlar» deb atashsa, boshqa bir qator olimlar esa uni «sinonim» deb ham atash mumkinligini qayd etganlar. Ba‘zi olimlar esa, terminologiyadagi sinonimlik umumadabiy tildagidan birmuncha farq qilishini va shu boisdan ham ularni «dublet» deb aytayotganliklarini qayd etganlar.

Umuman, nafaqat terminologiyada, hatto tilshunoslikda ham «sinonim», «dublet» va «variantlilik» kabi tushunchalarning o‘ziga xos xususiyatlari aniq belgilanmagan hamda ularni farqlash masalasi hali to‘liq hal etilmagan.

Har bir tilda jumladan, o‘zbek tilida terminlar quyidagi yo‘llar bilan hosil bo‘ladi: 1) har bir xalqning o‘z til boyligidan, undagi turli imkoniyatlardan foydalanish asosida: *uchburchak, urg‘u, qo‘lyozma, ega, kesim, aniqlovchi, qo‘shimcha* kabilar; 2) chet tillarda, ayniqsa, rus tili va u orqali boshqa tillardan tayyor terminlarni qabul qilish bilan: *plyus, minus, fonema, biologiya, atlas, atom, gramm.*

Terminologiya keng ma‘noda leksikaning bir qatlami bo‘lib ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo‘llaniladigan terminlarning majmuidir. Terminologiya tor ma‘noda fan yoki texnika, adabiyot, san‘at yoki ishlab chiqarishga xos terminlar yig‘indisini tashkil etadi.

Fan-texnika, adabiyot, san'at va ishlab chiqarishning taraqqiy etib borishi bilan terminologiya ham rivojlanib boradi, yangi terminlar paydo bo'ladi. Ba'zi bir eskirib, keraksiz bo'lib qolgan terminlar esa iste'moldan chiqib qoladi. Tilshunoslikda terminlarni tartibga solish masalasi har doim ham dolzarb bo'lib kelgan. Har bir soha terminologiyasini tartibga solish bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. O'zbek tilshunosligida sohaviy terminologiyalarni tartibga solish masalasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Lekin qilingan ishlarning salmog'i bilan chegaralanib qola olmaymiz. Chunki terminlarni tartibga solish masalasini barcha soha terminologiyalarida ham bir xilda olib borilyapti deb bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan bu yo'nalishda echimini kutayotgan muammolar talaygina. O'zbek terminologiyasi to'laligicha bugunga qadar jiddiy shaklda lingvistik tadqiqot obyekti bo'lmagan va barcha soha terminologiyalarini tartibga solish masalasi deyarli hal etilmagan.

Ma'lumki, har bir fan sohasining rivojlanish va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etganligi, shuningdek, tartibga solinganligi kabi belgilar bilan ham uzviy bog'liqdir. Chunki ilmiy adabiyotda qo'llanadigan termin yoki uning ifoda shakli aniq va ravshan bo'lmas ekan, unda, albatta, chalkashlik, noaniqlik kabi salbiy holatlar saqlanib qolaveradi. Shu bois, har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko'rsatkichi shu soha terminologiyasining «qat'iy ilmiy terminologiya»ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi. Bu yerda «qat'iy ilmiy terminologiya» tushunchasi biron bir sohaviy terminologiyaning mazkur fan sohasi taraqqiyoti bilan uyg'unlashuvi, sohaviy terminologiyaning ayni sohaga oid tushunchalarni ifodalashdagi hamohangligi, yaratilgan va muomalada bo'lib turgan terminologiyaning muayyan fan tili bilan mos kelishi kabi holatlarni nazarda tutadi.

Terminlarning aniqligi va qat'iylashishi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko'rsatadi. Terminlarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo'lib, ma'lum fanning taraqqiyotiga bog'liq. Bu taraqqiyot to'xtovsiz bo'lgani uchun yangi terminlarning kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzluksiz bo'ladi. Umuman, ona tilida terminlarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi

darslik va qo'llanmalar tuzish uchun ham, ona tilida dars olib borish uchun ham zarur bo'lgan manbadir. Terminlarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi. Demak, terminologiyani tartibga solinishi nafaqat ilmiy sohada, balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyati katta bo'lgan masaladir.

Terminologiyani tartibga solishning samaradorligi terminlar bevosita qo'llanadigan quyidagi holatlarda yaqqol ko'rinadi: kasbiy ta'limni to'g'ri tashkil etishda, ishlab chiqarish amaliyotida bo'ladigan og'zaki muomalada, ilmiy va ishlab chiqarish jarayonlaridagi o'zaro yozishmalarda, matbaachilikda (ilmiy, o'quv, ishlab chiqarish kabilarga oid adabiyotlarni nashr etishda), chet el adabiyotlarini tarjima qilishda vab.

Ma'lumki, har bir fan sohasi doimiy taraqqiyotda bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, undagi tushunchalarning, ular orqali terminlarning ham o'zgarib turishiga olib keladi. Noo'rin, asossiz tanlangan atama ma'lum davr o'tishi bilan ifodalangan tushuncha mazmuniga mos kelmasa, iste'moldan chiqadi, yangi atama yaratiladi yoki uning sinonimi o'rnini egallaydi. Shuning uchun ham atama lug'atlari ma'lum vaqt o'tishi bilan qayta nashr qilinadi - to'ldiriladi yoki asossiz atamalar boshqa qulay va aniq atamalar bilan almashadi. Demak, terminologiyani tartibga solish bu doimiy va kundalik ishimiz bo'lishi, shuningdek, u fan va texnika taraqqiyoti bilan hamohang takomillashib borishi lozim.

Tilshunoslikda terminlarning o'zgarishi hamda yangi terminlarning paydo bo'lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Texnika taraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progressi qonuniyatlari bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi. Texnik malakaning endilikda ma'lum tor doiradan chiqib, ommaviy xarakterga ega bo'layotganligi va turli sohalarning mutaxassislari kundalik faoliyatida fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanayotganligi terminlarga bo'lgan yuksak talab bilan uning hozirgi holati orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishni talab etadi. Chunki jamiyat hayotida fan va

texnika qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, uni egallash, boshqarish va taraqqiy ettirish uchun terminlar ham shunchalik muhim ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan, terminlarni tartibga solish juda katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Fan-texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanib borishi natijasida yangidan-yangi mashinalar, apparatlar, asbob-anjomlar va texnologik jarayonlarning paydo bo'lishi bilan ularni ifodalovchi yangi terminlar ham vujudga kelmoqda. Shu sababli, yangi texnika vositalari qaysi sohaga ko'proq kirib kelgan bo'lsa, shu soha terminologiyasi to'xtovsiz ravishda kengayib bormoqda. Masalan, ana shunday sohalardan biri poligrafiya-nashriyotchilik sohasidir. Mazkur soha taraqqiyotiga e'tibor bersak, bu sohaga texnik vositalarning kirib kelishi, asosan, yigirmanchi asr boshlariga to'g'ri keladi. Lekin uning eng taraqqiy etgan davri bugungi kundagi holatidir. Hozirgi zamonaviy poligrafiya-nashriyotchilik tarmog'i hujjatlarni tayyorlash va ularning nusxalarini ko'paytirish, kitob holiga keltirish jarayonlarini o'zida mujassamlashtirgan texnik vositalar qo'llanadigan etakchi sohalardan biriga aylandi. Natijada, ushbu soha terminologiyasiga juda ko'plab yangi tushunchalar va ular bilan birga yangi ilmiy-texnikaviy terminlar ham kirib kelmoqda. Albatta, bunday o'zgarishlar o'zbek tilining ish ko'rish doirasini kengaytirib, uning leksik sostavini yangi-yangi ilmiy va texnik terminlar bilan boyitdi.

Ko'pchilik hollarda yangi terminlar yaratish ishiga oddiy tarjima yoki kalkalash jarayoni sifatida qaraymiz. Terminologiyadagi mavjud kamchilik hamda tartibsizliklarning asosiy sabablaridan biri ham shundadir. Zotan, yangi termin yaratish har taraflama mukammal bo'lgan ijodiy jarayondir. Har qanday ilmiy-texnikaviy termin oddiy so'zning yoki so'z birikmasining terminologiyadagi aksi bo'lib, u aniq chegaralangan hamda belgilangan mazmunga, bu mazmun esa, kontekstdan qat'iy nazar, faqat shu terminga oid bo'lishi lozim.

K.M.Musayev terminologiyani tilning leksikasi sifatida go'yo bir shaharga qiyoslaydi. Uning fikricha, terminologiya yagona reja asosida qurilsa-da, lekin birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni yaratishda

har xil avlodga mansub bo'lgan turli me'morlar, loyihachilar, kashfiyotchilar ishtirok etadi. Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi o'rgangan holda barpo etadilar. Terminologiyani tartibga solishdagi o'ziga xos murakkablik ham shu bilan belgilanadi.<sup>111</sup>

Rus tilshunosi D.S.Lotte terminologiyaga bag'ishlangan asarlarida barcha sohaviy terminologiyalar uchun umumiy bo'lgan quyidagi jiddiy kamchiliklarni ko'rsatib o'tadi: 1. Barcha terminologik sistemalar uchun taalluqli bo'lgan jiddiy kamchiliklardan biri terminlarning ko'p ma'noliligidir. Bunda bir termin ikki va undan ortiq ma'nolarda qo'llanadi. 2. Hozirgi terminologiyadagi ikkinchi yirik nuqsonlardan biri terminlar sinonimiyasi hodisasidir. Termin-sinonim (dublet)lar deganda muayyan bir tushunchani ifodalash uchun ikki va undan ortiq terminning muomalada bo'lishi tushuniladi. 3. Terminologiyadagi yana bir kamchilik bu ma'lum bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi terminning anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyatiga uyg'un bo'lmasligidir. Ba'zi holatlarda so'zning aynan ma'nosi bilan tushuncha mohiyati o'rtasida nomutanosiblik vujudga keladi. 4. Terminologiyadagi navbatdagi nuqson terminning ko'p komponentlardan iborat bo'lishi va natijada, uni qo'llashdagi noqulaylikdir. Bunda muayyan bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi termin ikki va undan ortiq komponentlardan iborat bo'ladi. Bunday yasalishga oid bo'lgan terminlarda, birinchidan, nutq iqtisodi, ya'ni ixchamligi buziladi, bu esa, o'z navbatida, fikrlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, termin keragidan ortiq darajada uzun bo'lganda ellipsis (nutq unsurining tushib qolishi) hodisasining vujudga kelish ehtimoli kuchayadi. 5. Yuqoridagi nuqsonga yaqin bo'lgan yana bir kamchilik bu - termin talaffuzining noqulayligi. Bunday terminlar ikki sababga ko'ra vujudga keladi: 1) asosiy termini yaratishda uning derivatlilik imkoniyatlari etarlicha inobatga olinmaydi; 2) xorijiy termini o'zlashtirishda unga jiddiy e'tibor bilan qarab, tanqidiy yondoshilmaydi. 6.

---

<sup>111</sup> **Мусаев К.М.** Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. – М.: Наука, 1986.

Terminologiyadagi eng katta kamchilik bu terminologiyani keragidan ortiq miqdorda xorijiy terminlar bilan to'ldirib tashlashdir. To'g'ri, hech qanday til faqat o'z terminelementlari hisobiga terminologiyasini qura olmaydi. Til qurilishi jarayoni shuni ko'rsatadiki, dunyoda sof tilning o'zi umuman mavjud emas. Har doim boshqa tillardan termin o'zlashtirish jarayoni sodir bo'lib turadi, bu jarayondan chekinish mumkin emas. Ammo ehtiyoj sezilmagan holatlarda ham xorijiy terminlarni sun'iy ravishda tilga olib kirish har doim o'zini oqlayvermaydi. Bunday holatlarda ko'proq o'z til imkoniyatlaridan foydalanish va bunda termin ifodalashi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan termin o'rtasidagi mutanosiblikni saqlashga e'tiborni qaratish lozim. 7. Ko'p hollarda ba'zi tushunchalarni ifodalovchi terminlar iste'molda mavjud bo'lmaydi. Natijada bunday tushunchalar o'ta muhim va ahamiyatli bo'lishiga qaramasdan, keng tarqalish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. 8. Yana bir kamchilik shuki, termin yaratilishida u anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan o'zaro batartiblik (sistemalilik)ning yetishmasligidir.<sup>112</sup>

D.S.Lotte tomonidan ko'rsatib o'tilgan barcha soha terminologiyalariga oid bu kamchiliklar, oradan 40 yildan ortiq vaqt o'tishiga qaramasdan, bugungi kunda ham o'z ahamiyati va dolzarbligini yo'qotmasdan turibdi. Ma'lumki, terminologik lug'atlar ham soha terminologiyasini tartibga solishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Akademik G'.Abdurahmonov terminologik lug'atlarning ma'lum fan sohasiga xizmat qilibgina qolmay, terminlarni tartibga solish, takomillashtirish hamda standartlashtirishda ham muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Terminologik lug'atlar uchun termin tanlash nihoyatda mas'uliyatli ish. Chunki har bir termin ma'lum tushunchani to'g'ri ifodalashi, o'zi ifodalagan sohaga va ayni chog'da ona tilining ichki qonuniyatlariga mos bo'lishi shart. Tanlangan termin bir ma'noli, ixcham so'z yoki birikmadan iborat bo'lishi, qolaversa, u sinonimlarga ega bo'lmasligi kerak. Terminologik lug'atlar ko'pincha bir tilda yoki ikki tilda tuzilib, uning vazifasi har bir

---

<sup>112</sup> Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – Москва, 1961.

sohadagi terminlarni izohlab, tushuntirib berishdan iborat. Bunday lug‘atlar “Maxsus lug‘at”, ya’ni “Ayrim sohalar lug‘ati” deb ham yuritiladi. Terminologik lug‘atlar har qaysi soha bo‘yicha, chunonchi, qishloq xo‘jaligi, falsafa, tabobat, tilshunoslik, geografiya, fizika, matematika, geologiya kabi barcha sohalar bo‘yicha tuziladi. O‘zbek tilida T.N.Qori Niyoziyning “Ruscha - o‘zbekcha matematik terminlar lug‘ati”, R.X.Maxlin va M.D.Yagudaevlarning “Ruscha - o‘zbekcha qisqacha botanika terminlari lug‘ati”, Y.A.Yunusovning “Ruscha - o‘zbekcha qisqa fiziologik terminlar lug‘ati”, M.A.Sobirovning “Ruscha - o‘zbekcha matematik terminlar lug‘ati” va lug‘atlar ana shunday terminologik lug‘atlar jumlasidandir.

**Leksikada eskirish va yangilanish jarayonlari.** Til sistema sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo‘lib turadi, Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar yangi so‘zlarning yuzaga kelishini, ayni paytda ma’lum so‘zlarning eskirib, tarixiy so‘zlarga aylanishini taqozo qiladi. Ya’ni bu leksikada eskirish va yangilanish jarayonlarining amalga oshishiga sabab bo‘ladi. Bu quyidagi ko‘rinishlarda kuzatiladi: *arxaizmlar, istorizmlar, neologizmlar*.

**Leksik arxaizmlar** - hozirgi paytdamavjud bo‘lgan voqelikning eskirgan nomi, aksincha, hozirgi tilda mavjud bo‘lgan leksemaning eskirgan ma’nosi (sememasi). Ya’ni eskirish jarayoni leksemaga yoki yaxlit holda yohud uning bir qismiga (ma’noaridan biriga) aloqador bo‘ladi. Masalan, *lab* (hozirgi tilda) – *dudoq* (shuning eskirgan nomi), *qassob* (hozirgi tilda) – *salloh* (shuning eskirgan nomi).

**Leksik istorizmlar** o‘tmish voqeligi bo‘lgan narsa-hodisalarning nomlaridir. Masalan, *cho‘ri* – tutqinlikdagi qul xotin, *mingboshi* - daha yoki qishloq oqsoqoli.

Ko‘rinadiki, leksik arxaizmlarning bugungi kunda ham denotatlari mavjud, arxaizmlardan uslubiy maqsadlarda foydalanish mumkin. Leksik istorizmlarning esa denotati mavjud emas, ya’ni ularning sememasi ham, nomemasi ham yo‘q.

**Neologizmlar.** Neologizm - yangi narsa,tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan, hali odatdagi lug‘aviy birlikka aylanib ketmagan so‘z yoki iboralardir. Har bir tilning leksikasi uning boshqa sathlariga nisbatan o‘zining dinamik



xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra tilning lug‘at tarkibi doimo o‘shish-o‘zgarishda bo‘ladi, muntazam ravishda boyib boradi. Xususan, o‘zbek tili leksikasining boyish manbalaridan biri sifatida neologizmlarni ko‘rsatish mumkin. Tilshunoslik nazariyasidan ma’lumki, neologizmlar tilda uch usul vositasida vujudga keladi: 1) so‘z yasash derivastiyasi; 2) semantik derivastiya; 3) boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish yo‘li bilan.<sup>113</sup> Neologizmlarning alohida guruhini leksik va frazeologik kalkalar, ya’ni boshqa tillardagi andozalar asosida yaratilgan so‘z va so‘z birikmalari tashkil qiladi. Shuni ta’kidlash zarurki, neologizmlar okkazonalizmlardan qat’iy ravishda farqlanadi.

Keyingi 10-15 yil ichida malakatimizda sodir bo‘layotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy o‘shish-o‘zgarishlar tufayli tilimizda juda ko‘p neologizmlar paydo bo‘ldi. Bugungi kunda ularning ko‘pchiligi o‘zining yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotib, lisoniy mulkimizga aylangan, lug‘atlarimizdan o‘rin olgan. O‘zbek tilida so‘z yasash derivastiyasi orqali neologizmlar juda kam miqdorda vujudga keladi. O‘zbek tilida neologizmlar, asosan, 2- va 3-usullar orqali paydo bo‘layotganligini kuzatish mumkin. Masalan, tilimizda mavjud bo‘lgan ayrim lug‘aviy birliklar semantik derivastiya tufayli neologizmlarga aylandi, ya’ni ularga yangi davrga xos ma’no va vazifalar yuklandi: *vazir, vazirlik, hokim, hokimlik, viloyat, tuman* va b.

3-usul orqali ham neologizmlar juda faol ravishda leksikamizni boyitmoqda. Ingliz, nemis, ispan, italyan tillaridan o‘zlashgan bu so‘z va so‘z birikmalarisiz kundalik hayotimizni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ularning ko‘pchiligi yangi nashr qilingan lug‘atlardan joy olgan. 2001- yilda akademik A.Hojiyev rahbarligida andijonlik olimlar tomonidan nashr qilingan “Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (5 tom)da ko‘plab neologizmlar qayd qilingan va ularning izohi berilgan.

---

<sup>113</sup> Цишковский И.Н. Неологизмы: типы и стилистическое использование. -М., 2000. -С.5.

**Etimologiya.** Etimologiya – tilshunoslik fanining muhim va murakkab sohasi. *Etimologiya* soʻzi asli yunoncha *etymon* va *logos* soʻzlaridan tashkil topgan: *etymon* - soʻzi «chin, haqiqiy, asl mohiyat» maʼnosini, *logos* soʻzi esa «taʼlim» maʼnosini anglatadi. Shunga koʻra etimologiya sohasida soʻzlarning asl shakli va maʼnosini aniqlash boʻyicha izlanishlar olib boriladi.

Etimologiya tilshunoslikning juda qadimiy sohasi boʻlib, eramizdan avvalgi davrlarda yashagan filosof va filologlar ham soʻzlarning kelib chiqish tarixi bilan shugʻullanganlar. Etimologiyada soʻzlarning haqiqiy va birinchi asl maʼnolari, shakllari til tarixi hamda boshqa tillardagi shu soʻz toʻgʻri kelgan oʻzakka ega boʻlgan soʻzlar bilan qiyoslash asosida aniqlanadi. Bunda soʻzlarning kelib chiqish tarixi, maʼnosi chuqur tahlil qilinadi.

Tilshunoslikda yangi soʻzning kelib chiqish tarixini oʻrganish, aniqlash nisbatan oson, lekin eski soʻzlarning etimologiyasini, yaʼni qachon paydo boʻlgani va qaysi tildan olinganini, uning dastlabki maʼno anglatish xususiyatlarini tahlil qilish ancha murakkabdir. Biror soʻzning kelib chiqishini aniqlashda mazkur soʻzning boshqa tillardagi tovush strukturasi va maʼnolari bilan qiyoslanadi. Lekin bu jarayon ham har doim aniq natija beravermaydi. Chunki baʼzan soʻzlarning tashqi shakli, tovush tarkibi bir-biriga yaqin boʻlsa ham, ularning maʼnolari turlicha boʻlishi mumkin. Masalan, koʻpgina adabiyotlarda bitik soʻzining xitoy tilidagi yozuv choʻtkasi maʼnosidagi bi soʻzi bilan bogʻlab talqin qilinadi.

Mahmud Koshgʻariyning XI asrda maydonga kelgan filologik «Devonu lugʻotit turk» asarida *bitik* terminining uch maʼnosi qayd qilingan: 1. Kitob. 2. yozuv (xat): «anqḥ bitigi belgylyk – uning yozuvi maʼlum, belgilik»; 3. Tumor (oʻgʻuzcha): «ol bitik juldī – u kitobni koʻchirib yozdi»; «ol bitik juzsadi – u xatni oʻchirmoq istadi»; «ol bitik tamgʻaladī – u xatga, kitobga xon tamgʻasini urdi»; «Men aḥar bitik jutturdum – men unga xatni oʻchirtirdim». Oʻrta asrlarda tumor termini «buklab oʻralgan noma; oʻrama qogʻoz; xat; yirik yozilgan har qanday yozuv; duo yozilgan qogʻoz» maʼnolarni ifodalab kelgan. «Devonu lugʻotit turk»da *bitmoq* feʼlidan

yasalgan yana boshqa terminlarni ham ko'rishimiz mumkin: «bitigu - turklar va boshqalarning siyohdoni»; «bitiklik er – yozuv egasi (yozuvni biladigan kishi) ma'nosida»; «bitiklik neъ – bitishga mo'ljallangan, ustiga yoziladigan narsa»; «bitik bititguchi - xat bituvchi. O'g'uz va qipchoqlarda bu shakl bititdachi shaklida qo'llanadi». Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi bilim») asarida ham bitik termini ko'p miqdorda uchraydi. U ko'proq maktub ma'nosida kelgan: «3803. Elig ma yana bir bitig bers?ni, Oqysun bitigni meъa bytsyni. Ya'ni: Elig ham yana bir maktub bersin, (U) maktubni o'qisin, menga ishonsin. 3804. Elig aydy ыдтым bitig bir yoly, Bitigka yanut qyldy yash-teg toly. Ya'ni: Elig aytdi: Bir yo'la maktub yubordim, Maktubga javob qildi yoshi rasolarga xos. Shuningdek, «Qutadg'u bilig»da bitik termini kitob yoki yozuv ma'nolarida ham qo'llangan: «2192. Bitib qodmasa erdi bilga bitig, Saqishqa neku erdi al yaъ etig. Ya'ni: Donolar yozuv (kitob) yozib qoldirmasalar edi, Hisob uchun qanday chora, iloj, tadbir bo'lar edi» .

Bulardan tashqari, «Qutadg'u bilig»da «vasiyatnoma, pandnoma va nasihatnoma» ma'nolarida birikma shaklidagi qumaru bitig termini ishlatilgan: «Aytoldy eligka qumaru bitig qodmyshyn ayur. Ya'ni: Oyto'ldi eligga nasihatnoma yozib qoldirishini aytadi». Ushbu termin tarkibidagi qumaru so'zi qadimgi turkiy tilda «vasiyat; pand-nasihat, o'git» ma'nolarini ifodalagan. Asarda Yusuf Xos Hojib birikma shaklidagi *kag'az bitig* terminidan ham foydalanadi. Bu termin yozuv qog'ozini ifodalaydi: «1327. Bitig?nla aldy bu kag'az bitig, Bayat aty birla bitidi bitig. Ya'ni: Siyohdon bilan yozuv qog'ozi oldi, Xudo nomi bilan (ya'ni bismillo deb) xat yozishga kirishdi».

Taxminan XVI-XVII asrlardan e'tiboran *bitik* mustaqil termin sifatida iste'moldan chiqib, uning «noma», «maktub», «yozuv» ma'nolari o'rnida arab va fors-tojik tillaridan o'zlashgan xat, kitobat, kitob, noma kabi terminlar manbalarda faol qo'llana boshlandi. *Bitik* terminining kelib chiqishi haqida tadqiqotchi olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. Eski o'zbekchada faol, hozirda kam bo'lsa-da,

iste'molda bo'lgan «yozuv», «kitob», «xat» ma'nolarini ifodalovchi bitik terminining bitmoq fe'lidan yasalganligi hammamizga yaxshi ma'lum. Bu haqda tilshunos olim E.V.Sevortyan o'z kitobida atroflicha to'xtalib o'tgan. Unda bit // biti fe'llarining etimologiyasiga oid turli ko'rinishdagi fikr va farazlar berilgan. Lug'atda *biti* fe'lining quyidagi ma'nolari bayon qilinadi: yozmoq; yozuvni kesib olmoq; yozib olmoq; 2) yozib olmoq, ko'chirib olmoq; nusxa ko'chirmoq; 3) chizmoq, rasm solmoq; 4) tuzmoq; 5) taqdirni aniqlamoq. Bizningcha, yozmoq, yozuvni kesib olmoq, yozib olmoq kabilar «biti» ning eng dastlabki ma'nolari bo'lishi kerak. Bu haqda «Древнетюркский словарь»da ham aytib o'tilgan. XIII-XIV asrlarga oid «Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya»da ham *bitik* leksemasi «kitob» va «o'simlik» ma'nolarini ifodalashi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, «Devonu lug'otit turk»da «biti» ning yana bir ma'nosi berilgan: «biti» - osmondan nozil bo'lgan kitoblar: tavrot, injil, zabur, qur'onlardan birisi». «Biti»ning yuqorida keltirilgan to'rtinchi va beshinchi ma'nolari bitik terminining diniy ahamiyatdagi tumor ma'nosiga yaqindir. Bu fikrni keyinchalik E.Polivanov ham qo'llab-quvvatlaydi, lekin uning fikricha, bicik < bitik xitoy tilidan dastlab mo'g'ulchaga, so'ngra esa, mo'g'ul tili vositasida turkiy tilga o'zlashgan. E.Polivanov o'z tadqiqotida turkiy tillarga xos bo'lgan bitmoq hamda yozmoq fe'llari haqida so'z yuritib, bitmoq fe'li, asosan, sharqiy hududlarda yashovchi turkiy xalqlarga, xususan, o'zbeklarga, yozmoq fe'li esa, ko'proq g'arbiydagilarga - usmonli turklari va tatarlarga xosligini aytadi. E.D.Polivanov fikrining tasdig'i sifatida turk tilidagi «bitmek» fe'lining tarixda hamda hozirgi kunimizdagi ma'no anglatishi bilan qiziqib ko'rdik. «Turk tilining etimologik lug'ati»da bitgi so'ziga quyidagicha izoh berilgan: «Turkcha bitimek (yazmak) so'zidan «bit-gi ( bitgi) (yozma bo'lgan, yozilgan, arabcha kitap). Bu erda til nuqtai nazaridan ahamiyat berilishi kerak bo'lgan muhim bir nuqta bor: biti, bitig so'zlari Osiyo turkchasida kitob, maktub ma'nolarini ifodalaydi. Holbuki, Anado'li xalq tilida esa, «o'sib (ko'payib) ketmoq, urchimoq, etishmoq, mahsulot holiga kelmoq» ma'nolarini ifodalovchi «bitmek» fe'li qadimgi turk tilida «yazmak» ma'nosida

qoʻllangan «bitmek» bilan maʼnodosh boʻlgan va undan bitg(k)i (kitap) soʻzi yasalgan. Bitki (arabcha nebat) xalq tilida (shevada) bitgi shaklida ham talaffuz qilinadi, ammo bu erda bitgi butunlay boshqa maʼno - kitap maʼnosini anglatmoqda». Bitgi leksemasi hozirgi turk tilida qadimgi turk tilida anglatgan maʼnolaridan birontasini ham ifodalamaydi. Uning hozirgi shakli bitki boʻlib, quyidagi maʼnoda ishlatiladi: «(Botanikaga oid) Tushgan erida ildiz otib, hosil beruvchi, soʻngra esa, qurib ado boʻluvchi oʻt-maysa yoki daraxt kabi oʻsimliklarning umumiy nomi, nabotot. «Bitki bitleri» - oʻsimlik (bitki)larda yashovchi daraxt biti kabi oʻsimlik hasharotlarining umumiy nomi va hokazo». Ushbu izohdan koʻrinadiki, qadimgi turk tilida faol qoʻllanishda boʻlgan bitgi//bitki soʻzi hozirgi turkchada butunlay boshqa maʼnoda qoʻllanadi. Uning qadimgi bitgi (kitob) maʼnosini bugungi turk tilida arab tilidan oʻzlashgan kitap leksemasi ifodalamoqda. «Turk Dilinin Etimoloji Sozlugu» (Turk tilining etimologik lugʻati)da bitik//bitig termini umuman uchramaydi. Uni faqat hozirgi turk tilining izohli lugʻatidagina uchratishimiz mumkin. Lekin bu lugʻatda ham uning butunlay boshqa maʼnolarni ifodalab kelishini koʻramiz: «Bitik: 1. Charchoq yoki ogʻir kasallikdan keyingi holsizlik, majolsizlik. 2. Holati yomon, rohatsizlik». Turk tilida «*bitmek*» (*bitmoq*) feʼli anglatgan maʼnolarning baʼzilari oʻzbekchadagi «bitmoq» feʼli ifodalagan maʼnolarga ancha yaqin. Masalan: «bitmek: 1. Tamom boʻlmoq, soʻnggiga, oxiriga etmoq. 2. Barham topmoq, yoʻq boʻlmoq. 3. Oʻsib unmoq, hosil bermoq, etishmoq». Ushbu holatlar turk tilidagi «bitmek» feʼlining yozmoq maʼnosida umuman qoʻllanmaganligini, bu esa, E.Polivanov fikrining toʻgʻri ekanligini asoslaydi. E.Polivanov yana bir gʻoyani ilgari suradiki, unga koʻra turkiy tildagi pit soʻzida azaliy «t» tovushi saqlanib qolgan, moʻgʻul tilida esa, tabiiy shakldagi evolyutsiya natijasida oʻzgarish sodir boʻlgan, yaʼni bitik > bicik. E.Polivanov oʻz asarida G. fon der Gabelens fikrining tasdigʻi sifatida yozadi: bitik – bicik uchun boshqa etimologik holatni ham koʻrsatish mumkin: yunoncha «Pittahioy» fonetik nuqtayi nazardan turkiy tildagi bitik leksemasining tovush tarkibi bilan mos keladi. «P» oʻrniga «b» tovushining almashuvi qadimgi turkiy til uchun xos holatdir,

«a» oʻrnida «i» ning boʻlishi singarmonizm taʼsirida oldingi boʻgʻindagi «i» bilan bogʻliqdir. Shuningdek, yapon etimologlari qadimgi yapon tilidagi «fude» (yozuv moʻyqalami) soʻzining ildizlarini ushbu xitoycha pit soʻziga borib taqalishi haqidagi ehtimolni ilgari surishgan». Tarixdan yaxshi maʼlumki, qadimda turklar yashash joylari va hayotiy jihatdan xitoyliklar bilan yaqin aloqada boʻlganlar. Shu sababli ular har ikkisi ham bir-birlaridan turli jihatlardan taʼsirlanganlar. Chunki oʻzaro qoʻshni va turli siyosiy tuzumlar taqozosi bilan asrlar davomida birga yashab kelgan xalqlar madaniyati, koʻp hollarda, bir-biriga oʻz taʼsirini oʻtkazib kelgan. Toʻnyuquq bitigtoshidagi matndan ham anglashiladiki, turk xoqonligining Xitoy davlati bilan aloqalari juda yaqin boʻlgan. Baʼzi davrlarda unga bogʻliq ham boʻlib qolgan. Ushbuning tasdigʻini quyidagi satrlar orqali ham koʻrishimiz mumkin: «(1) Bilga Toʻnyuquq ban uzun Tabgʻach alinga qylyntym. Turuk bodun Tabgʻachqa korur arti. Yaʼni: Bilga Toʻnyuquq men oʻzim Tabgʻach davlatida tarbiyalandim. Turk xalqi Tabgʻachga qarar edi. (2) Turk bodun qanym bolmayym Tabgʻachda adrylty, qanlanty, qanym qodup Tabgʻachqa yana ichikdi. Tangri ancha tamish arinch: qan bartim.y: Turk xalqi xoni bilan boʻlmayin, Tabgʻachdan ayrildi. Xonlik boʻldi. Xonini qoʻyib, yana Tabgʻachga qoʻshildi (taslim boʻldi). Tangri shunday degan shekilli: Xon berdim». Ushbu matnga berilgan izohda yozilishicha, «Toʻnyuquq turk zodagonlarning Tabgʻach (Xitoy) imperatori saroyida garov sifatida ushlab turilgan oʻgʻillaridan biri edi. Bunday kishilarga ular xitoycha nom berib, xitoycha oʻqitar va xitoyparastlik ruhida tarbiya berishar edi». Demak, turk va xitoy xalqlarining bir-biriga yaqinligi har ikki tilda ham oʻz aksini topgan. Bunday tarixiy vaziyatlar koʻp hollarda moʻgʻulcha, u orqali esa, xitoycha soʻzlarning turkiy tillarga oʻzlashishiga zamin yaratgan. Bu esa, «biti»ning turkiy (oʻzbek) til(i)ga xitoychadan moʻgʻul tili vositasida oʻzlashgan, degan fikrning tugʻilishiga muayyan shart-sharoit yaratadi. Lekin biz aksariyat hollarda turkiy tillarga oʻzlashgan moʻgʻulcha soʻzlar haqida koʻproq gapiramiz, lekin buning aksi, yaʼni bu xalqlar oʻrtasidagi tarixiy yaqinlik turkiy soʻzlarning moʻgʻul va xitoy tillariga oʻzlashishiga ham zamin hozirlagan

bo'lishi tabiiyligini nazardan qochiramiz. Albatta, bu bilan biz muayyan tarixiy vaziyatlarda turkiy tillarga kirgan mo'g'ulcha elementlarni inkor etmoqchi emasmiz. Umuman, har bir til o'zining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida qaysidir darajada o'zga tillar ta'siriga tushadi. Chunki muayyan bir til sohibi bo'lmish xalq boshqa xalqlardan butunlay ajralgan holda yashay olmaydi. Xalqlar o'rtasida turli davrlarda turli ko'rinishdagi aloqalar, xususan, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar, o'zaro do'stlik, yaxshi qo'shnicilik kabi munosabatlar mavjud bo'lib kelgan. Dunyoning barcha xalqlari o'rtasidagi bunday munosabatlar tilda u yoki bu ko'rinishdagi o'z izlarini qoldiradi. Ayni shunday holatlarni tarixan yaqin yashagan qadimgi turk, mo'g'ul va xitoy xalqlarining tillarida ham to'liq kuzatish mumkin. XII-XIII asrlarda «biti»ning boshqa fe'l shakli – «bit»ning o'rtaga chiqqanligi kuzatiladi. Bu holat ikki xil yo'sinda izohlanadi, birinchidan, fe'lning bu shakli G. Ramstedt taxmin qilganidek, xitoychadan omofon ot shaklida turkiy tillarga o'zlashgan. Ikkinchi farazga ko'ra, «bit» shakli turkiy til negizida qadimgi so'z yasalishi modeliga uyg'un holda vujudga kelgan. Shu o'rinda E. Sevortyan «biti» haqida yana bir farazni ilgari suradi: «Turkiy «biti» mo'g'ulchada (toshga, metallga) yozmoq, chizmoq ma'nolarini anglatuvchi «bici» bilan mos keladi. O'ylash mumkinki, balki, oltoycha «bichi» mo'g'ul tilidan dastlabki turkiy «biti»ni siqib chiqargan bo'lishi ham mumkin». Shuningdek, «bit//biti» fe'lidan ish-harakatning natijasini ifodalovchi umumturkiy bitik ~ bitig ot shakli yasalgan bo'lib, u quyidagi ma'nolarni anglatgan: 1) xat, maktub; 2) kitob; 3) hujjat; 4) nimadir yozilgan manba yoki narsa); 5) tumor; 6) harflar va b. .Sevortyan o'z lug'atida G.Dyorferning turkiy yasama bitik ~ bitig terminining aniq morfologik tarkibga ega ekanligiga suyanib, uni «hujjat» ma'nosini ifodalovchi sankritcha pitaka, toxarcha pidaka hamda so'g'dcha p?k (buyruq, qonun-qoida)lar bilan tenglashtirishga oid urinishlarini ortiqcha deb hisoblaydi. Gaben o'zining qadimgi turkiy tilga oid tadqiqotlarining yakuni sifatida «bit» fe'li bilan bog'liq ba'zi fikrlarini beradi. Unga ko'ra: «bit – yuz, bet; bit – yozmoq; bitig, ptig – yozuv, harf, maktub, vasiyatnoma, kitob; bitiguci –yozuvchi

(kotib); bitit – yozdirmoq; bitkaci – yozuvchi (kotib)». Bu o‘rinda A. fon Gaben «biti»ning qaysi tildan o‘zlashganligi haqida hech qanday ma’lumot berib o‘tmaydi. Lekin «bi» haqida to‘xtalganda, uni xitoycha pei < hi (pi) bilan bog‘lab, «yozuvli tosh» ma’nosida kelganini ko‘rsatib o‘tadi. Ayni zamonda, «bi»//«pi» orqali «pichoq» ma’nosi ifodalashini yozadi va pichoq leksemasi «bi» so‘ziga o‘zbek tilida kichraytirish ma’nosini ifodalovchi «cak» (choq) qo‘shimchasi qo‘shish orqali yasalganini ta’kidlaydi. Boshqa bir manbada quyidagicha fikr bildiriladi: «Pichoq tarixan b--ch--q holidan o‘zbek, uyg‘ur, turkman tillarida b>p holida, ya’ni bchq > pchq, qozoq, qoraqalpoq tillarida bchq > pshq formasida shakllanib, qirg‘iz tilida qadimgi bchk holida saqlangani bilan xarakterlanadi. Pichoq so‘zining etimologiyasini qadimgi bi – tig‘, dam, qirra so‘zi bilan bog‘liq holda tushuntirish mumkin, ya’ni bi (tig‘) ch (otdan fe’l yasovchi affiks) - bich, bichmoq bo‘lib, keyinchalik bichmoq fe’lining o‘zagi bich ga so‘z yasovchi - ak affiksining qo‘shilishi tufayli bichaq so‘zi yasalgan. Keyinchalik, har bir til o‘z oldiga fonetik o‘zgartib olgan deb aytish mumkin. Buni tubandagi formula bilan izohlash mumkin: bi+ch > bich +ak > bichak – pichoq, pishaq». Bizningcha, ikkinchi fikr tarixiy haqiqatga yaqinroq. «Kiyim-kechakning taxliti, fasoni, bichimi»ni anglatuvchi bichiq termini ham ayni shu shaklda, ya’ni «bich» fe’liga –(i)q qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan: bich+iq + bichiq. Professor A.K.Borovkov ham bitik leksemasining «yozuv, xat» ma’nolarida kelishini va uni uyg‘urcha arxaik so‘z sifatida izohlaydi. Demak, *bitik - bitig* termini etimologiyasi haqida turlicha qarashlar mavjud. Shu o‘rinda yana bir taxmin ham tug‘iladi: qadimda, xususan, o‘rxun-enisey bitiklari toshlarga keskir qurollar yordamida o‘yib yozilgani ma’lum. Shunga ko‘ra asli turkiy so‘z bo‘lgan «bi» ot shaklining qadimgi turkiy tilda pichoq, tig‘, keskir asbob, qurol ma’nolarini anglatganini inobatga olgan holda «bit» fe’lining asli turkiy «bi» otiga «t» - otdan fe’l yasovchi affiks qo‘shilishi natijasida yasalgan so‘z sifatida qabul qilishimiz mumkin. Turkiy tillarda fe’l asosga – q|- k || - g’| -g affiksi qo‘shilishi natijasida ish-harakatning natijasini yoki fe’ldan anglashilgan harakat jarayoni bilan bog‘liq



bo‘lgan narsa, predmetlarning nomini anglatuvchi ot yasalishi mavjud holat. Bunda ushbu affiks «undosh bilan tugagan fe’llarga qo‘shilganda affiks oldidan unli orttiriladi: bich+aq, qorq+ug‘, sat+iq (sat+ig‘) kabi» yoki qaymoq ( qayiq, bo‘g‘moq ( bo‘g‘iq, to‘shamoq ( to‘shak, elamoq ( elak va h.z.. Bu esa, o‘z navbatida, bitik ~ bitig leksemasining, pichoq so‘zi singari, turkiy «bi» bilan bog‘lagan holda, qadimgi turkiy tilda bi++(i)k shaklida yasalgan bo‘lishi mumkin degan yana bir xulosaga kelishimizga asos bo‘la oladi.

Ko‘rib o‘tilganidek, etimologik tahlillar murakkab bo‘lishi bilan birga aniqlikni ham talab etadi.

**Frazeologiya.** Frazeologiya *fraza* va *logos* so‘zlaridan olingan bo‘lib, *fraza* so‘zi “ibora”, *logos* so‘zi “bilim” ma’nosini bildiradi. Ya’ni frazeologiya iboralar haqidagi bilim demakdir. Iboralar o‘z ichiga *turg‘un birikma xolidagi atamalarni, parafrazalarni va frazeologizmlarni* oladi.

Demak, ibora keng tushuncha; uni frazeologizm bilan tenglashtirish mumkin emas, frazeologizm uning tarkibiga kiradi.

**Birikma atamalar.** Ular ko‘proq terminologik xarakterda bo‘ladi va u birikma holda bir tushunchani beradi. Bironta sodda yoki murakkab fikrni ifodalash uchun gapiruvchi so‘zlarni ma’lum bir qonun-qoidaga asosan biriktiradi. Gapning sintaktik konstruksiyasiga mos ravishda tanlanayotgan so‘zlar ifodalanayotgan mazmunga va uslubiy vazifaga juda mos bo‘lishi kerak. Masalan, *Bugun ertalabdan kun sovuq bo‘lyapti.* Ushbu gapdagi so‘zlar gapiruvchi etkazmoqchi bo‘lgan fikrga mos bo‘lganligi uchun ishlatilgan. Shu bilan birga, har bir tilda ma’lum so‘zlarning birikuvida o‘ziga xos cheklanishlar mavjud. Bu cheklanishlar antijasida tilda ma’lum bir so‘z birikmalari hosil bo‘ladiki, biz ularga odatlanib qolamiz. Bu so‘z birikmalaridagi so‘zlar o‘zaro semantik jihatdan bog‘liq bo‘lib qoladi. Bu odatlanib qolingan so‘z birikmalaridan turg‘un birikmalarga o‘tish bir qadam bo‘lib qoladi. Turg‘un birikmalar deganimizda, har safar yangitdan so‘z birikmalarini moslashtirib o‘tirilmaydigan, nutqda tayyor bir butun tuzilma sifatida yaxlit qo‘llanadigan

birikmalarni nazarda tutamiz. Bu tipdagi turg'un birikmalar ayniqsa terminologiya uchun xosdir. Masalan: *oliy o'quv yurti, yengil avtomobil, ish yurituvchi* kabi. Ushbu so'z birikmalarining tarkibidagi so'zlar, yuqorida aytganimizdek, ifodalanayotgan mazmunga mos kelyapti. Lekin shunday hollar ham bo'ladiki, mazmun butunligi bilan ifodalayotgan so'zlar butunligi orasida nomoslik vujudga keladi. Mana shunday nomoslikka ega bo'lgan so'z birikmalari frazeologik birliklar deb ataladi. Ba'zan frazeologik birliklar erkin so'z birikmalari bilan mos bo'lishi mumkin.

**Parafrazalar.** Parafrazalar ma'lum bo'lagi yoki bo'laklari ko'chma ma'noda bo'lib, ular ma'nosi sintezidan tashkil topgan, bir tushunchani bildiruvchi lug'aviy birlikdir. Ular hamma vaqt birikma holatida bo'lib, konnotativ sema mavjud bo'ladi. Parafrazalarga misollar: *qalam ahli, mo'yqalam sohibi, dala malikasi, qora oltin, hayot ko'zgusi, ilm zahmatkashlari* va b.

**Frazeologizmlar.** Ular tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holatda kiritiladigan lug'aviy birliklardir. Turg'un birikmalarning obrazli, ko'chma ma'noga ega turi. Frazeologizmlar qaysi so'z turkumiga mansubligiga ko'ra: 1) fe'l frazeologizmlar (*avra-astarini ag'darmoq, boshi aylanmoq, haflasi pir bo'lmoq*); 2) ot frazeologizmlar (*dil oynasi, aql chirog'i*); 3) sifat frazeologizmlar – (*oq ko'ngil, beti qattiq, qo'li egri*) kabi turlari bor.<sup>114</sup>

**Leksikografiya.** Leksikografiya tilshunoslikning bir qismi bo'lib, ma'lum bir tilga xos so'zlarni to'plash, ularni muayyan bir sistemaga solish va lug'at tarzida nashr etish haqidagi hamda lug'at va uning tuzilishi, lug'at turlari to'g'risidagi bo'limidir. Leksikografiyaning vazifasi juda keng bo'lib, u qanday lug'at tuzish talab-eh-tiyojlariga javob berishi lozimligini ham o'z ichiga oladi. Shuni aytib o'tish kerakki, kishilarning yodda tutib qolish qobiliyati naqadar kuchli bo'lmasin, bir tildagi barcha so'zlarni, ularning xilma-xil ma'nolarini esda saqlash nihoyatda qiyin va

---

<sup>114</sup> **Mirtojiyev M.** Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent, 2004.

mumkin ham emas. Shuning uchun ham kishilarning madaniy hayotida turli xildagi lugʻatlarning ahamiyati juda kattadir. Kishilarning ana shunday madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun turli xildagi lugʻatlar tuzilgan va hozir ham tuzilmoqda. Hozirgi kunda ikki tillik tarjima lugʻati, koʻp tillik tarjima lugʻati, izohli lugʻat, ikki tillik differentsial lugʻat, terminologik lugʻat, tarixiy lugʻat, etimologik lugʻat, chet tillardan kirgan soʻzlarning lugʻati, dialektologik lugʻat, frazeologik lugʻat, idiomatik soʻzlar lugʻati, orfografik lugʻat va entsiklopedik lugʻatlar kishilarning madaniy ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilmoqda.

Soʻzlarning maʼlum maqsad bilan toʻplangan, tartibga solingan kitob yoki boshqa shakldagi toʻplami lugʻat deyiladi. Lugʻatlar turli maqsadlarda tuziladi. Shu sababli uning turlari ham koʻp. Lugʻatlar tildagi soʻzlarni, iboralar, maqol va matallar va turli nomlarni maʼlum tartibda oʻz ichiga olgan kitoblardir. Bunday lugʻatlar oʻtmishda qoʻlyozma shaklida ham boʻlgan. Leksikografiyaning vazifa doirasiga quyidagilar kiradi:

- a) lugʻat tuzish prinsiplari va metodikasini ishlab chiqish;
- b) lugʻat tiplari va turlarini aniqlash;
- v) lugʻatshunoslarning ishini tashkil qilish;
- g) lugʻat tuzish uchun asos boʻladigan kartoteka fondini yaratish;
- d) lugʻatchilik tarixini oʻrganish;
- e) lugʻat tuzish bilan shugʻullanish.

Lugʻatlar qoʻllangan maqsadga koʻra dastlab ikki tipga boʻlinadi:

1. Qomusiy (ensiklopedik) lugʻatlar.
2. Lisoniy (lingvistik) lugʻatlar.

**Qomusiy lugʻatlar.** *Qomusiy lugʻatlarda* tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalar, tarixiy voqea jarayonlar, buyuk shaxslar, ilm-fandagi nashriyotlar, buyuk nomlar, davlatlar, shaharlar haqidagi maʼlumot beriladi. Demak, bu tipdagi lugʻatlarda asosiy eʼtibor tildagi soʻzlarga emas, balki shu soʻzlar yoki soʻz

birikmalari vositasida nomlangan hodisalarga qaratiladi. Qomusiy lugʻatlar oʻz navbatida ikki turga boʻlinadi:

a) universal qomuslar. Bunday lugʻatlarda ishlab chiqarishning, fan, adabiyot, tabiat, jamiyat va hokazolarning barchasiga oid muxim tushunchalar, predmetlar, hodisalar va shu sohalarida tanilgan buyuk (arboblari, qahramonlar) shaxslar, olimlar, ixtirochilar, yozuvchilar, shoirlar, davlat arboblari, qahramonlar, sanʼatkorlar haqida maʼlumot beriladi;

b) soha qomuslari. Bunday qomuslarda faqat bir sohaga oid materiallar beriladi.

**Lisoniy lugʻatlar.** *Lisoniy lugʻatlarda* soʻz maʼnolari, imlosi, talaffuzi, iboralar, xalq maqollari, xullas, til birikmalariga oid maʼlumotlar beriladi. Demak lisoniy lugʻatlarda til va nutq birikmalari, til kategoriyalari haqida maʼlumot berish maqsad qilinadi. Lisoniy lugʻatlar ham dastlab ikki turga boʻlinadi:

a) umumiy lugʻatlar. Umumtil birliklari, ularning maʼnolari va qoʻllanish xususiyatlari izohlanadi;

b) xususiy (maxsus) lugʻatlar. Tilning lugʻat boyligidagi birliklar maʼlum sohalar boʻyicha yoki shu tildagi maʼlum mikrosistemalar, guruhlar boʻyicha tanlab izohlanadi. Shu sababli ular tarjima lugʻatlari deb ham yuritiladi.

**Tarjima lugʻatlar.** Bir tilning yaʼni tarjima qilinayotgan tilning lugʻaviy birligiga boshqa tilning maʼno jihatdan toʻgʻri keladigan ekvivalenti beriladi, oʻzga tilning lugʻaviy birligi tarjima etiladi, tavsiflanadi. Bunday lugʻatlarda boshqa bir tildagi soʻzlar ona tiliga yoki ona tilidagi soʻzlar biror boshqa tilga tarjima qilinadi. Tarjima lugʻatlarida bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda maʼno jihatdan bir-biriga yaqin sinonimlar avval, maʼno jihatdan bir-biridan uzoqroq sinonimlar keyin beriladi. Tarjima lugʻatlarining ikki tipi bor: 1. Oʻzga tildan oʻz tilga tarjima lugʻatlari. 2. Oʻz tildan oʻzga tilga tarjima lugʻatlari.

**Izohli lugʻat.** Vazifasi soʻzlarni toʻplab, ularning barcha maʼnolarini, ishlatish doirasini izohlab, tushuntirib berishdan iboratdir. Izohli lugʻatda lugʻaviy birliklarning

(soʻz yoki iboralarning) maʼnosi izohlanadi, lugʻaviy birlik koʻp maʼnoli boʻlsa, uning barcha maʼnolari keltiriladi.

**Imlo lugʻati** soʻzlarning imlo qoidalariga binoan qanday yozilishini qayd etadi. Imlo lugʻati (orfografik lugʻat) soʻzlarning toʻgʻri yozilishini koʻrsatadi. Imlo, yaʼni orfografik lugʻatning birdan-bir vazifasi bir tildagi soʻzlarni shu tilning grammatik qoidalari asosida toʻgʻri yozishni koʻrsatib berishdan iboratdir. Bunday lugʻatlar asosan amaliy maqsadlar uchun tuziladi.

**Orfoepik lugʻat.** Bu lugʻatda soʻzlarning adabiy talaffuzi qayd etiladi.

**Terminologik lugʻat.** - bir tilda yoki ikki tilda tuzilib, muayyan sohadagi terminlarni izohlashga qaratilgan lugʻat.

**Frazeologik lugʻat** - har bir tilga xos barqaror birikmalarning qanday hollarda ishlatilishi misollar bilan izohlangan lugʻat.

**Sinonimlar lugʻati.** Bunda soʻzlar sinonimlardan iborat boʻladi. Bunday lugʻatlar faqat tildagi sinonimik qatorlarni qayd etuvchi, yaʼni izohsiz yoki izohli boʻlishi mumkin.

**Chastotali lugʻat.** Bu lugʻatda soʻzlarning qoʻllanishi miqdori va foizi haqida maʼlumot beriladi. Bu tipdagi lugʻatlarda oʻzbek tilidagi soʻzlarning faollik darajasi koʻrsatiladi.

**Dialektal lugʻat.** Har bir tilning dialekt va shevalarga xos boʻlgan, fonetik yoki semantik jihatdan adabiy tildagi soʻzlardan farq qiladigan soʻzlarini qayd etadi.

**Teskari lugʻat.** Bu tipdagi lugʻatlarda soʻzlar tartibi soʻz boshidagi birinchi harf asosida emas, balki soʻz oxiridagi harflarning alfavitdagi tartibi asosida joylashtiriladi.

**Morfem lugʻat.** Soʻzlarning morfema strukturasi koʻrsatiladi. Ular lingvistik maqsadlarda tuziladi.

**Etimologik lugʻat.** Bu tipdagi lugʻatlarda soʻzlarning kelib chiqishi ilmiy asosda yoritiladi.

**Tarixiy lug‘at.** Bunday lug‘atda qadimgi yozuv yodgorliklaridagi eskirib qolgan, iste‘moldan chiqqan so‘zlarning ma‘nosi izohlanadi.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Leksikologiyaning obyekti, predmeti va vazifalari nimalardan iborat?
2. Leksikologiyaning turlari.
3. Leksikologiyaning bo‘limlari.
4. Til va nutq birliklarini izohlang.
5. So‘zni til birligi, so‘z formani nutq birligi sifatida izohlang.
6. So‘z va leksema o‘rtasidagi farqlar nimalarda ko‘rinadi?
7. Leksik ma‘no (denotat) va tushuncha (signifikat) nima?
8. Leksik ma‘no turlari. Sema nima? Semema nima? Nomema nima?
9. So‘zning semantik strukturasi qaysi semalardan iborat?
10. Leksik ma‘noning taraqqiyot yo‘llari. So‘z ma‘nosining kengayishi va torayishi.
11. Ko‘chma ma‘no hosil bo‘lish yo‘llari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik, tobelilikni izohlang.
12. So‘zlar o‘rtasidagi shakliy munosabatlar: Paronimiya. Omonimiya.
13. So‘zlar o‘rtasidagi semantik munosabatlar: Sinonimiya. Antonimiya. Giponimiya. Gradunomiya. Partonimiya.
14. Leksikografiya. Lug‘at turlari: ensiklopedik lug‘at, lingvistik lug‘at.

**Asosiy tushunchalar izohi:**

Leksikologiyaning obyekti tilning lug‘at boyligidir. Leksikologiyaning predmeti – lug‘at boyligining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini, tilning boshqa sathlari bilan aloqasini tadqiq etishdan iborat.

Leksikologiyaning turlari: 1) *Umumiy leksikologiya*; 2) *xususiy leksikologiya*. Xususiy leksikologiya o‘z navbatida *tavsifiy (sinxron) va tarixiy (diaxron) leksikologiyaga* bo‘linadi. 3) *Qiyosiy leksikologiya*.

Leksikologiya quyidagi bo‘limlarni qamrab oladi: 1) semasiologiya; 2) leksikografiya; 3) onomasiologiya; 4) etimologiya; 5) frazeologiya; 6) onomastika; 7) etnonimika; 8) terminologiya.

Hozirda tilshunoslikda, xususan o‘zbek tilshunosligida til birliklariga: *fonema, morfema, leksema (so‘z) va modellar*; nutq birliklariga: *tovush, so‘z (so‘z formasi), so‘z birikmasi, gap* va boshqalar kiritiladi.

Leksik va grammatik ma’nolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka **so‘z** deyiladi.

**Leksema** – shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan, voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, jamiyat a’zolari uchun umumiy, tayyor, majburiy bo‘lib, mustaqil anglanish va qo‘llanish tabiatiga ega bo‘lgan lisoniy birlikdir.

Leksema ikki tomonlama birlik bo‘lgani sababli tilshunoslik nazariyasida leksemaning shakliy tomoni – **nomema**, mazmun tomoni (leksik ma’no) - **semema** deyiladi. Nomema – *fonemalardan* tashkil topadi. Semema esa *semalardan* tashkil topadi.

Sema leksik ma’no (semema)ni tashkil qiluvchi mazmuniy qismlar va ma’no qirralaridir.

Leksema orqali nomlanuvchi (ataluvchi) voqelik, narsa-buYum denotat deb ataladi. Denotat lotincha *denotate* - “*belgilamoq*” so‘zidan olingan.

Tushuncha (signifikat) esa obyektiv borliqdagi narsa-hodisalarning kishi ongida umumlashgan tarzidagi in’kiosidir. Tushuncha mantiqiy kategoriya bo‘lib, u tafakkurga xos; leksik ma’no va uni ifodalovchi leksema esa tilga oid, til strukturasi tegishlidir.

Leksik ma’noning semantik tarkibi atash va ifoda semalaridan iboart. Atash semalari – semema tarkibidagi nomlash, atash semalaridir. Ifoda semalari - semema tarkibidagi uslubiy ma’no qirralaridir, ular so‘zda ko‘chma ma’no hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Soʻz leksik maʼnosi taraqqiyoti uch koʻrinishga ega: 1) leksik maʼning kengayishi va torayishi; 2) soʻz leksik maʼnosining koʻchma maʼno yuzaga keltirishi; 3) efemizm va disfemizm.

Leksik maʼning kengayishida u ifoda etgan denotat oʻz hajmini yoki xilini oshira boradi va uni bildirgan leksik maʼno doirasi ham kengaya boradi, leksik maʼning kengayish jarayoni kechadi.

Leksik maʼning torayishida u ifoda etgan denotatning maʼlum qismlari farqlanib, soʻz leksik maʼnosida torayish kechadi.

Koʻchma maʼning yuzaga kelishi yoʻllari quyidagicha:

1. Metafora. 2. Metonimiya. 3. Sinekdoxa. 4. Vazifadoshlik. 5. Tobelilik.

Efemizm bir narsani oʻz nomi bilan atashda noqulaylik tugʻilganda unga ijobiy, yoqimli his uygʻotuvchi belgi berish maqsadida xuddi shunday belgiga yaqin narsaning nomi bilan atash, yoki oʻsha noqulaylikni yopib yuboruvchi soʻz yoki lugʻaviy birlik bilan nomlashdir.

Disfemizm kishilarni oʻz nomlari bilan atamay, haqoratlash va kamsitish maqsadida tabiatdagi salbiy xarakterda deb bilgan jonivor yoki narsa nomi bilan atashdir.

Lugʻaviy birliklarning oʻzaro shakliy munosabati ikki koʻrinishdadir: 1) oʻzaro shakliy oʻxshashlik; 2) oʻzaro shakliy bir xillik.

Soʻzlarning oʻzaro shakliy oʻxshash boʻlishi paronimiya deyiladi. Talaffuzi (fonetik ifodasi) oʻxshash, ammo lugʻaviy maʼnosi farqli oʻzakdosh leksemalar paronimlar deyiladi.

Oʻzaro shakliy bir xil boʻlgan soʻzlar, yaʼni yozilishi va talaffuzi bir xil, maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlar omonimlardir.

Lugʻaviy birliklar oʻrtasidagi asosiy semantik munosabatlar quyidagilardan iborat: 1) sinonimiya; 2) antonimiya; 3) giponimiya; 4) graduonimiya; 5) partonimiya.



Yozilishi ham, talaffuzi ham boshqa-boshqa bo‘lib, umumlashgan, bir tushunchani ifodalaydigan, lekin ma’no nozikliklari jihatidan bir-biridan birmuncha farq qiladigan so‘zlar sinonimlardir.

Bir-biriga qarama-qarshi ma’noli so‘zlar antonimlar deyiladi. Antonim so‘zlarning xususiyati shundaki, ularning biri ikkinchisiga qarama-qarshi qo‘yilib, birining mazmuni ikkinchisini inkor etadi, birinchisining ma’nosi ikkinchisiga qarshi qo‘yiladi.

**Giponimiya** - lug‘at boyligidagi leksemalarning pog‘onali aloqasidan kelib chiqadigan semantik munosabatlaridir. Bunday munosabatlarning mohiyati shundaki, torroq tushuncha yoki ma’no ifodalayotgan leksemalar kengroq tushuncha yoki ma’no ifodalayotgan leksemalar bilan tur (giponim) va jins (giperonim) aloqasida bo‘ladi.

**Graduonimiya** - leksemalarning ma’no guruhlari a’zolarida u yoki bu belgining darajalanishidir.

**Partonimiya** leksemalarning ma’no guruhlari butun-bo‘lak munosabatlarining ifodalanishidir. Shunga ko‘ra partonimik munosabatda alohida olingan uzv(a‘zo)ning uni tashkil qilayotgan ichki a’zolari bilan munosabati ko‘rib chiqiladi.

Tilning lug‘at tarkibi turli qatlamlardan iborat. Shunga ko‘ra nutqda so‘zlarning ishlatilish doirasi cheklangan bo‘ladi. Cheklangan doirada qo‘llaniladigan so‘zlar turli ko‘rinishlarga ega. Bular asosan: dialektizmlar, kasb-hunarga oid so‘zlar, jargon va argolar, terminlar va b.

**Dialektizmlar** - shevaga xos so‘zlar bo‘lib, ular faqat muayyan hududdagina ishlatiladi. Leksik dialektizmlarning 2 turi mavjud: a) dilektizm-so‘z. Bunda so‘zning ifoda plani, demak, nomemasi shevaga xos so‘z bo‘ladi; b) dialektizm-ma’no. Bunda so‘zning ma’no plani, demak, sememasi shevaga xos bo‘ladi.

**Kasb-hunarga oid soʻzlar** ijtimoiy mehnatning u yoki bu turiga, ishlab chiqarish, ilm-fan, adabiyot-sanʼat va b. sohalarga oid narsa-hodisa hamda tushuncha nomlaridir.

**Jargon va argolar.** Jamiyatning baʼzi bir ijtimoiy guruhlari mehnat qilmay tekinoxʻrlik bilan hayot kechiruvchilar, chunonchi, oʻgʻri, bezori va qimorbozlar oʻzlarining yomon niyatlarini, yovuz maqsadlarini boshqalardan yashirish uchun soʻzlarga har xil maʼno berib qoʻllaydilar. Bunday soʻzlarga argo deyiladi.

*Termin* lotincha *terminus* soʻzidan olingan boʻlib, chegara, chegara belgisi, chek maʼnolarini anglatadi. Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan soʻz yoki soʻz birikmasi termin deb ataladi. Terminlar bir maʼnoli boʻlishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega boʻlmasligi kabi belgilari bilan ham umumisteʼmoldagi soʻzlardan farqlanadi.

Terminologiya – tilshunoslikning terminlarni oʻrganuvchi boʻlimi. Shuningdek, biror ilm, kasb va b. sohaga oid terminlar majmui.

**Leksik arxaizmlar** - hozirgi paytdamavjud boʻlgan voqelikning eskirgan nomi, aksincha, hozirgi tilda mavjud boʻlgan leksemaning eskirgan maʼnosi (sememasi). Yaʼni eskirish jarayoni leksemaga yoki yaxlit holda yohud uning bir qismiga (maʼnoaridan biriga) aloqador boʻladi.

**Leksik istorizmlar** oʻtmish voqeligi boʻlgan narsa-hodisalarning nomlaridir.

**Neologizmlar** - yangi narsa,tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan, hali odatdagi lugʻaviy birlikka aylanib ketmagan soʻz yoki iboralardir.

Etimologiya – tilshunoslik fanining muhim va murakkab sohasidir. *Etimologiya* soʻzi asli yunoncha *etymon* va *logos* soʻzlaridan tashkil topgan: *etymon* - soʻzi «chin, haqiqiy, asl mohiyat» maʼnosini, *logos* soʻzi esa «taʼlim» maʼnosini anglatadi. Shunga koʻra etimologiya sohasida soʻzlarning asl shakli va maʼnosini aniqlash boʻyicha izlanishlar olib boriladi.

Frazeologiya *fraza* va *logos* soʻzlaridan olingan boʻlib, *fraza* soʻzi “ibora”, *logos* soʻzi “bilim” maʼnosini bildiradi. Yaʼni frazeologiya iboralar haqidagi bilim demakdir. Iboralar oʻz ichiga *turgʻun birikma xolidagi atamalarni, parafrazalarni va frazeologizmlarni* oladi. Demak, ibora keng tushuncha; uni frazeologizm bilan tenglashtirish mumkin emas, frazeologizm uning tarkibiga kiradi.

**Birikma atamalar.** Ular koʻproq terminologik xarakterda boʻladi va u birikma holida bir tushunchani beradi.

**Parafrazalar.** Parafrazalar maʼlum boʻlagi yoki boʻlaklari koʻchma maʼnoda boʻlib, ular maʼnosi sintezidan tashkil topgan, bir tushunchani bildiruvchi lugʻaviy birlikdir. Ular hamma vaqt birikma holatida boʻlib, konnotativ sema mavjud boʻladi.

**Frazeologizmlar.** Ular tuzilishiga koʻra soʻz birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan maʼno anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holatda kiritiladigan lugʻaviy birliklardir. Turgʻun birikmalarning obrazli, koʻchma maʼnoga ega turi.

12. Leksikografiya tilshunoslikning bir qismi boʻlib, maʼlum bir tilga xos soʻzlarni toʻplash, ularni muayyan bir sistemaga solish va lugʻat tarzida nashr etish haqidagi hamda lugʻat va uning tuzilishi, lugʻat turlari toʻgʻrisidagi boʻlimidir.

13. Soʻzlarning maʼlum maqsad bilan toʻplangan, tartibga solingan kitob yoki boshqa shakldagi toʻplami lugʻat deyiladi. Lugʻatlar qoʻllangan maqsadga koʻra dastlab ikki tipga boʻlinadi: 1. Qomusiy (ensiklopedik) lugʻatlar. 2. Lisoniy (lingvistik) lugʻatlar.

## **12-§. GRAMMATIKA VA UNING BOʻLIMLARI. MORFOLOGIYA VA SINTAKSIS**

*Grammatika* soʻzi yunoncha “yozish sanʼati” maʼnosini bildiradi. Hozirda u tilshunoslik fanining bir tildagi soʻz tuzilishi, gapda soʻzlarning oʻzgarishi va birikishini oʻrganadigan ilmnning nomidir. U til qonunlarini oʻrganib, ularni yoritib

beradi. Har bir tilning asosi uning fonetik sistemasi, leksikasi va grammatikasidir. Grammatika vositasida gap quriladi. Til birgina leksikaning o'zidan emas, balki tilning lug'at tarkibi + fonetik sistemasi, grammatikasidan iboratdir.

***Lingvistik bilimlar so'zlovchi ongida namoyon bo'ladi va u grammatika deb ataladi. Lingvistik nazariya so'zlovchilarning ongida mavjud bilim va aqliy shakl bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi va keyin til nazariyasi yuzaga keladi. Biror grammatik bilim umumlashtirilsa hamda unda mantiqiy izchillik bo'lsa, u holda bu bilimlar tilning umumiy nazariyasiga kiradi, keyinroq grammatik nazariya sifatida shakllanadi. Bu grammatika bir tildagi barcha shakllarni: leksik qatlamni (so'zlar yoki lug'at), morfologiyasi (so'zlarning strukturasi), sintaksisi (so'z birikmasi, gap shakllari va strukturasi), semantikasi (so'z va gaplar ma'nolari), fonetika va fonologiya (tovushlar va tovush tizimi) o'zida aks ettiradi. Ushbu grammatika tarkibida o'ziga xos hamda universal komponentlar mavjud bo'ladi.<sup>115</sup>***

Grammatika so'zlarning o'zgarishi, gapdagi munosabati, o'zaro bog'lanishi haqidagi qoidalardan iborat bo'lib, u tilning izchil xarakterini ko'rsatadi. So'z o'zgarishining va gapda so'z birikishining grammatik qoidalari bor. Har bir til o'z grammatikasiga ega. Muayyan tilning grammatikasi umumiy qoidalar asosida o'rganiladi, yaratiladi.

So'zlarning o'zgarishi, birikishi haqidagi qoida shu tildagi bir guruh so'zlarga (masalan, otlar, fe'llarga) xos grammatik qoida bo'lib umumlashadi. Masalan, kelishik qoidalarini olaylik. *Akromga ayt*, emas, *Akromdan ayt*, desak, o'zbek tilining grammatika qoidasi buzilgan, o'zbek tili grammatikasidan noto'g'ri foydalangan bo'lamiz.

Grammatika so'zning ma'nosi bilan qiziqmaydi. Predmetning nomi yoki og'ir-engilligi bilan qiziqmaydi. Grammatika uchun masalan, *uy*, *dala*, *ariq*, *qog'oz*, *non*, *idrok* so'zlarining umumlashgan grammatik xususiyati, predmetning nomini

---

<sup>115</sup> Linguistics: The Scientific Study of Human Language. 2006. P.7

anglatishi muhim. Shuning uchun grammatika bu soʻzlarni ot kategoriyasiga kirgizib umumlashtiradi. Oʻzbek tilidagi ot kategoriyasining grammatik xususiyatlaridan biri kelishiklarda turlanishidir. Otning yana bir grammatik xususiyati birlik va koʻplik shakllarining mavjudligidir. Mana shu xususiyatlari va gapdagi vazifasi eʼtiborga olinib, ular ot turkumiga kiritiladi. Demak, umumlashtirish, mavhumlashtirish tilning eng muhim xususiyatidir. Grammatika ikki qismdan – morfologiya va sintaksisdan iborat.

Har bir tilda grammatik qoidalarning yoritilish darajasiga qarab ilmiy va anʼanaviy maktab grammatikasi yaratiladi. Grammatikaning morfologiya va sintaksis boʻlimlari oʻzaro zich bogʻlangan. Fonetikani baʼzi olimlar grammatikaga kiritmaydi, mustaqil boʻlim deb hisoblaydilar, baʼzilar grammatika tarkibiga kiritadilar. Ayrim amaliy mulohazalarga koʻra fonetikani ham grammatikaga qoʻshadilar. Demak, grammatik kategoriyalar, grammatik formalar, soʻz turkumlari (morfologiya) va gap boʻlaklari (sintaksis) haqidagi taʼlimot grammatika deb ataladi.

**Sintaksis.** Sintaksis grekcha soʻzdan olingan boʻlib, lugʻaviy maʼnosi tuzish degan tushunchaga toʻgʻri keladi. Sintaksis grammatikaning bir qismi boʻlib, gap qurilishi haqidagi taʼlimotdir. Gap va uning logik-grammatik tiplari sintaksisning oʻrganish obektidir. Soʻz birikmalari va gap boʻlaklari gap qurilishining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Gapda soʻzlarning oʻzaro sintaktik aloqaga kirish usullari sintaksisning “Soʻz birikmasi” bahsining obekti hisoblanadi.

Sintaksis grammatikaning ikkinchi qismi – morfologiya bilan uzviy bogʻliqdir. Morfologiya va sintaksis bir-birini toʻldiradi. Sintaktik kategoriyalar koʻpincha morfologiya bilan bogʻliq holda oʻrganiladi. Masalan, sodda gaplar paradigmasi morfologik kategoriyalar asosida bayon qilinadi. Baʼzi til hodisalari (kelishiklar, yordamchi soʻzlar) ham morfologiyada, ham sintaksisda oʻrganiladi. Demak, sintaksis soʻz birikmalarini, gap qurilishi va grammatik xususiyatlarini, gap turlarini, gap boʻlaklarini, bu boʻlaklarning oʻzaro birikish yoʻllarini oʻrganadi.

Asosiy sintaktik birliklar bo‘lib so‘z birikmasi va gap (sodda gap, qo‘shma gap yoki murakkab sintaktik qurilma) hisoblanadi.

**So‘z birikmasi.** Gapdagi so‘zlar ma’no talablariga ko‘ra o‘zaro turli sintaktik munosabatlariga kirishadi. Gapning butunligini, sintaktik jihatdan mustahkam jipsligini ana shu munosabatlar ta’minlaydi. Masalan: *Ilg‘or chilangar topshiriqni oshirib bajardi*. Bu gapda bir nechta so‘z birikmasini ajratib ko‘rsatish mumkin: *Ilg‘or chilangar, topshiriqni bajardi, oshirib bajardi*. Demak, so‘z birikmasi boshlang‘ich va eng muhim sintaktik birlik hisoblanadi.

Bir-biri bilan sintaktik jihatdan bog‘langan, birinchi darajali predikativlik munosabatiga ega bo‘lmagan, ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlar qo‘shilmasi so‘z birikmasi deyiladi. Yoki unga shunday ham ta’rif berish mumkin: “Ma’no va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan ikki va undan ortiq mustaqil so‘zlar so‘z birikmasi deyiladi”. So‘z birikmalari anglatgan ma’nolariga ko‘ra so‘zlarga o‘xshash: ular so‘zlar kabi nominativ atash funksiyasiga ega, narsa va hodisalarni ularning xususiyati bilan birga qo‘shib ataydi.

So‘z birikmalari gaplardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

- gaplarda predikativlik munosabati bor (ega-kesim munosabatida ifoda qilinadi), so‘z birikmalarida bunday munosabat yo‘q (so‘z birikmalarida yarim predikativlik mavjud bo‘ladi);

- gaplar bir so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin, so‘z birikmasida kamida ikkita mustaqil so‘z bo‘ladi;

- gaplar o‘z ohang tuzilishiga ega, so‘z birikmalarida bunday xususiyat yo‘q.

So‘z birikmasi sintaktik ta’limotning tarkibiy qismi bo‘lib, bunda so‘zlarning o‘zaro sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish usullari, so‘z birikmalari va ularning tiplari o‘rganiladi.

So‘z birikmalari bir – biri bilan moslashuv, boshqaruv va bitishuv yo‘li bilan bog‘lanadi.

**Moslashuv.** Soʻz birikmasi tarkibidagi tobe soʻz hokim soʻz shakliga mos keladi. Masalan: большой бассейн, большая река, talaba oʻqiydi.

**Boshqaruv.** Soʻz birikmasi tarkibidagi tobe soʻz hokim soʻz talab qilgan grammatik shaklni oladi. Masalan: встретил брата, читаю книги, sheʻrni yod oldim, stolni surib qoʻy.

**Bitishuv.** Soʻzlar hech qanday qoʻshimcha va yordamchi soʻzlarsiz birikib keladi. Ravish + feʻl, sifat + ot. Masalan: koʻp terdi, oq gul.

Soʻz birikmasi nutq formasi boʻlib, ergashish va munosabatdorlashish asosida hosil boʻladi. Ergashish usuli bilan birikkan soʻz birikmalari hamda munosabatdorlashish asosida tuzilgan soʻz birikmalari, komponentining munosabatiga koʻra, oʻzaro farq qiladi.

Ergashish asosida tuzilgan soʻz birikmalari hokim va tobe boʻlakdan iborat boʻladi: aniqlanib, toʻldirilib kelinayotgan boʻlak hokim, aniqlab, toʻldirib kelayotgan boʻlak tobe hisoblanadi. Soʻroq hokim boʻlakdan tobe boʻlakka beriladi: *Katta bino - qanday bino?*

Munosabatdorlashish asosida tuzilgan soʻz birikmalarida har ikki komponent oʻzaro munosabatdor: biri biriga hokim, biri biriga tobe: *Zulfiyaning kitobi.*

Soʻz birikmasining komponentlari mustaqil soʻzlardan boʻladi. Yordamchi soʻzlar, jumladan, koʻmakchi soʻzlar, soʻz birikmasining komponentlari boʻlolmaydi. Koʻmakchi soʻzlar oʻzlari aloqador boʻlgan mustaqil soʻz bilan birga soʻz birikmasining bir komponenti boʻlib keladi: telefon orqali gaplashmoq. Soʻz birikmasi soʻz, qoʻshma soʻz, turgʻun birikma va gaplardan farq qiladi.

Soʻz leksik hodisa, soʻz birikmasi grammatik hodisa. Soʻz, soʻz birikmasi kabi, nominativ funksiya bajarib, predmet, belgi, ish-harakatni umuman ifodalash uchun xizmat qiladi. Soʻz birikmasi esa predmet, belgi, ish-harakatni shu xildagi boshqa predmet, belgi, ish -harakatdan ajratib ifodalaydi. Qiyoslang: *Dala - koʻm-koʻk, koʻm-koʻk dala.*

Soʻz abstrakt maʼnoli boʻlib, birikmaga kirishgach uning maʼnosi konkretlik tomon siljiydi. Soʻz tarixiy kategoriya boʻlib, til birligi hisoblanadi, soʻz birikmasi esa nutq jarayonidagina hosil boʻladi. Shuning uchun ham u nutq birligi hisoblanadi.

Qoʻshma soʻzlarning komponentlari oʻrtasida grammatik munosabat yoʻq, ular oʻz leksik – semantik mustaqilligini yoʻqotib, bir bosh urugʻu olib, gapda bir sintaktik vazifani bajaradi. Soʻz birikmasining komponentlari oʻrtasida grammatik munosabat mavjud, ular leksik – semantik mustaqilligini saqlab, oʻz urgʻusiga ega boʻladi, gapda boshqa sintaktik funktsiyani bajaradilar.

Turgʻun birikmalar butunligicha yaxlit holda qoʻllanib, til birligi hisoblansa, soʻz birikmasi nutq protsessidagina hosil boʻladi. Soʻz birikmasidagi soʻzlar oʻz maʼnosini saqlaydi, turgʻun birikma (frazologizm)dagi soʻzlar esa butunicha oʻz maʼnosidan koʻchgan yoki komponentlarining biri oʻz maʼnosini oʻzgartirib yuborgan boʻladi. qiyoslang: *qoʻl qoʻymoq – daftarni qoʻymoq*.

Gap tuzish modellari, soʻz birikmasi modellari kabi, til birligi boʻlib, konkret soʻz birikmasi kabi, konkret gap ham nutq birligi hisoblanadi. Soʻz birikmasi nominativ kategoriya boʻlsa, gap kommunikativ kategoriyadir.

**Sintagma.** Sintagma gap ichida bir-birining ketidan kelib bir nafas bilan aytiladigan soʻzlar guruhidir. Shuningdek, sintagma bir soʻzdan ham hosil boʻlishi mumkin, u ritmik urgʻuga ega boʻladi, gap sostavidagi sintagmalar bir-biridan pauza bilan ajraladi.

Sintagma termini tilshunoslikda koʻpincha faqat sintaktik maʼnoda – bir-biridan qisqa toʻxtam orqali ajralib turadigan semantik– grammatik–intonatsion butunlik maʼnosida qoʻllaniladi. Lekin ayrim tilshunoslar bu terminning doirasiga bir soʻz tarkibidagi qoʻshimchalarni, morfemalarni ham kiritadilar.

A.A. Reformatskiy taʼrificha, ikki boʻlakdan iborat birikma sintagmadir, lekin bunday birikmalardagi boʻlaklarning maʼlum bir munosabatda boʻlishi (bogʻlanishi), ifodalangan maqsadga koʻra teng boʻlmaydi. Sintagma boʻlaklari shulardan iborat boʻlishi mumkin: birinchidan, biri ikkinchisini aniqlab kelish yoʻli bilan bogʻlangan



ikki soʻz: *qiziq xat, xat yozdim, chiroyli yozdim*; ikkinchidan, soʻzning morfologik qismlari, morfemalar, morfemalarning birikuvi: *talaba +man, bogʻbon+siz*: uchinchidan gapning bir boʻlagi boʻlib kelgan soʻz birikmalari: “*Ogʻriq tishlar*”ni koʻrdik. *Qoʻl uchi bilan ishlaydi*.

Sintagma boʻlaklari bir-biri bilan ikki xil munosabatda: predikativ munosabatda va predikativ boʻlmagan munosabatda boʻlishi mumkin.

*Predikativ munosabat (bogʻlanish)* eng asosiy, eng muhim munosabat boʻlib, bunda ikki boʻlak bir-biri bilan vaqt va mayl jihatdan bogʻlanadi. Predikativ sintagma bogʻlanishi jihatidan ikki xil : tashqi (*Oy chiqdi. Bola uxlayapti. Mashina toʻxtadi*) va yashirin (*Tun. Sovuq. Dahshat*) boʻladi. Yashirin sintagma tashqi koʻrinishda bir xil boʻlakli boʻlsa ham, aloqa vositasi sifatida tugal bir fikrni ifodalaydi.

Predikativ boʻlmagan sintagmalar quyidagicha:

*Atributivli sintagma.* Bunda aniqlovchi boʻlak aniqlanmishning biror belgisini koʻrsatadi: *yosh yigit, koʻm-koʻk dala, charchagan odam*.

*Obyektli sintagma.* Bu munosabatda izohlovchi (keng maʼnoda) boʻlak obektini bildirib keladi: *choy ichdi, xat yozuvchi, eshikni ochib*.

*Relyativli sintagma.* Bunda izohlovchi boʻlak hokim boʻlak-harakatning biror belgisini koʻrsatadi: *yaxshi oʻqiydi, sekin yur, qoʻpol gapirdingiz*.

Sintagmaning boʻlaklari moslashuv, boshqaruv va bitishuv yoʻli bilan bogʻlanadi. Masalan: *Yosh qiz ochilgan paxtani tez tera boshladi. Bu gap – yosh qiz / ochilgan paxtani / tez tera boshladi / paxtani tera boshladi / kabi toʻrt sintagmadan iborat boʻlib, yosh qiz ochilgan paxtani tez tera boshladi – bitishuv yoʻli bilan, paxtani tera boshladi – boshqaruv yoʻli bilan bogʻlangan. Faqat izohlovchi boʻlak emas. Bu gapdagi sintagmalardan qiz tera boshladi predikativ munosabat bilan, yosh qiz, ochilgan paxta(ni) atributiv munosabat bilan, paxtani tera boshladi obyektli munosabat bilan, tez tera boshladi relyativ munosabat bilan bogʻlangandir.*

Soʻz birikmasining sintagmadan farqlanuvchi taraflari quyidagicha:

Sintagma nutq bilan, gapirish jarayoni bilan bog'liq bo'ladi, u muayyan ritmik urg'u va pauza yordamida reallashadi, so'z birikmasida bunday xususiyat yo'q. Sintagmalar nutq jarayonida ritmik guruhlar bilan bir-biridan ajralarkan, ko'p vaqt o'zining hajmi va chegarasi e'tibori bilan gapga ham, so'z birikmasiga ham mos kelmaydi. Ayniqsa, bu fikr oddiy so'zlashuv tiliga nisbatan to'g'ridir. Oddiy so'zlashuv tilida sintagmalar bir-biri bilan birlashib (qo'shilib) ketishga moyil bo'ladi. Sintagma birgina so'zdan ham tuzilishi mumkin, shuningdek, so'z + ko'makchi kabi birikmalar ham sintagma hisoblanishi mumkin, ammo so'z birikmasida bunday xususiyat yo'qdir.

Nutqdagi har qanday sintaktik hodisa ham sintagmatik kategoriyaga taalluqli bo'ladi, so'z birikmalarining har qanday turi ham, hech istisnosiz, sintagmatik kategoriyaga aloqador bo'ladi. Bog'lanishning faqat tobelanish yo'li bilan birikkan turigina so'z birikmalari bobida o'rganiladi.

Sintagma nutq jarayoni bilan bog'liq bo'lgan sintaktik birlik bo'lganligi uchun (agar u birdan ortiq so'zdan tuzilgan bo'lsa) sintagmani tashkil qilgan komponentlar yonma-yon turmog'i shart, erkin so'z birikmasiga bunday qoidani berib bo'lmaydi. qoida buzilgudek bo'lsa, bo'lakni sintagmatik qayta ajratish kerak bo'ladi.

So'z birikmasida doimiy ish ko'ruvchi grammatik qolip (model) mavjud, sintagmatik bo'linishda bunday qolipning bo'lishi mumkin emas.

Sintagmada fonetik - stilistik talab birinchi o'rinda turadi, ya'ni sintagma nutq intonatsion mazmunining bo'linishi natijasida yuzaga keladi, bu jihatdan so'z birikmasi undan sifat jihatdan keskin farqlidir.

### **Gapda so'zlarning o'zaro sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar.**

Gapda so'zlar turli vositalar yordamida sintatik aloqaga kirishadilar. Bular quyidagilar:

1. Formal - grammatik vositalar. Bularga so'z o'zgartuvchilar (egalik, kelishik, shaxs-son affikslari) kiradi: *mening kitobim, Zulfiyani ko'rmoq, men o'qidim.*

2. Leksik - gramatik vositalar. Bularga ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, bog‘lamalar kiradi: *Nazira uchun olmoq, daftar va qalam, keldi-da ketdi, men o‘qituvchi bo‘laman.*

3. So‘zlar tartibi: *katta bino – Bino katta.*

4. Intonatsiya:

Pauza: *katta (mevali daraxt – katta mevali) daraxt.*

Melodika – tovushning baland – past bo‘lib toblanishi: *Mahfuza keldi?*

Logik urg‘u: *Men institutda o‘qiyapman. Men institutda o‘qiyapman. Men institutda o‘qiyapman.*

**Gapda so‘zlarning o‘zaro sintaktik aloqaga kirishish usullari.** So‘zlar o‘zaro tenglashish, ergashish, munosabatlashish, moslashish orqali sintaktik aloqaga kirishadi.

Tenglashishda sintaktik jihatdan teng bog‘lovchilar yordamida sintaktik aloqaga kirishadi. Bunda ochiq va yopiq qator hosil bo‘ladi: *Zulfiya va Feruza birga dars tayyorlashdi* (yopiq qator). *Zulfiya, Feruza, Nargiza, Dinoralar birga dars tayyorlashdi* (ochiq qator).

Ergashishda biri hokim, biri tobe bo‘laklar sintaktik aloqaga kirishadi: *beshta daftar, vazifani bajarmoq.*

Munosabatlashishda biri ikkinchisini taqozo qiladigan so‘zlar sintaktik aloqaga kirishadi. Bunda biri ikkinchisiga hokim, biri ikkinchisiga tobe: *Salimning daftari.* Bu tip konstruksiyalarda birinchi komponentning belgisiz kelishi ham mumkin: *institut kutubxonasi.*

Moslashishda ega va kesim formasiga ko‘ra, ya’ni shaxs – sonda moslashadi: *Men o‘qidim. Siz keldingiz.* Uchinchi shaxsda son jihatidan doimo moslashish shart emas. Qiyos qiling: *Ular keldilar – Ular keldi.*

So‘z o‘zaro sintaktik aloqasi predikativ hamda noprediktiv bog‘lanish hosil qiladi. Moslashish predaktiv bog‘lanish, tenglashish, ergashish, munosabatlashish nopredikativ bog‘lanish hosil qiladi.

Tenglashish uyushiq bo‘laklar, moslashish gap, ergashish va munosabatlashish so‘z birikmasi hosil qiladi.

Ergashish boshqaruv va bitishuv usullarini o‘zida birlashtiradi.

**Boshqaruv.** Bunda hokim bo‘lak tobe bo‘lakning ma’lum formada kelishini talab qiladi. Bunda bog‘lanish ham semantik, ham grammatik jihatdan yuz beradi. Boshqaruvda tobe bo‘lak kelishikli va ko‘makchili konstruksiya shaklida bo‘ladi. Qiyos qiling: *Zulfiyani ko‘rmoq. Zulfiya uchun olmoq.*

**Bitishuv.** Bunda tobe va hokim bo‘lak grammatik ko‘rsatkichlarsiz aloqaga kirishib, semantik jihatdan bog‘langan bo‘ladi. Bitishuvda aloqa tartib va intonatsiyadan bilinib turadi: *katta bino; bu kitob; beshta qalam; tez o‘qimoq; kulib gapirmoq; o‘qigan bola.*

**Gap.** Aloqa-aralashuv vositasining eng kichik birligi gapdir. Gap tuzish modellari til birligi bo‘lsa, konkret gaplar nutq birligidir.

O‘bektiv borliq va unga bo‘lgan munosabatni ifoda qilib, nisbiy tugal fikr yoki his-tuyg‘u anglatib, tugal intonatsiyaga ega bo‘lgan so‘z hamda grammatik qonun-qoidalar asosida o‘zaro birikkan so‘zlar bog‘lamasi gap deyiladi.

**Gapning asosiy logik-grammatik belgilari.** Har qanday gapda obektiv borliq va unga bo‘lgan munosabat ifoda qilinadi. So‘zlovchi shaxsning aytilayotgan fikrga bo‘lgan munosabati predikativlikdir. Predikativlik gapning grammatik ma’nosini ifoda qiladi. U gap hosil qiluvchi kategoriya bo‘lib, gapda ifoda qilinayotgan fikrning borliqqa bo‘lgan munosabatini modal planda ham zamon va shaxs-sonda ifoda qiluvchi kategoriyadir.

Modallik predikativlikning tarkibiy qismi bo‘lib, fe‘l mayllari, modal so‘zlar bilan ifoda qilinadi. Umuman, predikativlik sintaktik mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari, modal so‘zlar va intonatsiya orqali ifodalanadi. Sintaktik mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari morfologik mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalaridan farq qiladi. Sintaktik mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalarining ma’nosi kengdir: bir

mayl, zamon, shaxs-son formasi nutq protsessida boshqa mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarini ifoda qilish uchun ham qo'llanishi mumkin.

Har qanday konstruktsiya gap bo'lib kelish uchun tugallangan intonatsiyaga ega bo'ladi. Jonli nutqda bir gap ikkinchi bir gapdan tugallangan intonatsiya (pauza) bilan ajralib turadi. Yozuvda esa bu tegishli belgilar (nuqta, so'roq, undov belgilari) bilan ko'rsatiladi. Mana shu belgiga ega bo'lmagan ayrim predaktiv konstruktsiyalar gap hosil qilmay, birikmali aniqlovchi hisoblanadilar: *Zulfiya o'qigan kitob juda qiziqarli ekan. Uzoqdan bo'yi baland yigit ko'rindi.*

Gapda fikrning barcha formalari (hukm, so'roq, buyruq) ifoda qilinadi. Bular nisbiy tugal bo'ladi. Demak, gap fikr formalarining birortasiga ham teng bo'lmaydi. Gap doirasi ulardan keng. Gap grammatik kategoriya, fikr formalari esa logik kategoriyalardir.

Gap bir so'z yoki so'zlar bog'lamasidan tashkil topadi. Bir so'zning gap bo'lib kelishi maxsus intonatsiya orqali ifodalanadi: *Bahor. Hamma yoq ko'm-ko'k.*

Gap so'zlar bog'lamasidan iborat bo'lganda, uning bo'laklari ma'lum grammatik qonun-qoidalar asosida sintaktik aloqaga kirishadilar. Bu tip gaplarda predaktivlik mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari, modal so'zlar bilan ifodalanadi: *qirdan g'ir-g'ir shabada esadi.*

**Gaplarning tasnifi.** Gaplar quyidagi belgilar asosida tasnif qilinadi:

1. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.
2. Gapning voqelikka munosabat jihatidan turlari.
3. Gapning strukturaviy tasnifi:
  - a/ struktura asos /grammatik markaz/ning miqdoriga ko'ra turlari;
  - b/ struktura asosining tarkibiga ko'ra turlari;
  - d/ ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga ko'ra turlari;
  - e/ zarur bo'laklarning ifodalanishiga ko'ra turlari.
4. Gapning bo'laklarga ajralish-ajralmasligiga ko'ra turlari.

Gap kishi fikrini shakllantirishda, ifoda qilishda, boshqalarga bildirishda, umumiy fikr almashinuvda asosiy vositadir. Gap faqat muhokamani bildirmasdan, istak, buyruq, so‘roq kabi fikrlarni ham ifodalab keladi.

Gaplar ifoda etgan maqsadiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi; darak, so‘roq, undov, buyruq gaplar.

Gaplar tuzilishiga ko‘ra sodda va qo‘shma gap bo‘ladi.

**Sodda gap.** O‘z tarkibida birgina predikativ birlikka ega bo‘lgan, ma’lum fikr ifodalay oladigan, grammatik va intonasion jihatdan shakllangan sintaktik birlik sodda gapdir. Sodda gaplar bir tarkibli va ikki tarkibli bo‘ladi. Faqat yo ega, yo kesimdan iborat bo‘lsa bir tarkibli gap, ham ega, ham kesimga ega gaplar ikki tarkibli gaplar deb ataladi va ular yig‘iq, yoyiq gaplarga bo‘linadi. Faqat ega yoki kesimdan iborat bo‘lsa, yig‘iq gap; ega, kesim va ikkinchi darajali bo‘laklardan tashkil topsa, yoyiq gap deyiladi.

**Qo‘shma gap.** Ikki yoki undan ortiq predikativ birlikning intonatsiya va mazmun jihatidan bir butunlik hosil etishi bilan yuzaga keluvchi gap qo‘shma gap deyiladi. Qo‘shma gaplar bog‘langan va ergashgan bo‘lishi mumkin. Bog‘langan qo‘shma gaplardagi sodda gaplar teng bog‘lovchilar yordamida bog‘lanadi. Gaplar teng aloqador bo‘ladi. Qo‘shma gap tarkibida sodda gaplar to‘la mustaqillikni saqlamaydi. Ergashgan qo‘shma gaplarda ergash gap bosh gapni izohlab keladi. Ular bir-biriga ergash bog‘lanmalar, yordamchi so‘zlar bilan bog‘lanadi. Ergashgan qo‘shma gaplar bosh gapdan va ergash gapdan iborat bo‘ladi. Ergash gap bosh gapni butunicha yoki biror bo‘lagini izohlab keladi. Bugungi kun tilshunosligida qo‘shma gap termini o‘rnida *murakkab sintaktik qurilma* termini ishlatilmoqda. Bu termin ham qaysidir ma’noda o‘zini oqlaydi, chunki murakkab sintaktik qurilma tarkibiga nafaqat gaplar, balki boshqa birliklar ham kiradi.

Demak, tilning hamma qatlamlari o‘zi o‘rganadigan narsalarni umumlashtirish va mavhumlashtirish xususiyatiga ega. Fonetika o‘xshash nutq tovushlarini umumlashtirsa, leksikologiya atrof muhitdagi o‘xshash narsa va hodisalarni so‘zlar

orqali umumlashtiradi. Grammatikaning morfologiya qismi soʻzlarning maʼno xususiyatlari va morfologik belgilariga koʻra ularni turkumlarga (ot, sifat, son va shu kabilarga) birlashtiradi. Sintaksis esa yuqoridagi mavhum umumlashmalar oʻrtasidagi mazkur tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan munosabatlarni belgilaydi, yaʼni ayrim olingan muayyan soʻzlar orasidagi oʻziga xos, xususiy munosabatlarni emas, balki turkumlar orasidagi munosabatlar tilni bu yarusining ish mavzusi hisoblanadi. Til elementlari orasidagi mavjud munosabat pirovard natijada tilning asosiy vazifasi boʻlmish aloqa vazifasiga xizmat qiladi: odamlar orasidagi fikr almashish quroli vazifasini bekami-koʻst bajarishga imkon beradi. Til oʻzining bu vazifasini gaplar orqali amalga oshiradi. Demak, gap tilning asosiy birik malaridan boʻlib, odamlar orasidagi muloqotda muhim rol oʻynaydi.

**Gapning aktual boʻlinishi.** Gapning aktual boʻlinishi gapning formal boʻlinishiga qarshi qoʻyiladi. Agar formal boʻlinishda gap tarkibi grammatik elementlarga boʻlinsa, aktual boʻlinishda gap maʼno jihatdan boʻlinadi. Gapning formal boʻlinishining asosiy elementlari ega va kesim hisoblansa, aktual boʻlinishining asosiy elementlari gapning ifoda asosi, yaʼni maʼlum qismi hamda gapning yadrosi, yaʼni xabar qilinayotgan qismi hisoblanadi. Bunda fikr maʼlumdan nomaʼlumga qarab harakat qiladi.

Gapning aktual boʻlinishida fikrning maʼlum qismi *tema*, nomaʼlum qismi *rema* deb yuritiladi. Demak, gapning aktual boʻlinishida gap tema va remaga boʻlinadi: *Xotin-qizlar jamiyatimizning barcha sohalarida faol ishlamoqdalar*. Bu gapda fikrning maʼlum qismi – tema – *xotin-qizlar*, nomaʼlum qismi – rema – *jamiyatimizning barcha sohalarida faol ishlamoqdalar*.

Yoki qiyoslang: *Respublika oliy oʻquv yurtlari studentlarining olimpiadasi Toshkentda boʻldi*. *Toshkentda respublika oliy oʻquv yurtlari studentlarining olimpiadasi boʻldi*. Birinchi gapda tema - *Respublika oliy oʻquv yurtlari studentlarining olimpiadasi*, rema esa *Toshkentda boʻldi*; ikkinchi gapda esa tema *Toshkentda*, rema - *respublika oliy oʻquv yurtlari studentlarining olimpiadasi boʻldi*.

Anglatilayotgan fikr xarakteriga ko‘ra, bir gap turlicha aktual bo‘linishi mumkin. Qiyos qiling: *Erkin (sportda g‘olib chiqdi – Erkin sportda) g‘olib chiqdi. Biz (odamzodning eng yaxshi farzandlari orzu qilgan zamonda yashamoqdamiz – Biz odamzodning eng yaxshi farzandlari orzu qilgan zamonda) yashamoqdamiz.*

**Kirish konstruksiyalar.** Kirish konstruksiyalar so‘zlovchining gapning ayrim bo‘laklari yoki butun ifodaga bo‘lgan sub’ektiv munosabatini, emotsional tuyg‘ularini ifodalaydi: *Albatta, buyuk kashfiyotlar osonlikcha tug‘ilmaydi. Yolqin akang bundan ham kattaroq bir unvonni ko‘zlayapti, chamasi.*

Kirish vazifasida so‘z turkumida ajralib chiqib, faqat kirish vazifasida ishlatiladigan so‘zlar (*masalan, shekilli, albatta, demak, modomiki* kabilar), ma’lum so‘z turkumidan ajralib chiqmagan, kirish vazifasida ham gap bo‘lagi vazifasida ham qo‘llanuvchi so‘zlar (*qisqasi, rost, aftidan, oxiri* kabilar) keladi. Kirish konstruksiyalar strukturasi ko‘ra 3 xil: kirish bo‘laklar, kirish birikmalar, kirish gaplar.

**Kirish bo‘laklar.** Bular bir so‘zdan iborat bo‘lib, ma’lum so‘z turkumi bilan bog‘lanadilar. Shunga ko‘ra, kirish bo‘laklar quyidagi gaplarga bo‘linadi: a) ot tipidagi kirish bo‘laklar: *chamasi, taajjub, modomiki, odatda, oxiri, nazarimda, baxtimizga, baxtga qarshi, so‘ziga ko‘ra* kabilar; b) olmosh tipidagi kirish bo‘laklar: *menimcha, seningcha, uningcha*; d) sifat tipidagi kirish bo‘laklar: *so‘zsiz, to‘g‘ri, durust, qisqasi, tabiiy* kabilar; e) son tipidagi kirish bo‘laklar: *birinchidan, ikkinchidan* kabilar; f) ravish tipidagi kirish bo‘laklar: *dastlab, oxir, nihoyat, umuman, asosan, aksincha* kabilar; g) fe‘l tipidagi kirish bo‘laklar: *kechirasiz, bundan chiqdiki, anglashiladiki, deyman* kabilar.

**Kirish birikmalar.** Bular birikma holida bo‘lib, ularning strukturasi quyidagicha:

a) qaratuvchili kirish birikmalar: *uning fikricha, buning ustiga, sening nazaringda* kabilar;

b) sifatlovchili kirish birikmalar: *bir tomondan, shu shumladan* kabilar;



d) to'ldiruvchili kirish birikmalar: *menga desa, qisqasini aytsam, to'g'risini aytganda* kabilar;

e) holli kirish birikmalar: *qisqacha aytganda, boshqacha aytganda, ochiq gapirganda* kabilar;

f) aniqlovchi va to'ldiruvchili kirish birikmalar: *uning so'ziga qaraganda, sening gapingga qaraganda* kabilar;

g) aniqlovchi va holli kirish birikmalar: *uning ochiq aytishicha, uning ochiq gapirishicha*;

h) aniqlovchi, hol va to'ldiruvchili kirish birikmalar: *uning ochiq gapirishga qaraganda*.

**Kirish gaplar.** Bular gap shaklida bo'ladi: *Yolg'iz borishga, to'g'risini aytsam, qo'rqaman. Ibrohimov, qurbon ota aytmog'chi, gullarni o'z ilmidan bahramand qildi.*

Kirish konstruksiyalar quyidagilarni ifodalaydi:

1. So'zlovchining aytilayotgan fikriga bo'lgan munosabatini bildiradi. Bularga *albatta, ehtimol, balki, shubhasiz, haqiqatan, darhaqiqat, baxtimizga, afsus, essiz, so'zsiz, chamasi, shekilli, toleimizga, koshki, baxtga qarshi, muqarrar, ajab, to'g'risini aytganda, ochiq aytganda* kabilar kiradi. Bular quyidagi ma'nolarni anglatadi:

a) ishonch yoki tasdiqni (*albatta, shubhasiz, so'zsiz, haqiqatan, darhaqiqat, muqarrar* kabilar): *Haqiqatan, bu yil mashinada sakkiz yuz ellik tonna terishga va'da berganmiz. Darhaqiqat, bugungi sayr umrbod esda qoladigan bo'ladi.*

B) gumonni (*ehtimol, balki, chamasi, shekilli, aftidan*): *Ehtimol, oramizdan eski qadrdonlar chiqib qolar. Telejkalar paxtani tashib ulgurmayapti, shekilli.*

D) shodlik, mamnunlikni (*baxtimizga, toleimizga, xayriyat, shukur*): *Baxtimizga, o'rtoq Davronov uchrab qolib, bizni bu yerga ergashtirib keldi. Xayriyat, bugun havo ochiq bo'ladi.*

E) afsus, achinish, taajjubni (*afsus, essiz, nahotki, baxtga qarshi, ajabki*): *Afsuski, hikoya oxirida Salimning o'sha yili o'lganini aytib o'tmog'im lozim.*

F) orzu – umidni (*koshki, shoyad, koshkiydi*): *Koshki, akasi Yo'lchi bo'lsa edi.*

2. Aytilayotgan fikrning kimga qarashli ekanligini ifodalaydi. Bularga *menimcha, fikrimcha, aytishlaricha, ma'lum bo'lishicha, uning so'ziga qaraganda, uning qayd qilishicha, seningcha, nazarimda, sening gapingga qaraganda* kabilar kiradi: *Ernazar akaning aytishicha, bu yil saraton juda issiq boshlandi. Nazarimda, ro'zg'or va oshxona ishlarini Dilzodaxonning onasi qilar ekan.*

3. Aytilayotgan fikrning tartibini ifodalaydi. Bularga *birinchidan, ikkinchidan, avvalo, nihoyat, oxiri* kabilar kiradi: *Nihoyat, go'zal kunlarning birida zabardast odam bilan qudratli mashina cho'lning qoq o'rtasida uchrashdi.*

4. Aytilayotgan fikrning oldingi fikr bilan aloqasini ifodalaydi. Bularga *demak, xullas, xulosa qilib aytganda, anglashiladiki, shunday qilib, baribir, binobarin, ko'rinadiki, ochiq qilib aytganda, qisqasi, bir so'z bilan aytganda* kabilar kiradi: *Xullas, qo'shiq yana avjiga mindi. Shunday qilib, tarixiy shartnomaga qo'l qo'yildi. Baribir, suv ham, gaz ham o'sha hamma uylarga bitta trassadan boradi.*

5. Aytilayotgan fikrning odatda ro'y beruvchi hodisa ekanligini ifodalaydi. Bularga *odatda, odat bo'yicha, odatga ko'ra* kabilar kiradi: *Odat bo'yicha, shovqin solish, atrofidagilarni bezovta qilish, asabiga tegish man qilinadi.*

Kirish konstruksiyalar gap boshida, o'rtasida, oxirida keladi. Bu ularning ma'no va vazifasiga bog'liq.

Kirish konstruksiyalarning ba'zilar (*demak, haqiqatan, darhaqiqat, baxtimizga, to'g'ri* kabilar) ko'proq gap boshida, ba'zilar (*shekilli*) gap oxirida, ko'pchiligi, ko'pchiligi esa gap o'rtasida keladi.

Kirish konstruksiyalar gapda ba'zan birdan ortiq kelishi ham mumkin: *Shunday qilib, Mahmud, sening fikringcha, xalifaning Xorazmshohga alohida iltifot qilib qolishi zamirida biror g'araz yo'qmi? – savol berdi Beruniy.*

**Kiritma konstruksiyalar.** Kiritma konstruksiyalar gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik – semantik jihatdan munosabatga kirishadilar. Kiritma konstruksiyalar intonatsion jihatdan

mustaqillikka ega bo'ladilar. Ular biror so'roqqa javob bo'lmaydilar, sintaktik vazifa bajarmaydilar, gap bo'lagi yoki qo'shma gaplarning komponenti bo'lib hisoblanmaydilar.

Kiritma konstruksiyalar tushunilishi qiyin yoki tushinilmaydigan so'zlar (dialektizm, professionalizm, termin, jargonizm, arxaizm, istorizm kabilar) ma'nosini, ayrim leksik birliklarning talaffuzi va etimologiyasini izohlash, so'zlovchining sub'ektiv – emotsional munosabatini ifodalash, xabar manbaini ko'rsatish, qo'shimcha ma'lumotlar berish uchun xizmat qiladi: *Boshidagi qalampir nusxa qora do'ppisi ham (na chust nusxaga o'xshaydi, na marg'ilon nusxaga yangi. Engil atletika bo'yicha o'tkazilgan musobaqada Nazira Ermatova (Toshkentdan), Vali Nazarov (Buxorodan), Vera Ivanova (Smarqanddan) g'olib chiqdilar.*

Kiritma konstruksiyalar, strukturasi ko'ra, uch tipga bo'linadilar: kiritma bo'lak, kiritma birikmalar, kiritma gaplar.

**Kiritma bo'lak** ayrim so'z shaklida bo'ladi: *Go'daklikdan she'r yod ola boshlagan Alisher ajoyib natijaga erishdi. Ellik ming bayt (yuz ming satr) she'rni yod oldi.*

**Kiritma birikmalar** so'z birikmasi shaklida bo'ladi: *U (safardan qaytgan kishi)... juda mayda odatiy voqealarni ham qoldirmay so'zlar edi.*

**Kiritma gaplar** gap shaklida bo'ladilar: *Shu payt dumi kalta chavkar ot mingan qora soqolli keksa bir bek (yuzi ayollarniki singari tuksiz bo'lganidan, jangchilar o'zaro uni ko'sa deb atashardi) Husayinning yoniga yugurib keldi.*

Kiritma konstruksiyalar ko'pincha gap ichida, ba'zan gap oxirida keladilar, gap boshida kelmaydilar. Kiritma konstruksiyalar gapning barcha tiplari tarkibida kelishi mumkin. Ba'zan bir gap (ko'proq murakkablashgan gaplar) tarkibida bir necha bo'lishi ham mumkin: *Mehmonxonaga joylashib, soqol-mo'ylovlarni olib (Ochil sho'x harakat bilan yuzini siladi), keyin agitator sifatida (u ko'kragini kerdi) salobat bilan kirib bordim.*

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Grammatik kategoriyalarga izoh bering.
2. Morfologiya nimani o'rganadi?
3. Morf va morfemaga izoh bering.
4. So'zlarni turkumlarga ajratish prinsiplari necha xil bo'ladi?
5. So'z moddiy tarkibining o'zgarishiga izoh bering.
6. So'z birikmasini izohlang.
7. Sintaktik munosabat turlari: predikativ va nopredikativ bog'lanish nima, ularga misollar keltiring.
8. So'z birikmasining qo'shma so'z va gapdan farqini izohlab bering.
9. So'z birikmasining turlarini ko'rsating, misollar keltiring.
10. Arxaizmlar. Istorizmlar, ularning farqli jihatlari.
11. Sintagma nima?
12. Gap. Gapning aktual bo'linishi.
13. Kirish va kiritma konstruksiyalar.

### **Asosiy tushunchalar izohi:**

1. *Grammatika* so'zi yunoncha "yozish san'ati" ma'nosini bildiradi. Hozirda u tilshunoslik fanining bir tildagi so'z tuzilishi, gapda so'zlarning o'zgarishi va birikishini o'rganadigan ilmning nomidir. U til qonunlarini o'rganib, ularni yoritib beradi. Har bir tilning asosi uning fonetik sistemasi, leksikasi va grammatikasidir.
2. Grammatik kategoriya bir xil grammatik hodisalar, ayniqsa, grammatik so'zlarning har xil shaklidan qat'iy nazar majmui, yig'indisidir. Grammatik kategoriyalardagi bir xillik grammatik shakllarga, grammatik vazifaga qarab belgilanadi. Ma'lum ma'nodagi so'z bir necha grammatik shakllarni olishi mumkin, lekin so'zning ma'nosi o'zgarmaydi.
3. Morfologiya so'z shakllarini, so'zlarning leksik-grammatik jihatdan turlarini, bo'linishlarini, guruhlarini o'rganadi.

4. Morf nutqning morfologik yarusidagi eng kichik ma'no anglatuvchi birligi, morfema esa tilning morfologik yarusidagi eng kichik ma'no anglatuvchi birligidir.

5. So'zning har bir ma'noli qismi morfema deb ataladi. A.Hojiev morfemaga shunday ta'riy beradi: "Morfema- so'z va so'z shaklini yasash uchun xizmat qiluvchi lisoniy birlikdir".

6. Konversiya – yangi so'z yasash usuli bo'lib, bunda bir grammatik turkumdagi so'z boshqa grammatik turkumga o'tadi. Yangi so'z avvlgisidan morfologik, sintaktik xususiyatlariga ko'ra farq qiladi.

7. Reduplikatsiya o'zakning to'liq yoki qisman takrorlanish holati bo'lib, u so'z o'zgartiruvchi, so'z yasovchi qo'shimchalar vazifasini bajaradi.

8. Bir so'zning turli grammatik formalari turli o'zaklardan paydo bo'lishi suppletivatsiya deyiladi.

9. So'zlarning umumiy leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra bo'linishi so'z turkumlari deyiladi. Har bir tilda so'zlar turkumlarga ajratiladi. Bunda har xil prinsiplarga asoslaniladi. Ba'zan leksik ma'noni asosiy etakchi belgi qilib oladilar, ba'zan morfologiyani etakchi belgi qilib oladi.

10. Qo'shma yo'l bilan yasalgan negizlarni yasama negizlarga o'tish yoki qo'shma negiz bilan yasama negizni tub negizga o'tish hodisalari soddalashuv deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, ko'p morfemali so'zning bir morfemali so'zga o'tib qolish hodisasi tilshunoslikda soddalashuv deb nom olgan.

11. So'z moddiy tarkibi o'zgarishining qayta tuzilish yo'li deganda so'zdagi morfemalar chegarasining o'zgarishi va buning natijasida yangi affiksial morfemalarning paydo bo'lishi tushuniladi.

12. Murakkablashuv deganda, avval tub so'z hisoblangan so'zlarni yasama yoki murakkab so'zlar qatoriga o'tib qolishi yoki bir morfemali so'zlarni ikki va undan ortiq morfemali so'zlarga o'tib olishi tushuniladi.

13. Sintaksis so'z birikmalarini, gap qurilishi va grammatik xususiyatlarini, gap turlarini, gap bo'laklarini, bu bo'laklarning o'zaro birikish yo'llarini o'rganadi.

14. Bir-biri bilan sintaktik jihatdan boqlangan, birinchi darajali predikativlik munosabatiga ega bo'lmagan, ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlar qo'shilmasi so'z birikmasi deyiladi.

15. Sintagma gap ichida bir-birining ketidan kelib bir nafas bilan aytiladigan so'zlar guruhidir. Shuningdek, sintagma bir so'zdan ham hosil bo'lishi mumkin, u ritmik urg'uga ega bo'ladi, gap sostavidagi sintagmalar bir-biridan pauza bilan ajraladi.

16. Obyektiv borliq va unga bo'lgan munosabatni ifoda qilib, nisbiy tugal fikr yoki his-tuyg'u anglatib, tugal intonatsiyaga ega bo'lgan so'z hamda grammatik qonun-qoidalar asosida o'zaro birikkan so'zlar bog'lamasini gap deyiladi.

17. Kirish konstruksiyalar so'zlovchining gapning ayrim bo'laklari yoki butun ifodaga bo'lgan sub'ektiv munosabatini, emotsional tuyg'ularini ifodalaydi:

18. Kiritma konstruksiyalar gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga nutq protsessida kiritilib, gap bilan logik – semantik jihatdan munosabatga kirishadilar. Kiritma konstruksiyalar intonatsion jihatdan mustaqillikka ega bo'ladilar. Ular biror so'roqqa javob bo'lmaydilar, sintaktik vazifa bajarmaydilar, gap bo'lagi yoki qo'shma gaplarning komponenti bo'lib hisoblanmaydilar.

### **13.DUNYO TILLARINING GENEALOGIK TASNIFI. TIL OILALARI**

**Tillarning genealogik tasnifi.** Tillarning bir manbadan kelib chiqishini, qaysi tillar bir-biri bilan qardosh ekanligini, shu bilan birga so'zlarni, qo'shimchalarni va boshqa grammatik xususiyatlarni nazarda tutib, tillarni ayrim guruhlarga ajratadi. Genealogik tasnifda guruhlarga ajratilgan tillarning kelib chiqishi, so'zlarning paydo bo'lishi va manbai ularning ma'no jihatdan yaqinligi, shu bilan birga, ulardagi tovushlar va affikslar o'xshashligi hisobga olinadi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida qardosh tillardagi so'zlarning ma'nolari va grammatik xususiyatlarining o'zgarishi hamda tovush o'zgarishlari nazarda tutiladi. Shuning uchun genealogik tasnifda tillar

tarixini taqqoslab o'rganish usuli (qiyosiy-tarixiy usul) asosiy o'rinda turadi. Grammatik tuzilishlari va boshqa xususiyati jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan tillar guruhi til oilasi deyiladi. O'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, tatar va boshqa tillar turkiy tillar oilasiga kiradi. Bu qardosh tillardagi o'xshashlik, yaqinlik ularning so'z boyligi, grammatik qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, o'zaro qardosh bo'lmagan ba'zi tillarning so'z boyligidagi muayyan so'zlarda ma'no jihatdan o'xshashlik hodisalari uchrashi mumkin. Bunday hodisa bir tilga qardosh bo'lmagan boshqa bir tildan kirgan so'zlarda uchraydi. Masalan: o'zbek tiliga arab tilidan: *oila, maktab, lug'at, kitob*, singari; rus tilidan: *samovar, mashina, stol, stul, choynak* kabi anchagina so'zlar o'zlashgan. Lekin bunday so'zlar tillarning arab tili yoki rus tili bilan qardosh til ekanligiga asos bo'lolmaydi, Chunki birinchidan, bunday tillarning qardosh ekanligini isbot qilish uchun faqat so'zning o'zi asos bo'la olmaydi. Ikkinchidan, har bir tilning so'z boyligida boshqa tildan kirgan so'zlar ozchilikni tashkil etadi va ularning grammatik xususiyatlari butunlay boshqacha bo'ladi. Uchinchidan, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli munosabatlar tufayli boshqa tillardan kirib qolgan bunday tasodifiy so'zlar tillarning tarixini solishtirib, taqqoslab o'rganishda material bo'la olmaydi, Chunki bunday tillarning tuzilishi bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Tillarning qardosh munosabatlarni aniqlashda ularning bir o'zak tildan alohida bir til bo'lib chiqishida shu tilning tarixiy taraqqiyotini o'rganish muhim ahamiyatga molikdir. Qardosh tillarni taqqoslab o'rganishda, dastavval, har qaysi qardosh tillarda o'xshash bo'lgan bir materialning tarixiy taraqqiyot natijasida o'zgarib ketgan tomonlarini taqqoslab tekshirishning ahamiyati juda katta. Tillarni taqqoslab tekshirish, o'rganishda natijasida bu tillarning so'z ma'nolari, grammatik xususiyatlari va nutq tovushlarining bir-biriga muvofiq kelishi orqali qardosh tillarning yaqinligi, o'xshashligi aniqlanadi. Qardosh o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, ozarbayjon va qozoq tillaridagi bir necha so'zlarni qiyos qilib ko'rilsa, bu so'zlar shaklan u qadar o'xshamasa ham ma'no jihatdan bir o'zak tildan (bir manbadan) ekanligini aniq ko'rish mumkin. Masalan, o'zbek tilida *temir*, uyg'ur tilida *tomur*,

qozoq tilida *temer*, ozarbayjon tilida *demir*, qirg'iz tilida *temir*. Shu xildagi qardosh tilning grammatik tuzilishida ham ularning yaqinligi ko'rinib turadi. Masalan, turkiy tillardagi ko'plik qo'shimchasi –lar bilan sifat yasovchi –li (lik) suffikslarini solishtirib ko'raylik. O'zbek tilida: *ko'chalar*, uyg'ur tilida *kochilar*, qozoq tilida *kocholor*. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, qardosh tillarda so'z o'zaklari grammatik vositalar jihatidan farq qilsa ham ularning manbai bir bo'lib, ular bir o'zak tildan kelib chiqqan. Shuni aytib o'tish kerakki, tillarning qardoshligini faqat qon-qarindoshlik munosabatlariga bog'lash, ya'ni qardosh tillar hamma vaqt bir urug'dan, bir qabiladan paydo bo'ladi, deb tushunish xatodir. Qardosh tillar jamiyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida yo differentsiya yoki integrasiya yo'li bilan paydo bo'ladigan tarixiy hodisadir. Shuning uchun tillarning qarindoshligini biologik hodisa deb qarash ham xatodir.

***Tillarni guruhlarga ajratishda bir qancha mezonlar mavjud: so'zlar tartibi yoki tarixi asos qilib olinishi mumkin. Biz ikki narsani oldindan belgilab olishimiz kerak. Avvalo, tillar qiyosida ikki til elementlari o'zaro zidlanadi, ikkinchidan, vengr tilidagi bir so'z ingliz tilidagi bir necha tillarga o'xshab ketishining sabablari keltiriladi.<sup>116</sup>***

Tillarning genealogik tasnifi qardosh tillarning bir tildan, bir manbadan tarqalganligiga asoslangan. Dunyodagi tillarning taraqqiyot tarixi shuni ko'rsatadiki, qabila, elat, irq, hudud chegarasi bilan til chegarasi o'zaro to'g'ri kelmaydi. Masalan, Shimoliy Amerika Qo'shma Shtatlarida turli irqdagi xalqlar: ingliz, fransuz (oq irq), xitoy (sariq irq), negr (qora irq) va boshqalar yashaydi. Biroq Shimoliy Amerika Qo'shma Shtatlarida yashovchi bu xalqlarning hammasi asosan bir tilda – ingliz tilida aloqa qilishadi. Hindistonda 70 dan ortiq tilda, Xitoyda 30 dan ortiq tilda so'zlashadilar. O'rta Osiyoda o'zbek, tojik, qirg'iz, rus, arab, fors va boshqa tillarda so'zlovchi xalqlar yashaydi. Tilning boyligi irqning oq yoki sariq ekanligiga bog'liq emas. Shunday qilib, genealogik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida

---

<sup>116</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-P.42



bir o‘zak tildan tarqalganligini va ularning o‘zaro munosabatini, so‘z ma‘nolarini va grammatik shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, o‘xshashligini nazarda tutib tillarni guruhlarga ajratadi.

Hozirgi vaqtda o‘tmish tarixi o‘rganilib, bir-biri bilan qardosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi quyidagilardan iborat:

## **I. HIND-YEVROPA TILLARI OILASI**

### **1.Hind tillari guruhi**

A.A.Reformatskiyning yozishicha, bu guruhga 96 dan ortiq jonli til kiradi: 1) hind(i) va urdu tillari (ayrim manbalarda bu tillar umumiy tarzda «hindistoniy» deb ham atalgan). Hind tili Hindiston davlatining rasmiy davlat tili bo‘lib, qadimgi hind yozuvi - devanagarga asoslangan. Urdu tili esa Pokistonning davlat tili va u arab yozuviga asoslangan;

2) bengal; 3) panjob; 4) lahnda (lendi); 5) sindxi; 6) rajastxoniy; 7) gujarat (i); 8) maratxi; 9) singal; 10) nepal(i); 11) bixar(i); 12) oriya (Sharqiy Hindistonda odri, utkali); 13) assam; 14) lo‘li; 15) kashmir tili va boshqalar.

#### **O‘lik tillar:**

*ved tili* - hindlarning qadimgi muqaddas kitobi sanalgan «Ved»ning tili (eramizdan oldingi ikkinchinchi yilning birinchi yarmida paydo bo‘lgan);

*sankritcha* - qadimgi hindlarning eramizdan oldingi III asrdan eramizning VII asrigacha amalda bo‘lgan «klassik» adabiy tili (sankrit – samskrta, ma‘nosi - «qayta ishlangan», «uyg‘unlashtirilgan»; uning tersi – prakrta, ma‘nosi «normaga solinmagan» so‘zlashuv tili). Qadimgi hindlarning sankritchada yozilgan boy adabiy, diniy va dunyoviy boyliklari qolgan;

*paliy* - o‘rta asrlardagi adabiy va diniy sig‘inish tili;

*prakrit(iy)* – yangi hind tillarining paydo bo‘lishiga zamin yaratgan O‘rta Hindistondagi turli so‘zlashuv lahjalari.

## 2. Eron tillari guruhi

Bu guruhga o'ndan ortiq tillar kiradi. Bu til guruhiga kiruvchi tillar ba'zi xususiyatlari bilan hind tillari bilan ancha yaqin:

- 1) fors tili – yozuvi arab alifbosiga asoslangan;
- 2) dariy tili – (forsiy-qobuliy) – Afg'onistonning pushtu tili bir qatordagi adabiy tili;
- 3) pushtu tili – adabiy til, XX asrning 30-yillaridan e'tiboran Afg'onistonning davlat tili;
- 4) baluchi tili;
- 5) tojik tili;
- 6) kurd tili;
- 7) osetin tili;
- 8) tat tili;
- 9) talish tili;
- 10) Kaspiybo'yi (g'ilon, mozandaron) lahjalari;
- 11) Pomir tillari (shugnan, rushan, bartang kabilar);
- 12) yag'nob tili;

### O'lik tillar:

*qadimgi fors tili* – eramizdan oldingi VI – IV asrlarda Axmoniyilar davridagi til;

*pahlaviy tili* – pahlaviy yozuviga asoslangan. «Pahlaviy yozuvi – oromiy yozuvi ko'rinishlaridan biri asosida III asrda (eramizning) Sosoniylar sulolasi hukmronligi davrida paydo bo'lgan harf-tovush yozuvi. Pahlaviy alifbosi dastlab 22 harfdan iborat bo'lgan. Keyinchalik bu alifbo sezilarli o'zgarishlarga uchragan, xatning kursiv shakli, shuningdek, kitobiy ko'rinishlari taraqqiy qilgan. Pahlaviy yozuvida faqat undoshlar va cho'ziq unlilar alohida harflar bilan ifhdalangan. Qisqa unlilar, so'z boshidagi holatni hisobga olmaganida, ifodalanmagan. Yozuv asosan o'ngdan chapga qarab yozilgan. Faqat nisbatan keyingi yozma yodgorliklarning (VIII asr) ayrimlarida yuqoridan pastga qarab zilgan holatlar kuzatiladi»;

*parfyan tili* – eramizdan oldingi III asrdan eramizning III asriga qadar mavjud bo'lgan o'rta fors tillaridan biri bo'lib, asosan, Kaspiy dengizining janubiy sharqidagi Parfiyonada tarqalgan;

*so'g'd tili* – eramizning I asrida Zarafshon vodiysidagi So'g'diyonaning tili, yozuvi so'g'd yozuvi deb ataladi. So'g'd yozuvi oromiy yozuvi asosida shakllangan harf-tovu yozuvidir. «Bu yozuv qariyb ming yil davomida hozirgi O'zbekiston va qisman Tojikiston hududida joylashgan So'g'diyona davlatida qo'llangan. So'g'd yozuviga

oid eng qadimgi yodgorliklar eramizning birinchi asriga oid. Eng keyingilari esa VIII asrlarga oiddir»;

*xorazm tili* – eramizning ikkinchi asriga oid bo‘lib, amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm tili;

*skif tili* – eramizdan oldingi birinchi asr va eramizning birinchi asrlarida Qora dengizning shimoliy sohillaridan sharqda Xitoy bilan chegaradosh hududlarda yashagan skiflar tili;

*baqtriylar tili (kushonlar)* – eramizning birinchi asrlarida Amudaryoning yuqori qismida tashkil topgan qadimgi Baqtriya hamda Kushon davlati tili;

*saklar tili* – qadimgi O‘rta Osiyo hamda Sharqiy Turkistonda muomalada bo‘lgan til, eramizning V – X asrlariga oid bu tilda braxma yozuvida bitilgan matnlar saqlanib qolgan.

### **3. Slavyan tillari guruhi**

Slavyan tillariga kiruvchi tillar uch kichik guruhga bo‘linadi: sharqiy, janubiy, g‘arbiy guruhlar.

#### **A. Sharqiy guruh:**

1) **rus tili** – lahjalari: shimoliy rus va janubiy rus. Rus tilining har ikki lahjasi, asosan, «a» va «o» tovushlarining talaffuz qilinishi bilan farqlanadi. Xususan, shimoliy rus lahjasi «o»lovchi (gapirganda urg‘usiz «o» bilan «a»ni ajratib aniq talaffuz qilish), janubiy rus lahjasi «a»lovchi (talaffuzda «o» tovushi o‘rnida «a» tovushining qo‘llanishi) sifatida farqlanadi. Yozuvi slavyan yozuvi bo‘lib, uning «qachon paydo bo‘lganligi haqida aniq bir fikr hozircha yo‘q. Slavyan alfaviti haqidagi dastlabki ma’lumotlar IX asrning ikkinchi yarmiga oiddir. Haqiqiy slavyan alfavitining paydo bo‘lishini aka-uka Kirill (asl nomi Konstantin Filosof) va Mefodiyalar nomi bilan bog‘laydilar. Bunda, ayniqsa, Kirillning roli katta bo‘lib, u 863-yilda tartiblashtirilgan ilk slavyan alfavitini ishlab chiqadi. Bizgacha etib kelgan eng qadimgi slavyan yozuvidagi yozma yodgorliklar X asrdan keyingi davrlarga oid bo‘lib, ular qadimgi slavyan yozuvining ikki ko‘rinishida, ya’ni kirillitsa (Kirillning

nomi bilan bog‘liq atama) va glagolitsa (eski slavyan tilidagi glagol «so‘z» so‘zidan olingan)da bitilgan. Harflarning shakliga ko‘ra glagolitsa va kirillitsa bir-biridan keskin farq qilgan. Kirillitsadagi harflarning shakli sodda, aniq va yozish uchun qulay bo‘lgan. Glagolitsadagi harflarning shakli aksincha, behad murakkab va jimjimador bo‘lib, allaqanday, jingalak, halqasimon va shu kabi qiyin shakllarni eslatgan». Shu bois, kirillia taxminan XII asrlardayoq glagolitsani siqib chiqardi;

2) **ukrain tili** – 1917-yilga qadar malorusskiy (kichik rus) yoki malorossiyskiy (kichik Rusiya) nomi bilan atalgan, uchta asosiy lahjasi mavjud: shimoliy, janubiy-sharqiy, janubiy-g‘arbiy; adabiy til sifatida XIV asrdan e‘tiborat shakllana boshlagan. Hozirgi ukrain adabiy tilining shakllanishi XVIII asr oxirlariga borib taqaladi. Uning asosi Podnepr lahjasidan olingan; yozuviga kirillitsa asos qilib olingan;

3) **belorus tili** – yozuvi XIV asrdan e‘tiboran kirillitsaga asoslangan bo‘lib, shimoliy-sharqiy hamda janubiy-g‘arbiy lahjalardan iboratdir. Belorus adabiy tili o‘rta belorus shevasiga asoslangan.

### **B. Janubiy guruh:**

1) **bolgar tili** – slavyan lahjalari bilan kama bulgarlari tilining o‘zaro aloqasi natijasida paydo bo‘lgan, yozuvi kirillitsaga asoslangan, eng qadimgi yozma yodgorliklari X asrga oiddir;

2) **makedon tili;**

3) **serb-xorvat tili** – serblarda yozuv kirillitsaga, xorvatlarda esa lotin yozuviga asoslangan, eng qadimgi yozma yodgorliklari XI asrga oiddir;

4) **sloven tili** – yozuvi lotin alifbosiga asoslangan bo‘lib, qadimgi yozma yodgorliklari X - XI asrlarga oiddir.

### **O‘lik tillar:**

1) *eski slavyan* (yoki qadimgi cherkov-slavyan) tili - o‘rta asrlarda slavyanlarning umumiy adabiy tili.

### C. G'arbiy guruh:

1) **chex tili** – yozuvi lotin alifbosiga asoslangan, qadimgi yozma yodgorliklari XIII asrga oiddir; 2) **slovak tili** - yozuvi lotin alifbosiga asoslangan; 3) **polyak tili** - yozuvi lotin alifbosiga asoslangan, qadimgi yozma yodgorliklari XIV asrga oiddir; 4) **kashub tili** – mustaqil tilligini yo'qotgan, polyak tilining lahjasi sifatida saqlanib qolgan; 5) **lujitsa tili** – Germaniyaning Drezden va Kotbus okruklari atrofida tarqalgan, uning ikki varianti mavjud: Yuqori yoki sharqiy lujitsa va quyi yoki g'arbiy lujitsa, yozuvi lotin alifbosiga asoslangan.

#### O'lik tillar:

1) *polab tili* – Germaniyadagi Elba daryosi sohillari bo'ylab yoyilgan, u XVIII asrga qadar yashagan;  
2) *pomor tili* – Boltiq dengizining janubiy sohilidagi Pomorje atroflarida muoamalarda bo'lgan va o'rta asrlarda iste'moldan qolgan.

#### 4. Boltiq tillari guruhi

1) **Litva tili** – yozuvi lotin alifbosiga asoslangan, bu tilga oid yozma yodgorliklar XIV asrdan boshlanadi;  
2) **latish tili** - yozuvi lotin alifbosiga asoslangan, bu tilga oid yozma yodgorliklar XIV asrdan boshlanadi;  
3) **latgal tili** – Latviyaning sharqiy hududlarida muomalada bo'lib, ba'zi manbalarda bu tilga latish tilining lahjasi sifatida qaraladi.

#### O'lik tillar:

*Pruss tili* – o'tmishda Sharqiy Prussiya hududlarida XVII asrga qadar muoamalarda bo'lgan;  
*yatvaj, kursh kabi tillar* – Litva va Latviya hududlarida XVII - XVIII asrlarga qadar iste'molda bo'lib kelgan.

#### 5. German tillari guruhi

Bu guruhga kiruvchi tillar ham shimoliy german, g'arbiy german, sharqiy german tillari kabi kichik guruhlarga ajraladi.

### **A. Shimoliy german (skandinaviya) tillari guruhi:**

1) **daniya tili** - yozuvi lotin alifbosiga asoslangan, XIX-asr oxiriga qadar Norvegiya uchun ham adabiy til sifatida xizmat qildi;

2) **shved tili** - yozuvi lotin alifbosiga asoslangan;

3) **norveg tili** - yozuvi lotin alifbosiga asoslangan, XIX asr oxiriga qadar norveglar uchun daniya tili adabiy til sifatida muomaladi bo‘lib kelgan. Bugungi Norvegiyada adabiy tilning ikki shakli mavjud: riksmol – kitobiy til bo‘lib, daniya tiliga ancha yaqin, va lansmol – norveg lahjalariga ancha yaqin;

4) **island tili** - yozuvi lotin alifbosiga asoslangan, yozma yodgorliklari XIII asrdan boshlangan;

5) **faryor tili** – faryorlarga tegishli til, Faryor orolida yashovchilar uchun ham taalluqli.

### **B. G‘arbiy german tillari guruhi**

1) **ingliz tili** – XVI asrda London shevasi asosida shakllangan ingliz adabiy tili; V – XI asrlarda qadimgi ingliz (yoki anlosakson) tili, XI – XVI asrlar o‘rta ingliz tili, XVI asrdan yangi ingliz tili; yozuvi lotin alifbosiga asoslangan; yozma yodgorliklari VII asrdan boshlangan; xalqaro ahamiyatdagi til;

2) **niderland yoki golland tili** – Niderlandiya Qirolligining rasmiy tili, Belgiya Qirolligining rasmiy tillaridan biri (fransuz tili bilan birga); yozuvi lotin alifbosiga asoslangan; bu til o‘rta asrlarda salik franklari qabilaviy lahjalarining friz va sakson qabilaviy lahjalari bilan o‘zaro ta’sirlashuvi jarayonida shakllangan. O‘tmishida 3 rivojlanish bosqichini o‘tgan: qadimgi niderland tili (IX – XI asrlar), o‘rta niderland tili (XII – XV asrlar), yangi niderland tili (XVI asrdan boshlab); bu davr hozirgi niderland tiliga o‘tish bosqichidir. 1650-yildan shimoliy niderland tili «golland tili» deb atalgan. XIX asrda Niderlandiya Qirolligi vujudga kelgach, «niderland tili» termini barqarorlashadi; Janubiy Afrika Respublikasida yashovchi burlar ham niderland tilining turli ko‘rinishlarida gaplashadi. Aslida burlar Gollandiyadan ko‘chib borishgan;

**3) friz tili** – Niderlandiya va Germaniya yashovchi friz xalqining tili (1992-yildagi ma'lumotga ko'ra frizlar 410 ming kishidan iborat);

**4) nemis tili** – ikki lahjasi mavjud: quyi nemis (shimoliy, Niederdeutsch yoki Plattdeutsch) hamda yuqori nemis (janubiy, Hochdeutsch); nemis adabiy tili janubiy nemis shevalari asosida shakllangan, lekin ba'zi holatlari, xususan, talaffuz me'yorlari shimoliy nemis shevalariga uyg'unlashgan. Tarixiy taraqqiyoti VIII – XI asrlarda qadimgi yuqori nemis tili, XII – XV asrlarda o'rta yuqori nemis tili, XVI asrdan e'tiboran yangi o'rta nemis tili davrlariga bo'linadi; yozuvi lotin alifbosiga asoslangan va uning ikki ko'rinishi mavjud: got va antikva; dunyodagi eng yirik tillardan biri. Adabiy nemis tilining Avstriya va Shvetsariyadagi variantlari Germaniyadagi variantidan adabiy tildan turlicha foydalanish va uning lahjalar hamda so'zlashuv tiliga munosabati nuqtai nazaridan o'zaro farqlanadi;

**5) idish tili (yoki yidish, yangi yahudiy tili – nemischa judish)** – turli yuqori nemis shevalarining qadimgi yahudiy va slavyan tillari bilan qorishuvidan tarkib topgan yahudiy so'zlashuv tili; Sharqiy Yevropa va AQShda keng qo'llanadi.

### **C. Sharqiy german tillari guruhi**

#### **O'lik tillar:**

*Got tili* – ikki shevadan iborat. Vestgot - o'rta asrlarda Ispaniya va Shimoliy Italiya hududlarida tashkil topgan gotlar davlatida muomalada bo'lgan; yozuvi got alifbosiga asoslangan; bu alifbo turi eramizning IV asrida episkop Vulfiloy tomonidan Injil tarjimai uchun yaratilgan. Ostgot – qadimda Qora dengiz sohillarida yashagan sharqiy gotlarning tili; bu til XIV asrga qadar Qrimda muomalada bo'lgan; bu tilga oid golland sayyohi Busbek tomonidan tuzilgan unchalik katta bo'lmagan lug'at saqlanib qolgan;

*burgund, vandal, gepid, gerul tillari* – Sharqiy Germaniya hududlarida yashagan qadimgi nemis qabilalari tillari.

## 6. Roman tillari guruhi

**1) Fransuz tili** - adabiy til sifatida XVI asrda Il-de-Fransa shevasi asosida shakllandi; qadimgi yozma yodgorliklari IX asrga oid; tarixiy taraqqiyoti IX – XV asrlarda o‘rta fransuz tili davri, XVI asrdan e‘tiboran yangi fransuz tili davrlariga bo‘linadi; yozuvi lotin alifbosiga asoslangan. Fransuz tili boshqa Yevropa tillariga nisbatan ancha avval xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan;

**2) provansal yoki oksitan tili** – janubiy-sharqiy Fransiya (Provans) dagi milliy til; adabiy til sifatida o‘rta asrlarda shakllandi va XIX asr oxirlariga qadar yashadi;

**3) italyan tili** – asosan toskana lahjasi, qisman Florensiya shevasi negizida tashkil topgan adabiy til; yozuvi lotin alifbosiga asoslangan, tarixan Yevropadagi dastlabki milliy tillardan biri;

**4) sardin yoki sard tili** – Italiya hududida joylashgan Sardiniya oroli hamda unga yaqin orllarda yashovchi xalq orasida muomala tili, 1,5 mln.dan ortiq kishi shu tilda gaplashadi; eng qadimgi roman tillaridan bo‘lib, ko‘proq italʼyan tilining janubiy lahjalariga yaqin turadi, bir nechta lahjalari bor. Fonetik va morfologik jihatlari bilan boshqa roman tillaridan birmuncha farq qiladi. Leksikasida katalan, ispan va italyan tillarining ta‘siri seziladi; yozuvi lotin alifbosiga asoslangan, undagi ilk yozma matnlar XI-asrga mansub. XI – XIV asrlarda Sardiniyaning rasmiy tili bo‘lgan, XX-asrda bu til oddiy so‘zlashuv tili, matbuot va she‘riyat tili sifatida qo‘llanadi. Bu tilda badiiy nasr yozilmagan;

**5) ispan tili** – Ispaniya va Lotin Amerikasidagi 19 mamlakatning rasmiy tili, Filippin va AQShning janubiy-g‘arbida ham tarqalgan. Jonli lotin tili asosida shakllangan, ko‘p shevali, lug‘ati tarkibida arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar talaygina; ispan adabiy tiliga kastil dialekti asos qilib olingan. Ispan tili XV asrgacha «kastil tili» deb ham atalgan; yozuvi lotin alifbosiga asoslangan;

**6) galisiyaliklar tili** – Ispaniyaning shimoliy-g‘arbiy qismidagi Galisiya muxtor viloyatida yashovchi galisiyaliklar tili (aholisi 3,5 mln. kishidan iborat). Shuningdek, galisiyaliklar Amerika qit‘asining ko‘pgina mamlakatlarida, xususan,



Argentina, Braziliya kabi davlatlarida ham yashaydi. Yozuvi lotin alifbosiga asoslangan, ispan tili bilan bir qatordagi rasmiy til;

**7) katalon tili** - Ispaniyaning Kataloniya, Valensiya muxtor viloyatlarida, Balear orollarida, Fransiyaning Russilon tarixiy viloyatida, Sharqiy Tereney departamentida, shuningdek, Andorra davlati hamda Sardiniya oroli (Italiy)ning Algero shahrida tarqalgan. Ispaniya (ispan tili bilan bir qatorda), Andorra davlatlarining (ispan va fransuz tillari bilan bir qatorda) rasmiy tili; Sharqiy (barselon, balear, russimon, aljger) va g'arbiy (leridan, valensi) shevalariga bo'linadi; yozuvi lotin alifbosiga asoslangan;

**8) portugal tili** – dunyoning ko'pgina mintaqalari (Portugaliya, Braziliya, Afrika, Hindiston)ga tarqalgan keng muomaladagi til. Ayni zamonda, Portugaliya, Braziliya, Angola, Mozambik, Gvineya-Bisau, Kabo-Verde, San-Tome va Prinsipi respublikalarining rasmiy tili. Bu til XII – XIV asrlarda janubiy va shimoliy portugalgalisiiy shevalarining aralashuvi natijasida shakllangan;

**9) rumin tili** - Ruminiya Respublikasining rasmiy tili, dastlabki vaqtlarda kirill alifbosidan foydalanilgan, 1860-yilda lotin alifbosiga o'tildi. Dastlabki yozma yodgorliklari XVI asr boshlariga taalluqli, adabiy til sifatida shakllanishi XVII asrdan boshlangan, baddiy adabiyot XVIII asr oxirlarida paydo bo'lgan;

**10) moldavan tili** – rumin tiliga yaqin bo'lgan til. Asosan, Moldaviya Respublikasida va unga qo'shni bo'lgan davlatlarda tarqalgan. Adabiy til sifatida XVI asrdan e'tiboran shakllana boshlagan va bu jarayon XIX asrning ikkinchi yarmigacha davom etgan; yozuvi XIX asrgacha slavyan alifbosi (kirillitsa), XIX asrdan rus alifbosi asosida (1932-39-yillarda lotin grafikasi) bo'lgan; 1989-yilda lotin alifbosiga o'tish haqida qaror qabul qilingan;

**11) makedon-rumin (aromun) tili** – rumin tilining aromun lahjasi; makedoniyalik rumin (aromun)lar tili. Aromunlar Yugoslaviya, Albaniya, Gretsiya, Bolgariya, Ruminiya kabi davlatlarda yashovchi xalq;

**12) retoroman tili** – 1938-yildan e'tiboran Shvetsariyaning to'rtta davlat tilidan biri;

**13) kreol tili** - roman tillarining mahalliy tillar (gaityan, mavrik, seyshel, senegal, papyamento) bilan aralashuvi natijasida vujudga kelgan.

**O'lik tillar:**

1) *lotin tili* - qadimgi Rimning adabiy va davlat tili; yozma, epik, lirik, drammatik, tarixiy nasr, huquqiy hujjatlar va notiqlik san'atiga oid yodgorliklarga o'ta boy til; qadimgi yozma yodgorliklari eramizdan oldingi IV asrga borib taqaladi; o'rta asr g'abiy Yevropa adabiy va katolik cherkovi tili; qadimgi grek tili singari xalqaro termonologiya manbasi;

2) *osk, umbr, sabel tillari*.

## **7. Kelt tillari guruhi**

### **A. Goydel guruhi**

1) **irland tili** – Irlandiyaning (ingliz tili bilan birga) davlat tili; uch sheva (munster, konnaxt, ulster) va bir qancha lahjalardan iborat; hozirgi yozuvi lotin alifbosiga asoslangan;

2) **shotland (gel) tili** – XI – XIII asrlarda irland tilidan ajralib chiqa boshlagan; yozuvi lotin alifbosiga asoslangan.

**O'lik tillar:**

1) *men tili* – Irlandiya dengizidagi Men orolida yashovchilar (Buyuk Britaniya tarkibida) tili.

### **B. Britt tillari guruhi**

1) **breton tili** – Fransiyadagi Bretan yarim orolida yashovchi bretonlar (o'tmishda brittlar) tili, yozuvi lotin alifbosiga asoslangan;

2) **vall (yoki uelb, kimr) tili** – Buyuk Britaniya (asosan Uels yarim oroli)da yashovchi xalq tili, yozuvi lotin alifbosiga asoslangan.

**O'lik tillar:**

1) *korn tili* – Buyuk Britaniyaning janubiy-gʻarbidagi yarim orol aholisi tili, Yozuvi lotin alifbosiga asoslangan.

### **C. Gall tili guruhi**

1) **gall tili** – qadimgi Galliya (Fransiyaning lotin tilidagi nomi)da, qisman Shimoliy Italiya, Bolqon va Kichik Osiyoda tarqalgan til; fransuz tilining shakllanishi bilan yoʻq boʻlib ketgan.

### **8. Grek tillari guruhi**

1) **Grek tili** - hozirda bu guruhga oid tillardan faqat grek tili qolgan, Gretsiyaning davlat tili. Umuman, grek tili qadimgi grek tili va yangi (hozirgi) grek tiliga boʻlinadi; adabiy, lirik, dramatik, falsafiy, tarixiy yodgorliklarga boy; xalqaro terminologiyaning asosiy manbalaridan biri.

### **9. Alban tili guruhi**

1) **alban tili** – Albaniyaning rasmiy tili, yozuvi lotin alifbosiga asoslangan.

### **10. Arman tili guruhi**

1) **arman tili** – eramizning V asridan adabiy til; Armanistonning rasmiy tili; uning oʻz alifbosi mavjud, alifbosi eramizning V asri boshlarida Mesrop Mashtots tomonidan yaratilgan; shevalarga boy til. Qadimgi arman tili – grabar hozirgi arman tili – ashxarabardan keskin farq qilgan.

### **11. Xetto-luviya (anatoliya) tillari guruhi**

Bu guruhga kiruvchi tillarning barchasi oʻlik tillar sanaladi:

1) *xett (xett-nesit) tili* – eramizdan avvalgi XVIII – XII asrlarga oid mixxatlardan maʼlum boʻlgan til;

2) *luviya tili* – eramizdan avvalgi XIV – XIII asrlarda Kichik Osiyoda mavjud boʻlgan til;

3) *palaya tili* - eramizdan avvalgi XIV – XIII asrlarda Kichik Osiyoda mavjud boʻlgan til;

4) *kariya tili* - eramizdan avvalgi XIV – XIII asrlarda Kichik Osiyoda mavjud boʻlgan til;

5) *lidiya tili* – antik davrdagi anatoliya tillaridan biri;

6) *likiya tili* - antik davrdagi anatoliya tillaridan biri.

**12. Toxar tillari guruhi** - bu guruhga kiruvchi toxar (turfon, kuchan) tili, Xitoyning Sharqiy Turkiston (Sinjon) viloyatida, o‘lik til sanaladi.

## II. KAVKAZ TILLARI OILASI

### A. G‘arbiy guruh: abxaz-adigey tillari

**1. Abxaz tillari guruhi:** 1) abxaz tili – yozuvi 1954 yilga qadar gruzin alifbosida, so‘ngra rus alifbosiga asoslangan; shimoliy (bzib), janubiy (abjuv yoki kador) lahjalari mavjud;

2) abaza tili – Rossiya Federatsiyasining Qorachoy-Cherkes va Adigey muxtor viloyatlari hamda Stavropol o‘lkasida yashovchi abazalar (abazinlar) tili; yozuvi rus alifbosiga asoslangan.

### 2. Cherkas tillari guruhi

1) adigey tili; 2) kabardin (kabardin-cherkes) tili; 3) ubixlar tili (Chor Rossiyasi davrida Turkiyaga emigratsiya qilingan).

### B. Sharqiy guruh: nax-dog‘iston tillari

#### 1. Nax tillari guruhi:

1) chechen tili; 2) ingush tili; 3) batsbiy (tsova - tushin) tili.

#### 2. Dog‘iston tillari guruhi:

1) avar tili; 2) dargin tili; 3) lak tili; 4) lezgin tili; 5) tabasaran tili.

Bu besh tilning yozuvi rus alifbosiga asoslangan. Quyidagi tillarning yozuvi mavjud emas: andiy tili; karatin tili; tindin tili; chamolin tili; bagval tili; axvax tili; botlix tili; gadober tili; tsez tili; betetin tili; xvarshin tili; gunzib tili; ginux tili; tsaxur tili; rutul tili; agul tili; archin tili; budux tili; kriz tili; udin tili; xinalug tili.

#### 3. Janubiy guruh: kartvel (iber) tillari

1) megrel tili; 2) laz (chan) tili; 3) gruzin tili – gruzin alifbosidagi yozma manbalar eramizning V asridan boshlanadi; o‘rta asrlarga oid boy adabiy

yodgorliklari bor; lahjalari: xevsur, kart, imeretin, guri, kaxetin, adjar; kart lahjasi gruzin adabiy tilining asosini tashkil etadi; 4) svan tili.

### III. UGOR TILLARI OILASI

#### 1. *Ugor-fin tillari mikrooilasi*

##### A. Ugor tillari tarmog‘i:

- 1) vengr (mojor) tili – yozuvi lotin alifbosiga asoslangan;
- 2) mansiy tili – XX asrning 30-yillaridan yozuvi rus alifbosiga asoslangan;
- 3) xantiy tili – XX asrning 30-yillaridan yozuvi rus alifbosiga asoslangan.

**B. Fin-Boltingbo‘yi tillari tarmog‘i:** 1) fin tili - yozuvi lotin alifbosiga asoslangan; 2) eston tili - yozuvi lotin alifbosiga asoslangan; 3) ijor tili; 4) karel tili; 5) veps tili; 6) vod tili; 7) liv tili; 8) saam (lopar) tili.

**V. Perm tillari tarmog‘i:** 1) komi-ziryan tili; 2) komi-perm tili; 3) udmurt tili.

**G. Voljsk tillari tarmog‘i:** 1) mariy (cheremis) tili; 2) mordov tili.

#### 2. *Samodiy tillari mikrooilasi:*

- 1) nenets tili; 2) nganasan tili; 3) enets tili; 4) selkum tili.

### IV. OLTOY TILLARI OILASI

#### 1. *Turkiy tillar guruhi*

1) turk tili - o‘tmishda Usmonli tili deb atalgan; yozuvi 1929-yildan e‘tiboran lotin alifbosiga asoslangan, ungacha bir necha asrlar davomida arab alifbosida ish ko‘rgan;

2) ozarbayjon tili; 3) turkman tili; 4) gagauz tili; 5) qrim-tatar tili; 6) qorag‘oy-balqar tili – Kavkazda yashovchi qoraqoy va balqar elatlari so‘zlashadigan til; 7) qo‘miq tili – Dog‘istonda yashovchi qo‘miqlar tili; 8) no‘g‘oy tili; 9) qaray tili; 10) tatar tili; 11) boshqird tili; 12) shor tili; 13) xakas tili; 14) tuva tili; 15) yoqut tili; 16) dolgan tili; 17) qozoq tili; 18) qirg‘iz tili; 19) o‘zbek tili; 20) qoraqalpoq tili; 21) uyg‘ur tili; 22) chuvash tili.

#### 2. *Mo‘g‘ul tillari guruhi*

1) mo‘g‘ul tili – yozuvi 1945-yildan e‘tiboran rus alifbosiga asoslangan, ungacha qadimgi uyg‘ur yozuvi asosidagi mo‘g‘ul alifbosidan iborat bo‘lgan;

- 2) buryat tili;
- 3) qalmoq tili.

### **3. Tungus-manjur tillari guruhi**

#### **A. Sibir tillari guruhi**

- 1) evenk (tungus) tili;
- 2) even (lamut) tili.

#### **B. Manjur tillari guruhi**

- 1) manjur tili;

#### **D. Amur tillari guruhi**

- 1) nanay tili;
- 2) udey tili;
- 3) orog tili.

### **4. Hech bir til guruhiga kirmagan uzoq Sharqning ayrim tillari**

- 1) yapon tili;
- 2) ryukyus tili – yapon tili bilan qarindosh til;
- 3) koreys tili.

## **V. XOM-SOM TILLARI OILASI**

### **1. Som tillari tarmog‘i:**

- 1) arab tili;
- 2) amxar tili – Efiopiyaning rasmiy tili;
- 3) tigre, tigray, gurage, xarari tillari – Efiopiyadagi tillar;
- 4) ossuriy (oysor) tili – yaqin Sharq davlatlaridagi etnik guruhlar tili;

#### **O‘lik tillar:**

*akkad tili* - qadimgi Sharq (Vaviloniya) qoid mixxat yozma yodgorliklaridan ma'lum;  
*ugarit tili*;

*qadimgi yahudiy tili* – so‘zlashuv tili sifatida eramizning boshlariga qadar yashagan; XIX asrdan uning asosida ivrit (yahudiy) tili shakllandi, ivritcha Isroil davlatining (arab tili bilan birga) rasmiy tili; yozuvi yahudiy alifbosiga asoslangan;

*oromiy tili* – eramizdan oldingi III asrdan eramizning IV asriga qadar G‘arbiy Osiyoda yashagan oromiylar tili; oromiylar Arabiston yarim orolidan chiqqan ko‘chmanchi somiy qabilalari; oromiy tili milod (eramiz)ning boshlarida G‘arbiy Osiyoning asosiy og‘zaki nutqiga aylangan; oromiylarning hozirgi avlodi ossuriylardir;

*finikiy tili* – Finikiya tili; eramizga qadar o‘lik tilga aylangan; yozuvi finikiy alifbosida bo‘lgan.

## **2. Misr tillari tarmog‘i:**

Bu guruhga kiruvchi tillir o‘lik tillar sanaladi:

*qadimgi misr tili* – arab tilining misr lahjasi tomonidan siqib chiqarilgan va miloddan avvalgi V asrdan o‘lik tilga aylangan; dastlabki yodgorliklar miloddan avvalgi 4-ming yillik oxiri – 3-ming yillik boshiga to‘g‘ri keladi;

*kopt tili* - qadimgi misr tili negizida paydo bo‘lgan; Misrdagi pravoslav cherkovi tili; yozuvi grek alifbosiga asoslangan.

## **3. Berber-liviya tillari tarmog‘i:**

1) (Shimoliy Afrika va G‘arbiy-Markaziy Afrika tillari) ; 2) gxadames, siua tillari; 3) tuare tili; 4) zenaga tili; 5) kabil tili; 6) tashel tili; 7) zenet tili; 8) tamazigxt tili.

### **O‘lik tillar:**

*g‘arbiy numidiya tili; g‘arbiy numidiya (liviya) tili;*

*guanch tili* – XVIII asrga qadar muomalada bo‘lgan; Afrikaning shimoliy-sharqiy sohillariga yaqin Kanar orollarida yashagan aborigenlar tili.

## **4. Kushit tillari tarmog‘i:**

(Shimoliy-Sharqiy va Sharqiy Afrika tillari)

1) badaviy tili – Sudanning shimoli-sharqi va Efiopiyaning shimoli va shimoli-sharqidagi til;

2) agav tili – Efiopiyaning shimoli va shimoli-g‘arbidagi til;

3) sidamo tili – Efiopiyaning janubi-g‘arbidagi til;

4) afar-saxo tillari – Efiopiyaning shimoli-sharqidagi til;

5) somali tili – Somalidagi, Efiopiya sharqi va Keniyaning shimoli-g‘arbidagi til;

6) oromo tili – Efiopiyadagi oromo xalqi tili;

7) irakv tili.

## **5. Chad tillari tarmog‘i:**

- 1) (Markaziy Afrika va G'arbiy-Markaziy Afrika tillari)  
xausa tili - G'arbiy Chad tillariga kiradi;
- 2) gvandara, ngizim, boleva, karekare, angas, sura kabi tillar - G'arbiy Chad tillariga kiruvchi boshqa tillar sifatida qaraladi;
- 3) tera, margi, mandara, kotoko kabi tillar – Markaziy Chad tilariga kiradi;
- 4) mubi, sokoro tillari – Sharqiy Chad tillariga kiradi.

## **VI. HIGER-KONGO TILLARI OILASI**

(Sahroi Kabirdan janubroqdagi Afrika hududi)

### **1. Mande tillari guruhi:**

1) bamana (bambara) tili; 2) soninke tili; 3) soso (susu) tili; 4) maninka tili; 5) kpelle, loma, mende kabi tillar.

### **2. Atlantika tillari guruhi:**

1) fula (fulfulde) tili; 2) volof tili; 3) serer tili; 4) diola tili; 5) konyagi tili; 6) gola, temne, bullom kabi tillar.

### **3. Ijo tillari guruhi:**

Bu guruhga boshqa tillardan ajralib turuvchi ijo (Nigeriya) tili kiradi.

### **4. Kru tillari guruhi:**

1) seme tili; 2) bete tili; 3) godie tili; 4) kru tili; 5) grebo tili; 6) uobe va boshqa tillar.

### **5. Kva tillari guruhi:**

1) akan tili; 2) baule tili; 3) adele tili; 4) adangme tili; 5) eve tili; 6) fon va boshqa tillar.

### **6. Dogon tili guruhi.**

### **7. Gur tillari guruhi:**

1) bariba tili; 2) senari tili; 3) suppire tili; 4) gurenne tili; 5) gurma tili;  
6) kasem, kabre, kirma va boshqa tillar.

### **8. Adamaua-ubangi tillari guruhi:**



- 1) longuda tili; 2) tula tili; 3) chamba tili; 4) mumue tili; 5) mbum tili; 6) gbayya tili;
- 7) ngbaka tili; 8) sere, mundu, zande va boshqa tillar.

### **9. Benue-kongo tillari guruhi:**

Benue-kongo tillari guruhi bu tilda so‘zlashuvchilar soni jihatidan Nigero-kongo tillari oilasida etakchi o‘rinni egallaydi. Bu guruhga kiruvchi tillar Nigeriyadan Afrikaning sharqiy sohillarigacha bo‘lgan xududda (Janubiy Arab Respublikasi bilan birga) tarqalgan.

- 1) nupe tili; 2) yoruba tili; 3) igbo tili; 4) edo tili; 5) jukun tili; 6) efik, ibibio tillari; 7) kambari, birom tillari; 8) tiv tili; 9) bamileke tili; 10) kom, lamnso, tikar tillari; 11) bantu tili – bu til guruhi eng yirik bo‘lib, unga quyidagi tillar kiradi: duala, euondo, teke, bobangi, lingala, kikuYu, nyamvezi, gogo, suaxili, kongo, luganda, kinyaruanda, chokve, luba, nyakYusa, nyanja, yao, mbundu, gerero, shona, soto, zulu kabilar.

### **10. Kordofan tillari guruhi:**

- 1) kanga, miri, tumtum tillari; 2) katla tili; 3) rere tili; 4) utoro tili; 5) tegem tili;
- 6) tegali, tagoy va boshqa tillar.

## **VIII. NIL-SAHROYI KABIR TILLARI OILASI**

(Markaziy va Sharqiy Afrika (Sudan) hududi)

- 1) songay tili; 2) Sahroi Kabir tillari: kanuri, tubu, zagava; 3) fur tili;
- 4) mimi, mabang tillari; 5) Sharqiy Sudan tillari: debri, maxas, bale, suri, nera, ronge, tama kabi tillar; 6) Nil tillari: shilluk, luu, alur, acholi, nuer, bari, teso, nandi, pakot kabi tillar; 7) Markaziy Sudan tillari: kresh, sinyar, sara, bagirmi, moru, madi, logbara, mangbetu kabi tillar; 8) kunama tili; 9) berta tili; 10) kuama, komo va boshqa tillar.

## **IX. KOYSAN TILLARI OILASI**

(Janubiy Afrika Respublikasi, Namibiya, Angola hududlari)

- 1) bushmen tillari: kung, auni, xadza kabi tillar; 2) gottentot tillari: nama, korana, sandave kabi tillar.

## **X. XITOIY-TIBET TILLARI OILASI**

### **A. Xitoy tillari tarmog'i:**

1) xitoy tili – bu tilda gapiruvchilar soni jihatidan dunyoda birinchi o'rinda turadi. Bu til qadimiy tillardan biri bo'lib, boy yozma yodgorliklariga ega. Bir qancha shevalari mavjud. Xitoy adabiy tili shimoliy (mandari) shevasiga asoslangan, mazkur sheva Xitoy poytaxti – Pekin shevasi ham sanaladi. Xitoyda bir necha ming yillar davomida, aniqrog'i, eramizdan oldingi 1-ming yillikdan eramizning XX asriga qadar, venyan shevasi kitob tili sifatida muomalada bo'lib keldi. Bu davr ichida bayxua shevasi ham muomaladagi adabiy til sifatida shakllana boshladi. Hozirgi xitoy adabiy tili – putunxua ana shu bayxua shevasi asosida shakllandi.

2) Dungan tili – dunganlar XXRda (yozuvi arab alifbosiga asoslangan), qisman Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekistonda istiqomat qiladilar. Dungan tili tarkibida turkiy, arab, fors tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar miqdori anchagina.

### **A. Tibet-birma tillari tarmog'i:**

1) Tibet tili – asosan Xitoyda, qisman Mongoliya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasining Buryatiya va Tuva respublikalarida tarqalgan; uning kukinaga guruhi manipuri, lushey kabi tillardan iborat; karen guruhi bodo, garo, tipera, kachin kabi tillarni qamrab oladi; sharqiy himolay guruhiga Nepal sharqidagi limbu, sunvar kabi tillar, g'arbiy himolay guruhiga esa Shimoliy Hindistondagi kanauri, rangkas kabi tillar kiradi;

2) birma tili – Xitoy va Myanmada tarqalgan bo'lib, lisu, xani, laxu, nasi kabi tillarni o'z ichiga oladi.

## **XI. TAY TILLARI OILASI**

Tay tillari Laos, Vetnam, Birma va Janubiy Xitoy hamda Shimoliy-Sharqiy Hindistonning unga tutash hududlarida tarqalgan. Tay tilining genealogik qarindoshligi xususida 2 xil faraz bor, birinchisiga ko'ra u xitoy-tibet tillariga, ikkinchisiga ko'ra esa avstronez tillari oilasiga mansub. Ikala faraz ham hozirgacha

to‘liq tan olimaganligidan bu tillarning o‘zi alohida oila sanaladi. Tay tillari quyidagi guruhlardan iborat:

1) tay tili – Tailandning davlat tili (1939-yilga qadar siyom tili); uning uch guruhi mavjud: janubiy-g‘arbiy – tay (siyom), laos, tan, khamti axom, Yuan, kxin kabilar: markaziy – tay (txo), nung, chjuan (janubiy lahjalari); shimoliy – chjuan (mioliy lahjalari, bui);

2) dun-shuy tillari – dun, shuy, mak, txen tillaridan iborat; 3) sek tili;

4) lakkyia tili; 5) be tili; 6) li tillari; 7) lakua tili; 8) laki tili; 9) gelao tillari.

## **XII. MYAO-YAO TILLARI OILASI**

Sharqiy Osiyodagi qarindosh tillarning eng kam o‘rganilgan tillar oilasi. Bu oilaga kiruvchi tillar, asosan, Xitoyning markazi va janubi, qisman Vyetnam, Laos, Tailandda tarqalgan. Ikki guruhga bo‘linadi:

1) myao tili – xmong, xmu shevalariga ega;

2) yao tili – mbyan, kimmun kabi shevalariga ega;

3) nu tili.

## **XIII. DRAVID TILLARI OILASI**

Hindiston yarim orolida qadimdan yashovchi aholi tili. Bu tillar oilasi quyidagi guruhlarga ajraladi:

1) tamil tili – Janubiy Hindistonda yashovchi xalq - tamillar tili;

2) telugu tili - Janubiy Hindistonda yashovchi xalq - telugular tili;

3) malayalam tili - Janubiy Hindistonda yashovchi xalq - malayalilar tili;

4) kannara tili - Janubiy Hindistonda yashovchi xalq - kannaralar tili.

Mazkur to‘rtta tilning alifbosi hindlarning braxma yozuviga asoslangan.

1) tulu tili - Hindistonning g‘arbida joylashgan Tamilnad (Madras) shtatida yashovchi tulular tili;

2) gondi tili - Hindistonda yashovchi gondlar tili;

3) braguy tili – Pokiston, Eron hamda Afg‘onistonning qo‘shni tumanlarida yashovchi braguylar tili va boshqalar.

#### **XIV. AVSTRALOOSIYO TILLARI OILASI**

1) munda tillari – Hindistonning sharqiy va g‘arbiy hududlarida (asosan, Bihar, G‘arbiy Bengaliya, Orissa shtatlarida) tarqalgan. Bu guruhga yana quyidagi tillar kiradi: santali, mundari, xo, birxor, djuang, sora va boshqalar;

2) kxmer tili – Kambodja davlatining rasmiy tili, Vetnam va Tailandda ham tarqalgan; 3) palaung tili; 4) nikobar tili; 5) vyetnam tili; 6) kxasi tili - Hindiston (Megxalaya shtati) va Bangladesh bilan qo‘shni tumanlarda yashovchi kxasi xalqi tili; 7) malakka tillari - quyidagi tillardan iborat: semang, semay, saka va boshqalar; 8) nagali tili.

#### **XV. AVSTRONEZ (MALAYYA-POLINEZ) TILLARI OILASI**

##### **A. Indoneziya tillari tarmog‘i**

###### **1. G‘arbiy guruh:**

1) indoneziya tili – Indoneziyaning davlat tili; 2) batak tili; 3) cham tillari: cham, jorai va boshqalar.

###### **2. Yava guruhi:**

1) yava tili; 2) sundan tili – Yava orollarining janubiy-g‘arbiy qismida tarqalgan; 3) madur tili; 4) bali tili.

###### **3. Dayak yoki kalimantan guruhi:**

1) dayak tili – Kalimantan orolida yashovchi dayaklar (kalimantanlar, ibanlar) tili;

###### **4. Janubiy Sulavesi guruhi:**

1) saddan tili; 2) bugi tili; 3) makasar tili.

###### **5. Filippin guruhi:**

1) tagal tili; 2) ilokan tili; 3) bikol va boshqa tillar.

###### **6. Madagaskar guruhi:**

1) malagasiya tili;

###### **O‘lik til:**

*kavi tili* - Qadimgi Yava adabiy tili.

### **B. Polineziya tillari tarmog‘i:**

(Tinch okeanining Okeaniyadagi orollarida yashovchi tub aholi tillari)

1) tonga va niue tillari; 2) maori, gavay, taiti tillari; 3) samoa, uvea va boshqa tillar.

### **C. Mikroneziya (mikronez tillari) tarmog‘i:**

(Mikroneziya – Kiribati, nauri, Marshall, Karolin kabi orllarda tarqalgan tillar)

1) nauru tili; 2) Marshall oroli tili; 3) ponape tili; 4) truk va boshqa tillar.

## **XVII. AVSTRALIYA TILLARI**

Bu oilaga Markaziy va Shimoliy Avstraliyada yashovchi kam sonli tub aholining mayda tillari kiradi. Bu oilaga kiruvchi tillar ichida taniqlisi aranta tilidir.

## **XVIII. PAPUAS TILLARI OILASI**

Bu oilaga Yangi Gvineya orolida va Tinch okeanning boshqa bir qancha orollarida tarqalgan tillar kiradi. Papuas tillari hali chuqur o‘rganib, tasnif qilinmagan. Lekin dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra bu oila 12 ta til guruhiga ajratiladi. Ulardan eng yirigi Yangi Gvineya hududida keng tarqalgan fila tillari guruhidir. Bu tillar o‘z yozuviga ega emas, bu tillar maktablarda ta’lim-tarbiya tili hisoblanmaydi. Turli Papuas tillari uchun lotin yozuvi asosida alifbolar yaratish ishlari boshlangan.

## **XIX. PALEOSIYO TILLARI OILASI**

(Shimol va Shimoliy Sibirning tub aholisi so‘zlashadigan tillar)

### **A. Chukcha-kamchatka tillari**

1) chukcha; 2) koryak tili; 3) itelmen tili; 4) alyutor tili; 5) kerek tili.

### **B. Eskimos-aleut tillari**

1) eskimos tili; 2) aleut tili.

### **C. Enisey tillari**

1) ket tili; 2) kott, arin, pumpokol va boshqa tillar.

### **D. Nivx tili**

### **E. Yukagir-chuvan tillari**

Bu guruhga kiruvchi yukagir tili jonli, chuvan tili esa o‘lik til sanaladi.

## XX. INDEYS TILLARI

### A. Shimoliy Amerikadagi til oilalari

1) algonkin tillariga menomini, delavar, yurok, mikmak, foks, kri, ojobva, potovatomi, illinoys, cheenn, blekfut, arapaxo kabi tillar kiradi. Shuningdek, bu tillar mikrooilasiga yo‘q bo‘lib ketgan massachuseti hamda mogikan tillari ham kiradi; bu tillarda gaplashuvchi alkonginlar Shimoliy Amerikadagi indeys xalqlari guruhiga kiradi, ularning bir qismi Kanadada, yana bir qismi AQShda yashaydi;

2) irokez tillari mikrooilasi cheroki, tuskarora, seneka, oneida, guron kabi tillarni qamragan; bu tillar AQShning shimoliy-sharqiy qismi hamda Kanadaning unga qo‘shni hududlaridagi Shimoliy Amerika indeyslari tiliga yaqin qardosh tillardir;

3) siu tillari mikrooilasi – krou, xidatsa, dakota kabi tillar; o‘lik tillar: ofo, biloksi, tuteloo, katavba. Bu tillarda so‘zlashuvchilar AQShning Montana shtatida hamda Janubiy-Sharqiy Arkanzas shtati hududlarida yashaydi;

4) galf tillari – natchez, tunika, chikasav, choktav, muskogi va boshqalar;

5) na-dene tillari mikrooilasiga hayda, tlingit, eyak tillari kiradi. Bundan tashqari o‘zlarini dene deb atovchi atapasklar tillari, xususan, navaxo, tanana, tolova, xupa, mattole kabi tillar ham shu oilaga mansub; bu tillarda so‘zlashuvchilar Alyaska, Shimoliy-G‘arbiy Kanada, AQSh va Meksikaning ba‘zi hududlarida yashaydi;

6) mosan tillari mikrooilasi o‘z ichiga vakash (kvakiutl, nutka) hamda salish (chexalis, skomish, kalispel, bella kula) tillar guruhini qamragan;

7) penutian tillari – tsimshian, chinuk, takelma, kalamat, mivok, zuni kabilar;

8) xokaltek tillari – karok, shasta, yana, chimariko, pomo, salina va boshqalar; bu til vakillari AQShning Kaliforniya, Arizona hamda Meksika viloyatlarida yashaydi;

### B. Markaziy Amerikadagi til oilalari

1) Yuto-atstek tillari – nauatl, shoshon, xopi, luiseno, papago, kora va boshqalar; bu tillar G‘arbiy AQSh – Nevada, Yuta, Kolorado, Texas kabi shtatlarda

tarqalgan; ba’zida bu tillar oilasiga kayova-tano (kayova, piro, teva) tillari ham kiritiladi;

2) mayya-kiche tillari – mam, kekchi, kiche, mayya yukatek, iksil, tseltal, toxolabal, chol, xuast va boshqalar; mayya tili yevropaliklar kelguniga qadar eng yuqori mataniyatga erishgan edi;

3) otomi tillari – pame, otomi, popolok, mishtek, sapotek, trik va boshqalar; bu til Markaziy va Janubiy Meksika, Nikaragua janubida hamda Kosta Rikada tarqalgan;

4) miskito-matagalpa tillari – miskito, sumo, matagalpa va boshqalar; ba’zida bu tillar chibcha tillariga ham kiritiladi;

5) chibcha tillari – karake, rama, getar, guaymi, chibcha va boshqalar; Kosta Rika, Panama, Kolumbiya, Venesuela, Ekvador, Peruda tarqalgan.

### **C. Janubiy Amerikadagi til oilalari**

1) tupi-guarani tillari – tupi, guarani, yuruna, tupari va boshqalar; Braziliya, Paragvay, Argentina, Urugvayda tarqalgan;

2) kechua-aymara tillari – kechua (Perudagi qadimgi inklar davlatining tili, hozirda bu tilda Peru, Boliviya, Ekvadorda, qisman Argentina, Chili va Kolumbiyada so‘zlashadi) hamda aymara (aymara xalqining tili, Bolviyadagi 3 ta rasmiy tilning biri; yozuvi lotin alifbosiga asoslanga);

3) aravak tillari – chamikuro, chipaya, itene, uanyam, guana va boshqalar; Katta Antil oroli, Sharqiy Kolumbiya, Shimoliy Venesuela, Gviana, Amazonkaning o‘rta va yuqori qismida, Janubiy Amerikaning g‘arb hududlarida tarqalgan;

4) arauka tillari – mapuche, pikunche, peueiche va boshqalar; bu tillar asosan Chilida tarqalgan;

5) pano-takana tillari – chakobo, kashibo, pano, takana, chama va boshqalar;

6) je tillari – kanela, suya, shavante, kaingang, botokud va boshqalar; Braziliyaning sharqi, janubi va markaziy qismlarida tarqalgan;

7) karib tillari – vayyana, pemon, chayma, yaruma va boshqalar; Janubiy Amerikadagi Gayana, Surinam, Frantsiya Gvianasi, Veresuela, qisman Kolumbiya va Braziliya hududlarida tarqalgan;

8) alakaluf va boshqa alohida tillar.

### **Tillarning tipologik (morfologik) tasnifi**

**Morfologik tasnif.** Tillarni morfologik tasnif qilishda soʻzlarning tuzilishi eng muhim belgi qilib olinadi. Bu usulda soʻzlarning kelib chiqishini eʼtirofqa olinmaydi. U eng avvalo har bir tilning grammatik qurilishini nazarda tutadi, yaʼni nutqda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishidagi soʻz, turlovchi va tuslovchi qoʻshimchalarning bor-yoʻqligi ularning xususiyatlari va soʻzning yasaliş tomonlarini hisobga oladi. Shunga koʻra, morfologik usul barcha tillarni ikki asosiy guruhlariga ajratadi.

**I. Qoʻshimchali (affiksli) tillar.** Bunday tillarda nutqdagi soʻzlarning bir-biriga bogʻlanishi soʻz tarkibiga bogʻliq boʻladi. Morfologik usulga asoslangan qoʻshimchali tillar yana ikki guruhga boʻlinadi:

1. Agglyutinativ tillar (agglutinate lotincha soʻz boʻlib, ulash, yopishtirish demakdir).

2. Felektiv tillar (flexio lotincha soʻz boʻlib, egilmoq, bukilmoq demakdir).

Bu ikki xil guruhdagi tillarning hammasi qoʻshimchali tillar deb hisoblansa ham, lekin ulardagi qoʻshimchalarning xarakteri va soʻzlarga ulanish, bogʻlanish xususiyatlari bir-biriga oʻxshamaydi.

**II. Qoʻshimchasiz tillar.** Bunday tillarda gap tarkibidagi soʻzlarning bir-biri bilan munosabati, asosan, soʻz tarkibi orqali ifodalanadi. Soʻzlarning shakli esa oʻzgarmaydi (turlanmaydi, tuslanmaydi), hech qanday qoʻshimcha soʻz negiziga qoʻshilmaydi. Umuman, bu tillarga grammatik munosabatlar sintaktik yoʻl bilan ifodalanadi. Qoʻshimchasiz tillarda yordamchi soʻzlar va soʻz yasovchi elementlar boʻladi. Masalan: qoʻshimchasiz tillar qatoriga kiruvchi xitoy tilidagi *-chje shi xao shen-* bu yaxshi odam *-ta tszade xao-* bu yaxshi ishlagan *xao* soʻzi gapdagi oʻrniga qarab aniqlovchi, ravish va kesim boʻlib kelgan.



Morfologik tasnif tilning qurilishi va uning tuzilishini o'rganishga, bilishga yordam beradi. Shuningdek, har qaysi tilning grammatikasini izohlab berishda, morfologik tasnifning ma'lum darajada ahamiyati bor. Biroq morfologik tasnif kamchiliklardan xoli emas. Birinchidan, morfologik tasnif tuzilish jihatdan xilma-xil bo'lgan barcha tillarni qamrab ololmagan. U faqat grammatik tuzilishi jihatdan bir-biridan uncha farq qilmaydigan tillarnigina o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, morfologik belgilarga qarab til turlarini guruhlariga ajratish (tasnif qilish) nihoyatda mushkul muammo.

Tillarning morfologik (tipologik yoki struktural) tasnifi - umuman, til tiplarini ajratish qanday maqsad bilan qilingan bo'lishidan qat'iy nazar, dastlab tillarning strukturasi aniqlashga urinishdan kelib chiqdi.

Tillarni struktura jihatidan ayrim gruppalariga ajratish tilning fonetik sistemasini, lug'at sostavini, va grammatik qurilishini ko'zda tutadi. Biroq tillarning klassifikatsiyasini yaratishda asosiy e'tibor ko'proq grammatik qurilishga beriladi. Bu o'z-o'zidan tushunarli: so'zlarning gap qurilishidagi ishtiroki, o'zaro bog'lanishi so'z strukturasi mavjud bo'lgan elementlarning ishtirokida aks etadi. Shunga ko'ra tilshunoslikda sof sintaktik qurilish asosida tillarni klassifikatsiya qilish umum tomonidan e'tirof qilinmadi. Ammo morfologik klassifikatsiya turli nuqtai nazardan tanqid qilingan, qayta-qayta ishlangan bo'lsa ham (hatto, ba'zan inkor qilingan bo'lsa ham), hozircha tillarni gruppalashtirib baholashda undan foydalanadilar, mavjud til tiplari nomlarini tilga oladilar (A.A.Potebnya, I.A.Boduen de Kurtene, L.V.Shcherba va boshqalar).

Morfologik tasnif tillarning morfologik tomonini o'rganishga, til strukturasi juda muhim, hatto markaziy o'rin tutgan so'z va so'z formalarining tuzilish xususiyatlari bilan shug'ullanishga undaydi. Shuning uchun ham turkiy tillarda (shuningdek, o'zbek tilida) so'zni morfologik xususiyatlarini – so'z yoki so'z formalarining morfologik strukturasi tahlil qilish ishiga kirishishdan ilgari turkiy tillarning morfologik klassifikatsiyasida tutgan o'rniga nazar solish lozim. So'ngra esa

turkiy tillardagi agglyutinatsiyaning xususiyatini, soʻzning morfologik qismlarini (umuman, morfologik strukturasi), soʻz formasini nima ekanligini va soʻz formalarining turlarini, nihoyat, sintaktik (yoki soʻz oʻzgartuvchi) formalarining yasashida morfemalarning qanday rol oʻynashi bilan bogʻlangan ayrim muhim masalalarni yoritishga kirishish mumkin.

***Ingliz tilidagi soʻzlar oʻzaro morfemalarsiz bogʻlanadi. Vengr tilidagi morfologik kompleksli soʻzlar ingliz tilidagi soʻzlarda ajratiladi. Masalan, (15) elallatiasodottsagaban soʻzi. Vengr tili agglyutinatil boʻlganligi uchun uzun soʻz bir necha morfemalardan iborat boʻladi, ular oʻzaro ajraladi va ularning hammasida sezilarli maʼno boʻladi: el+allat+i+as+od+ott+sag+a+ban va ingliz tilida har bir morfema yangi soʻzga oʻxshab ketadi. Biz buni ingliz tilidagi koʻpgina soʻzlarning morfemalardan tashkil topganidan ham koʻrishimiz mumkin; egiink, evett, enni kabi soʻzlardagi e nimani bildiradi? Bu kabi soʻzlar flektiv tillarga xosdir. Yaʼni e morfemasi moslashuvchan. Flektiv tillarda soʻzlarning qaysi morfema bilan boshlanishi yoki tugashi aniq emas.***<sup>117</sup>

Affiksial morfemalar oʻzak morfemaga birikish xususiyatiga koʻra muayyan tilning oʻziga xos jihatlari namoyon qiladi. Oʻzak morfemalarning tabiatiga koʻra tillar asosan *agglutinatil va flektiv* tillarga boʻlinadi<sup>118</sup>.

Tillarni tasnif qilishga urinishning dastlabki namunalarini uygʻonish (Renessans) davriga toʻgʻri keladi. Lotin va grek tillari («klassik tillar») qatorida Sharq tillari, xususan, semit tillari (qadimgi yahudiy, arab, suriya tillari va boshqalar) qizgʻin ravishda oʻrganila boshlanadi. Shu bilan birga boshqa tillarga ham eʼtibor kuchayadi, oʻsha davrda ilm olamiga maʼlum boʻlgan barcha tillarning katalogini tuzish va klassifikatsiya qilishga urinish fransuz gumanisti G.Postellusning «Tillarning qarindoshligi haqida» «De finitfte linguarum» 1538 y.) nomli traktati bilan boshlanadi. Uygʻonish davridagi mashhur olimlardan Iosif Yustus Skaliger

---

<sup>117</sup> Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.-P.42

<sup>118</sup> Agglyutinatsiya-lotincha «yopishtirish» maʼnosini; fleksiya «bukilish» maʼnosini anglatadi.

(1540 — 1609) – Yuliy Sezar Skaligerning (1484 – 1558) o‘g‘li – Yevropa tillarini ayrim gruppalariga ajratishga uringan edi. Bu urinishi juda qisqa bayondan iborat bo‘lgan. I. Yu. Skalyager Yevropa tillarini o‘n bitta asosiy tillarga (matrices) ajratadi. Bulardan to‘rttasi katta gruppalarni – til onalarini tashkil qiladi. Bular: lotin tili, grek tili, tevton tili, slavyan tili. Ana shu onalarini Deus, Oeos, Godt nomlari bilan ataydi. qolgan etti til onasi yuqoridagilarga nisbatan kichik gruppalar hisoblanadi. Bular alban (epirot) tili, tatar tili, venger tili, fin tili (lopar tili bilan birga), irland tili, kimr (britt) tili (breton tili bilan birga), bask tili.

Petr I zamonidan boshlab, ayniqsa, 1725-yilda Fanlar akademiyasiga asos solinganidan keyin, rus fani jahon madaniyatida katta rol o‘ynay boshladi. Kavkaz va Sibir halqlarining tillari yozib olinib, olimlar tomonidan o‘rganishga kirishildi. Bunda ayniqsa Stralenbergning xizmatlari diqqatni o‘ziga jalb qiladi. U shimoliy – sharqiy Yevropa va Osiyo tillarini klassifikatsiya qilishga urinadi. Masalan, 1739-yilda e‘lon qilingan “Tavila roluglotta” asarida bu kategoriyadagi tillarni 6 guruhga bo‘ladi: 1) fin-ugor tillari, 2) shimoldagi turkiy xalqlarning tillari, 3) samped tillari, 4) mo‘g‘ul, manjur, tibet tillari, 5) to‘ngus va paleo – osiyo tillari, 6) Kavkazdagi tog‘liklarning tillari.

O‘tmishda tillarni geografik prinsip jihatidan tasnif qilishga urinish ham bo‘lgan. Masalan, I. X. Adelung (1732—1806) o‘zining to‘rt tomli «Mitridat...» nomli asarida (III va IV tomlarini I. S. Fater (1771 —1826) nashrga tayyorlagan) ana shunday qiladi. I. X. Adelung tillarda bo‘lgan struktura o‘xshashligini qadimiy qarindoshlik natijasi deb hisoblagan. U masalan, shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bir bo‘g‘inli ajratuvchi tillarni bir gruppaga kiritadi.

A. Shlegel tillarni uch gruppaga bo‘ladi:

1. Hech qanday grammatik strukturaga ega bo‘lmagan tillar.
2. Affiks oluvchi tillar (ya‘ni so‘zlar orasidagi grammatik munosabatlarni affikslar yordami bilan ifodalaydigan tillar).
3. Flektiv tillar.

Bu tillarda grammatik munosabatlar affikslardan tashqari ichki fleYuriya yordami bilan ham ifodalanadi. U flektiv tillarda grammatik aloqani ifodalashning ikki usuli – shntetik, va analitik usullari borligini ko'rsatadi. (Ma'lumki, keyinchalik buni G.Shteyntal ma'qullagan edi). Aka–uka Shlegellarning tipologik klassifikatsiyasi oz sonli tillarnigina o'z ichiga oldi. Juda ko'p yirik tillar bu klassifikatsiyadan o'z o'rnini topmadi. Shunga qaramay, Shlegellarning klassifikatsiyasi hozirgacha morfologik klassifikatsiyaning boshi, asosi bo'lib qoldi. Bir yarim asr, davr davomida tillarni morfologik jihatdan ajratuvchi, agglyutinativ va flektiv tiplarga bo'lishning birinchi manbai mana shu Shlegellarning tipologik tasnifidir.

F.F.Fortunatov agglyutinativ tillarning morfologik xususiyatini shunday ta'riflaydi: «Ayrim so'z formalariga ega bo'lgan til oilalarining talay ko'pchiligida bu formalar so'zlarda negiz va affiksning shunday ajralish vositasi orqali yasaladiki, bunda negiz yo fleksiyaga ega bo'lmaydi, yoki negizda bunday fleksiya yuz bersa ham, u so'z formasi uchun zarur narsa emas... Bunday tillarni morfologik klassifikatsiyada, garchi noaniq ravishda bo'lsa ham, agglyutina-tsiyalashuvchi yoki agglyutinativ, ya'ni yopishtiruvchi tillar termini bilan atash odat bo'lib qolgan. Bunda so'z formalaridagi negiz va affiks o'z ma'nolariga ko'ra so'zning bir-biriga yopishtirilgan ayrim qismlari sifatida kelaveradi».

Ikkinchi guruhga semit tillarini kiritadi. Bu tillarda so'z negizlari o'zlaricha zarur bo'lgan formaga ega bo'lib, bu formalar negiz fleksiyasi bilan, ya'ni tovush tomonining o'zgarishi bilan yasaladi. Shu bilan birga, semit tillarida negiz bilan affiks orasidagi munosabat xuddi agglyutinativ tillardagi singaridir. Demak, bu tillarda negiz fleksiyasi affiks bilan birgalikda so'zning ma'lum formasini hosil qiladi. Shuning uchun semit tillarini flektiv – agglyutinativ tillar deb ataydi.

Uchinchi guruhga hind – Yevropa tillari kiritiladi. Bu tillarda so'z formasi negiz va affikslarning shunday aloqaga kirishidan tuziladiki, bunday aloqa na

agglyutinativ tillarda va na flektiv – agglyutinativ tillarda mavjud emas. Ana shunday tillarga nisbatan flektiv tillar degan nom saqlab qolinadi.

«Nihoyat, shunday tillar borki, bularda affikslar bilan yasaladigan so‘z formalari yo‘q. Bularda, umuman, ayrim so‘z formalari mavjud emas» (xitoy, siam tillari). Demak, bu tillar to‘rtinchi gruppani tashkil qiladi.

Hozirgi davr tilshunosligida tillarning morfologik tasnifiga yangicha qarashlar yuzaga kelgan. Bunda sinergetikaning qonuniyatlaridan kelib chiqilmoqda. Masalan, an’anaviy tasnif bo‘yicha o‘zbek tili agglyutinativ til hisoblanadi, ammo sinergetik qonuniyatga ko‘ra unda ham fleksiya xususiyatlari borligi aniqlangan.<sup>119</sup> Bugungi kunda ingliz tilida agglyutinastiya elementlari borligi kuzatilmoqda. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, dunyoda tipologik jihatdan sof holdagi biror bir til yo‘q, ya’ni har bir tilda u yoki bu darajada agglyutinastiya ham fleksiya ham kuzatilishi mumkin. Faqat bir tilda agglyutinastiya, bir tilda esa fleksiya yuqori darajada bo‘lishi mumkin.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Jahon tillar qanday tasnif qilinadi?
2. Til universalialari nima?
3. Genealogik tasnif qanday tasnif?
4. Dunyoda nechta til oilasi bor?
5. O‘zbek tili qaysi til oilasiga, uning qaysi guruhiga kiradi?
6. Rus tili qaysi til oilasiga, uning qaysi guruhiga kiradi?
7. Ingliz tili qaysi til oilasiga, uning qaysi guruhiga kiradi?
8. Nemis tili qaysi til oilasiga, uning qaysi guruhiga kiradi?
9. Turk tili qaysi til oilasiga, uning qaysi guruhiga kiradi?
10. Arab tili qaysi til oilasiga, uning qaysi guruhiga kiradi?
11. Ispan tili qaysi til oilasiga, uning qaysi guruhiga kiradi?

---

<sup>119</sup> **Rahinov A.** Fuziya lisoniy tipini kvantitativ va sinergetik yondashuv asosida tadqiq etish (o‘zbek tili misolida). Filol.fan.nomz...dis.avtoref.-Toshkent, 2009.

12. Tipologik tasnif qanday tasnif?

13. Tipologik tasnifga ko‘ra qanday tillar ajratiladi?

14. Tipologik jihatdan sof til mavjudmi?

### **Asosiy tushunchalar izohi:**

1. YUNESKOning axborotiga ko‘ra, hozirgi kunda dunyoda 5600 dan ortiq til mavjud. Bu tillarning rivojlanish darajasi va jamiyatda tutgan o‘rni, ularda gaplashuvchilarning soni turlichadir.

2. Til universalialari barcha tillar sistemalariga xos umumiy lingvistik kategoriyadir. Til universalialari yoki universalizm tildagi umumiy kategoriyalarni o‘rganadi va deskriptiv hamda boshqa metodlarni tilning umumiy qonunlari bilan tipologik umumiylikni aniqlashda qo‘llaniladi. Universalizm til qonunlarining umumlashtirilishi demakdir.

3. Tabiiy yoki ijtimoiy hodisalarning eng asosiy, eng muhim belgilarini nazarda tutgan holda dunyodagi narsalarning guruhlarga ajratilishi tasnif deyiladi. Dunyodagi barcha tillar ham eng asosiy eng muhim belgilari nazarda tutilgan holda bir necha guruhlarga bo‘linib tasnif qilinadi.

4. Tillarning bir manbadan kelib chiqishini, qaysi tillar bir-biri bilan qardosh ekanligini, shu bilan birga so‘zlarni, qo‘shimchalarni va boshqa grammatik xususiyatlarni nazarda tutib, tillarni ayrim guruhlarga ajratadi. Genealogik tasnifda guruhlarga ajratilgan tillarning kelib chiqishi, so‘zlarning paydo bo‘lishi va manbai ularning ma‘no jihatdan yaqinligi, shu bilan birga, ulardagi tovushlar va affikslar o‘xshashligi hisobga olinadi.

5. Tillarni morfologik tasnif qilishda so‘zlarning tuzilishi eng muhim belgi qilib olinadi. Bu usulda so‘zlarning kelib chiqishini e‘tirofqa olinmaydi. U eng avvalo har bir tilning grammatik qurilishini nazarda tutadi, ya‘ni nutqda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishidagi so‘z, turlovchi va tuslovchi qo‘shimchalarning bor- yo‘qligi ularning xususiyatlari va so‘zning yasaliş tomonlarini hisobga oladi. Shunga ko‘ra, morfologik usul barcha tillarni ikki asosiy guruhlarga ajratadi.

6. Qo‘shimchali (affiksli) tillar. Bunday tillarda nutqdagi so‘zlarning bir-biriga bog‘lanishi so‘z tarkibiga bog‘liq bo‘ladi. Morfologik usulga asoslangan qo‘shimchali tillar yana ikki guruhga bo‘linadi:

A. Agglyutinativ tillar (agglutinare lotincha so‘z bo‘lib, ulash, yopishtirish demakdir).

B. Felektiv tillar (flexio lotincha so‘z bo‘lib, egilmoq, bukilmoq demakdir).

C. Qo‘shimchasiz tillar. Bunday tillarda gap tarkibidagi so‘zlarning bir-biri bilan munosabati, asosan, so‘z tarkibi orqali ifodalanadi. So‘zlarning shakli esa o‘zgarmaydi (turlanmaydi, tuslanmaydi), hech qanday qo‘shimcha so‘z negiziga qo‘shilmaydi. Umuman, bu tillarga grammatik munosabatlar sintaktik yo‘l bilan ifodalanadi.

#### **14-§. MORFOLOGIK TASNIF. AGGLYUTINATIV VA FLEKTIV TILLAR**

YUNESKOning axborotiga ko‘ra, hozirgi kunda dunyoda 6000 dan ortiq til mavjud. Bu tillarning rivojlanish darajasi va jamiyatda tutgan o‘rni, ularda gaplashuvchilarning soni turlichadir. 100—200 kishidan tashkil topgan qabilaning tili ham, yuz millionli xalq gapiradigan til ham alohida til hisoblanadi. Mavhum tafakkur sohibi bo‘lgan odam turli tillarni eshitganda yoki o‘rganganda ularda asosan ikki jihatdan: moddiy o‘xshashlik (net, not, nicht, nest yoki birodar, brother, Bruder, brat) va so‘zlarning grammatik tuzilishi, negiz yasalishi, gapda so‘zlarning bir-biri bilan bog‘lanish usulidagi o‘xshashlik borligini albatta sezadi. Bu masalalar bilan jiddiy shug‘ullanish XIX-asrdan boshlandi. Tillarni turlarga ajratish to‘qrisida gap borganda genetik (geneologik), morfologik va struktural tasniflashga aqamiyat beriladi. Ba‘zan tillarni turlarga ajratish tillar tipologiyasi deb ham yuritiladi. Tilshunoslik fanida bu eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Uni hal qilishga chet el olimlari qatori, o‘zbek tilshunoslari ham o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar.

Ma'lumki, har qanday tipologiya qiyoslashni taqozo qiladi. J.Bo'ronovning fikricha, til sistemalarini qiyosiy o'rganishda umumiy-tipologik hamda tarixiy-qiyosiy metodlar mavjud. Umumiy-tipologik metod lingvistik tipologiyani yaratishga xizmat qiladi. Lingvistik tipologiya o'z navbatida struktural tipologiya universaliyasi, tillarning tipologik (morfologik) tasnifi maxsus tipologik nazariya va etalon tilni aniqlashni qamrab oladi. Umumiy-tipologik metod «turli tillar sistemalarini umumlashtirib, qiyoslab o'rganuvchi metod» dir. Hozirgi zamon lingvistik tipologiya fanining asosi bo'lgan struktural tipologiya, tilning struktural lingvistika metodlariga asoslanib, turli tillarning struktural belgilarini sistemaga soladi va inventarlashtiradi. Struktural tipologiya aniq metodlar asosida til qatlaminin differensial belgilarini, tipologik xususiyatlarini aniqlaydi va ularning tipologik tasnifini tuzadi. Struktural tipologiya tildagi har bir strukturani umumiy lingvistik ishtirokchi tarzida o'rganadi. Til universalialari barcha tillarga xos til xususiyatlaridir. Hamma tillarning vazifalari bir xil bo'lganligi uchun tillarda qandaydir o'xshashlik bo'lishi tabiiydir. Tillar strukturasiidagi ana shu o'xshashlik hodisasi tildagi umumiy o'xshashlik yoki universallik deyiladi.

Til universalialari barcha tillar sistemalariga xos umumiy lingvistik kategoriyadir. Til universalialari yoki universalizm tildagi umumiy kategoriyalarni o'rganadi va deskriptiv hamda boshqa metodlarni tilning umumiy qonunlari bilan tipologik umumiylikni aniqlashda qo'llaniladi. Universalizm til qonunlarining umumlashtirilishi demakdir.

Strukturalizm deduktiv metod vositasida ish ko'rsa, universalizm induktiv metod asosida ish ko'radi, ya'ni ma'lum umumiylikni barcha tillar sistemalariga tatbiq etadi.

Masalan:

- agar til faqat suffiksli bo'lsa, poslelog albatta bo'ladi;
- agar til faqat prefiksli bo'lsa, predlog ham bo'ladi;
- agar tilda rod kategoriyasi bo'lsa, son kategoriyasi ham bo'ladi;



-agar tilda rod kategoriyasi otlarga xos bo'lsa, olmoshlarda yam rod kategoriyasi bo'ladi.

Morfologik tipologiya «tillarning grammatik qurilishiga qarab taksonomik guruhlarga bo'lish bilan shug'ullanadi». Bu tipologiya ustida quyiroqda batafsil to'xtalib o'tamiz.

**Maxsus tipologik nazariya.** «Tillar sistemalarini tipologik tadqiq qilish usullari va maxsus qoida va metodlarini yaratish maxsus tipologik nazariyaning asosiy vazifasi sanaladi. Maxsus tipologik nazariyani yaratishda dunyo tillari sistemasi struktural tipologiyaning obyekti hisoblanadi. U aniq bir til sistemasini alohida o'rganuvchi deskriptiv metod va bir guruh qardosh tillar sistemasini o'rganuvchi genetik metoddan foydalanib, umumiy tipologik metodlarni yaratadi. Tipologik nazariya barcha tillar sistemalaridagi universallikni aniqlashga qodir bo'lishi kerak. Tipologik nazariya universalialarni bayon etish usullarini ifodalaydi, tipologiya uchun maxsus atamalar tanlaydi.

**Metatil (etalon til).** «Tipologiyaning asosiy vazifalaridan biri turli tillar sistemalarini tasniflash uchun mezon vazifasini o'tovchi ma'lum sistema yaratishdir. Bunday sistema metatil yoki etalon til deyiladi. Etalon til umumiy universal til bo'lib, hamma aniq tillar uning invarianti hisoblanadi. Deduktiv usulda aniqlangan tayyor vositachini etalon tilga solishtirish natijasida boshqa tillarning sistemasi aniqlanadi. Etalon til sifatida aniq til yoki sistema ham olinishi mumkin. Etalon tilning asosiy vazifasi tillar sistemasini ifodalashda o'lchov birligi vazifasini o'tashdan iborat. Ko'rilayotgan nazariyada qayd qilinishicha, etalon til vazifasini umumiy sun'iy til qoidalaridan tashkil topgan ramziy til sistemasi yaxshi ishlangan konkret til, ma'lum fonologik, morfologik, sintaktik, modellar va boshqa sistemalar bajarishi mumkin.

Morf va morfemalarni bo'g'inlar bilan aralastirmaslik lozim. Birinchidan, morf va morfemalarni tilning morfologik yarusi o'rganadi. Ikkinchidan, morf va morfemalar hamma vaqt bo'g'inlarga to'qri kelavermaydi va hamma bo'qinlar ham morf va morfemalarga mos bo'lavermaydi. Masalan, o'zbek tilidagi ko'cha so'zi ikki

bo‘qindan, lekin bir morfemadan tashkil topgan, otam so‘zi esa, ikki bug‘in va ikkita morfemadan tashkil topgan bo‘lsa ham, ularning chegarasi bir-biriga to‘qri kelmaydi. Fonetik jihatdan bug‘inlarga bo‘ladigan bo‘lsak, unda bu so‘z: *o-tam*, morfologik jihatdan eng kichik ma‘no anglatuvchi bo‘laklarga bo‘lsak, *ota-m* tarzida ajratiladi. Ba‘zi hollarda morflar tasodifan bo‘g‘inga mos kelib qolishi mumkin. Masalan: *darstliklar, ishchilar* va b.

Tabiiy yoki ijtimoiy hodisalarning eng asosiy, eng muhim belgilarini nazarda tutgan holda dunyodagi narsalarning guruhlariga ajratilishi tasnif deyiladi. Dunyodagi barcha tillar ham eng asosiy eng muhim belgilari nazarda tutilgan holda bir necha guruhlariga bo‘linib tasnif qilinadi. Yer yuzida taxminan ikki yarim mingdan ortiqroq til bor. Bu tillarning shevalari ham hisobga olinganda ularning soni besh mingdan oshadi. Yer yuzidagi ana shu tillarning eng asosiy, eng muhim belgilarini nazarda tutib, ularni tasniflash masalasi nihoyatda murakkab va muhimdir. Tilshunoslik fanida tillarni tasniflashda bir-biriga o‘xshagan ikki xil usul mavjud: a) genealogik usul; b) morfologik usul.

Grammatik kategoriya bir xil grammatik hodisalar, ayniqsa, grammatik so‘zlarning har xil shaklidan qat‘iy nazar majmui, yig‘indisidir. Grammatik kategoriyalardagi bir xillik grammatik shakllarga, grammatik vazifaga qarab belgilanadi. Ma‘lum ma‘nodagi so‘z bir necha grammatik shakllarni olishi mumkin, lekin so‘zning ma‘nosi o‘zgarmaydi. Grammatik kategoriya bir tomondan so‘zlarning leksik-grammatik xususiyati, yasalashi, vazifalari kabi hodisalar asosida ajratilgan guruhlar (ot kategoriyasi, fe‘l kategoriyasi kabi), ikkinchi tomondan birlik, ko‘plik, fe‘llarda shaxs-son kabi grammatik vazifalarni affikslar, so‘z shakllari bilan bir xil xarakterdagi grammatik hodisalar majmuidir. Har bir so‘zning asosiy ma‘nosi bor, yana umumiy ma‘nosi bor, bu asosiy ma‘noga yo‘ldosh, qo‘shimcha ma‘no bo‘lib keladi. Masalan: paxtalar, asosiy ma‘no - o‘simlik turi, qo‘shimcha ma‘no – ko‘plik. Umumiy xarakterdagi bir qancha so‘zlarda uchraydigan qo‘shimcha ma‘no

grammatik ma'no deyiladi. Grammatik ma'no turli vositalar orqali ifodalanadi (qo'shimcha, yordamchi so'z).

Grammatik kategoriya mantiqiy kategoriya bilan bog'liqdir. Mantiqiy kategoriya borliqni tafakkurda aks ettiradi. Mantiqiy kategoriyadagi belgilar grammatik kategoriyalar orqali ifodalanishi mumkin. Masalan: *-ning, -ga*, kelishik qo'shimchalari, predmet, hodisalar tasvirini ifodalaydigan so'zlarsiz grammatik ma'no ifodalanmaydi. Grammatik ma'no mantiqiy hukm bilan aynan bir xil emas. Har bir tilning o'ziga xos grammatik kategoriyalari mavjud. Masalan: o'zbek tilida: son, egalik, zamon, kelishik kategoriyalari, rus tilida: rod, zamon, son kategoriyalari mavjud.

Grammatik kategoriyalar va grammatik shakl bir xil hodisa emas. Masalan, o'zbek tilida zamon kategoriyasi bir necha shakllar bilan ifodalanadi: *men oldim, men olganman, men olgan edim* kabilarning hammasi o'tgan zamon fe'lini bildiradi. Ularning hammasi birlashib zamon kategoriyasiga kiradi. Har bir tildagi grammatik kategoriyalar shu tilning xususiyatlarini aks ettiradi.

Grammatik kategoriyalar har bir tilda har xil bo'ladi. Masalan: rus tilida otlarning jonli–jonsiz bo'lishi o'zbek tilida yo'q. Turkiy tillardagi egalik kategoriyasi slavyan tillarida mavjud emas.

Har bir tildagi grammatik kategoriya tarkibiy qismlardan iborat. Masalan: son kategoriyasi – birlik va ko'plik, shaxs – I, II, III shaxslar. Ba'zan bitta shakl bir necha grammatik kategoriyani ifodalashi mumkin. Masalan: читаюfe'lida –ю qo'shimchasida ham shaxs, ham son ifodalanadi, I shaxs, birlik. Hamma tillarda grammatik vositalar har xil bo'ladi, har xil qo'llanadi. Shu bilan bir–biridan farq qiladi. Son kategoriyasi miqdor munosabatiga asoslangandir. Bunda morfologik vositalar orqali predmet bir donaligi va ko'pligi ifodalanadi.

**Son kategoriyasi** hamma tillarda uchraydi. Faqat ishlatilishi bir xil emas. Ko'pgina tillarda birlik ma'nosi ko'plikka nisbatan qarama - qarshi qo'yilib taqqoslanadi. Bir xil tillarda ayrim otlar faqat birlik sonda, ba'zi otlar faqat ko'plik

sonda beriladi. Turkiy tillarda deyarli hamma otlar birlik sonda, ba'zi otlar faqat ko'plikda beriladi. Ba'zi mavhum tushunchalar muhabbat, ong faqat birlikda ishlatiladi.

**Shaxs kategoriyasi** ish-harakatning biror shaxsga munosabatini bildiradi. Masalan: I shaxs ish-harakatining so'zlovchi tomonidan bajarilishini, II shaxs ish-harakatining suhbatdosh tomonidan bajarilishini bildiradi. Ba'zi tillarda shaxs-son boshqa so'z turkumlari orqali ham ifodalanadi. Masalan: *Biz ishchimiz*.

**Kelishik kategoriyasi.** So'zlarning gapda bir-biriga bo'lgan munosabatlarini kerakli shakllarda ifodalagan grammatik hodisaga kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi har bir tilga xos ma'lum grammatik vositalar orqali gapdagi so'zlarning bajarayotgan vazifasini aniqlab beradi. Turli so'z shakllarini o'z ichiga olgan morfologik sintaksis bilan bir bo'lib tilning kommunikativ vazifasini bajaradi.

Har bir tilning taraqqiyot natijasida shakllangan grammatik qurilishi bo'ladi. Tilning grammatik qurilishini o'rganuvchi fan shu tilda so'zlashuvchilar uchun juda muhim fandır. Ba'zi so'zlar leksik jihatdan o'zaro keskin farqlansalar, grammatik jihatdan bir-birlari bilan bog'liq bo'ladilar. Masalan, *daftar, bino, bog', xona, hovli, pichoq* kabi so'zlar leksik ma'nosiga ko'ra hech bir umumiylikka ega emas. Ammo grammatik jihatidan ular ot turkumiga kiruvchi so'zlar sifatida birlashadilar. Shuning uchun leksik ma'no xususiylik, grammatik ma'no esa umumiylik xususiyatiga ega.

Grammatik kategoriyalar mavhumlik darajasi turlicha bo'lib, so'z turkumlari, kelishiklar, gap kabi kategoriyalarda mavhumlik darajasi ko'proq, zamon, shaxs-son kategoriyalarida esa kamroq bo'ladi.

Grammatik qoida va qonunlar shunchaki tilning "texnika"si emas, balki ular fikrni ifodalashda tilning qonuniyatlari hisoblanadi. Ko'pgina tillarda so'zlar, so'z birikmalari va gap tarkibida o'z tovush tarkibini o'zgartiradi, o'z shaklini o'zgartiradi. Grammatikaning gap tarkibida so'z o'zgarishi qoidalarini o'rganuvchi qism morfologiya deb ataladi.

Grammatikaning gapda soʻzlarning birikish qoidalarini oʻrganuvchi qismi sintaksis deb ataladi. Morfologiya va sintaksis grammatikaning teng huquqli va oʻzaro bir-birini toʻldiruvchi qismlari hisoblanadi.

Morfologiya va sintaksisning mustahkam aloqasini shu bilan izohlash mumkinki, soʻz shaklining oʻzgarishi va bu shakllarining maʼnosini soʻz birikmasidan ayirib oʻrganish mumkin emas. Masalan, kelishik maʼnosini aniqlashtirish uchun soʻz birikmasiga, gapga murojaat qilamiz va faqat gapdagina ushbu shakl maʼnosini ochishimiz mumkin boʻladi.

**Morfologiya.** Morfologiya soʻz shakllarini, soʻzlarning leksik-grammatik jihatdan turlarini, boʻlinishlarini, guruhlarini oʻrganadi. Barcha tillar mustaqil maʼnoli soʻzlarning tuzilishi jihatdan ikki guruhga boʻlinadi:

**1. Agglyutinativ tillar.** Bu guruhga turkiy tillar, Osiyo va Afrikadagi koʻpgina xalqlarning tillari kiradi. Bu tillarda soʻzlar sintaktik bogʻlanishda oʻzak, negizi oʻzgarmasdan toʻgʻridan - toʻgʻri qoʻshilib kelaveradi. Masalan: *ota + m + lar + dan*.

**2. Flektiv tillar.** Bu guruhga Hind–Yevropa tillari kiradi. Ularda grammatik maʼnoni ifodalovchi affikslar soʻz oʻzagi bilan juda zich birikib ketadi. Bu hodisa fuziya deyiladi. Masalan: kelishik qoʻshimchalarini qoʻshsak, *парта, парты, парте* tarzida boʻladi va soʻz kelishik qoʻshimchasisiz toʻla maʼnoli soʻz boʻlolmaydi. Qoʻshimcha baʼzan oʻzakni ham oʻzgartirib yuboradi: *учо - учии, друг - друзья*. Rus tilida fleksiya hodisasi tufayli bitta qoʻshimcha bir necha grammatik maʼno bildirishi mumkin. Masalan: *У детях* dagi – *ях* qoʻshimchasi koʻplik son va predlojniy padejini ifodalab keladi. Flektiv tillarda soʻzlarning oʻzagi qoʻshimchalarsiz yakka holda ishlatilmaydi.

Hozirgi davr tilshunosligida tillarning morfologik tasnifiga yangicha qarashlar yuzaga kelgan. Bunda sinergetikaning qonuniyatlaridan kelib chiqilmoqda. Masalan, anʼanaviy tasnif boʻyicha oʻzbek tili agglyutinativ til hisoblanadi, ammo sinergetik qonuniyatga koʻra unda ham fleksiya xususiyatlari borligi aniqlangan.

O‘zakka nisbatan o‘rniga qarab qo‘shimchalar *affikslar, suffikslar, prefikslar, postfikslar, infikslarga* bo‘linadi.

So‘z yasovchi va shakl yasovchi affikslar so‘zning leksik ma‘nosi bilan bog‘liqdir. Bu hodisa leksika bilan morfologiyaning bir-biriga bog‘liq ekanini isbotlaydi.

Morfologiyaning so‘z tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan, uning xususiyatlaridan kelib chiqadigan masalalari nazariy jihatdan puxta yoritilmas ekan, orfografiya qoidalarini ishlab chiqish, tilning grammatik strukturasi tasvirlaydigan darsliklar, qo‘llanmalar yaratish, o‘quv yurtlaridagi ta‘limni asosli va ishonarli qilib olib borish kabi praktik ishlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaydi. Agglyutinatsiya tushunchasi tillarning morfologik strukturasi o‘ziga oid bo‘lib, u jahon tillarini morfologik jihatdan klassifikatsiya qilishga intilish bilan bog‘langan holda yuzaga keldi.

**Morf va morfema.** Morf nutqning morfologik yarusidagi eng kichik ma‘no anglatuvchi birligi, morfema esa tilning morfologik yarusidagi eng kichik ma‘no anglatuvchi birligidir. Morf va morfema hamma vaqt ham bir-biriga teng kelavermaydi. Til birligi bo‘lmish morfema nutqda bitta morf orqali va ba‘zi hollarda bir necha morf orqali ifodalanishi mumkin. O‘zbek tilida otlarda ko‘plik birgina *-lar* morfemasi bilan ifodalanadi. Bunday hollarda morf va morfema bir-biriga mos keladi. Yoki chiqish ma‘nosi kelishik qo‘shimchasi orqali, ya‘ni *-da* ham xuddi shunday hodisaga misol bo‘la oladi. Lekin jo‘nalish ma‘nosi o‘zbek tilida turli qo‘shimchalar bilan amalga oshiriladi: (*-ga, -ka, -ka*). Bunday hollarda bir morfema uchta morf orqali namoyon bo‘ladi. Odatda bir morfemaga kiruvchi morflarni shu morfemaning variantlari yoki allomorflari deyiladi. Demak, allomorf deb turli shaklga ega bo‘lgan, lekin bir xil ma‘no anglatadigan va bir morfemaga kiradigan morflarga aytiladi. Allomorflarga misollar Hind-Yevropa tillarida ko‘plab uchraydi: [ы] [i] [a] [ya] kabi rus tilidagi ko‘plikni ifodalovchi allomorflar shular jumlasidandir.

Barcha tillarda so‘zlar ma‘noli qismlarga bo‘linadi. Masalan, *ishchi* so‘zidagi ish - predmetlik ma‘nosini bildiruvchi o‘zak va *-chi* grammatik ma‘no bildiruvchi

qo‘shimcha. Qo‘shimchani grammatik ma‘nosi faqat tovush jihatidan emas, balki shu so‘zning gapdagi sintaktik vazifasiga ko‘ra ham belgilanadi. Masalan, rus tilidagi

*На столе лежали книги*

*Я вчера купил книги*

*У меня нет этой книги*

gaplarida *книги* so‘zi bir xil ko‘rinishga ega. Lekin, *- i* qo‘shimchasi birinchi gapda ko‘plik, bosh kelishik, ikkinchi gapda ko‘plik, tushum kelishigi, uchinchi gapda birlik, qaratqich kelishigi ma‘nolarini bildiradi. Demak, kelishik morfemasi – *i* ning ma‘nosi gapda so‘zning boshqa so‘zlar bilan munosabatiga ko‘ra belgilanyapti.

So‘zning har bir ma‘noli qismi morfema deb ataladi. A.Hojiyev morfemaga shunday ta‘riy beradi: “Morfema- so‘z va so‘z shaklini yasash uchun xizmat qiluvchi lisoniy birlikdir”. Morfemalar ikki xil bo‘ladi: o‘zak va affiks.

So‘zlarning o‘zaro munosabatini bildirishga xizmat qiluvchi affikslar qo‘shimcha deb ataladi. Vaqt o‘tishi bilan so‘zlar ham ma‘no jihatidan, ham tovush jihatidan o‘zgarib ketadi, o‘zining leksik ma‘nosini ham o‘zgartirib yuborishi mumkin. Hatto ba‘zi so‘zlar mustaqil leksik ma‘nosini yo‘qotib, yordamchi so‘zga aylanib qoladi. Masalan, *oldida, tomon, bir-, bir-* kabi: *Uy oldida kutdim. Shahar tomon yo‘l oldi. Bir yonadi, bir o‘chadi.*

Boshqa tillarda ham shu holatni kuzatamiz. Masalan, ingliz tilida yordamchi fe‘lga aylangan *to have, to be* fe‘llari yoki artiklga aylangan so‘zlar (ingliz, nemis, frantsuz tillarida) *the, der, die, das, le, la* kabi.

**Konversiya.** Konversiya – yangi so‘z yasash usuli bo‘lib, bunda bir grammatik turkumdagi so‘z boshqa grammatik turkumga o‘tadi. Yangi so‘z avvlgisidan morfologik, sintaktik xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. Masalan, *Yomonga yondoshsang, balosi yuqar.*

Konversiyani quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

*Substantivatsiya* - konversiya yo‘li bilan ot hosil bo‘lishi;

*Ad‘ektivatsiya* - sifat hosil bo‘lishi;

*Adverbializatsiya* – ravish hosil bo‘lishi;

Rus tilida konversiyaning sifatdan ot hosil bo‘lish hodisasi ko‘p uchraydi. Masalan, *портной, крепостной, взрослый, заведующий, часовой* kabi.

Nemis tilida otdan fe‘l yasash hollarini ko‘ramiz: *Pfeffern-garimdori, pfeffern-garimdori sepish, haus-uy, hausen-yashamoq*.

Ingliz tilida fe‘ldan ot yasash yoki aksincha otdan fe‘l yasash ko‘p uchraydi. *Look - qaramoq; a look - nazar; stone - tosh; stone - tosh otmoq*

Fransuz tilida *poste - pochta, poste - pochtdan jo‘natmoq*.

**Reduplikatsiya.** Reduplikatsiya o‘zakning to‘liq yoki qisman takrorlanish holati bo‘lib, u so‘z o‘zgartiruvchi, so‘z yasovchi qo‘shimchalar vazifasini bajaradi. Bu Avstroindoneziya tillarida ko‘proq uchraydi. Masalan, Indoneziya tillarida: *api-olov, api-api - gugurt, solo-sochiq, solo-solo - dastro‘mol*. O‘zakning qisman takrorlanishi ham uchraydi. Masalan, Tagal tilida: *moho-qaynatilgan, momoho - pishgan, yetilgan*. Yava tilida: *lara - bemor, lelara-kasallik, laku - yurmoq, lelaku - sayohat qilmoq*.

Ba‘zan o‘zakning takrorlanishi ma‘nodagi belgining kuchayishini bildirsa, Samoan tilida: *eva - qadam bosmoq, evaeva-u yoqdan - bu yoqqa yurish*; ba‘zi tillarda esa takroriy belgining susayishiga olib keladi: *vera - issiq, veravera - iliq, daga t - dengiz, dagatdagat - hovuz*.

O‘zak tarkibidagi ba‘zi tovushlarning o‘zgartirish yo‘li bilan takrorlash ham uchraydi. Masalan, o‘zbek tilidagi *choy ichmoq, choy - poy mehmon qilish, qog‘oz, qog‘oz-mog‘oz-har xil qog‘ozlar*.

**Suppletivatsia.** Bir so‘zning turli grammatik formalari turli o‘zaklardan paydo bo‘lishi suppletivatsiya deyiladi. Masalan rus tilidagi: *хороший –лучше, плохой –хуже*, ingliz tilidagi: *good – better, best, bad – worse* kabi.

Hind–Yevropa tillarida *bo‘lmoq* fe‘lining tuslanishi, ayniqsa, suppletivatsiyaga yaqqol misol bo‘ladi. Masalan, ingliz tilida:

I shaxs - aym



II shaxs – is

III shaxs – are ko‘rinishida bo‘ladi.

Ikki xil paradigmadagi so‘zlarning yaqinlashib, yagona ma’no kasb etishi ham suppletivatsiyani hosil qiladi. Masalan, *детя- дети, ребёнок - ребята* so‘zlarning *детя* va *ребята* so‘zlarining qo‘llanishi chegaralashib borib, *ребёнок* va *дети* so‘zlarining o‘zaro bir paradigmani hosil qilishi shunga misol bo‘la oladi.

**So‘z turkumlari.** So‘zlarning umumiy leksik-grammatik xususiyatiga ko‘ra bo‘linishi so‘z turkumlari deyiladi. Har bir tilda so‘zlar turkumlarga ajratiladi. Bunda har xil prinsiplarga asoslaniladi. Ba‘zan leksik ma’noni asosiy etakchi belgi qilib oladilar, ba‘zan morfologiyani etakchi belgi qilib oladi. Masalan; turkumga ajratishda rus tilida so‘zning morfologik belgilari hal qiluvchi rol o‘ynaydi, xitoy tilida esa leksik ma’no, sintaktik belgisi va gapda so‘z tartibi eng asosiy prinsip qilib olinadi. Turkiy tillarda morfologik belgi, ayniqsa, so‘zning leksik ma’no va sintaktik xususiyati asos qilib olinadi.

Har bir tilda so‘z turkumlari til bilan bir xil vaqtda paydo bo‘lishi shart emas, har bir tilda so‘z turkumlarining soni har xil: rus tilida 10 ta, o‘zbek tilida 11 ta, ingliz tilida 9 ta, uyg‘ur tilida 8 ta.

Ot eng qadimgi so‘z turkumi. Uning eng asosiy belgisi kelishiklar bilan turlanishidir. Ba‘zi tillarda ot turlanmaydi, ko‘makchilar yordamida yoki so‘zlar orqali bog‘lanadi.

Sifatlar ba‘zi tillarda leksik ma’nosi va gapdagi vazifasi bilan ajralib turadi. Sifatlar asliy va nisbiy bo‘ladi.

So‘z turkumlari ikki katta guruhga bo‘linadi: mustaqil so‘zlar va yordamchi so‘zlar. Mustaqil so‘z turkumlari quyidagilar: *ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe’l*. Yordamchi so‘z turkumlari quyidagilar: *ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama*.

**So‘z va so‘z turkumlarining morfologik tasnifi.** Aytilganidek, tildagi barcha so‘zlar o‘zlarining grammatik va semantik xususiyatlariga ko‘ra so‘z turkumlariga ajratiladi.

*Semantik prinsip* so‘zlarni ma’nosiga ko‘ra so‘z turkumlariga ajratadi.

*Morfologik prinsip* soʻz shakllarining oʻzgarishiga koʻra soʻz turkumlariga ajratadi.

*Sintaktik prinsip* esa soʻzning sintaktik vazifasiga asoslanadi.

Qadimgi olimlar davridayoq soʻz turkumlarini ajratishda faqat shaklga emas, maʼnoga ham eʼtibor berish zarurligi taʼkidlangan edi. Grek tilshunoslari grammatikaga bagʻishlashgan ishlarida feʼl kelishiksiz soʻz turkumi boʻlib, u zamonda, shaxs-sonda oʻzgarishi va harakat hamda holatni ifodalashi mumkinligi haqida yozishgan.

Hozirgi kunda kompleks prinsiplarga asoslangan holda soʻz turkumlari ajratiladi va bunda quyidagilar eʼtiborga olinadi: 1) grammatik formalar va maʼnolar, yaʼni soʻz morfologiyasi; 2) soʻz leksik maʼnosining umumiy xarakteri; 3) soʻzning sintaktik vazifalari; 4) soʻz tarixi.

Soʻz turkumlari – bu shunday razryadki, ular oʻz maʼno tuzilishi, grammatik kategoriyalari xususiyatlari, soʻz yasalishi, shakl yasalishi xususiyatlari, shuningdek, nutq jarayonidagi bajarilayotgan funktsiyalariga koʻra oʻzaro farqlanadilar.

Soʻz turkumlari gap tarkibiga kirishib, gap boʻlaklariga aylanadilar. Har bir soʻz turkumiga biron-bir sintaktik funksiya mos keladi. Masalan, ot aksariyat ega va toʻldiruvchi vazifasida, sifat aniqlovchi vazifasida, ravish hol vazifasida, feʼl kesim vazifasida keladi. Jonli nutq jarayonida soʻzlar yangi maʼnolar kasb etadi va oʻzgacha vazifalarda kelishi kuzatiladi. Tillarning oʻziga xosligi tufayli turli tillar uchun yagona morfologik tasnif yaratish mumkin emas. Oʻzbek tili grammatikasini aytaylik, uni rus tili grammatikasi tipiga qarab yaratish mumkin emas.

**Soʻz moddiy tarkibining oʻzgarishi.** Maʼlumki, dunyoda oʻzgarmaydigan narsa yoʻq — hamma narsa vaqt oʻtishi bilan maʼlum darajada oʻzgarib turadi. Til ham bundan istisno emas. U doimo evolyutsiyada. Bu oʻzgarish tilning hamma bosqichlariga xos narsa. Tilda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar soʻzning tarkibiga ham oʻz taʼsirini oʻtkazadi, natijada u ham asta-sekin oʻzgarib boradi. Soʻz tarkibining oʻzgarishi turli tillarda turli yoʻl bilan boradi. Tilshunoslik nazariyasida asosan uchta

yo‘l ta‘kidlanadi: soddalashuv, qayta tuzilish va murakkablashuv. Bu yo‘llarning har birini alohida ko‘rib chiqamiz.

**Soddalashuv.** Qo‘shma yo‘l bilan yasalgan negizlarni yasama negizlarga o‘tish yoki qo‘shma negiz bilan yasama negizni tub negizga o‘tish hodisalari soddalashuv deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, ko‘p morfemali so‘zning bir morfemali so‘zga o‘tib qolish hodisasi tilshunoslikda soddalashuv deb nom olgan. Odatda, bu hodisa so‘zning ichki formasini yo‘qotishi natijasida, ya‘ni morfemalar orasidagi chegaraning yo‘qolishi natijasida ro‘y beradi. Soddalashuv ikki sababga asosan sodir bo‘lishi mumkin:

a) u yoki bu morfemaning ma‘nosini kuchsizlanishi va asta-sekin yo‘q bo‘lib ketishi;

b) bir so‘zdagi o‘zakning o‘ziga qardosh bo‘lgan boshqa o‘zaklar bilan aloqasining uzilishi natijasida. Bu ikki sababning birinchisiga quyidagi so‘zlar misol bo‘la oladi; rus tilidagi *печевый* so‘zi qozirgi vaqtda so‘z yasovchi affiksi bo‘lmagan sodda (tub) so‘z sanaladi, chunki qadimgi rus tilidagi *печь* (bahs ma‘nosida) so‘zi ishlatilishdan chiqib ketgan. Aslida esa, *печевый* so‘zi *печь* - ot va *-iv* sifat yasovchi morfemadan tashkil topgan. Hozirgi rus tilidagi *нужный, хижина, кольцо* so‘zlarini ham xuddi shu usulda tushuntirish mumkin. Bir vaqtlar rus tilida *нужа, хижа* va *коло* so‘zlari bo‘lgan, ana shu so‘zlarga *-n, -in, -st* so‘z yasovchi va forma yasovchi *-ый, -а, -о* larning qo‘shilishi natijasida qosil qilingan. Lekin hozirgi paytda bu so‘zlar tub so‘zlar qatoridan o‘rin olgan va ularning tarkibi to‘g‘risida gap borganda, ularni quyidagi morfemalarga ajratishadi: *нужны-й, хижин-а, кольцо-о*.

Ikkinchi usulga esa quyidagilar misol bo‘la oladi. Hozirgi zamon rus tilida *жир* degan so‘z bor. Bu so‘z tub so‘z hisoblanadi. Rus tilida bu so‘zga o‘zakdosh so‘zlar ham mavjud, masalan: *жизнь, живой*. Bu so‘zlarning asosida yotgan o‘zak ham ma‘lum - *жить*. Lekin hozirgi paytda *жить* so‘zi bilan qolgan uch so‘z orasida hech qanday bog‘lanish sezilmaydi. Aslida esa *жир* so‘zi ji o‘zagidan va *-r* so‘z

yasovchi qo‘shimchadan tashkil topgan bo‘lib, hayotda orttirilgan degan ma‘noni anglatgan. Shunday qilib, qadimgi rus tilidagi –r so‘z yasovchi morfema hozirgi vaqtda o‘zakning ajralmas qismi hisoblanadi va bu o‘zak asosida yangidan-yangi so‘zlar yasaladi: *жирный, жиреть, обезжиренный* va b.

*Adler* nemischa so‘zining soddalashuvida so‘z tarkibidagi fonetik o‘zgarishlar katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Hozir bu so‘zning ma‘nosi burgutdir. Aslida bu so‘z qo‘shma so‘z, ya‘ni *adal va -ar* bo‘lib, asl qush degan ma‘noni anglatgan. Bu so‘zdagi fonetik o‘zgarishdan tashqari *ar* so‘zi muomaladan chiqib ketgan. Rus tilidagi *zavtra* so‘zining dastlabki fonetik tarkibi *zautra* bo‘lib, *za va utro* so‘zlaridan tashkil topgan.

So‘zning morfologik tarkibining soddalashuvi, ayniqsa, bir tildan ikkinchi tilga so‘z o‘zlashtirilganda ko‘p ro‘y beradi: yasama va qo‘shma so‘zlar sifatida o‘zlashtiruvchi tilga kirib keladi. Masalan, ingliz tilidan o‘zlashtirilgan *futbol* so‘zi o‘zbek tilida tub so‘z qisoblansa, ingliz tilida qo‘shma so‘zdir: *foot - oyoq va ball - to‘p*. Nemis tilidan kirib kelgan *kurort* so‘zi ham bu tilda qo‘shmadir, ya‘ni *kur - dam, ort - joy*. O‘zbek tiliga fors tilidan kirib kelgan *dardisar* so‘zi garchi o‘zbek tilida tub so‘z hisoblansa ham, fors tilida ikki so‘zdan tashkil topgan –*dard +sar*.

**Qayta tuzilish.** So‘z moddiy tarkibi o‘zgarishining qayta tuzilish yo‘li deganda so‘zdagi morfemalar chegarasining o‘zgarishi va buning natijasida yangi affiksial morfemalarning paydo bo‘lishi tushuniladi. Qayta tuzilishda so‘zning negizi yasamaligicha kelaveradi, lekin u morfemalarga ajratilayotganda ularning chegarasi o‘zgarib, bu so‘zni tuzishda ishtirok etgan dastlabki morfemalar asl ko‘rinishini yo‘qotadi va so‘z yangicha tarkibiy qismlarga ajratiladi. Qayta tuzilish jarayonida analogiya hodisasi va eskirgan morfemalarning tildan chiqib ketishi ayniqsa katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, hozirgi zamon rus tilida *smelost’* va *gotovnost’* yasama so‘zlari bor. Birinchisi *smel* o‘zagi va –*ost’* so‘z yasovchi morfemadan, ikkinchisi *esa, gotov* o‘zagi va –*nost’* so‘z yasovchi morfemasidan tashkil topgan. Shunday qilib, hozirgi zamon rus tilida bir vazifani bajaruvchi ikki so‘z yasovchi suffiks –*ost’* va –*nost’* bor. Ba‘zi olimlarning fikricha,

-ность morfemasi keyinroq paydo bo'lgan, dastlabki -ость dir. Ular buni quyidagicha izohlashadi. Bir vaqtlar rus tilida *готовый* va *готовный* sifatlari bo'lgan. Bu sifatlardan mavhum ot yasalganda *готовный* so'ziga -ость affiksi qo'shilgan. Yasalgan otni avvallari quyidagicha tarkibiy qismlarga ajratishgan: ГОТОВН-ость; -н-va -ость negiz yasovchi morfemalar yonma-yon turganligi uchun vaqt o'tishi bilan ular bir-biriga qo'shib ketgan va hozirgi kunda bu so'z yangicha tarkibiy qismlarga ajratiladi: ГОТОВ - o'zak va -ность negiz yasovchi morfema. Bu hodisa, o'z navbatida, tildan *готовный* degan sifadni tushib qolishiga sababchi bo'lgan. Mavhum ot *готовность* bevosita *готовный* sifatiga -ность morfemasini qo'shish orqali yasaladi, deb qabul qilingan.

Ba'zi hollarda so'zlar ham qayta tuziladi. Bunga rus tilidan yana bir misol keltirish mumkin. Bu tilda unli bilan boshlanadigan olmoshlarning undosh bilan boshlanadigan variantlari ham bor.

Я дал им книгу

Я пришел к ним

Я дал ему книгу

Я пришел к нему

Bir vaqtlar rus tilidagi s va k bir tovushdan emas, balki uchta tovushdan tashkil topgan: *s'n, k'n*.

Ma'lumki, predloglar yordamchi so'zlarga mansub bo'lib, nutqda urqu olmaydi. Ular olmoshlar oldida ishlatilganda, ritmning ta'siri natijasida, olmoshlar bilan qo'shib talaffuz qilingan: *к нему, с ним*. XII va XIII asrga kelib, (unsiz) jarangsiz ' tovushini til sistemasidan chiqib ketishi natijasida yuqorida keltirilgan so'zlar orasidagi chegara o'zgardi: dastlabki uch tovushli predloglar uning birinchi tovushi mustaqil so'z — predlogga aylandi, oxirgi tovush esa, olmoshlarning boshlanqich tovushlari qatoriga o'tdi.

**Murakkablashuv.** So'zning moddiy tarkibini o'zgarishining uchinchi yo'li murakkablashuv nomini olgan. Murakkablashuv deganda, avval tub so'z hisoblangan so'zlarni yasama yoki murakkab so'zlar qatoriga o'tib qolishi yoki bir morfemali so'zlarni ikki va undan ortiq morfemali so'zlarga o'tib olishi tushuniladi. Masalan,

golland tilidan rus tiliga o'tgan *zonedek* so'zi *zontik* tarzida o'zlashtirilib, analogiya qoidasiga binoan bu so'zning tarkibi *stolik*, *domik* so'zlari tarkibi singari zont va -ik morfemalariga ajratiladi. Murakkablashuv hodisasi avvalgi hodisaga qaraganda tillarda kamroq uchraydi.

Shunday qilib, so'z moddiy tarkibining o'zgarishi deganda mazkur so'zning dastlabki ko'rinishi bilan uning hozirgi morfologik tarkibi orasidagi o'zgarish tushuniladi. Bu hodisalarni aniqlashda qiyoslash katta ahamiyatga egadir. So'z moddiy tarkibining o'zgarishi til taraqqiyotini ko'rsatuvchi omillardan biridir.

## **15-§.LINGVISTIKA TURLARI VA LINGVISTIK METODLAR HAQIDA BOSHLANG'ICH MA'LUMOTLAR**

Lingvistika turlari. Muhtaram talabalar, mana Siz "Tilshunoslik asoslari" fani bo'yicha etarli bilimlarga ega bo'ldingiz. Ishonchimiz komilki, orangizda tilshunoslik ilmiga qiziqib, kelajakda etuk tilshunos olim bo'lish istagi uyg'onganlar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Shunga ko'ra mazkur mavzu tilshunoslik ilmiga dastlabki qadam hisoblanadi. Ushbu mavzuni yaxshi o'zlashtirgan holda Siz bugungi kundanoq ilmiy-tadqiqot yo'nalishingizni tanlab olasiz. Tilshunoslik bilan shug'ullanayotgan har bir tadqiqotchi esa lingvistika turlari va lingvistik metodlar haqida boshlang'ich ma'lumotlarga ega bo'lmay iloji yo'q. Zero bu bilimlarsiz hech qanday tadqiqot ishini olib borib bo'lmaydi. Umuman, har qanday yo'nalishdagi til ta'limida yuqoridagi ma'lumotlar muhim o'rin tutadi. Siz yuqori kursda "Umumiy tilshunoslik" fanini o'qiganda ushbu mavzular bo'yicha chuqur va batafsil bilim olasiz, albatta. Ammo ungacha lingvistika turlari va lingvistik metodlar haqida boshlang'ich ma'lumotlarga ega bo'ling.

*Lingvistika* termini qator Yevropa mamlakatlari: ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus va boshqa tillarda faol qo'llanilib, til haqidagi fanni anglatadi. Ushbu so'zning o'zagi *lingua* bo'lib, til degan ma'noni beradi. Binobarin, lingvistika terminining o'zbek tilidagi

muqobili, ma'nodoshi tilshunoslik bo'lib, ular o'zaro sinonimik munosabatga kirishadi.

Lingvistika yoki tilshunoslik fani o'ziga xos murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan aloqa qurolini – tilni sistema sifatida – bir butun obyekt sifatida tadqiq va tahlil qiladi. Ayni jarayonda u turli ko'rinishlarda, shakllarda kuzatiladi. Bu ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan tilning mohiyatidan, uni turli tomondan o'rganish, tekshirish lozimligidan va bu ilmiylik nuqtai nazaridan mutlaqo to'g'ri ekanligidan kelib chiqadi.

Lingvistika nihoyatda qudratli ma'naviyat belgisi, millat boyligi bo'lgan tilni o'rganish jarayonida quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Dinamik lingvistika. 2. Statik lingvistika. 3. Atomistik lingvistika. 4. Struktural lingvistika. 5. Sinxron lingvistika. 6. Diaxron lingvistika. 7. Intralingvistika. 8. Ekstralingvistika. 9. Makrolingvistika. 10. Mikrolingvistika. 11. Paralingvistika. 12. Psixolingvistika. 13. Sostiolingvistika. 14. Etnolingvistika. 15. Matematik lingvistika. 16. Neyrolingvistika. 17. Kompyuter lingvistikasi. 18. Kognitiv lingvistika va b.

Lingvistika turlaridan qaysi biri Sizni qiziqtirib qo'ydi? Lingvistika turlaridan biri tanlashdan oldin Siz eng muhim yo'nalishni - jihatni tanlab olishingiz zarur, ya'ni Siz sinxron lingvistika bilan shug'ullanasizmi yoki diaxron lingvistika bilan? Soddaroq qilib tushuntirganda, Siz til tarixini tadqiq qilisizmi yoki uning hozirgi (zamonaviy) holatini, shuni aniqlashtirib olish kerak bo'ladi. Ushbu jihat aniqlashtirilganidan so'ng tadqiqotchi o'z metod va metodologiyasini belgilab olishi zarur, zero sinxron lingvistika tadqiqot metodlari bilan diaxron lingvistikaning tadqiqot metodlari bir-biridan farq qiladi.

Tadqiqotchi qaysi obyektini va uning qaysi xususiyatlarini tekshiradi? Bunda bizga lingvistik metodlar haqidagi ma'lumotlar yordamga keladi.

**Lingvistik metodlar.** Metod etimologik jihatdan grekcha methodos so'zidan olingan bo'lib, "tadqiqot", "o'rganish" degan ma'noni anglatadi.

Metod bilish nazariyasiga ko'ra voqelikka yondashish – tabiat, jamiyat va fikrlash jarayonini – tafakkurni bilish usulidir. Binobarin, metod ushbu falsafiy ma'noda obyektiv voqelikning har qanday hodisa va jarayonlarini bilish, tushuntirish va talqin qilish yo'lidir. Ayni vaqtda metod umumiy – falsafiy ma'noda qo'llanishdan

tashqari u tor (xususiy) ma'noda ham qo'llanish imkoniyatiga ega. Bu holda u muayyan fanga oidligi bilan, ayni fanning tadqiqot obyektini (manbaini) tahlil qilish bilan muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, metod maxsus, xususiy, sohaviy metod sifatida turlicha fanlarda turlicha bo'lishi bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, metod umumiy va xususiy, falsafiy va sohaviy ko'rinishlarga egaligi bilan xarakterlanadi.

Metodologiya – tadqiqotchining maqsadi bilan bog'lanib, tadqiqot manbaini qanday tushunishi va unga qanday usul bilan yondashishi – shu asosda obyekt yuzasidan muayyan nazariy yoki amaliy, mantiqiy (ichki) yoki tavsifiy (shakliy tashqi) bilimlarni hosil qilishidir.

Yuqorida ta'kilanganidek, sinxron va diaxron tilshunoslik metodlari turlicha, shunga ko'ra tilshunoslik fanida mavjud - amaldagi metodlar ikkiga ajratiladi: 1. Diaxron tadqiqot metodlari. 2. Sinxron tadqiqot metodlari.

Diaxron tadqiqot metodlari miqdoran chegaralangan bo'lib, ular tarixan tashkil topganligi, ya'ni qo'llanishiga ko'ra uzoq davrlarga borib taqalishi –uzoq tarixga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu metodlar jahon tilshunosligi amaliyotida ko'p asrlardan beri tillar tabiatini, tarkibini tekshirishda, tadqiq va tahlil qilishda faol xizmat qilganligi va jahon tilshunos olimlari tomonidan to'la tan olinganligi sababli ular an'anaviy, ya'ni tradistion metodlar deb ham yuritiladi. Diaxron tadqiqot metodlariga, asosan, quyidagilar kiradi:

1. Tasviriy metod. 2. Qiyosiy – tarixiy metod. 3. Chog'ishtirish metodi. 4. Tarixiy - qiyosiy metod. 5. Tipologik metod.

#### **Sinxron tadqiqot metodlariga, asosan, quyidagilar kiradi:**

1. Distributiv tahlil metodi. 2. Statistika tahlil metodi . 3. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi. 4. Transformastion tahlil metodi. 5. Komponent tahlil metodi . 6. Valentlik tahlil metodi. 7. Eksperimental – fonetik tahlil metodi. 8. Avtomatik tahlil metodi .



### **Musahkamlash uchun savollar:**

1. Lingvistikaning qanday turlari mavjud?
2. Metod nima?
3. Metodning qanday ko‘rinishlari mavjud?
4. Metodologiya nima?
5. Metodlar nechtaga bo‘linadi?
6. Nima uchun diaxron tadqiqot metodlari deyiladi?
7. Diaxron tadqiqot metodlariga qanday metodlar kiradi?
8. Diaxron tadqiqot metodlariga qanday metodlar kiradi?

### **Asosiy tushunchalar izohi:**

1. Metod – obyektiv borliq predmet hodisalarini – tadqiqot manbaini ilmiy tahlil qilib, o‘rganib, uning mohiyatini, tabiati va tarkibini aniqlash, muayyan jihatlarni, o‘ziga xos xususiyatlarini topish, ochish va ular haqida ilmiy xulosalar, umumlashmalar chiqarish usulidir.

2. Metodologiya – tadqiqotchining maqsadi bilan bog‘lanib, tadqiqot manbaini qanday tushunishi va unga qanday usul bilan yondashishi – shu asosda obyekt yuzasidan muayyan nazariy yoki amaliy, mantiqiy (ichki) yoki tavsifiy (shakliy tashqi) bilimlarni hosil qilishidir.

3. Diaxron tadqiqot metodi – tarixiy metod bo‘lib, tarixan tashkil topganligi bilan, qo‘llanishiga ko‘ra uzoq o‘tmish bilan bog‘lanishiga ko‘ra o‘ziga xosdir, ularda vaqt, zamon belgisi mezon vazifasini o‘taydi.

### **16-§. TILSHUNOSLIK VA BOSHQA FANLAR INTEGRATSIYASI**

**Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi.** Tilshunoslik yoki lingvistika muayyan tilning ijtimoiy tabiati va jamiyatdagi vazifalari, uning ichki tuzilishi,

faoliyati, tarixiy taraqqiyoti va tasnifiga oid tilshunoslikka oid fandır. Lingvistika soʻzi fransuzcha «Linguistique» soʻzidan olingan boʻlib, tilshunoslik demakdir. Uning asosi lotincha «Lingua» (til va nutq) bilan bogʻliqdir. Bu fan inson tilini oʻrganuvchi mustaqil fandır. Maʼlumki, til, joʻn qilib aytganda, insonlar oʻrtasidagi asosiy muomala vositasidir. Tilsiz kishilik jamiyati va xalq yashay olmaydi. Tilsiz insonning oʻzi ham mavjud boʻla olmaydi. U inson uchun berilgan buyuk bir neʼmat boʻlib, jamiyat bilan birga taraqqiy etadi va shu jamiyat uchun xizmat qiladi. Til yoʻq ekan, inson ham, jamiyat ham boʻlmaydi.

Fanda taʼkidlanishicha, hozirgi zamon fani uchta asosiy boʻlimdan iborat:

- tabiatshunoslik yoki tabiiy fanlar (tabiatning mavjudligi, uning taraqqiyoti haqidagi qonuniyat va hodisalar);

- ijtimoiy fanlar, yaʼni jamiyat haqidagi fanlar;

- falsafa tabiat, jamiyat va tafakkurning umumiy qonuniyatlarini oʻrganadi.

Tilshunoslik inson tili haqidagi fan sifatida ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Umuman, tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning yaqinlashuvi natijasida, keng maʼnoda aytadigan boʻlsak, texnik fanlar, xususan, qishloq xoʻjaligi va meditsina fanlari; tabiatshunoslik (tabiiy) fanlari (asosan, fizika) bilan falsafa (asosan, mantiq)ning yaqinlashuvidan matematik fanlar, xususan, matematik mantiq va kibernetika vujudga kelgan. Umuman olib qaraganda, tilshunoslik fani hozirgi zamon fanlarining barchasi bilan ham juda yaqin aloqada boʻladi. Chunki, inson faoliyatining barcha koʻrinishlarida, xususan, idrok qilish va oʻzaro muloqot jarayonlarida til asosiy vazifani bajaradi. Bundan tashqari, tilshunoslik ham fanlar sistemasida boshqa bir qancha fanlar bilan uzviy aloqada boʻladi. «Bu aloqalarsiz tilshunoslikning oʻrganish obyekti boʻlgan tilning oʻziga xos tomonlarini ochib berish mumkin emas. Masalan, tilshunoslikning fonetika boʻlimida nutq tovushlarining akustik tomoni fizikaning akustika boʻlimi maʼlumotlari asosida oʻrganiladi. Nutq tovushlarining paydo boʻlishida ishtirok etadigan nutq organlarining vazifasini fiziologiya materiallarisiz bayon qilish mumkin emas. yoki nutq patologiyasi muammolari tibbiyot tibbiyot fani

bilan uzviy aloqada hal qilinadi. Tilshunoslikda lisoniy birliklarning boshqa lisoniy birliklar bilan birikish imkoniyatlari va ushbu imkoniyatning yuzaga chiqish masalalari bilan shug'ullanuvchi valentlik nazariyasining vujudga kelishi bevosita kimyo fanining ta'siri bilan bog'liqdir». Tilning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq holatlar tilshunoslik fanini tarix fani bilan shunchalik zich bog'laydiki, ikkalasini bir-biridan ajratish ancha mushkul. Shunga ko'ra aytish mumkinki, tilshunoslik va ijtimoiy fanlarning bog'liqligini aniq kuzatish mumkin.

**Tilshunoslik va ijtimoiy fanlar.** Tilshunoslik, birinchi navbatda, ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Shu bois, u ijtimoiy fanlar bilan, ayniqsa, **tarix, psixologiya, pedagogika, iqtisodiy geografiya** bilan juda yaqin aloqadadir. Yuqorida ham aytib o'tganimizdek, tilshunoslikning tarix fani (ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti haqidagi fan) bilan uzviy aloqasini hech kim inkor eta olmaydi. Chunki, har qanday xalq tilining tarixi shu xalq tarixining bir bo'lagidir. Bu holat, ayniqsa, muayyan bir tilning lug'at tarkibini tadqiq qilishda, uning shakllanishi va taraqqiyotini, yashash tarzini o'rganishda yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, til urug' va qabila, elat hamda millat tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lgani uchun kishilik jamiyatining tarixi tilda bevosita o'z aksini topadi. Chunki, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq shunday qonuniyat borki, jamiyatdagi har qanday o'zgarish, birinchi navbatda, tilda namoyon bo'ladi. Har qanday tildagi so'zlarning tarixini, tilning lug'at boyligini o'rganishda, unga tarixiy nuqtai nazardan to'g'ri baho berishda tarix fani tilshunoslikka katta yordam beradi. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida faol qo'llanishda bo'lib turgan arabcha, forsha-tojikcha va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni o'rganishda tarixiy dalillar asosiy omil sanaladi.

Tilshunoslik va adabiyotshunoslik (adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid) o'rtasidagi yaqin aloqa ham isbot talab qilmaydi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik o'rtasidagi ittifoq natijasida filologiya (yunoncha: phileo - sevaman + logos - so'z) fani vujudga keldi. Tarixan bu termin qadimgi Gretsiyada bugungi ma'nosida qo'llanmagan; filologga nisbatan grammatik (grammatikos) termini

qo‘llangan. Bu davrlarda qadimgi Gretsiyada grammatikachi bilan filolog ikki xil ma‘no uchun qo‘llangan, xususan, filolog termini badiiy asarning mazmuni va uslubini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi shaxsga, grammatikachi (grammatist) termini esa grammatika, orfografiya, matn izohi kabilarni o‘rganuvchi shaxsga nisbatan qo‘llangan. Keyinchalik, aniqrog‘i, Uyg‘onish davrida nafaqat til va adabiyot, balki tarix, huquq, din, falsafa kabi fanlarni o‘rganuvchi klassik filologiya vujudga keldi. XIX asr o‘rtalariga kelib filologiya o‘z qamrov doirasini toraytirdi va uning obyektiga filologik fanlar sifatida tilshunoslik va adabiyotshunoslik kirdi.

Aytish mumkinki, poetika (yunoncha: poietike – poetik san‘at, ijod, poeziya) tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining mushtarak obyekti sanaladi. Shuningdek, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning o‘zaro yaqin aloqalari stilistika, adabiy til tarixi, badiiy asar tili masalalari tahlilida yanada yaqqol ko‘rinadi. Ammo badiiy matn tahlilida har ikki fan uni o‘ziga xos usullarda tadqiq etadi, o‘rganadi. Adabiyotshunos tilni badiiy shakl va g‘oyaviy mazmunning bir uzvi, adabiyotning asosiy elementi, so‘z san‘ati sifatida, tilshunos esa badiiy matnni muallifning nutqiy faoliyati, til me‘yori va uslubining aniq bir fakti sifatida tahlil qiladi. Badiiy asarda qo‘llangan til vositalari tadqiqi bilan funksional stilistika shug‘ullanadi.

Til shaxs nutqiy faoliyatining asosiy omili o‘laroq psixologiya va tilshunoslik fanlarining predmeti sanaladi.

Tilshunoslik (psixologiya kabi) pedagogika bilan ham yaqindan aloqada bo‘ladi. Ularning aloqalarini til o‘qitish metodikasida to‘liq kuzatish mumkin. Ayrim olimlar bu aloqani lingvodidaktika yoki lingvopedagogika deb ham atashmoqda. Ushbu so‘zlarda qo‘llangan didaktika termini ham yunoncha bo‘lib, didaktikos – ibratli, namuna degan ma‘nolarni anglatgan. Didaktika hozirda pedagogikaning ta‘lim va mazmuni, umumiy metod va shakllari haqidagi bo‘limidir.

**Tilshunoslik va tabiiy fanlar.** Tilshunoslik tabiiy fanlardan biologiya, fizika, kimyo, geografiya, geologiya, tibbiyot kabilar bilan qaysidir jihatlari yuzasidan bog‘langandir. Biz tilshunoslikni tabiiy fanlar sirasiga kiruvchi inson fiziologiyasi va

antropologiyasi fanlari bilan aloqalarini ko‘rib o‘tamiz. Tilshunoslik uchun eng muhim jihat reflektor holatdagi inson nutqi faoliyati nazariyasi bo‘lib, uning asoschilari I.M.Sechenov hamda I.P.Pavlovdir. Inson ko‘rish, eshitish, sezish orqali dunyoni idrok etadi, o‘z hayotiy faoliyati davomida ana shu fiziologik holatlar – signallar sistemasi orqali voqeliklarni anglaydi, tafakkuri orqali ularning analiz-sintezini amalga oshiradi. Bularning barchasida fiziologik asoslar etakchilik qiladi. Fonetikaning anatomik-fiziologik aspekti fonetik birliklarning biologik asosini – inson organizmidagi ayrim a‘zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi rolini, ularning tuzilishi va faoliyatini o‘rganadi. Nutq tovushlarining biologik asosini quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: 1) nutq a‘zolarining anatomiyasi; 2) nutq a‘zolarining fiziologiyasi; 3) nutq a‘zolarining ijro kechimi .

Tilshunoslar va antropologlarning o‘zaro qiziqish xususiyatlari ikki holatda to‘qnashadi: birinchidan, tillarni tasniflashda, ikkinchidan, nutqning kelib chiqishi masalalarini o‘rganishda. Qolaversa, inson nutqiga oid jihatlar bevosita fizikaning tadqiqot obyekti sanalgan akustikaga bog‘lab o‘rganiladi. Chunki fizikaning akustika bo‘limi bilan tilshunoslikning fonetika bo‘limi o‘zaro bog‘liqdir. Ma‘lumki, akustika har qanday tovushning eshitish bilan aloqador xususiyatlarini o‘rganadi. Tilning tovush tomoni murakkab jarayon bo‘lib, uning fizik-akustik tabiati, biologik asosi (nutq a‘zolarining harakati), talaffuz etilishi va eshinishi kabi xossalari bor. Tovushning sifat belgilari sanalgan tovush balandligi, tovush kuchi, tovush tembri, shuningdek, tovushning miqdor belgisi ko‘rsatkichi bo‘lgan tovush cho‘ziqligi tilning fonetik birliklarining fizik tabiati hisoblanadi. Shu bilan birga har qanday tovushning paydo bo‘lish o‘rnini, lab va burunning ishtirokini aniqlash uchun fizik asboblardan foydalaniladi. Fizikadagi magnit maydon, atomning tuzilishi singari masalalar tilshunoslikdagi leksik-semantik maydon, eng kichik til birliklarining bo‘linuvchanligi singari nazariyalarning kelib chiqishiga zamin yaratdi. Bularning barchasi tilshunoslik bilan fizika fani uzviy aloqador ekanligini ko‘rsatadi.

Ta'kidlash zarurki, tilshunoslik bilan aloqador fanlar tilning shu fanlar nuqtai nazaridan eng ahamiyatli aspektini o'rganadi. Masalan, sotsiolingvistika tilning ijtimoiy hodisa ekanligini, til va jamiyat munosabatlarini, ya'ni tilning kommunikativ vazifasini o'rganadi. Mantiq fani bilan tilshunoslikning o'zaro aloqadorlik tomoni til bilan tafakkur munosabatlarida yaqqol ko'rinadi. Chunki tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lgan til tafakkur bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur darslikning maxsus bir bo'limi til va tafakkur munosabatlariga bag'ishlanganligi ham bejiz emas.

Tilshunoslik va matematika o'rtasidagi munosabat masalasini ochib berish ancha murakkab. Shunday fikr borki, har qanday fanni «fan» deb atash uning ichiga matematikaning qanchalik kirib borganligi, unda qo'llanish darajasining qay darajada ekanligi bilan belgilangan. Bu - bejiz emas, albatta. Chunki matematika aniqlikni yoqtiradi. Matematikada har qanday masala aniq o'z echimiga, natijasiga ega. XX asrga kelib ko'pgina matematiklar hamda yaratilgan matematika maktablari matematikani nafaqat aniq fanlarda, xususan, fizika yoki texnikada, balki ijtimoiy fanlarda ham qo'llay boshladilar. Buning natijasi o'laroq tilda ekonometrika (iqtisodiyotda matematik metodlarni qo'llash), matematik mantiq, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi terminlar paydo bo'ldi. Aytilganidek, XX asrda matematik mantiq fani mustaqil bir fan sifatida ish ko'rdi. Umuman, matematik mantiq matematikaning o'ziga xos bir bo'limi sifatida shakllandi. Matematik lingvistika haqida ham shunday fikrlarni aytish mumkin. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, matematik lingvistikaga maxsus yoki o'ziga xos lingvistika sifatida qaramaslik kerak. Bunda til hodisalarida matematik usullardan foydalaniladi. Eng muhimi, bu bevosita tilga emas, balki nutqqa oiddir. Masalan, ehtimollar nazariyasi yoki matematik statistikaning qo'llanishi.

Hozirgi kunga kelib kompyuter lingvistikasi keng rivoj topmoqda. U oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus predmet sifatida o'qitilmoqda.

## “MUTAXASSISLIKKA KIRISH” FANIDAN TEST SAVOLLARI

**1. Narsa nomi bilan narsa o‘rtasida bog‘lanish bor degan fikr tarafdorlari nima deb ataladi?**

- A) anomalistlar.
- B) anologistlar.
- D) tipiklashtiruvchilar.
- E) anarxistlar.

**2. Makrolingvistika nimani o‘rganadi?**

- A) tilning ichki, fonetik, leksik, grammatik tuzilishini o‘rganadi.
- B) tilni boshqa fanlar bilan aloqasini, bog‘liqligini o‘rganadi.
- D) tilning yirik kategoriyalarini o‘rganadi.
- E) tilshunoslik terminining boshqa bir ko‘rinishi.

**3. Nutq apparati nechta qismga bo‘linadi?**

- A) 3 qismga.
- B) 4 qismga.
- D) 5 qismga.
- E) 6 qismga.

**4. Rezonator vazifasini qanday organlar bajaradi?**

- A) og‘iz va burun bo‘shlig‘i.
- B) bo‘g‘iz.
- D) kekirdak va diafragma.
- E) o‘pka.

**5. So‘z tarkibidagi undoshlarning o‘zaro moslashishi nima?**

- A) assimilyastiya.
- B) akkomodastiya.
- D) metateza.
- E) proteza.

**6. Segment elementlar nima?**

- A) bo‘g‘in.
- B) tovushlar.

D) soʻzlar.

E) hamma javoblar toʻgʻri.

**7. Supersegment elementlar nima?**

A) urgʻu va ohang.

B) tovush va harf.

D) soʻzlar.

E) fraza va harf.

**8. Akustika nima?**

A) tovush oʻzgarishi.

B) tovushning eshitilishi.

D) tovush talaffuzi.

E) tovush organlari.

**9. Jahon tillari qanday usullarda tasnif qilinadi?**

A) tipologik tasnif, genealogik tasnif.

B) fonetik va grammatik tasnif.

D) lingvistik va stilistik tasnif.

E) tarixiy va zamonaviy tasnif.

**10. Til taxminan qachon paydo boʻlgan?**

A) 500 ming yil oldin.

B) 1 million yil oldin.

D) 750 ming yil oldin.

E) 300 ming yillar oldin.

**11. Diereza nima?**

A) tovush tushishi.

B) tovush orttirilishi.

D) tovush almashinishi.

E) soʻzning old tomonida tovush qoʻshilishi.

**12. Epenteza hodisasi nima?**

A) tovush tushishi.

B) tovush almashinishi.



D) soʻz tarkibida ortiqcha tovush paydo boʻlishi.

E) soʻzning old tomoniga tovush qoʻshilishi.

**13. Grammatika qanday qismlarga boʻlinadi?**

A) polisemiya va omonimiya.

B) morfologiya va sintaksis.

D) fonetika va fonologiya.

E) lugʻat boyligi va tarjima.

**14. Qoʻshimchali tillar qanday guruhlarga boʻlinadi?**

A) agglyutinativ va flektiv.

B) relyativ va attributiv.

D) predikativ va nopredikativ.

E) obyektiv va subyektiv.

**15. Shevalarning koʻpayishi va yangi tillarning paydo boʻlishi tilshunoslikda qanday ataladi?**

A) farqlanish (differentiastiya).

B) mujassamlashuv (integrastiya).

D) klassifikastiya (tabaqalashtirish).

E) turkumlashtirish (gruppirovka).

**16. Milliy tilning xalq tilidan farqi nimada?**

A) adabiy yozuvning mavjudligi.

B) tillarning chatishuvi.

D) til strukturasi mavjudligi.

E) farqi yoʻq.

**17. Kelgindilar tili mahalliy tilni siqib chiqaradi, ishlatishdan chiqib ketayotgan til kelgindilar tiliga sezilarli taʼsir koʻrsatadi, bu hodisa qanday ataladi?**

A) substrat.

B) superstrat.

D) subyektivizatsiya.

E) substantivizatsiya.

**18. Til sistemasi (tizimi) nima?**

- A) til hodisalari.
- B) fonetika, grammatika va lug‘at tarkibining uzviy bog‘lanishi.
- D) tilning tarkibi, tuzilishi.
- E) til sistemasi – bu til strukturasi.

**19. Til strukturasi(tuzilishi) nima?**

- A) til hodisalari.
- B) fonetika, grammatika, lug‘at tarkibining uzviy bog‘lanishi.
- D) tildagi kategoriyalarning tarkibi, uning ma’lum ko‘rinishga ega bo‘lishi.
- E) til strukturasi – bu til sistemasi.

**20. Fonetika nimani o‘rganadi?**

- A) tilning tovush tizimini.
- B) grammatikani.
- D) so‘zlarning tarkibini.
- E) nutq fiziologiyasi, tovushlarning paydo bo‘lishini.

**21. Fonologiya nimani o‘rganadi?**

- A) tilning tovush tizimini.
- B) grammatikani.
- D) so‘zlarning tarkibini.
- E) to‘g‘ri javob yo‘q.

**22. Tilning paydo bo‘lishi haqidagi to‘g‘ri farazni aniqlang.**

- A) ijtimoiy kelishuv farazi.
- B) mehnat chaqiriqlari farazi.
- D) mehnat faoliyati taraqqiyotda til va ong orasidagi munosabat rivojlanib til paydo bo‘ldi.
- E) undovlar nazariyasi.

**23. Morfemaning ma’nosiga ko‘ra qanday ko‘rinishlari bor?**

- A) o‘zak morfema, affiks morfema.
- B) o‘zak morfema, negiz morfema.
- D) so‘z va morfema.
- E) morfema va morfemika.

**24. Affiks morfema ko‘rinishiga ko‘ra qanday farqlanadi?**

- A) prefiks, infiks, suffiks.
- B) morfema va soʻz.
- D) kelishik qoʻshimchalari.
- E) barcha javoblar toʻgʻri.

**25. Fleksiya hodisasi nima?**

- A) soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshilishi.
- B) soʻz shaklining oʻzgarishi.
- D) soʻzlarda tovush orttirilishi.
- E) soʻzlarda tovush tushirilishi.

**26. Tillarda gap tarkibidagi soʻzlarning bir-biri bilan grammatik munosabati necha xil va ular qaysilar?**

- A) 2 xil: sintetik va analitik.
- B) 3 xil: tub va yasama, aralash.
- D) 4 xil: affiks, prefiks, infiks, suffiks.
- E) 1 xil: grammatik.

**27. Yozuv taxminan qachon paydo boʻlgan?**

- A) 50-60 ming yil ilgari.
- B) 15-20 ming yil ilgari.
- D) nomaʼlum.
- E) 30-40 ming yil ilgari.

**28. Tillarni tasniflashda qanday usullardan foydalaniladi?**

- A) morfologik va sintaktik.
- B) morfologik va genealogik.
- D) tarixiy va zamonaviy.
- E) alfavitlarga koʻra.

**29. Morfologik usulda barcha tillar qanday guruhlarga ajratiladi?**

- A) qoʻshimchali (affiksli) tillar va qoʻshimchasiz (affikssiz) tillar.
- B) turkumli va turkumsiz tillar.
- D) elementli tillar va elementsiz tillar.
- E) tarixiy tillar va zamonaviy tillar.

**30. Grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhi qanday ataladi?**

- A) tillar turkumi.
- B) tillar yig'indisi.
- D) tillar oilasi.
- E) tillar gruppasi.

**31. Hozirgi vaqtda tarixi o'rganilib, bir-biri bilan qardosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi nechta?**

- A) 7 ta.
- B) 8 ta.
- D) 9 ta.
- E) 10 ta.

**32. O'zbek tili qaysi tillar oilasiga kiradi?**

- A) Hind – Yevropa tillari oilasiga.
- B) Xom – Som tillari oilasiga.
- D) Ugor – Fin tillar oilasiga.
- E) Turkiy tillar oilasiga.

**3. Tojik tili qaysi tillar oilasiga kiradi?**

- A) Hind – Yevropa tillar oilasiga.
- B) Xom – Som tillari oilasiga.
- D) Ugor – Fin tillar oilasiga.
- E) Slavyan tillar oilasiga.

**34. Eramizdan to'rt asr ilgari yashagan, qadimgi hind tili – sanskrit grammatikasini yozgan mashhur hind olimini aniqlang.**

- A) Dehlaviy.
- B) Andalusiy.
- D) Panini.
- E) Yusuf Xos Hojib.

**35. Artikulyatsiyada nechta bosqich bor?**

- A) 3 ta.

- B) 4 ta.
- D) 5 ta.
- E) 6 ta.

**36. Narsa nomi bilan narsa o'rtasida bog'lanish yo'q degan fikr tarafdorlari qanday ataladi?**

- A) anomalistlar.
- B) analogistlar.
- D) tipiklashtiruvchi.
- E) anarxistlar.

**37. Tilning mohiyati nimada?**

- A) til-idealdir.
- B) til-kategoriyadir.
- D) til-ijtimoiy hodisa.
- E) til sinfiy xarakterga ega.

**38. Til qaysi sohaning obyekti?**

- A) til-tilshunoslikning obyekti.
- B) til-mantiq ilmining obyekti.
- D) til-psixologiyaning obyekti.
- E) til falsafaning obyekti.

**39. Tafakkur nimaning obyekti?**

- A) tafakkur – falsafaning obyekti.
- B) tafakkur – psixologiyaning obyekti.
- D) tafakkur – tilshunoslikning obyekti.
- E) tafakkur – mantiq ilmining obyekti.

**40. Nutq a'zosi deb nimaga aytiladi?**

- A) nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etmaydigan a'zolar nutq a'zolari deyiladi.
- B) nutq tovushlarining hosil bo'lishida qatnashadigan a'zolar nutq a'zolari deyiladi.
- D) ko'krak qafasining yuqori qismi nutq a'zolari deyiladi.
- E) nutq tovushlarining hosil qilishda havo etkazib beruvchi a'zolar nutq a'zolari deyiladi.

**41. Nutq apparatiga qaysi a'zolar kiradi?**

- A) diafgrama, o'pka, kekirdak.
- B) o'pka, kekirdak, bo'g'iz, til.
- D) o'pka, kekirdak, bo'g'iz, til, tish, lab.
- E) diafgrama, o'pka, kekirdak, ovoz paychalari, bo'g'iz qopqog'i, kichik til, tanglay, til, tish, lab.

**42. Nutq tovushlari ovoz va shovqinning ishtirok etish darajasiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?**

- A) 3 guruhga bo'linadi.
- B) 5 guruhga bo'linadi.
- D) 4 guruhga bo'linadi.
- E) 2 guruhga bo'linadi.

**43. Tilning gorizontaal harakatiga ko'ra unlilar qanday bo'ladi?**

- A) til oldi, til orqa, o'rta.
- B) til o'rta, til ora, keng.
- D) keng, til oldi, til orqa.
- E) til oldi, til o'rta, til orqa.

**44. Hozirgi o'zbek tilida unli tovushlar qanday belgi asosida tasnif qilinadi?**

- A) tilning ko'tarilishi va tanglay tomon yaqinlashuviga ko'ra labning holati va ishtirokiga ko'ra.
- B) tilning ko'tarilishi va og'izning ochilish darajasiga ko'ra.
- D) tilning ko'tarilishi va tanglay tomon yaqinlashuviga ko'ra.
- E) tilning va og'izning ochilish darajasiga ko'ra.

**45. Undosh tovushlar qanday hosil bo'ladi?**

- A) nutq organlarining bir – biriga tegishi natijasida o'pkadan kelayotgan havo oqimining to'siqqa uchrashi undoshlarni hosil qiladi.
- B) nutq organlaring bir – biriga tegishi natijasida o'pkadan kelayotgan havo oqimining to'siqqa uchramasligi undoshlarni hosil qiladi.
- D) undoshlar akustik jihatdan ovozning ustunligi bilan xarakterlanadi.
- E) undosh tovushlar talaffuz qilinganida nutq organlaring holati bir xil bo'ladi va nutq organlari o'pkadan kelayotgan havoni bir xilda to'smaydi.

**46. Sinonimlar deb nimaga aytiladi?**

A) bir tushuncha, hodisa predmet yoki belgini ifodalovchi, ma'nolari o'xshash yoki yaqin bo'lgan turli ma'no ottenkalarini va ekspressiv – stilistik bo'yoqlarni farqlash uchun xizmat qiluvchi so'zlar sinonimlar deyiladi.

B) til birliklaring shaklan teng kelishiga sinonimlar deyiladi.

D) qarama - qarshi ma'noli so'zlar sinonimlar deyiladi.

E) bir tushuncha, hodisa predmet yoki belgini ifodalovchi, ma'nolari o'xshash bo'lgan so'zlar sinonimlar deyiladi.

**47. Nutq fonetik jihatdan qanday birliklarga bo'linadi?**

A) jumla, fraza, intonatsion butunlik, takt, bo'g'in, tovush.

B) jumla, fraza, takt, bo'g'in, tovush.

D) jumla, takt, bo'g'in, tovush.

E) jumla, takt, tovush.

**48. Qaysi qatordagi so'zlarda metateza hodisasi yuz bergan?**

A) past, rost, dayro, go'sht.

B) sparavka, stol, qulupnay, tarelka.

D) dayro, turpoq, paypoq, qo'lpoq.

E) past, stul, dayro, tuproq.

**49. Omonimga berilgan qaysi ta'rifni mukammal deb bilasiz?**

A) til birliklarining shaklan teng kelishiga omonimlar deyiladi.

B) til birliklaring tasodifan shakl jihatdan teng kelishiga omonimlar deyiladi.

D) barcha grammatik shakllarda teng keluvchi so'zlar omonimlar deyiladi.

E) bir tushuncha hodisa, predmet yoki belgini ifodalovchi so'zlarga omonimlar deyiladi.

**50. Antonimga berilgan qaysi javob to'g'ri?**

A) qarama - qarshi ma'nolari bilan guruhlanuvchi so'zlar antonimlar deyiladi.

B) turli ma'no ottenkalarini va ekspressiv – stilistik bo'yolarni farqlash uchun xizmat qiluvchi so'zlar antonimlar deyiladi.

D) talaffuzi va yozilishi bir xil bo'lgan, lekin boshqa – boshqa ma'noni bildirgan so'zlar antonimlar deyiladi.

E) bir xil tushunchani ifodalab kelsa ham, ma'no nozikligi bilan bir – biridan ajralib turadigan so'zlar antonimlar deyiladi.

**51. Tabuga berilgan qaysi ta'rifni to'g'ri deb hisoblaysiz?**

A) dag'al, qo'pol, noqulay so'zlarni yoqimliroq, silliqroq so'zlar bilan almashtirish hodisasi tabu deyiladi.

B) man' etilgan so'zlar o'rniga boshqa so'zlarni ishlatish tabu deyiladi.

D) kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ba'zi bir narsalarning man etilishiga tabu deyiladi.

E) tabu etnik tushuncha bo'lib, qandaydir predmetning, harakatining nomini aytishni man' qilinishidir.

**52. Qanday so'z shakllarining yig'indisi grammatik kategoriyalar deyiladi?**

A) bir turdagi grammatik hodisalarning yig'indisi – grammatik jihatdan bir turni tashkil qilib kelgan so'zlar va so'z shakllarining yig'indisi grammatik kategoriyalar deyiladi.

B) gapda so'zlarning sintaktik bog'lanishlarini ifodalovchi affikslar grammatik kategoriyalar deyiladi.

D) so'z shakllarining yig'indisi grammatik kategoriyalar deyiladi.

E) bir turdagi grammatik hodisalarning yig'indisiga grammatik kategoriyalar deyiladi.

**53. Qaysi qatorda qo'shma so'zlarning yig'indisi to'g'ri berilgan?**

A) ko'zoynak, xursand, tozalik.

B) yoshlik, go'zallik, tezlik, yaxshilik.

D) oshqozon, ishbuzar, ozodlik.

E) oshqozon, ishbuzar, ko'zoynak, muzyorar.

**54. So'zlarning sintaktik munosabati qaysi vositalar orqali amalga oshiriladi?**

A) affikslar, yordamchi so'zlar, so'z tartibi.

B) affikslar, yordamchi so'zlar, so'z tartibi, pauza, logik urg'u.

D) so'z birikmasi, affikslar, yordamchi so'zlar.

E) affikslar, so'z tartibi, intonastiya.

**55. «Tilshunoslik asoslari» fani nimani o'rgatadi?**



A) «Tilshunoslik asoslari» fani tilshunoslikda ishlatiladigan terminlar, ularning etimologiyasini o‘rgatadi.

B) bu fan tilning mohiyati, paydo bo‘lishi, jahon tillarining tasnifini o‘rgatadi.

D) bu fan tilning jamiyat, til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatini o‘rgatadi.

E) «Tilshunoslik asoslari» fani tilshunoslik ilmida qo‘llanadigan terminlar, ularning etimologiyasi, ma’nosi, tilning mohiyati va jamiyatdagi o‘rni, til va taraqqiyoti qonunlari va bosqichlari, tillarning paydo bo‘lishi va tasnifi kabi masalalarni o‘rgatadi.

**56. «Tilshunoslik asoslari» fani qanday fanlar bilan bog‘liq?**

A) «Tilshunoslik asoslari» fani tabiiy fanlar bilan bog‘liq.

B) bu fan ijtimoiy fanlar bilan bog‘liq.

D) bu fan falsafiy fanlar bilan bog‘liq.

E) «Tilshunoslik asoslari» fani barcha ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan bog‘liq.

**57. Tilga berilgan qaysi ta’rif mukammal?**

A) Til o‘ziga xos semiologik sistema (ya’ni ishoralar sistemasi) bo‘lib, jamiyatda asosiy va eng muhim fikr almashish quroli, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta’minlovchi, avloddan – avlodga madaniy – tarixiy an’analarni etkazuvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

B) «Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir».

D) «Til odam ongining ishtirokisiz, uning tashqi dunyoga nisbatan bo‘lgan, mexanik harakatidir» (L.Blumfeld).

E) «Til fikrni ifoda qilishga mo‘ljallangan, talaffuz qilinadigan, chegaralangan tovushlar majmuidir» (B.Grosse).

**58. Til qanday hodisa?**

A) til – biologik hodisa.

B) til – ijtimoiy hodisa.

D) til – ruhiy (psixik) hodisa.

E) til – tabiiy hodisa.

**59. Til va tafakkurning munosabati qanday?**

A) til va tafakkur boshqa – boshqa hodisadir.

B) til va tafakkur chambarchas bog‘liq hodisadir.

D) til va tafakkur bir vaqtda paydo bo‘ladi, birga rivojlanadi, biri ikkinchisiz yashay olmaydi.

E) «Bo‘lajak til tabiiy materiyadan holi bo‘lgan, texnikada o‘sib borayotgan tafakkurdir» (N.Ya.Marr).

### **60. Til qanday paydo bo‘lgan?**

A) til tovushga taqlid qilish tufayli paydo bo‘lgan, chunki tilimizdagi *qarg‘a, miyov-miyov, tag-tug, sharshara* kabi so‘zlar tovushlarga taqliddan vujudga kelgan.

B) til ibtidoiy odamlarning ichki kechinmalarini ifodalash uchun chiqargan *oh, uh, eh* kabi so‘zlar asosida paydo bo‘lgan, haqiqatdan, tilimizda shunday so‘zlar juda ko‘p.

D) til odamlar jamoa bo‘lib mehnat qilayotganlarida mehnatni tashkil etishda foydalanilgan tovushlar asosida paydo bo‘lgan.

E) til mehnat jarayonida paydo bo‘lgan. Avvalo mehnat, so‘ngra u bilan birga buro-burro so‘zlashga ikkita eng muhim sabab bo‘ladiki, bu sabablar ta’siri ostida miya sekin-sekin rivojlanib, ong o‘sadi.

### **61. Til taraqqiyoti bosqichlariga ko‘ra qanday tillar paydo bo‘lgan?**

A) urug‘ tillari paydo bo‘lgan.

B) urug‘larning birlashishi tufayli qabila tillari vujudga kelgan.

D) qabila ittifoqi tilni paydo qilgan.

E) jamiyatning muayyan tarixiy sharoitga ko‘ra urug‘, qabila, elat va millat tillari paydo bo‘lgan.

### **62. Substrat va superstat nima?**

A) substrat – tag qatlam, superstat – ustki qatlamdir, substrat va superstat mag‘lub til bilan g‘olib til o‘rtasidagi munosabatdir.

B) bir tildan ikkinchidan tilga so‘z o‘zlashtirish tufayli substrat va superstat hodisalari yuz beradi.

D) kelgindilar tili mahalliy tilni siqib chiqaradi va chiqib ketayotgan til kelgindilar tiliga sezilarli ta’sir o‘tkazdi. Yoki kelgindilar tili mahalliy tilni siqib chiqarmaydi, ammo unga sezilarli ta’sir o‘tkazdi. Birinchisi – substrat, ikkinchisi – superstratdir.

E) hamma javoblar to‘g‘ri.

### **63. Leksikologiya nimani o‘rganadi?**

A) leksikologiya soʻz haqidagi fandır.

B) leksikologiyada soʻzning maʼnosi, uni atash funksiyasi, maʼno va shakl munosabatiga koʻra turlari, etimologiya, soʻz maʼnosining taraqqiyoti, tilning lugʻat sostavini oʻrganadi.

D) leksikologiyada frazeologiya oʻrganiladi.

E) leksikologiyada lugʻat sostavi oʻrganiladi.

**64. Soʻzning morfologik tarkibi nimalardan tuzilgan?**

A) soʻz boʻgʻinlardan tuzilgan.

B) soʻz tovushlardan tuzilgan.

D) soʻz oʻzak va affiks morfemalardan tuzilgan.

E) soʻz negiz va qoʻshimchalardan tuzilgan.

**65. Soʻz yasash qanday usullar bilan amalga oshiriladi?**

A) soʻz leksik va sintetik usul bilan yasaladi.

B) soʻz qoʻshimchalari yordamida hosil boʻladi.

D) soʻz suffikslar bilan yasaladi.

E) soʻz prefikslar yordami bilan yasaladi.

**66. Grammatik maʼno qanday ifodalanadi?**

A) grammatik maʼno analitik usul bilan ifodalanadi.

B) grammatik maʼno sintetik usul bilan ifodalanadi.

D) grammatik maʼno qoʻshish usuli bilan ifodalanadi.

E) ammatik maʼno affiksastiya, takror, suppetelevizm, urgʻu, fleksiya, soʻz tartibi, yordamchi soʻzlar orqali ifodalanadi

**67. Qanday grammatik kategoriyalar bor?**

A) soʻz turkumlari kategoriyalari.

B) feʼl kategoriyalari.

D) grammatik rod, kelishik, son, zamon kategoriyalari.

E) ot va sifat kategoriyalari.

**68. Sintaksis nimani oʻrganadi?**

A) sintaksis gap tuzilishini oʻrganadi.

B) sintaksis - soʻz birikmasi haqidagi taʼlimot.

D) sintaksis gap va uning turlari, gaplarning tasnifi, soʻz birikmalari, gap boʻlagining turlari, gapda soʻzlarning bogʻlanish yoʻllarini oʻrganadi.

E) sintaksis gap tuzishni oʻrganadi.

**69. Tillar qanday tasnif qilinadi?**

A) tillar oʻzak tillar jihatidan tasnif qilinadi.

B) tillar soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshilishi jihatidan tasnif qilinadi.

D) tillar morfologik va genealogik jihatdan tasnif qilinadi.

E) tillar amorf, flektiv va agglyutinativ tillarga boʻlinadi.

**70. Yozuvning qanday turlari mavjud?**

A) yozuvning piktografik turi mavjud.

B) yozuvning kirillista, arabcha va ruscha turlari mavjud.

D) yozuvning piktografik, ideografik, ieroglifik, fonetik, mixxat turlari mavjud.

E) yozuvning ideografik turi mavjud.

**71. Qanday maxsus yozuv turlarini bilasiz?**

A) arabcha, ruscha, inglizcha, nemischa turlari mavjud.

B) transkripsiya, transliteratsiya, stenografiya turlari mavjud.

D) orfografiya – toʻgʻri yozuv turlari mavjud.

E) oʻngdan chapga va chapdan oʻngga yozadigan turlari mavjud.

**72. Orfografiya nima?**

A) orfografiya – toʻgʻri yozish haqidagi fan.

B) orfografiya soʻzlarni toʻgʻri yozish qoidalarini oʻrgatadi.

D) orfografiyaning fonetik, morfologik, tarixiy traditsion, grafik, etimologik prinsiplari boʻlib, har birida soʻzlarni toʻgʻri yozishning turli qoidalari berilgan.

E) orfografiyada imlo qoidalari oʻz ifodasini topadi.

**73. Oʻzbek tilida unli va undosh tovushlar nechta?**

A) unli va undosh tovushlar ovozli va shovqinli tovushlardir, unli tovushlar 6 ta, undosh tovushlar 25 ta.

B) toʻsiqqa uchraydigan va uchramaydigan tovushlar unli va undosh tovushlar deyiladi.

D) unli tovushlar sistemasi vokalizm, undosh tovushlar sistemasi konsonantizm deb ataladi.

E) unli tovushlarni istagancha cho‘zish mumkin, undoshlar shovqinlidir.

**74. Gapda so‘zlarning quyidagi bog‘lanish usullaridan qaysi biri o‘zbek tilida mavjud?**

A) moslashuv.

B) boshqaruv.

D) bitishuv.

E) A, B va D javoblar to‘g‘ri.

**75. Til va boshqa aloqa vositalari orasidagi o‘xshashlik qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

A) ijtimoiy, chunki jamiyat tomonidan yaratilib, unga xizmat qiladi.

B) har ikkalasida ko‘lami cheklangan.

D) quruq axborotni etkazadi.

E) ular insonning istak - xohishiga bog‘liq bo‘ladi.

**76. Fikrni mujassamlashtiruvchi, uni moddiy shaklga soluvchi manba nima?**

A) yozuv.

B) tovushlar tizimi.

D) til.

E) ilm-fan.

**77. O‘zbek adabiy tili asosan qaysi shevalarga asoslangan?**

A) Andijon, Toshkent, Farg‘ona.

B) Xorazm, Toshkent.

D) Xorazm, Surxondaryo, Farg‘ona.

E) Fag‘ona, Buxoro.

**78. Tillarning chatishuviga keskin ta’sir qiladigan, lekin etakchi tilni siqib chiqara olmaydigan hodisaning nomini ayting?**

A) substrat.

B) superstrat.

D) sub’ektiv.

E) substropik.

**79. Avgust Shleyxer fikriga zid bo'lgan fikrni ko'rsating?**

- A) til-biologik hodisa.
- B) til-tabiiy hodisa.
- D) til-ijtimoiy hodisa.
- E) til - o'zgaras dogma.

**80. Avgust Shleyxer asos solgan g'oyani ifodalovchi fikrni ko'rsating?**

- A) til tirik organizm kabi tug'iladi, yashaydi va oxiri o'ladi.
- B) til jamiyatda paydo bo'ladi.
- D) til - ilohiy.
- E) til- sun'iy hodisa.

**81. Tovushlarning yozuvdagi ifodasi qanday ataladi?**

- A) takt.
- B) harf.
- D) talaffuz.
- E) bo'g'in.

**82. Unli va undoshlarning kelishiga qarab bo'g'in turlarini ayting.**

- A) yopiq, ochiq, berkitilgan, berkitilmagan.
- B) berkitilgan ochiq, berkitilgan yopiq, berkitilmagan ochiq, berkitilmagan yopiq.
- D) urg'uli, urg'usiz.
- E) cho'ziq, qisqa.

**83. Nutqning fonetik bo'linishi nimalardan iborat?**

- A) fraza, takt, bo'g'in va tovush.
- B) gap, so'z, harf.
- D) tovushlar tizimi.
- E) sodda gap, qo'shma gap.

**84. Akkomodatsiya nima?**

- A) yonma-yon turgan unli va undoshlarning moslashuvi.
- B) tovush tushishi.
- D) tovush orttirilishi.

E) tovush almashinuvi.

**85. Assimilyatsiya nima?**

A) assimilyatsiya tovush tushishi.

B) assimilyatsiya tovush ortirilishi.

D) assimilyatsiya undosh tovushlarning biri ikkinchisiga o'xshab ketishi.

E) yonma-yon turgan unli va undoshlarning moslashuvi.

**86. Singarmonizm nima?**

A) birinchi unliga keyingi unlilarning ohanglashuvi.

B) undosh tovushlarning biri ikkinchisiga o'xshab ketishi.

D) tovush tushishi.

E) tovush ortirilishi.

**87. Redukstiya nima?**

A) urg'u tushgan unlining kuchli va cho'zib talaffuz qilinishi.

B) urg'u tushmagan unlining qisqa talaffuz qilinishi.

D) urg'u o'rning ko'chishi.

E) urg'uning bir turi.

**88. Komyuter lingvistikasi nima?**

A) tilshunoslikning til birliklari kelib chiqishini o'rganuvchi sohasi  
tilshunoslikning joy nomlarini o'rganuvchi bo'lim.

B) leksikologiyaning o'zaro-alloqa-aralshuvda imo- ishora, mimika nutq vaziyati kabi omillarni o'rganuvchi soha.

D) amaliy tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, matnga kompyuter yordamida ishlov berish bilan bog'liq vazifalarni bajaradi.

E) to'g'ri javob ko'rsatilmagan.

**89. Morfologik klassifikatsiyada qanday belgilarga e'tibor beriladi?**

A) tilning kelib chiqishiga ko'ra.

B) tillarning qarindoshligiga ko'ra.

D) tillarning o'zaro aloqasiga ko'ra.

E) tillarning grammatik qurilishiga ko'ra.

**90. Quyidagi ko'rsatilgan hususiyatlardan qaysi biri frazeologik birikmalarga xos?**

- A) nutq jarayonida hosil qilinadi.
- B) lug‘aviy birlik hisoblanadi.
- D) tarkibidagi har bir mustaqil so‘z gapning ma’lum bir bo‘lagi bo‘lib keladi.
- E) obrazlilik kuchli bo‘ladi, xotirada xuddi so‘zlar singari bir butun holda saqlanadi.

**91. “Nasriddinovning hovlisida beminnat xizmat qiladi, bog‘-chorbog‘dan, chorvasidan xabar oladi (Nasriddinovning «xobbisi» bir juft qo‘y, o‘n-o‘n besh tovuq boqish edi)”. Qavs ichidagi gap ...**

- A) ajratilgan izohli bo‘lak.
- B) kirish birikma.
- D) kirish gap.
- E) uyushiq bo‘laklar.

**92. Lingvistikaning qanday turlari mavjud?**

- A) ichki, tashqi, dinamik, statik, sinxron, diaxron, matematik va b..
- B) etimologik lingvistika.
- D) etnografik lingvistika.
- E) toponimik lingvistika.

**93. Nutq nima?**

- A) tildan fikr almashuv maqsadida foydalanish jarayoni.
- B) tildagi xotira.
- D) sintaktik ifoda turi.
- E) lingvistikaning bir bo‘limi.

**94. “Adashgan it kabi Furqat qayon borgum bilolmasman” gapida so‘z ma’nosi ko‘chishining qaysi turi qo‘llangan?**

- A) sinekdoxa.
- B) metonimiya.
- D) metafora.
- E) funksiyadoshlik .

**95. Tambur-tanbur, Manba-mamba, O‘nbesh-o‘mbesh, Sunbul-sumbul kabi so‘zlarning talaffuzi va imlosiga taalluqli bo‘lgan qanday fonetik hodisa ro‘y bergan?**

- A) tovush orttirilishi.



- B) tovush tushishi.
- D) tovush almashinishi.
- E) tovush moslashishi.

**96. Bekorchidan el bezor. Bekor-o‘zak, -chi so‘z qo‘shimcha, bekorchi - negiz, dan - so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha). Ushbu tahlil tahlilning qaysi turiga kiradi?**

- A) so‘z yasaliş tahlili.
- B) so‘z turkumi tahlili.
- D) etimologik tahlil.
- E) sintaktik tahlil.

**97. Ko‘rsatilgan tillarning qaysi biri sun‘iy til?**

- A) o‘zbek tili, rus tili.
- B) tatar tili, yapon tili.
- D) lingva, ido, oskidental, esperanto.
- E) hind tili, lotin tili.

**98. Leksikologiyada qaysi so‘zlarning lug‘aviy ma‘nolari o‘rganiladi?**

- A) faqat shevaga xos so‘zlarning.
- B) faqat terminlarning.
- D) tildagi barcha so‘zlarning.
- E) faqat yangi paydo bo‘lgan va eskirib qolgan so‘zlarning.

**99. So‘zlarning ko‘chma ma‘nosi qaysi lug‘atda izohlanadi?**

- A) ensiklopedik lug‘atda.
- B) imlo lug‘atida.
- D) frazeologik lug‘atda.
- E) izohli lug‘atda.

**100. Sema nima?**

- A) o‘zak morfema.
- B) ma‘no bo‘lakchalari.
- D) qo‘shimcha.
- E) ko‘chma ma‘no.

**101. Xalqaro tillar qaysi qatordagi javobda aks etgan?**

- A) ingliz, fransuz, rus, ispan, arab, xitoy tillari.
- B) o'zbek, usmonli turk, qozoq, qirg'iz, ozarbayjon, rus tillari.
- D) ingliz, nemis, yapon, italyan, polyak, rus tillari.
- E) lotin, xind, eron, xitoy, rus, ingliz tillari.

**102. Semema nima?**

- A) leksemaning mazmun tomoni.
- B) leksemaning shakl tomoni.
- D) ko'chma ma'no.
- E) pragmatik ma'no.

**103. Qaysi qo'shimchalar so'zga yangi lug'aviy ma'no beradi?**

- A) old qo'shimchalar.
- B) shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar.
- D) turlovchi qo'shimchalar.
- E) to'g'ri javob berilmagan.

**104. Sinonim so'zlardan yasalgan juft otlar qatorini ko'rsating.**

- A) or-nomus, baxt-iqbol.
- B) hovli-joy, oyoq-qo'l.
- D) mehr-oqibat, qut-baraka.
- E) kuch-quvvat, baxt-saodat.

**105. Til birliklari qaysilar?**

- A) so'z, so'z birikmasi, gap.
- B) fonema, morfema, leksema, model.
- D) jumla, mikro va makromatn.
- E) fonema, morfema, leksema, so'z birikmasi.

**106. O'z so'zlar qatorini ko'rsating.**

- A) boks, tomat, salat.
- B) baxt, aka, tom.
- D) sehrigar, bosh, og'a.
- E) futbol, palto, vergul.

**107. Eskirib qolgan so'zlar qatorini toping.**

- A) baynalmilal, vazir, qalam.
- B) g'or, o'ra, chuqurlik.
- D) qit'a, charx, chig'iriq.
- E) paranji, charx, chig'iriq.

**108. O'zakkdosh so'zlarni toping.**

- A) taxmin, taxmon, taxminiy.
- B) ko'z, ko'zgu, ko'za.
- D) so'zing, so'z, so'zim.
- E) betinim, tindi, tinch.

**109. Nutq birliklari qaysilar?**

- A) fonema, morfema, leksema, qolip (qurilma, model).
- B) jumla, mikro va makro matn.
- D) tovush, so'z, so'z birikmasi, gap (sodda va qo'shma gap), matn.
- E) so'z, so'z birikmalari.

**110. Metonimiya asosida ma'no ko'chgan so'z qo'llangan gapni toping.**

- A) Mehmon kirishi bilan zal oyoqqa turadi.
- B) Bahor kelinchakdek yasanib keldi.
- D) Besh qo'l barobar emas.
- E) Ma'naviy barkamol inson komil inson bo'ladi.

## **Ilmiy-metodologik manbalar**

**1.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.**

2.Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni. 07.02.2017. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 28-(6722) soni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 21-aprel.

## **Foydalaniladigan adabiyotlar**

- 4.Азизов О. Тилшуносликка кириш.-Тошкент, 1996.
- 5.Абдуазизов А. Тилшуносликка кириш. I қисм. Фонетика ва фонология. – Тошкент,1999.
6. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent,2010.
- 7.Абдуазизов А.А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси-Тошкент: Университет, 2010.
- 8.БелянинВ.П. Психоллингвистика.-М.:Флинта, 2003.
- Bushuy T.A. Sinxronik va diaxronik tilshunoslik.-Samarqand:SamDChTI,
- 9.Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. - Тошкент: Фан, 2007.
- 10.Vrabel T.T. Lectures in theoretical phonetics of the english language and method-guides for seminars, poliprintungvár, 2009.-P.12.
- 11.Writing and Language.In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P.65-68.
- 12.Дадабоев Х.А. Тилшунослик назарияси ва методологияси.-Toshkent, 2004.
- 13.Филин Ф.П. Очерки по теории языкознания. -М., 1982.
- 14.ГельбИ.Е. Опытизученияписьма (Основыграмматологии)-М., 1982.

15. Герд А.с. Введение в этнолингвистику. Изд. Санкт-Петербургского Университета. 2005, -с. 7.
16. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent, 2009
- 17.Исмоилов Б. Дунёни билишда тил ва тафаккур бирлиги.-тошкент, 1966.
- 18.Исҳоқов М.Мангу битиглар.-Тошкент, 2009.
- 19.Историяписьма.-М.,1979.
- 20.ЖуравлевВ.К. Внешниеивнутренниефакторыязыковойэволюции.-М.,1982.
- 21.Jurafskiy D. & James H. Martin.Speech and Language Processing: An introduction to natural language processing, computational linguistics and speech recognition (2007).
- 22.Ҳо‘лдошев И. ва бoshqalar. Tilshunoslikka kirish (darslik). -Toshkent, 2013.
- 23.Linguistics:The Scientific Study of Human Language.2006.
- 24.Лингвистическийэнциклопедическийсловарь.-М.,1990.
- 25.Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-издание. –М.:Academia,2004.
- 26.Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ.-Тошкент, 1993.
- 27.Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001.
- 28.Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. -Тошкент. Фан. 2008.
- 29.Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. - Т.: Fan, 2008.
29. Nurmonov A. Lingvistik tadqiq vetodologiyasi va metodlari.-Т, 2011
- 30.ПоливановЕ.Д. Введениевязыкознаниедлявостоковедныхвузов. Изданиевторое.- М.:УРСС, 2002.
- 31.Пўлатов А.Компьютер лингвистикаси. -Тошкент, 2011.
- 32.Rasulov R. Umumiy tilshunoslik.-Toshkent, 2013
- 33.Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili lug‘atining turkiy qatlami.-Т., 2001.
- 34.Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari.-Т.,2002.
- 35.Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. Тил қурилишини тизимсифатида ўрганиш масалалари. -Тошкент: Университет, 2007

- 36.Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили.-Тошкент: Mumtozso‘z, 2010.
- 37.Richter B. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006
- 38.РеформатскийА.А. Введениевязыковедение. 3-издание.-М.,2004.
- 39.Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari uchun darslik.-Т.: “O‘qituvchi”, 1981.
- 40.Scovel Th. Psycholinguistics. Oxford Univ. Press, 1998, p.4.
41. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах: Сангдор, 2006.
- 42.Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики.-М.: УРСС, 2004.
- 43.Ф.деСоссюр. Труды по языкознанию.-М.,1977.
- 44.Шайкевич А.Я., Абдуазизов А.А., Гурджиева Е.А. Введение в языкознание.-Т.: Ўқитувчи, 1989.
- 45.Щитка Н.Н., Юсупова К.Н. Введение в языкознание.-Тошкент, 2006.
- 46.Якушин Б.В. Гипотезы о происхождении языка.,-М.,1984.
- 47.Ножиёв А. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-Т., 2002.

#### **Internet saytlari:**

1. <http://www.kv.minsk.by/index1999262201.htm>.
2. <http://www.iitp.ru/iitp/lab15htm>.
3. <http://www.rsuh.ru/dl/glava10rihgt9.htm>.
4. <http://www.ce.cctpu.edu.ru/msclub/systems/epstn.htm#5>.
5. [www.krugosvet.ru](http://www.krugosvet.ru)
6. <http://en.wikipedia.org>. Computational linguistics.
7. <http://www.redaktoram.ru>

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-§.“Mutaxassislikka kirish” fanining o‘rganish obyekti, maqsad va vazifasi....	
2-§.Tillarning shakllanishi va rivojlanishi.....	
3-§.Til – eng muhim muloqot vositasi.....	
4-§.Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqligi.....	
5-§. Til tizimi va <b>уНИНГ</b> taraqqiyot qonuniyatlari.....	
6-§.Til va tafakkur <b>munosabati</b> .....	
7-§.Til va madaniyat <b>munosabati</b> .....	
8-§.Yozuv kishilik madaniy taraqqiyoti mahsuli sifatida.....	
9-§.Til – belgilar tizimi.....	
10-§.Tilshunoslik va uning bo‘limlari.Fonetika va fonologiya.....	
11-§. Leksikologiya va leksikografiya.....	

12-§.Grammatika va uning bo‘limlari. Morfologiya va sintaksis.....	
13-§.Dunyotillarining genealogik tasnifi. Til oilalari.....	
14-§.Morfologik tasnif. Agglyutinativ va flektiv tillar	
15-§.Lingvistika turlari va lingvistik metodlar haqida boshlang‘ich ma’lumotlar.....	
16-§.Tilshunoslik va boshqa fanlar integratsiyasi .....	
“Mutaxassislikka kirish” fanidan test savollari.....	

## С о д е р ж а н и е

Введение .....	
1-§.Объект изучения, цели и задачи предмета «Введение в специальность».	
2-§.Формирование и развитие языков.	
3-§.Язык - как важнейшее средство общения.	
4-§. Связь развития языка с развитием общества	
5-§.Языковая система и закономерности ее развития	
6-§. Отношение языка и мышления (связь)	



7-§. Отношение языка и культуры	
8-§. Письмо – как результат культурного развития человечества	
9-§. Язык – как система знаков	
10-§. Лингвистика и разделы языкознания. Фонетика и фонология	
11-§. Лексикология и лексикография	
12-§. Грамматика и её разделы. Морфология и синтаксис	
13-§. Генеалогическая классификация языков. Языковые семьи	
14-§. Морфологическая классификация языков. Агглютинативные и флективные языки.....	
15-§. Первоначальные сведения о видах лингвистики и лингвистических методах	
16-§. Интеграция языкознания и других наук.....	
Тесты по предмету «Введение в специальность».....	

## CONTENT

<b><i>Introduction</i></b>	
1-§. The object, aim and tasks of the subject “Introduction to speciality”	
2-§. The formation and development of languages	
3-§. The language is the main tool of communication	
4-§.The relation of language development with the development of society	
5-§. Language system and principles of development	
6-§. The correlation of language and thought	
7-§. The correlation of language and culture	
8-§. Writing as a product of human culture development	
9-§. Language is the system of signs	
10-§. Linguistics and its branches. Phonetics and phonology	
11-§.Vocabulary stock of the language. Lexicology and lexicography	
12-§. Grammar and its branches. Morphology and syntax	
13-§. Genealogical classification of languages. Language families	
14-§. Morphological classification. Agglutinative and fleective languages	
15-§. Preliminary remarks on types of linguistics and linguistic methods	
16-§. The integration of linguistics with other subjects	
Test on “ Introduction to speciality ”	

## **Mualliflar haqida ma'lumot**

**Ibrohim Yo'ldoshev** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

**Muhamedova Saodat**– Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

**Xolmanova Zulxumor** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

**Majidova Ra'no** – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Umumiy tilshunoslik” kafedrasida mudiri, filologiya fanlari nomzodi.

**Sultonova Shoista** - O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Umumiy tilshunoslik” kafedrasida

